

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVESITETI**

**A.PARDAYEV, D.B.URINBAYEVA
D.A.ISLAMOVA**

**O'ZBEK
TERMINOLOGIYASI**
(O'quv qo'llanma)

SAMARQAND – 2020

A.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova. O'zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 260 bet.

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi,dots. **O.Yusupova**

Taqrizchilar: f.f.n. **Sh.Mahmadiyev**

f.f.d. **X.Xayrullayev**

Qo'llanmaning maqsadi. Oliy ta'lif muassasalari filologiya fakulteti bakalavr yo'nalishi talabalarining tilshunoslikda terminlardan unumli foydalanishlari hamda o'zbek terminologiyasi masalalari – terminologiya va terminosistema, terminlarning taraqqiyot bosqichlari, terminlarning lug'atlardagi o'rni kabi nazariy bilimlarini shakllantirish va o'z yo'nalishlari bo'yicha amalda qo'llashga oid ko'nikmalarni hosil qilish, fanni innovatsion pedagogik texnologiyalardan, PIZA testlaridan foydalanish orqali tanishtirish, shuningdek, amaliyotda qo'llay olishlariga zamin yaratishni nazarda tutadi.

Qo'llanmaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- «O'zbek terminologiyasi» fani predmeti, vazifalari, terminologiyaning ijtimoiy va tabiiy fanlar orasidagi o'rni va mohiyati, mavzuga doir tadqiqotlar bilan tanishish, terminologiya shakllanishi va taraqqiy etishida birinchi galda jamiyatning ijtimoiy darajasi, iqtisodiy vaziyati bilan bog'liqligi,

- o'zbek tili leksikografiyasi va terminologiyasi taraqqiyotini uch katta bosqichga bo'lib tahlil qilish zarurligi, o'zbek terminologiyasining o'zbek tili ichki resurslari, qonun-qoidalari negizida taraqqiy etishi, o'zbek terminologiyasining boshqa tillardan so'z-termin o'zlashtirish hisobiga boyishi, terminologiyaning rivojlanishida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o'rni, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish;

- kasbiy faoliyat olib borish maqsadida zamonaviy terminologik manbalardan unumli foydalanish;

- leksikografiya va terminologiya sohalarida voqelanayotgan yangi tendensiyalarni tushunish;

- zamonaviy terminologiyada kechayotgan jarayonlarni farqlash ko'nikmalarini shakllantirish;

- yangi xorijiy va milliy adabiyotlar asosida yangi terminologiyalarni o'zlashtirish;

- mazkur yo'nalish doirasida talabalarning mustaqil amaliy faoliyatini tashkil etish, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish, fanning istiqboli, dolzarb masalalariga doir fikrlar bildirish va tadqiqot olib borish malakalarini egallashini ta'minlash.

Qo'llanmada innovatsion pedagogik texnologiyalar va PIZA testidan foydalanilgan holda mashg'ulot o'tkazish uslubiyatini har bir pedagog o'z o'qitayotgan fani va predmetining mazmuni, maqsadi, mavjud sharoiti, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki shu texnologiyalar asosida

o'zlarining texnologiyalarini yaratishi va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma oliv va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, umumiy o'rta ta'limga muassasalari pedagoglari, terminologiya fanini o'qitish muammolari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Цели учебного пособия. Студентам-бакалаврам филологического факультета высших учебных заведений предоставляют теоретические знания по использованию терминов в лингвистике, а также по вопросам узбекской терминологии - терминология и терминосистема, этапы развития терминологии, роль терминов в словарях и т.д. обеспечит навыки для практики, представит науку с помощью инновационных педагогических технологий, тестов PIZA и дает им возможность применять их.

Задачи учебного пособия заключаюся в следующем:

- предмет, задачи предмета «Узбекская терминология», роль и значение терминологии в социальных и естественных науках, знакомство с научными исследованиями, формирование и развитие терминологии зависит, прежде всего, от социального статуса, экономического положения общества;

- должны иметь знания о необходимости анализа развития узбекской лексикографии и терминологии в три основных этапа, развитие узбекской терминологии на основе внутренних ресурсов и правил узбекского языка, обогащение узбекской терминологии путем использования словообразования в других языках, роль научно-технического прогресса в развитии терминологии, лексико-семантические процессы терминов, урегулирование и координация терминов;

- эффективное использование современных терминологических ресурсов для профессиональной деятельности;

- понимают новые тенденции в лексикографии и терминологии;

- имеют навыки дифференцирования процессов в современной терминологии;

- разработка новой терминологии на основе новой зарубежной и отечественной литературы.

В этой области студенты должны обладать навыками организации самостоятельной практической работы студентов, обобщения теоретической информации, выражения своих взглядов по актуальным вопросам науки и проведения исследований.

В учебном пособии инновационные педагогические технологии и методика преподавания с использованием теста PIZA могут быть изменены или изменены каждым учителем в зависимости от содержания, цели, условий, возможностей и потребностей учащихся. Технологии для создания собственных технологий и использования их в учебном процессе.

Этот учебник предназначен для широкой публики, учителей среднего и высшего профессионального образования, общего среднего образования, а также для общих читателей, интересующихся проблемами терминологии.

Objectives of the manual. Bachelor students of the Faculty of Philology of higher educational institutions are provided with theoretical knowledge on the use of terms in

linguistics, as well as on Uzbek terminology - terminology and terminology, stages of development of terminology, the role of terms in dictionaries, etc. provide skills for practice, present science through innovative pedagogical technologies, PIZA tests and give them the opportunity to apply them.

The objectives of the training manual are as follows:

- the subject, objectives of the subject «Uzbek terminology», the role and importance of terminology in the social and natural sciences, familiarity with scientific research, the formation and development of terminology depends, first of all, on the social status and economic status of society;

- must have knowledge about the need to analyze the development of Uzbek lexicography and terminology in three main stages, the development of Uzbek terminology based on internal resources and rules of the Uzbek language, enrichment of Uzbek terminology through the use of word formation in other languages, the role of scientific and technological progress in the development of terminology, vocabulary semantic processes of terms, regulation and coordination of terms;

- the effective use of modern terminological resources for professional activities;
- Understand new trends in lexicography and terminology;
- have the skills of differentiating processes in modern terminology;
- development of new terminology based on new foreign and domestic literature.

In this area, students should have the skills to organize independent practical work of students, summarize theoretical information, express their views on pressing issues of science and conduct research.

In the textbook, innovative pedagogical technologies and teaching methods using the PIZA test can be changed or changed by each teacher depending on the content, purpose, conditions, capabilities and needs of students. Technologies for creating own technologies and using them in the educational process.

This textbook is intended for the general public, teachers of secondary and higher professional education, general secondary education, as well as for general readers interested in problems of terminology.

Samarqand Davlat universiteti kengashining 2020 yil 30 oktyabrdagi 3-bayon nomma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-6649-5-1

© Samarqand Davlat universiteti, 2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	8
I. «O'ZBEK TERMINOLOGIYASI» FANI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	11
1.1. «O'zbek terminologiyasi» fan sifatida.....	11
1.2. «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti, maqsad va vazifalari.....	18
1.3. «O'zbek terminologiyasi»ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.....	21
1.4. Terminologiya tarmoqlari.....	24
II. O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI	36
2.1.O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari. Qadimgi turkiy til terminologiyasi.....	36
2.2.Eski turkiy til terminologiyasi.....	57
2.3.Eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi.....	67
2.4.Sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi.....	78
2.5.Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi.....	89
III.O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA LINGVISTIK MASALALAR	108
3.1. Termin va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	108
3.2. Termin, so'z va nom.	119
3.3. Terminlarning nominativ vazifasi.	137
3.4. Termin, obrazli so'z va metafora.	144
3.5. O'zbek terminologiyasida dubletlik.	154
IV.O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING YASALISHI MASALALARI...166	
4.1. Terminlarning struktur tuzilishi.	166
4.2. Qo'shma terminlarning xususiyatlari.	176
4.3. Birikma va murakkab terminlar.	184
4.4. Terminlarning yasalish usullari.	201
4.5. Terminlarning o'zgarishi.	209
V. O'ZBEK TERMINOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	215
5.1. Terminologik lug'atlar.	215
5.2. Terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish masalasi.	230
5.3. Sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohotlar.	244

ВВЕДЕНИЕ.....	8
I. ПРЕДМЕТ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ «УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ».....	11
1.1.«Узбекская терминология» как наука.	11
1.2.Предмет, цели и задачи «Узбекской терминологии».	18
1.3.Связь «Узбекской терминологии» с другими дисциплинами.	21
1.4.Направление исследования терминологии.....	24
II. ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ.....	36
2.1. Этапы формирования узбекской терминологии. Древнетюркская терминология.	36
2.2. Старая узбекская литературная терминология.....	57
2.3. Совецкий период узбекской терминологии.....	67
2.4. Узбекская терминология в дни независимости.....	78
III. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ.....	108
3.1. Термин и его особенности.	108
3.2. Термин, слово и имя.	119
3.3. Номинативная функция терминов.	137
3.4. Термин, образное слово и метафора.	144
3.5. Дублирование в узбекской терминологии.	154
IV. ВОПРОСЫ ТЕРМИНООБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ.....	166
4.1. Строение структуры терминов.	166
4.2. Особенности сложных терминов.	176
4.3. Комбинированные и сложные термины.	184
4.4. Методы образования терминов.	201
4.5. Изменения терминов.....	209
V. ВОПРОСЫ УПОРЯДОЧЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ.	215
5.1. Терминологические словари.	215
5.2. Регулирование и стандартизация терминологии.....	230
5.3. Реформы в области терминологии.	244

INTRODUCTION.....	8
I. SUBJECT, GOALS AND OBJECTIVES OF «UZBEK TERMINOLOGY».....	11
1.1. «Uzbek terminology» as a science.	11
1.2. The subject, goals and objectives of the "Uzbek terminology."	18
1.3. The connection of "Uzbek terminology" with other disciplines.....	21
1.4. Direction of terminology research.	24
II. STAGES OF FORMATION OF UZBEK TERMINOLOGY.	36
2.1. Stages of the formation of Uzbek terminology. Ancient Turkic terminology.	36
2.2. Ancient Turkic terminology.	57
2.3. Old Uzbek literary terminology.	67
2.4. Soviet period of Uzbek terminology.....	78
2.5. Uzbek terminology in the days of independence.	89
III. LINGUISTIC QUESTIONS IN UZBEK TERMINOLOGY.	108
3.1. The term and its features.	108
3.2. Term, word and name.	119
3.3. Nominative function of terms.....	137
3.4. Term, figurative word and metaphor.	144
3.5. Duplication in Uzbek terminology.	154
IV. ISSUES OF TERMINOLOGY OF UZBEK TERMINOLOGY.	166
4.1. The structure of the structure of terms.	166
4.2. Features of complex terms.	176
4.3. Combined and complex terms.....	184
4.4. Methods for the formation of terms.	201
4.5. Changes to the terms.	209
V. QUESTIONS ORDERING OF UZBEK TERMINOLOGY.	215
5.1. Terminological dictionaries.	215
5.2. Regulation and standardization of terminology.	230
5.3. Reforms in the field of terminology.	244

KIRISH

Terminologiya bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatuvchi oynadir. Terminologiyaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Mazkur yo'nalihsda olib borilgan tadqiqotlar o'zbek terminologiyasining, xususan, oddiy terminlar yig'indisidan muayyan bir sistema darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligi, shakllanishida, bиринчи о'rinda, o'z qatlama birliklarining o'rni beqiyos ekanligi ma'lum. Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam etgan ona tilidagi lisoniy birliklarning boyishi va bunda boshqa tillar ta'sirini nazariy tadqiq qilish tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro obro'yи oshib, dunyoning rivojlangan davlatlari, yirik siyosiy arboblari, fan, madaniyat va san'at vakillarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Mazkur holat xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan birga kechmoqda. Shu ma'noda rus, ingliz, boshqa xorijiy tillar va o'zbek tili munosabatlari, dialektlari, o'zlashma so'zları, terminologiyasi, jargon va argotizmlari masalasi, o'zbek tilidagi o'zlashma terminlar, o'zlashma so'zlar, varvarizmlarning adabiy uslubda qo'llanishi, ularning fonetik, leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish bu tillarning aloqalari masalalarini yoritishga yordam beradi.

Tilning terminologik qatlami asosiy birlik sifatida juda boy bo'lib, u turli tillar ta'sirida rivojlanib bormoqda. Mazkur mavzuda ko'plab monografiya, risola va maqolalar yaratilgan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinib, ularda terminlarning lisoniy birliklar sathida tutgan o'rni, mohiyati, mavqeい haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, jahon tilshunosligida fonetika, leksika va grammatika, terminologiya yuzasidan bir qator ishlar qilingan. E.Vyuster, X.Felber, A.Ellis, J.Rayt, K.Brunner, E.Parridj,

S.A.Chaplin, T.L.Kandelaki, G.O.Vinokur, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, I.V.Arnon, B.A.Ilish, M.M.Makovskiy, N.Dmitriyev, N.Baskakov, A.Reformaskiy, V.Danilenko va boshqa qator olimlarning xizmatlari tilshunoslikning shakllanishi, taraqqiy etishiga xizmat qilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida O.Azizov, I.Rasulov, X.Doniyorov, Sh.Rahmatullayev, H.Jamolxonov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, R.Doniyorov, N.Mamatov, S.Ibrohimov, M.Abdiyev kabilarning ishlari katta ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotgan XXI asrda xorijiy tillarning ona tilimizga ta'siri juda katta. Jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va texnikaviy o'zgarishlar o'zbek tiliga kirib kelayotgan terminologik birliklar sonining keskin ko'payishiga olib kelmoqda. Tilning statik holati uning ichki semantikasi va strukturasidagi o'zgarishlarga ta'sir qilishiga qaramasdan, bugungi o'zbek tili lug'at qatlqidagi o'zgarishlar jadal sur'atda yuz berayotganligi ko'rinish turibdi. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida o'ziga xos tarzda amalga oshirildiki, tilimizdagi yangi hodisalarga baho berishga ba'zan tilshunoslarimiz ham imkonni topmay qolishmoqda. Shu sababli terminologiyadagi keskin o'zgarishni har tomonlama o'rganish, uni tartibga solish masalalari, tillardagi terminologiya tarkibi, shakllanish jarayonlarini belgilash, terminlarning semantik, struktur va derivatsion imkoniyatlari, leksikografik talqinini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. «Fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo'lib turganini qayd etish lozim». Shunday ekan, terminologiya fanini o'rganish, tilning tafakkur

bilan bog'liq qiyoslash, tasniflash, asbtraktsiyalash, analiz va sintez jihatlari bilan aloqadorlikda nomlash natijasi sifatida yuzaga kelgan terminlar, ularning til tizimidagi o'rni, vujudga kelishining ekstralolingvistik va intralingvistik omillari, voqelanish usullarini o'rganish muhim masalalar sirasiga kiradi.

«O'zbek terminologiyasi» fani obzor xarakterga ega bo'lib, talabalarga terminologiyaga oid ilmiy-nazariy, amaliy bilimlar berish asosida ularning umumfilologik bilim saviyasini orttirishni nazarda tutadi.

Qo'llanmada fan bo'yicha amaliy va seminar mashg'ulotlarini talabalar faolligi asosida, suhbat, savol-javob, bahs-munozara tarzida o'tkazilishini, shu asosda ma'ruzalarda berilgan bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirishni nazarda tutganmiz. Shuni ham e'tirof etish lozimki, «O'zbek terminologiyasi» fanining maqsadi, vazifasi, mundarijasi shu kungacha hal qilinmagan. Shu sababli ushbu qo'llanmada ba'zi munozarali o'rinalar, kamchiliklar, to'ldirilishi lozim bo'lgan tomonlari bo'lishi mumkin. Nashr yuzasidan bildirilgan tanqidiy mulohazalar, istaklar mualliflar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

I. «O'ZBEK TERMINOLOGIYASI» FANI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. «O'zbek terminologiyasi» fan sifatida

Reja:

1. «O'zbek terminologiyasi» fan sifatida.
2. «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti, maqsad va vazifalari.
3. «O'zbek terminologiyasi»ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Terminologiya tarmoqlari.

Tayanch tushunchalar: *termin, terminologiya, atama, atamashunoslik, terminshunoslik, terminografiya, tipologik terminologiya, funksional terminologiya, semasiologik terminologiya.*

Terminologiyaning asosiy o'rganish obyekti maxsus so'zlar, maxsus leksika sanaladi. **Maxsus leksika** deganda ma'lum bir sohaga tegishli lug'aviy birlik va ularga tenglashgan birikmalar tushuniladi. Adabiyotlarda *lingvistik terminologiya, fizik terminologiya*¹ deb ham yuritiladi. A.Reformatskiy bu xususda shunday yozadi: «... terminlar – bu maxsus so'zlardir²».

A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasb-hunarga oid so'zlarni «maxsus leksika» deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi: 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U fikrini davom ettirib, «Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalism esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda

¹ Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б.129.

² Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. В сб: «Вопросы терминологии». – М., 1961. – С. 52.

tarqalgan, aslini olganda, tushuncha qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'limgan yarim rasmiy so'zdir¹», - deydi.

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda maxsus sohalarda qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari termin sifatida talqin qilinadi. Aksariyat tilshunoslар to'liq asos bilan termin, eng avvalo, til lug'aviy tizimining teng huquqli a'zosi ekanligini ta'kidlaydi². Tildagi shunday so'zlar fan, texnika, adabiyot, san'at va madaniyatga oid tushunchalarni ifoda qilib, bir ma'noda ishlatiladi. Bunday so'zlar **terminlar** deb ataladi.

Termin (lot. *terminus* – chek, chegara, chegara belgisi) - fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsiyonallikka ega bo'lmasisi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: *gap*, *ega*, *ot*, *son*, *tovush...*; geometriyaga oid terminlar: *aylana*, *uchburchak...*; fizikaga oid terminlar: *jism*, *bosim*, *harakat*, *maydon*; kimyoga oid terminlar: *suv*, *kumush*, *ishqor*, *tuzlar* va b.

Nomenlar - bu bir ma'noli tushunchalarning nomlari, shuningdek, ma'lum bir xil miqdordagi bir xil shaklda takrorlanadigan ma'lum ommaviy mahsulotlar nomlari³. Termin va nomen o'rtaсидаги farq shundaki, **nomen** xususiy tushunchalar, terminlar esa umumiyl tushunchalar nomidir.

Oldterminlar – maxsus leksemalar bo'lib, yangi yaratilgan tushunchalarga murojaat qilish uchun terminlar sifatida ishlatiladi, ammo oldtermin terminlarning asosiy talablariga javob bermaydi. Oldterminlar yangi tushunchalarni nomlash uchun terminlik maqomini olgunga qadar qo'llaniladi. Ular terminlardan vaqtinchalik tabiatiga

¹ Калинин А.В. Лексика русского языка. – М.: МГУ, 1971. – С. 141.

² Виноградов В.В. Вступительное слово ва Всесоюзном терминологическом совещании / Вопросы терминологии. – Москва, 1961. – С.3-10.

³ Канделаки Т. Л. Значения терминов и системы значений научно-технических терминологий / Проблемы языка науки и техники. Логические, лингвистические и историко-научные аспекты терминологии. — Москва: Наука, 1970.

egaligi, shaklning beqarorligi, qisqalik va umumqo'llanishlik talablarini bajara olmasligi va stilistik neytrallikning yo'qligi bilan ajralib turadi. Vaqt o'tishi bilan, ko'pgina hollarda, oldterminlar terminlar tomonidan siqib chiqariladi. Oldtermin o'rnini termin egallaydi. Ba'zan leksik birlik terminologik talablarga mos keladigan termin bilan almashtirilishi kechiktirilib, maxsus so'zlar lug'atda qayd etilib, barqaror xususiyatga ega bo'lib, **kvaziterminga** (*lot. kuasi – xuddi, o 'xshash*) aylanadi.

Terminoid - yetarlicha aniqlanmagan (shakllanmagan) va noaniq tushunilgan tushunchalarini aniq chegaralari bo'lman va shuning uchun ta'riflarga nom berish uchun ishlatiladigan maxsus leksemalardir. Shu sababli, terminoidlar tushunchalar nomini bildirsa ham, ma'no aniqligi, kontekstual mustaqilligi va barqaror belgi kabi terminologik xususiyatlarga ega emas.

Prototerminlar (*grek. proto – birinchi, termin - chegara*) fanlarning paydo bo'lishidan oldin yuzaga kelgan va ishlatilgan maxsus leksemalardir (ehtimol 30-40 ming yil oldin). Shuning uchun ular tushunchalarini emas (fanning rivojlanishi bilan yuzaga kelgan), balki maxsus tasavvurlarni ataydilar. Prototerminlar yuzaga kelishidan oldin yo'q bo'lib ketmagan - hunarmandchilik lug'atida va bizgacha yetib kelgan kundalik so'z boyliklarida saqlanib qolgan (keng qo'llanila boshlagan) so'zlar. Vaqt o'tishi bilan, kasb-korning maxsus so'zlari va boshqa ba'zi faoliyat turlari ilmiy nazariyalarning paydo bo'lishi bilan nazariy jihatdan asoslangan va ilmiy tushunchalar tizimiga aylantirilgan. Kasb-korning maxsus nutqida barqaror saqlanib qolgan ba'zi prototerminlar ilmiy terminologiyaga kiritilgan, qolganlari esa umumxalq ishlatiladigan fan leksikasi shaklida mavjud bo'ladi. Shunday qilib, eski terminologiyaning ko'plab asosiy terminlari prototerminlar bo'lib, ularning bir qator xususiyatlarini saqlab qolgan¹.

Har bir sohaga oid terminlar birlashtirilib **terminologiya** deb yuritiladi.

¹ Гринев С.В. Введение в терминоведение. — М: Московский Лицей, 1993.

Terminologiya termini birinchi marta 1786-yili Germaniyada professor Shyuts, rus tilida M.V.Lomonosov tomonidan qo'llangan, Fransiyada XVIII asrda, ingliz tilida 1801-yili Katta Oksford lug'atida qayd etilgan. V.M.Leychik terminning antik davrdayoq qo'llanilganligini aytib o'tadi¹.

Terminologiya (*termin+logos – so'z, ta'limot*) ikki xil ma'noda qo'llaniladi. 1. Biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid terminlar majmui. Masalan, grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va b. 2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi bo'limi.

Ayrim olimlar mazkur terminni 3 xil ma'noda qo'llanilishini ta'kidlab o'tadi: 1) Biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid terminlar majmui. 2) Tildagi barcha terminlar majmui. 3) Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi bo'limi². Shunga ko'ra, terminologiya termini adabiyotlarda «*terminologik leksika*», yoki qisqargan shaklda «*terminoleksika*», 1969-yildan so'ng esa «*terminologiyaga kirish* (terminovedenie)», «*terminologiya*» deb atalib kelmoqda.

Demak, terminologiya deganda uch ma'no anglashiladi: terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'lgan terminlar tizimi, til tizimidagi barcha terminlar hamda tilshunoslikda terminlarni o'rganuvchi bo'lim sifatida qo'llaniladi. Ammo keyingi paytlarda bu terminologiya ko'proq nazariy aspektida qo'llanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, **terminologiyaning predmeti** muayyan sohaning tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan terminlar tizimi bo'lib, uning **vazifikasi soha terminlarining nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan** iborat.

Xullas, terminologiyaga oid adabiyotlarda *terminologiya – maxsus so'zlar – atamashunoslik – terminologik tizim* kabi terminlar parallel qo'llaniladi.

¹ Кухно И.Ю. Терминология – семиотическая система «второго порядка» / Language. Philology. Culture. 2014. №4. –стр.42-43.

² Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М., 1993. – С. 309; Шелов С.Д. Терминология, профессиональная лексика и профессионализмы (к проблеме классификации специальной лексики) / Вопросы языкознания. – 1984. – № 5. – С. 76-87.

Terminologiyadagi tizimlilik, birinchi navbatda, ilmiy bilimning o'zi tizimli ekanligi va iyerarxik tarzda tuzilganligi bilan aloqador. Keltirilib o'tilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, «terminologiya» va «terminologik tizim» tushunchalarini farqlash lozim.

Lekin B.N.Golovin «terminologiya» va «terminologik tizim» ifodalarini «professional faoliyat sohalariga aloqador bir-biri bilan tushunchaviy, leksik-semantik, so'z yasalishi va grammatik darajalarda bog'langan terminlar majmui¹»ni bildiruvchi sinonimlar sifatida ishlatalishni taklif qiladi. Boshqa mualliflar esa, aksincha, «terminologiya» va «terminologik tizim» tushunchalarini farqlash lozimligini uqtirishadi, ya'ni «terminologiya» tushunchasi ostida stixiyali tarzda to'planib boruvchi terminlar majmuini, «terminologik tizim» deganda esa inson bilimlari yoki faoliyatining ma'lum bir ixtisoslashgan sohasini tasvirlovchi tushunchalar tizimini adekvat ifodalovchi tartibga solingan terminlar majmui»ni tushunishni taklif etishadi. Umuman olganda, terminologik tizimlar boshqa til tizimlaridan farqli ravishda ilmiy tushunchalarni tasniflash, sistemalashtirish va belgilash jarayonlarida yuzaga keladi. Terminologiyaning tizimli ekanini til doirasidan chiqmay turib asoslab bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, olimlar bu tushunchalar o'rtasidagi prinsipial farqni terminlar majmuining tartibga solingan yoki solinmaganligida, deya belgilashmoqda. Boshqacha aytganda, terminologiyaning terminologik tizimga aylanishida uning tartibga solinganlik omili muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, *termin – atama - so'z termin, terminologiya - atamashunoslik* kabi tushunchalar adabiyotlarda yonma-yon qo'llanilib kelmoqda. Bunga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da quyidagicha ta'rif keltirilgan:

Atama – 1. ayn. termin. 2. Umuman, nom. *Pekin shamanni har bir xalq o'z tilidagi nom, atama bilan yuritib kelgan. «Fan va turmush». Respublikamizning o'zidagina 400 dan ortiq turli tuman qovun*

¹ Головин Б.Н. Лингвистические термины и лингвистические идеи / Вопросы языкоznания. 1976, № 3.

atamalari mavjud ekan. «Fan va turmush».

Atamashunos - atamalar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

Atamashunoslik - atamalarga oid ilm; atamalarga oid masalalar bilan shug‘ullanuvchi soha. *Shu munosabat bilan mamlakatda Atamashunoslik qo‘mitasi tuzildi.* Gazetadan¹.

Ayrim olimlarning fikricha: «Termin» so‘zini belgilash uchun uni «atama» so‘zidan farqlash hamda bu ikki til birligini bir-biridan chegaralash maqsadga muvofiqdir. «Atama» bu har qanday predmet, belgi xususiyatni atash mumkin bo‘lgan umumiyligi tushunchadir. Adabiyotlarda bu ikki so‘zni biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanaveradi. Ammo oimlar tomonidan professional so‘zlarning terminologik leksikadan ajratib o‘rganish lozimligi tavsiya qilinganligi² masalaning o‘ziyoq terminologik tadqiqot ishlarining murakkabligidan dalolat beradi³.

Terminologiyani o‘rganish shundan dalolat beradiki, terminologiya sohasining taraqqiyoti antik davrdan to shu kunga qadar asosan mos keladi.

Keyingi yillarda terminologiya (atamashunoslik)ning shakllanishi va rivojlanishi (terminlar haqidagi bilimlar, fan-texnika rivojlanishi tufayli o‘zlashayotgan terminlar va boshqalar) natijasida terminologiya hamda tilshunoslikda terminlarni o‘rganuvchi bo‘lim o‘rtasida har xil qarashlarning yuzaga kelishi natijasida fanning mutaxassislari o‘rtasida va bilimlarni yetkazishda qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘ldi. Bunday muammolarning kelib chiqishi terminologiya fanini yuzaga kelishi va terminologiya sohasini tizimlashtirishga olib keldi.

Terminologiyaga kirish – tilshunoslikda til tizimining terminlarini o‘rganuvchi soha.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006. 4-tom. –Б.113.

² Усмонов С. Ўзбек тили терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1962.- Б.17.

³ Жўрабев А., Собиров А. Ҳалқ томоша санъати терминларини тартибга солишнинг айрим масалалари / Ўзбек терминологияси ва унинг тараққиёти перспективалари. – Тошкент, 1986. – Б.82.

Terminografiya – maxsus terminologik lug'atlarni tuzish prinsiplari ishlab chiqiladigan soha.

Jahon terminologiya tizimini ko'zdan kechirish, undagi eng qimmatli lingvistik qarashlarni tanqidiy o'rganish, o'tmishning eng yaxshi lingvistik an'analarini rivojlantirish muayyan sabablar bilan bog'liq:

a) terminologiya sohasi yutuqlariga nisbatan bo'lgan noto'g'ri lingvistik munosabatga barham berilishi;

b) termin, terminologiya, terminografiyaga ijodiy yondashish vujudga kelishi;

v) hozirgi zamon terminologiyasining ko'pgina hal qilinmagan muammolarini o'rganish uchun o'tmish terminologiyasi yutuqlarini tanqidiy nuqtai-nazardan ko'zdan kechirish zarurligini amaliy jihatdan isbotlashi.

Terminologiya tarixiga uning qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Hindiston, Gretsya, Rimdagi shakllanishidan tortib to o'rta asrlar, uyg'onish davri va yangi asrlardagi jahon bo'yicha rivojlanishi, taraqqiyot bosqichlari kiradi. Bu davrlar terminlarning tabiatini va uning paydo bo'lishi, terminlarni tasniflash, so'z va terminning farqi, so'z va termin o'rtasidagi munosabat va boshqa muhim hamda dolzarb muammolarini o'rtaga qo'yish nuqtai nazardan alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda dunyoda 20 mingdan ortiq terminologik standartlar mavjud. Terminologik tizimlarni tashkil qilish uchun maxsus standartlar nafaqat davlat va xalqaro miqyosda, balki ayrim kompaniyalar va firmalarda ishlab chiqilgan. Bunday sharoitda atamalar va terminologik tizimlarni birlashtirish nafaqat ilmiy, balki amaliy vazifadir. Tizim atamalarining noaniqligi, omonimiya, tizimlar o'rtasida muvofiqlikning yo'qligi ilmiy va texnologik taraqqiyot, ishlab chiqarishni rivojlantirishga jiddiy to'siqdir. Shunga ko'ra, terminologiya sohasi muammolarining takomilini o'rganish fan tarixidagi qarashlarni chuqr

tushunishga, terminlarni o'rinni qo'llay olishga, ularning izohini bilish, to'g'ri izohlay olishni talab qiladi.

1.2. «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti.
2. «O'zbek terminologiyasi»ning maqsad va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: termin, terminologiya, atama, atamashunoslik, terminshunoslik, terminografiya.

XX asrning ikkinchi yarmida leksikologiya zamirida yangi fan shakllandiki, bu insoniyat va jamiyat rivojida muhim o'rinni egallay boshladи. Ilgari sohalarga oid maxsus leksemalarni o'rganish faqatgina mutaxassislariga taalluqli bo'lsa, bugungi globallashuv jarayonida har bir barkamol shaxs mavjud maxsus leksemalarni bilishi lozim bo'lmoqda.

Bugungi kunda o'zbek terminologiyasi o'zbek adabiy tilining bir bo'lagi sifatida o'zining munosib o'rniга ega. O'zbek tilshunosligida tarmoq atamalari birmuncha o'rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohada ko'pincha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Shunday bo'lsa-da, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi faktlarga nazar solinsa, ona tilimizdagi terminlar bir qolipga tushmaganligiga, ya'ni bir termin bir necha tushunchani ifodalashi yoki muayyan terminlarning farqlanmay qo'llanilayotganligiga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Boshqa turkiy tillarga nazar solsak, ularda bu masalada anchagini tartibga tushgan differensiatsiyani ko'ramiz. Bunday muammolarni hal etish uchun malakali mutaxassislar zarur. Yosh avlodni shu yo'nalishda tayyorlash maqsadida terminologiya oliy ta'lim muassasalariga fan sifatida kiritilgan. Shundan kelib chiqib, «O'zbek terminologiyasi» fanining maqsadi talabalarni terminologiyadagi – norma (meyor) masalalariga, adabiy til va funksional uslublar (vazifaviy

uslublar)da terminlar munosabatiga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, shu bilimlarga tayangan holda ularga o'zbek terminologiyasining strukturaviy, mazmuniy va vazifaviy xususiyatlari haqida ma'lumot berishdan iborat. Bundan tashqari, terminologiya sohasining rivoji va samarali qo'llanishi, standartlashtirish talablarini ishlab chiqish uchun ham terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, yuzaga kelish qonuniyatlari, rivojlanish bosqichlarini o'rganmoq lozim. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator nazariy va amaliy vazifalarni bajarishimiz kerak:

Nazariy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- sohaga oid adabiyotlar ustida ishlash, asosiy tushunchalar, terminlar va nazariy umumlashmalar bilan tanishish;
- terminologiyadagi me'yor (norma) bo'lgan va me'yor bo'lмаган belgi xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali nuqtalarni aniqlash va hakozalar;
- umumxalq ishlataidan leksik birliklardan farqlash, terminni xatosiz aniqlash uchun maxsus leksik birliklarning turlarini tavsiflash va shakllantirish;
- terminologiyani tavsiflash va tahlil qilish uchun tahlil metodlarini ishlab chiqish;
- tushuncha, nom va terminlarning o'zaro farqi, munosabati, termin va terminologiyaning semantik xususiyati, muammolarini bilish;
- terminning struktur va yasalish tarkibini o'rganish: yasalish usullari, yo'llari, modellari;
- turli tillar va turli sohalarda yuzaga kelayotgan termin, termin elementlarni bilish va o'zaro farqini aniqlash;
- maxsus soha va nutqda termin, terminologiyaning yuzaga kelishi, yasalishi, rivojlanishi va vazifalarini o'rganish;
- bilish va tafakkurni shakllantirishda termin va terminologiyaning o'rnnini aniqlashga o'rganish;

- turli tipdagи terminologik lug'atlar ishlab chiqish talablarini o'rganish.

Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- talabalarning terminlarni qay darajada o'zlashtirayotganligini tahlil qilishga va ulardagi umumiylig va xususiylik holatlarini o'rganish;
- turli soha terminlarini me'yorga keltirishni o'rganish;
- terminlarni me'yorashtirish yuzasidan usullar, yo'llar va talablar ishlab chiqishga o'rganish;
- turli tip terminologik lug'atlarni yaratishda maxsus leksik birliklarning izohini bera olish, sohani va termin talablarini to'g'ri belgilash;
- terminologik lug'atlar bilan ishlash, ular orqali muloqot malakalarini o'sib borayotganlik darajasi va qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligini aniqlashi;
- terminlarini yoki lug'atlarni o'rganib, ularga tanqidiy yondashish va mavzuga oid tadqiqotlarning nazariy va amaliy yo'nalishini belgilab olish.

Terminologiyani o'rganish bo'lajak filolog mutaxassislarda uchun lingvistik dunyoqarashni shakllantirish, o'z ishiga ijodiy munosabatda bo'lishida katta yordam beradi, chunki terminologik tizimning o'rganilishi tarixi, uning o'ziga xos qonuniyatlarini bilish talabalarning lingvistik bilim doirasini kengaytiradi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Keys 1. «O'zbek terminologiyasi» fani bo'yicha ma'lumotlar yig'ing.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

1. «O'zbek terminologiyasi» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Bu fanning o'qitilishi qanday sharoitlarda yordam beradi?
3. Fanning yuzaga kelishi haqida nimalar bilasiz?

4. Ayrim kishilar terminlarni, ilmiy tadqiqotlarda qo'llash jarayonidagi kamchiliklardan ikkita sababini ayting va izohlang.

5. O'zbek terminologiyasi bo'yicha dastlabki tushunchalar qachondan kirib kela boshlagan?

6. O'zbek terminologiyasining rivojida inson ishtiroki?

7. Terminlarning ishonchlilik darajasi haqida mustaqil mulohazalar yuriting?

8. O'zbek terminologiyasida terminlarning to'laqonli bo'lishiga to'siq bo'luvchi omillarni sanang ?

Keys 2. Bugungi kunda terminologiya sohasida turli o'zgarishlar yuz bermoqda. Turli sohalarga terminlar o'zlashmoqda. Ammo hamma terminlar ham tilimizga kirib o'z o'rnini topa olmoqdam? Ushbu jarayonni «SWOT tahlil» qiling.

S	O
W	T

1.3. «O'zbek terminologiyasi»ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Reja:

1. «O'zbek terminologiyasi»ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
2. «O'zbek terminologiyasi»ning nolinguistik sohalar bilan aloqasi.
3. «O'zbek terminologiyasi»ning lingvistik sohalar bilan aloqasi.

Tayanch tushunchalar: termin, terminlogiya, atama, atamashunoslik, terminshunoslik, nolinguistik sohalar, lingvistik sohalar, falsafa, mantiq, psixologiya.

Terminologiya tilshunoslik fanining obyekti bo'lib, u tilshunoslikning terminlarni o'rjanuvchi bo'limidir. Terminologiya fani bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilganda, boshqa fan materiallari ham hisobga olinadi.

Fanning biror tarmog‘ini unda qo‘llaniladigan maxsus so‘zlar, ya’ni terminlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, terminologiya lingvistik va nolingvistik sohalarning barchasi bilan chambarchas bog‘liq.

«O‘zbek terminologiyasi»ning nolingvistik sohalar bilan aloqasi.

1. «O‘zbek terminologiyasi» fanining falsafa bilan aloqasi. «O‘zbek terminologiyasi» xususiy tilshunoslik siklidagi fan bo‘lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog‘langan. Chunki falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Masalan, dialektika, sinergetika, termin va tafakkur haqidagi ta’limot fanning metodologik asoslarini tashkil etadi.

Mazkur fanning falsafa bilan aloqadorligi, bir tomondan tilshunoslikning maqsad va vazifalarini tushunishga, xususiylik va umumiylig mezoni ostida tilshunoslik qoidalarini to‘g‘ri belgilash, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanishga yordamlashadi, ikkinchi tomondan, falsafa fanidagi barcha terminlarni o‘rganish va me’yorlashtirish aynan terminologiya zimmasiga yuklatiladi.

«O‘zbek terminologiyasi» fanining mantiq bilan aloqasi. Inson o‘z ona tilini o‘rganishi tafakkur bilan chambarchas bog‘langan. Chunki til hodisalarining inson ongida voqelanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til va tafakkurning aloqadorligi darslarda ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko‘maklashadi. Mantiq to‘g‘ri fikrlash va rivojlanishni o‘zaro uyg‘unlikda qaraydi. Sharqning buyuk ensiklopedist olimlari (Umar Xayyom, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino v.h.) rivojlanishni fikrlashning mahsuli deb biladilar.

«O'zbek terminologiyasi» fanining psixologiya bilan aloqasi. Fanni tashkil etish va uni o'qitish shaxs psixologiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqadorlik avvalo shaxsning yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. O'r ganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, ularni yangi sharoitda qo'llash, til hodisalarini qiyoslash yoki ularni o'xshash va farqli tomonlariga qarab guruhash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish shaxsning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, xotira, tafakkur, xayol singari individual psixik xususiyatlarga tayanadi. Shuning uchun shaxs psixik xususiyatlarini bilishi va unga tayanib ish ko'rishi lozim.

Ma'lumki, ehtiyojlar insonni ma'lum yo'nalishda ongli ravishda harakat qilishga undaydi. Bundan asosiy maqsad odamlar bilan hamkorlik qilishi, muloqotga kirishishidir. Muloqot vaziyatida inson til, imo-ishora, yuz ifodasi, qo'l harakatlari va muayyan ramziy belgilar vositasida boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatadi. Bu vositalardan kerakligini tanlab olish «Psixologiya» fanining ham, «O'zbek terminologiyasi» fanining ham vazifasidir.

«O'zbek terminologiyasi» fanining adabiyotshunoslik bilan aloqasi. Terminologiya adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Ularning aloqasi, stilistika, adabiy til tarixi, badiiy adabiyot muammolarini o'r ganishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

«O'zbek terminologiyasi» fanining aniq fanlar bilan aloqasi. Garchi terminologiya fani ijtimoiy fan bo'lsa-da, fizika, kibernetika, matematika, fiziologiya kabi tabiiy fanlar bilan ham bog'liq holda rivojlanadi.

Chet tillarni o'qitish, mashina yordamida tarjima qilish, turli tipdag'i terminologik lug'atlarni tuzishda terminologiya matematik metodlarga va kibernetika fani yutuqlariga tayanadi.

«O'zbek terminologiyasi»ning lingvistik sohalar bilan aloqasi.

Terminologiya birinchi navbatda leksikologiya bilan bog'liq. Chunki termin leksikologiyidan obyekti bo'lgan so'zdan shakllangan.

Terminologiya leksikografiya bilan aloqada bo'lib, soha terminlarining lug'atini yaratishda uning yutuqlariga tayanadi.

Terminologiya so'z yasalishi bilan ham bog'liqdir. So'z yasalishi, so'z yasalishidagi qo'shimchalar, ulardagi mavjud bo'lgan muammolar ham terminlar yasalishida inobatga olinadi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar atamashunoslik muammolari bilan ham bog'liq. Terminologiya fani terminlar shakllanishining sotsiolingvistik jarayonlarini belgilashda quyidagi ikki yo'nalishga duch keladi: a) baynalminal so'zlarni termin sifatida o'zlashtirish va ulardan keng foydalanish; b) baynalminal so'zlardan tamomila voz kechib, terminlar yaratishda fakt, u yoki bu milliy til imkoniyatlaridan foydalanish.

Terminologiyaning turli fanlar bilan aloqasi natijasida har xil nazariyalar paydo bo'ladi. Har bir fanning rivojlanishi va o'rganilishi, aynan terminologiya bilan aloqadorlikda yuzaga keladi.

1.4. Terminologiya tarmoqlari

Reja:

1. Terminologiya tarmoqlari.
2. Terminologiyaning til faktorlariga ko'ra turi.

Tayanch tushunchalar: *termin, terminologiya, atama, atamashunoslik, terminshunoslik, amaliy terminologiya, nazariy terminologiya, xususiy terminologiya, tipologik terminologiya, semasiologik terminologiya.*

Terminologiya fani ham ko'p tarmoqli fanlar qatoriga kiradi. Uning aniq til faktlariga ko'ra bir necha turi mavjud:

1. **Amaliy terminologiya** - terminologiyaning lingvistik masalalarini amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohasi.
2. **Nazariy terminologiya** - terminologiyaga doir asosiy qarashlar, g'oyalilar, nazariyalar haqidagi tizimdir. Unda termin haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar umumlashtiriladi. Terminning

asosiy muammolari va dolzarb masalalari haqidagi yangi nazariyalar olg'a suriladi.

3. **Xususiy terminologiya** - terminologiya har bir konkret soha (fizika, kimyo, biznes va boshqalar)ning terminlar sistemasi, lug'at sostavi va ularning taraqqiyot yo'llari hamda bu sohaning boshqa soha terminlariga munosabatini o'rganadi va shu asosda konkret sohaning ilmiy terminologiyasini yaratishga intiladi.

4. **Umumiylashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.**

4. **Umumiy terminologiya** - ma'lum bir soha emas, balki umuman terminologiya qonunlari, paydo bo'lishi, terminning jamiyatdagi o'rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi. Shuningdek, bu fanda konkret soha terminlarini, boshqa soha terminlari bilan aloqadorligini o'rganish natijasida aniqlangan lingvistik faktlar umumiylashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

5. **Tipologik terminologiya** - aniq bir terminlarning qurilishidagi xususiyatlari o'rganilib, umumiylashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilaveradi.

6. **Qiyosiy terminologiya** – turli tillar terminlarining umumiylashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilaveradi.

7. **Semasiologik terminologiya** – maxsus leksemalarning ma'nolari (semantikasi), semantik hodisalar – omonim, sinonim, antonim va boshqalarning ifodalanishi, muammolari o'rganiladi.

8. **Onomasiologik terminologiya** – maxsus tushunchalarni nomlash va nomlarning optimal shakllarini tanlash jarayoni, maxsus leksemalarning tuzilishini tadqiq qiladi.

9. **Funksional terminologiya** – turli matnlar, professional muloqot va mutaxassislar tayyorlashdagi vaziyatlarda terminlarning zamonaviy vazifasi, kompyuter tizimi va nutqda terminlarni qo'llanishidagi xosliklar, muammolar o'rganiladi.

10. **Tarixiy terminologiya** – fanning yuzaga kelish va rivojlanish tarixi, o'rganish metodlari va tuzilishi, fanlar tizimidagi tutgan o'rni,

nazariyalari, omillari hamda alohida terminshunoslik mакtablarining yuzaga kelish tarixini o'rganadi¹.

11. **Kognitiv yoki gnoseologik terminologiya** – ilmiy bilish va mushohada qilish jarayonida terminlarning vazifasi, o'rni kabi masalalarни tadqiq qiladi.

12. **Metodologik terminologiya** – terminshunoslikning metodologik yoki falsafiy asosini tekshiradi².

13. **Stilistik terminologiya** – funksional uslublarda terminlarning qo'llanilishi o'rganiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan terminalogiyaning sohalarini ularga muvofiq javoblar bilan moslashtiring.

1.	Amaliy terminologiya –	A	terminologiyaga doir asosiy qarashlar, g'oyalar, nazariyalar haqidagi tizimdir. Unda termin haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar umumlashtiriladi.
2.	Nazariy terminologiya –	B	terminologiyaning lingvistik masalalarini amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohasi.
3.	Xususiy terminologiya –	C	ma'lum bir soha emas, balki umuman terminologiya qonunlari, paydo bo'lishi, terminning jamiyatdagi o'rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi.
4.	Umumiy terminologiya -	D	terminologiya har bir konkret soha

¹Гринев С.В., Лейчик В.М. Функциональная и структурно-содержательная типология банков терминологических данных как фактографических АИПС / Научно-техническая информация. 1988. Сер.2. №10. С.2-4; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М., 2006. С. 175, 194.

² Татаринов В.А. Теория терминоведение: в 3 т. – М., 1996. С. 73-199; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М., 2006. С. 195.

			(fizika, kimyo, biznes va boshqalar)ning terminlar sistemasi, lug'at sostavi va ularning taraqqiyot yo'llari hamda bu sohaning boshqa soha terminlariga munosabatini o'rganadi va shu asosda konkret sohaning ilmiy terminologiyasini yaratishga intiladi.
5.	Tipologik terminologiya -	E	turli tillar terminlarining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tarzda o'rganiladi.
6.	Qiyosiy terminologiya -	F	aniq bir terminlarning qurilishidagi xususiyatlari o'rganilib, umumiyligi, universal terminologiya qonuniyatlariga qiyoslanadi.
7.	Semasiologik terminologiya -	G	maxsus tushunchalarni nomlash va nomlarning optimal shakllarini tanlash jarayoni, maxsus leksemalarning tuzilishini tadqiq qiladi.
8.	Onomasiologik terminologiya -	H	maxsus leksemalarning ma'nolari (semantikasi), semantik hodisalar – omonim, sinonim, antonim va boshqalarning ifodalanishi, muammolari o'rganiladi.
9.	Funksional terminologiya -	I	fanning yuzaga kelish va rivojlanish tarixi, o'rganish metodlari va tuzilishi, fanlar tizimidagi tutgan o'rni, nazariyalari, omillari hamda alohida terminshunoslik muktablarining yuzaga kelish tarixini o'rganadi
10.	Tarixiy terminologiya -	J	turli matnlar, professional muloqot

				va mutaxassislar tayyorlashdagi vaziyatlarda terminlarning zamonaviy vazifasi, kompyuter tizimi va nutqda terminlarni qo'llanishidagi xosliklar, muammolar o'rganiladi.		
11.	Kognitiv yoki gnoseologik terminologiya -	K	terminshunoslikning metodologik yoki falsafiy asosini tekshiradi			
12.	Metodologik terminologiya -	L	ilmiy bilish va mushohada qilish jarayonida terminlarning vazifasi, o'rni kabi masalalarini tadqiq qiladi.			
13.	Stistik terminologiya	M	funksional uslublarda terminlarning qo'llanilishi o'rganiladi.			
Javob	1 -	2-	3-	4-	5-	6-
7-	8-	9-	10-	11-	12-	13-

2-topshiriq. Quyida berilagan fikrlarning qaysilari to'g'ri? Javoblar jadvaliga «ha» yoki «yo'q» so'zlarini yozing.

A. Amaliy terminologiya - terminologiyaning lingvistik masalalarini amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohasidir.

B. Funksional terminologiya - fanning yuzaga kelish va rivojlanish tarixi, o'rganish metodlari va tuzilishi, fanlar tizimidagi tutgan o'rni, nazariyalari, omillari hamda alohida terminshunoslik muktabalarining yuzaga kelish tarixini o'rganadi.

C. Qiyosiy terminologiya - turli tillar terminlarining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tarzda o'rganiladi.


D. Stistik terminologiyada - funksional uslublarda terminlarning qo'llanilishi o'rganiladi.

E. Tipologik terminologiyada - maxsus leksemalarning ma'nolari (semantikasi), semantik hodisalar – omonim, sinonim, antonim va boshqalarning ifodalanishi, muammolari o'rganiladi.

F. Kognitiv yoki gnoseologik terminologiyada - ilmiy bilish va mushohada qilish jarayonida terminlarning vazifasi, o'rni kabi masalalarni tadqiq qiladi.

G. Nazariy terminologiyada - terminologiyaga doir asosiy qarashlar, g'oyalar, nazariyalar haqidagi tizimdir. Unda termin haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar umumlashtiriladi. Terminning asosiy muammolari va dolzarb masalalari haqidagi yangi nazariyalar olg'a suriladi.

3-topshiriq. Rasmlarni izohlang.



2 _____

3 _____

4 _____

5 _____

6 _____

7 _____

8 _____

9 _____

10 _____

4-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni yozing.

1. - ma'lum bir soha emas, balki umuman terminologiya qonunlari, paydo bo'lishi, terminning jamiyatdagi o'rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi. 2. - aniq bir terminlarning qurilishidagi xususiyatlar o'rganilib, umumiyligi, universal terminologiya qonuniyatlariga qiyoslanadi. Bunda barcha terminlar, ularning kelib chiqishidan qat'iy nazar o'rganilaveradi. 3. - turli tillar terminlarining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tarzda o'rganiladi. 4. - fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi. 5. Bir ma'noli tushunchalarning nomlari, shuningdek ma'lum bir xil miqdordagi bir xil shaklda takrorlanadigan ma'lum ommaviy mahsulotlar nomlarideb ataladi. 6. Maxsus leksemalar bo'lib, yangi yaratilgan tushunchalarga murojaat qilish uchun terminlar sifatida ishlatiladi, ammo ular terminlarning asosiy talablariga javob bermaydi. Budir. 6. – tilshunoslikda til tizimining terminlarini o'rganuvchi soha. 7. Maxsus terminologik lug'atlarni tuzish prinsiplari ishlab chiqiladigan sohadir. 8. Terminologiya termini birinchi marta-yilida professor, rus tilida tomonidan qo'llangan.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Nazorat uchun savollar.*

1. «O'zbek terminologiyasi» fanining o'r ganish obyekti nima?
2. «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti, maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. «O'zbek terminologiyasi»ning leksikologiya bilan aloqadorligi nimada ko'rinadi?
4. Terminologiya va leksikologiya obyektlari o'rtasida qanday farq mavjud?
5. Terminologiya tarmoqlari haqida fikrlaringizni bildiring.

2-topshiriq. *Berilgan matndan terminlarni topib, daftaringizga yozib oling. Terminlarning izohini keltirib, qaysi fan sohasiga tegishli ekanligini ayting.*

Ko'pincha biror reaksiyani olib borishda va moddalarni tozalashda yengil uchuvchan organik erituvchilarni qizdirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda erituvchi uchib ketmasligi uchun sovitqichlardan foydalaniladi. Sovitqichlar suyuqlik bug'larini kondensatlash uchun ishlatiladi, ular bir necha xil bo'ladi: havo sovitqichlari, suv sovitqichlari.

Havo sovitqichlari yuqori haroratda qaynaydigan suyuqliklarni haydash uchun ishlatilidi. Sovituvchi – havodir. Suv bilan sovutilganda, sovituvchi suv bo'ladi. Kimyo laboratoriyasida deflegmatorlar ham ishlatiladi. Ular suyuqlik aralashmalarini ajratib olish imkonini beradi.

Laboratoriya voronkalaridan suyuqliklarni bo'g'zi tor idishlarga quyish, filtrlash uchun foydalaniladi. Ajratish voronkalari aralashmaydigan suyuqliklarni ajratib olish, ekstraksiyada ishlatiladi. Tomizgich voronkalardan sintez davomida suyuqliklarni tomizish uchun foydalaniladi.

Eksikatorlar gigroskopik moddalarni saqlash va quritish uchun ishlatiladi.

3-topshiriq. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing, qisqa konspekt qiling.

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos so'z yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksikasi asosida sodir bo'ladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatni ko'rsatadi. Mazkur jarayon, shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika o'rtasidagi aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Umumadabiy so'zlar so'zlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargonlarning leksik boyligi va me'yorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq so'zlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha to'ldirib, kengaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e'tirof etiladi.

Umumadabiy so'zlarning terminologik leksika tizimiga ko'chishi (transterminlashuv)ning ikki turi mavjudligi aniqlangan.

1.Terminologiyaga ko'chgan umumadabiy leksik birliklarning ma'lum qismi o'z ma'nosini saqlab qolgan holda ishlataladi: *ildiz* («корень»), *suv* («вода»), *shamol* («ветер»), *dengiz* («море»), *daryo* («река»), *oy* («луна»), *quyosh* («солнце»), *bug'doy* («пшеница»), *tol* («ива»), *uzum* («виноград»), *shimol* («север»), *janub* («юг»), *yer* («земля»), *ayg'ir* («жеребец»), *baliq* («рыба») va h.k. Bu o'ta keng qamrovli leksika qatlami bo'lib, mavzu jihatdan jamiyat, inson, tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan mustahkam aloqaga kirgan. Qayd etilgan so'zlar keng umumadabiy hamda o'z navbatida, tor maxsus sohaga taalluqlidir. Mazkur so'zlarning ifodalanuvchisi va ifodalovchisi turli sohalarda mos tushadi, ammo ular ma'no obyekti, axborot ko'lami, mazmun-ma'no turi bilan farqlanadi.

2.Umumadabiy leksikaning boshqa bo'lagi yuz bergan ma'noviy o'zgarish natijasida terminlar safiga o'tadi. Qoidaga ko'ra umumadabiy tildan terminologik tizimga olingan so'zlar muayyan ilmiy tushunchani ifodalash uchun xoslanadi, ilmiy termin maqomiga ega bo'ladi.

Masalan, o'zbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, mashina qismlari hamda turli buyum-asboblarni anglatish uchun xoslangan *ko'z*, *oyoq*, *qadam*, *barmoq*, *qo'ltiq*, *to'siq*, *qobirg'a*, *og'iz*, *tirnoq*, *qulinq*, *pichoq*, *quti*, *taroq*, *qozon*, *qoshiq*, *barmoq*, *panja*, *musht* singari so'zlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu so'zlar o'zlarining birlamchi (denotativ) ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylanadi. Ushbu maxsus tushunchalarni atash usuli an'anaviy, obyektiv hamda juda sermahsul hisoblanadi. Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mayjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lug'at fondidagi so'zlarga murojaat etiladi. Mazkur guruhga tegishli so'z-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan o'zaro farq qiladi. Ba'zi bir leksik birliklar misolida maxsus ma'noning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin. («Zamonaviy o'zbek leksikografiysi va terminologiyasi» moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: H.Dadaboyev. – Toshkent, 2017. B.55-58).

- 1) *Mazkur ma'lumotdagi hodisaga o'zingiz misollar toping.*
- 2) *Jadvalni to'ldiring.*

Terminologiyaga ko'chgan umumadabiy leksik birliklarning ma'lum qismi o'z ma'nosini saqlab qolgan birliklar	Umumadabiy leksikaning boshqa bo'lagi yuz bergen ma'noviy o'zgarish oqibatida terminlar safiga o'tgan birliklar

- 3) *Ma'lumotlarni bugungi kun bilan taqqoslangu.*

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. H.Dadaboyevning «Tarixiy harbiy terminlar lug'ati», «Boburnoma» romanidan tarixiy, qurol-aslaha nomlarini topib, kichik lug'at yaratishing.

2-topshiriq. *Morfologiya, funksiya, grammatika, struktura* terminlarini terminologiya tarmoqlari asosida tahlil qiling.

Amaliy terminologiya –
Nazariy terminologiya –
Xususiy terminologiya –
Umumiy terminologiya –
Tipologik terminologiya –
Qiyosiy terminologiya –
Semasiologik terminologiya –
Onomasiologik terminologiya –
Funksional terminologiya –
Tarixiy terminologiya –
Kognitiv yoki gnoseologik terminologiya –
Metodologik terminologiya –
Stilistik terminologiya –

3-topshiriq. Quyidagi mavzu yuzasidan keysni bajaring:
Terminologiya fanini yuzaga kelishi, muammolar, ularning omillari va sabablari.

Ishning maqsadi: O'zbek terminologiyasi shakllanish va rivojlanish dinamikasi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash.

Masalaning qo'yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- termin va terminologiyaning farqini ayting.
- termin-atama, terminologiya-atamashunoslik, terminografiya terminlarini izohlang.
- «O'zbek terminologiyasi» fan sifatida shakllanishi xususida fikrlaringizni bildiring.
- «O'zbek terminologiyasi»ning predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat.
- «O'zbek terminologiyasi»ning falsafa fani bilan aloqadorligi nimada ko'rindan?

- «O'zbek terminologiyasi»ning mantiq fani bilan aloqadorligi nimada ko'rindi?

- terminologiya tarmoqlarining shakllanish sabablarini keltiring.

4-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lмаган prezentatsiya yarating.

5-topshiriq. Quyidagi mavzularda gazetaga maqola yozing.

1. Terminologiya va leksikologiya.
2. Terminologiya - lingvistika obyekti sifatida.
3. Terminologiyaning hozirgi o'zbek tili leksik strukturasidagi o'rni.
4. Terminologiyadagi o'zgarishlarning umum adabiy tildagi jarayonlar bilan bevosita bog'liqligi.
5. Terminologiyaning fan tili sifatida talqin qilinishi.

Adabiyotlar:

1. Акобиров С. Тил ва терминология. - Тошкент, 1968.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985.
3. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. Учебное пособие. – Москва, 2008.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва, 1977.
5. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977.
6. Турсунов У. Ўзбек терминологияси масалалари. – Тошкент, 1933.

II. O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

2.1. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari

Reja:

1. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari. Qadimgi turkiy til terminologiyasi.
2. Eski turkiy til terminologiyasi.
3. Eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi.
4. Sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi.
5. Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi.

Tayanch tushunchalar: terminologik leksika, qadimgi turkiy til terminologiyasi, eski turkiy til terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi, davrlashtirish, ekstralolingvistik va intralingvistik omillar.

Muayyan adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani ham qamrab oladi. Umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi. O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatları negizida shakllangan terminologik leksikani quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

- 1-davr. Qadimgi turkiy til terminologiyasi – VII-X asrlar.
- 2-davr. Eski turkiy til terminologiyasi – XI-XIV asrlar.
- 3-davr. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi – XV-XX asr boshi.
- 4-davr. Sho'rolar davri terminologiyasi – XX asr boshidan 1993-yilgacha.
- 5-davr. Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi.

Qadimgi turkiy til terminologiyasi

Har bir tilning terminologiyasi o‘zining shakllanish bosqichlarida shu tilda amal qilib kelgan so‘z yasash qonuniyatlari asosida hamda uning umumiste’mol leksikasi bilan mustahkam aloqada kechishi qayd etilib, tilda ikkilamchi nomlashlar orqali lug‘aviy birliklar ma’nosining ortib borishi kishilik jamiyati taraqqiyotining qaysi bosqichlarida paydo bo‘lgan degan savolga javob izlagan holda qadimgi yunon mutaffakirlari Geraklit va Demokrit qarashlari keltirib o‘tilgan va tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo va Qozog‘iston hududida topilgan yozma yodgorliklar turkiy qabilalarning qadimdan o‘z madaniyati va o‘z adabiy tiliga ega bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Turkiy xalqlarning moddiy-madaniy hayoti va yozuv tarixi haqidagi tarixiy, arxeologik ma’lumotlar turkiy tilda so‘zlovchi urug‘ hamda qabilalarning miloddan ilgari mavjud bo‘lganligini, jamiyat bo‘lib tashkil topganligini va birgalikda turmush kechirganligini ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, qadimgi turkiy til deganda ko‘pchilik adabiyotlarda milodiy VII-VIII asrlarni o‘z ichiga oladi, degan fikrlar bildiriladi¹. Boshqalarida V-X asrlarni o‘z ichiga qamrab olishi ta’kidlanadi². Lekin Mustaqillik sharofati bilan qadimgi turkiy til davri tarixini uzaytiruvchi omillar aniqlandi. Yozuv madaniyatiga nazar tashlansa Markaziy Osiyoda yashagan qabilalar va xalqlar yagona alifbo bilan cheklanib qolgan emaslar. Chunonchi, so‘g‘dlar o‘z tarixi mobaynida oromiy, milliy so‘g‘d, moniy, suryoniy yozuvlaridan foydalanganlar. Qadimgi sak tili turk-run yozuvidan foydalangan.

Qadimgi Xorazmiy adabiy tili uchun xorazmiy, arab alifbolari amalda bo‘lgan. Bular ba’zi adabiyotlarda «Avesto» tili, qadimgi Xorazm tili va yozuvi, Baqtriya tili va yozuvi, so‘g‘d tili va yozuvi, sak (shak) tili va yozuvi degan nom bilan ataladi³.

¹ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент, 1995, 26-бет.

² Алиев А., Содиков К. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Тошкент, 1994, 48-бет.

³ Сагдулаев А. Кадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Тошкент, 1996, 10-12-бетлар.

Sak (shak) qabilalari turk-run yozuvidan foydalangan bo'lib, u oromiy yozuvi asosida shakllangan va unda 26 harf mavjud. Uning yodgorliklari 1970 yildan so'ng Qozog'istonning Issiq qo'rg'oni, Afg'onistonning Dashti Novur, Surxandaryoning Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Andijonning Lo'mbitepa degan joylaridan topildi. Bu narsa Urxun-Enasoy yozuvining shakl va tovush birligi uning uzoq turkiy jarayonni bosib o'tganidan dalolat beradi¹. Chunki Urxun-Enasoy atamasi turk-run yozuv yodgorliklarining mahalliy guruhinigina anglatadi.

Shunday ekan, qadimgi turkiy til tarixi Markaziy Osiyo (Issiq, Dashti Naur, Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Lo'mbitepa) yodgorliklaridan boshlanadi. Bu yodgorliklar miloddan oldingi davrlarga tegishli bo'lib, u Birinchi Turk hoqonligi va undan G'arbiy turk hoqonligi ajralgan davrga oiddir. Buni arxeologik qatlamlar tasdiqlamoqda². Xullas, qadimgi yodgorliklarning mahalliy guruhini anglatgan turk-run yozuvi Urxun-Enasoy tomondan G'arbga emas (bunda 38 harfiy belgi bor), balki Markaziy Osiyodan (bunda 26 harfiy belgi bor) Sharq tomonga tarqalgandir³. Markaziy Osiyodan topilgan yodgorliklar qadimgi turkiy til davri tarixini uzaytirishga imkon beradi. Shunga ko'ra, qadimgi turkiy til miloddan avvalgi VII asrdan milodiy X asrgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni o'rganish darajasi va yodgorliklarining xususiyatlariga ko'ra, o'z navbatida, ikki davrga ajratish mumkin:

- a) Qadimgi qabilalar adabiy tili (miloddan avvalgi VII asrdan milodiy VI asrgacha bo'lган davr).
- b) Qadimgi turkiy xalqlarning adabiy tili (VI-X asrlar).

¹ Ўринбоев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд: СамДУ, 1999, 4-6-бетлар.

² Абдулғозинева Б., Исоков М., Содиков К. Янги топилган кадимги туркий битик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 18 июнь.

³ Ўринбоев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд: СамДУ, 1999, 5-бет.

a) Qadimgi qabilalar adabiy tili haqida

Qadimgi qabilalar adabiy tili miloddan avvalgi VII asrdan milodiy VI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda so'g'dlar, baqtriylar, xorazmiylar va sak (shak)lar haqida ayrim ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda saqlangan. Lekin bu manbalar kam bo'lsada, ular qadimgi madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yurtimizda joylashgan turli qabilalar qadimgi sharq-eroniy tillar shevalarida gapirganlar. Ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham so'g'dlar, baqtriylar, xorazmiylar va saklar qarindosh xalqlar bo'lib, bir-birlarini yaxshi tushunganlar.

Qadimgi sharq-eroniy tillarini o'rganishga oid ilmiy adabiyot mavjud bo'lib, ular asosida o'sha davr tilini o'rganish mumkin.

«Avesto» tili va yozuvi. «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning shariat qonunlari majmuasidir.

«Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3.000 yil bo'layapti, – degan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvida. – Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi»¹. «Avesto»ga qarshi hujum Aleksandr Makedonskiy davrida boshlangan bo'lib, u 12 ming qoramol terisiga yozilgan bu kitobning bir qismini kuydirtiradi. Lekin uning qolgan qismlari miloddan avvalgi III asrda kitobat qilingan.

Zamonamizgacha yetib kelgan «Avesto» qismlari milodning III-VII asrlarida tahrirlangan. «Avesto» boblari «Pahlaviy» – o'rta asr

¹ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. –Тошкент: “Шарқ”, 2001, 358-бет.

alifbosida (unda 48 harfiy belgi bor) ko'chirilgan. U o'rta fors tilidan «Apastak» yoki «Asos» nomi bilan tarjima qilinadi.

«Avesto» tili eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lган qadimgi fors tiliga nisbatan ancha oldingi bosqichda miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida paydo bo'lган.

«Avesto»ning qismlari yozuvlsiz zamonga oid tasavvurlarni o'zida saqlagan, bular qadimgi qabilalarning og'zaki ijodidir. «Avesto»ning qo'shiqlari (gohlari) tabiiy kuchlarga, quyosh, yulduzlarga va afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan.

Hozirgi Markaziy Osiyo tillarida mavjud bo'lмаган qadimgi terminlar «Avesto» tilida uchraydi. Masalan, *goh* (qo'shiq), *ashah* (haq, haqiqat, qoida, qonun), *zashra vayrayah* (shahriyor), *daina* (fikrlamoq, din tanimoq), *havraravot* (xurdod, komillik, to'g'rilik), *gavronmona* (qo'shiq va toat-ibodat ijro etiladigan joy), *puruchista* (ilmli), *vyasya<vik* (qishloq), *xvari xshayta* (xurshid, yorug' doira, quyosh), *antarivayu* (havo), *surush* (tinglamoq, itoatkorlik), *movinagha* (oy), *chista* (bilim, ogohlilik), *boj* (so'z, kalom), *oturban* (olovni qo'riqlovchi), *podiyob* (g'usl, yuvinmoq, poklanmoq), *Doityo* (Amudaryo), *jam* (shohona) kabilar.

«Avesto» birinchi bo'lib, XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan. Undan so'ng K.Geldner, X.Bartolome, V.V.Struve, X.Xumbax, Ye.E.Bertels, V.I.Aabayev, S.N.Sokolov, V.A.Livshis, I.M.Oranskiy, I.S.Braginskiy, I.M.Steblin-Kamenskiy va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqillik sharofati bilan «Avesto» Asqar Mahkam tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi (Toshkent, 2001, 382 bet).

Qadimgi Xorazm tili va yozuvi. Qadimgi Xorazm yozuvi Oromiy yozuvi asosida shakllangan. Xorazm alifbosi miloddan avvalgi V-III asrlarda qo'llanilgan bo'lib, u 22 harfdan iborat. U Katta Oybuyirqal'a, Qo'yqirilgan qal'adan topilgan sopol idishning sirtida saqlangan. Bu manba yagona aspabarak – otliq so'zidan iborat.

Baqtriya tili va yozuvi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriylar so‘zlari yetib kelgan. Uning topilmalari milodning I asrlariga tegishlidir. Baqtriya yozuvi oromiy va qadimgi yunon alifbesiga asoslanib rivojlangan. Baqtriya tili va yozuvi namunalari Surxon vohasi, Tojikiston, Shimoliy Afg‘onistonidan topilgan bo‘lib, ular uncha yaxshi o‘rganilmagan.

So‘g‘d tili va yozuvi. So‘g‘diyona viloyati Zarafshon, Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan. Milodning I-IV asrlaridan boshlab, so‘g‘d yozuvi keng hududda tarqalgan.

So‘g‘d tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog‘iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo‘g‘ulistonidan topilib o‘rganilgan.

So‘g‘d yozuvi 17 harfiy belgidan iborat bo‘lib, u qadimgi uyg‘ur, mo‘g‘ul va manjur yozuvlari uchun asos bo‘lgan.

Sak tili va yozuvi. Sak(shak)lar Markaziy Osiyo va Qozog‘istonda istiqomat qilgan ko‘chmanchi qabilalardir. Sak tilida yoritilgan eng qadimgi manba - bu Olmaota yaqinidagi Issiq qo‘rg‘oni, Andijonning Lo‘mbitepa, Termizning Fayoztepa, Afg‘onistonning Dashti Novur, Sharqiy Turkistonning Xotan vohasidan topilgandir. Bu yodgorliklar alifbesida 26 harfiy belgi mavjud. Bu yodgorliklarni o‘rganishga G.V.Beyli, M.J.Drezden, L.G.Gersenberg, I.M.Oranskiylar katta hissa qo‘shganlar.

«Avesto», xorazmiy, baqtriy, so‘g‘d, sak tillaridagi ayrim atamalar, tushunchalar va nomlar hozirgi tillarda ham saqlanib ishlatilmoqda. Jumladan, «Avesto» so‘zlari *bratar-birodar*, aka(rus tilida brat), *xapta* – hafta, yetti; *band* – bog‘lab qo‘yish; *zar* – oltin; *nau* (nav) – yangi; *ap* – ob; *framana* – farmon; *hovana* – o‘g‘ir, keli; *miysra* – mehr, qasam, keng, yilning yettinchi oyi; *Afrosiyob* – Turon shohi; *bod* – shamol; *bihisht* – eng yaxshi jahon; *raoshana* – yorug‘, ravshan, oydin (bu so‘z Zarafshon nomida saqlangan) va hokazo.

So‘g‘d tili so‘zlaridan quyidagilar hozirgi tillarda saqlangan: *kand* (kent) – shahar, qo‘rg‘on; *tak* – qurilish, gumbaz; *kat* – uy-joy, makon.

Masalan: *Katob* (Kitob) – daryo bo'yidagi makon, qo'rg'on; *Chortak* (Chortoq) – to'rt qurilish, gumbaz; *Navkat* (Navqat) – yangi uy-joy, makon.

Yozma manbalarga ko'ra yurtimizda eng qadimgi mahalliy tillar: turkiy, fors, arab va o'zbek tillari rivoj topgan. Ular ish yuritish va ma'muriy, adabiy va xalqaro, mahalliy qishloq va shahar tillari vazifasini bajargan¹.

b) Qadimgi turkiy xalqlarning adabiy tili

Turkiy xalqlarning moddiy-ma'naviy hayoti va yozuv tarixi haqidagi tarixiy, arxeologik ma'lumotlar turkiy tilda so'zlovchi urug' hamda qabilalarning eramizdan avval mavjud bo'lganligini, jamiyat bo'lib tashkil topganligini va birgalikda turmush kechirganligini yuqorida ko'zdan kechirilgan faktlar ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy xalqlarning adabiy tili milodning VI-X asrlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda arab istilosи amalga oshirildi va Arab xalifaligiga asos solindi. Lekin o'zaro ichki feodal kurashlar va xalq qo'zg'olonlari ta'sirida VIII asrning oxirlaridan mayda-mayda qismlarga bo'linib ketdi: idrisiyalar (789-926), ag'labiyalar (800-909) davlatlari vujudga keldi. Eron va Movarounnahrda IX asrning 20-yillaridan boshlab tohiriylar (821-873), safforiylar (867-1495), somoniylar (819-1005) va qoraxoniylar (982-1147) o'zlarining mustaqil boshqaruviga ega bo'ldilar. Bu davlatlarni xalifalik tomonidan yuborilgan noiblar boshqarar va xalifalikka xiroj, juzya (jon solig'i) va o'lpon to'lab turar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, VIII-IX asrlardayoq o'lkamizda Fanlar akademiyasi «Baytul-hikma», keyinchalik 1010-yilda Xorazmda Ma'mun akademiyasi tashkil topgan. Jahon ilmiy hayotida o'ziga xos o'rin egallagan ushbu akademiyada al-Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Farg'oniy, Zayniddin Jurjoniy kabi yuzlab allomalar faoliyat ko'rsatganlar. Sohibqiron Amir Temur davrida Samarqand ilm-fan

¹ Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент, 1996, 15-бет.

markaziga aylandi. Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro davrida ham fan va madaniyat taraqqiy etdi. Bu davrda riyoziyat, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa kabi tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida Abu Nasr Forobiyning alohida o‘rni bor. Mazkur fanlarni yoritish orqali terminologiya sohasiga ham o‘z hissasini qo‘shgan. Forobiy tilshunoslikning falsafiy masalalari bilan shug‘ullanib, bilishning ikki bosqichi hissiy va idrokiy, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o‘zining «Falsafatu Aristutalis» asarida qimmatli ma’lumotlar beradi.

U o‘zining «Fanlar tasnifi haqidagi so‘z» asarida tilshunoslikka e’tibor qaratib, til haqidagi fanning ikki qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi: a) tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarni xotirada saqlash; b) so‘zlarni boshqarib turadigan qonunlarni bilish. U atoqli va turdosh otlar, ot va fe’llar to‘g‘risida ma’lumot berib, jins, son terminlarini ko‘rsatib, fe’lning uch zamon shaklini ko‘rsatadi.

Forobiy tilshunoslikni quyidagicha tasnif etadi: a) sodda so‘z haqidagi fan; b) so‘z birikmalari haqidagi fan; v) sodda so‘z qonunlari haqidagi fan; g) yozuv qonunlari va to‘g‘ri talaffuz haqidagi fan; d) she’r tuzilishi qoidalari haqidagi fan.

U yuklamalarni o‘zgarmaydigan so‘zlar qatoriga kiritib, alohida o‘rganishni ta’kidlaydi. Forobiy butun tilshunoslik bo‘limlari: *fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya, stilistika* haqida, ularning o‘rganish obyektlari to‘g‘risida ilk ma’lumot beradi. Forobiy grammatika bilan mantiqning o‘zaro uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berishga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya’ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til to‘g‘risidagi ilmdir. Ikkinci ilm – grammatika, ya’ni u jismlarga berilgan nomlarni tartibga soladi. Shu bilan birga nutqqa ham alohida e’tibor qaratiladi. Uchinchi ilm mantiqdir. U dialektika qonuni asosida umumiylik va xususiylikka

alohida e'tibor beradi. Tillararo umumiylilik va xususiylik to'g'risida fikr yuritib, arab va yunon tili asosida misollarni tahlil etadi. Shu orqali terminologiyaga o'z hissasini qo'shadi.

Dunyo madaniyati va ma'naviyatida ulkan iz qoldirgan allomalardan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy hisoblanadi. U 150 dan ortiq asar qoldirib, ular orasida «Xronologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Ma'sud qonuni» hamda «Saydana» alohida o'rinni egallaydi. Uning asarlari arab, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan. Qomusiy olim boshqa fanlar qatori terminologiya sohasida ham ibratlari ishlarni amalga oshirdi.

Beruniy ilmiy xazinaning kaliti sanaluvchi til va tilshunoslikka alohida e'tibor berdi. Bir qancha tillarni mukammal egallagan Beruniy, dastavval, xorazmiy tilini puxta egallaganini ta'kidlaydi. U Hindistonga borgandan so'ng mamlakat tarixi, madaniyati, urf-odati, hayvonot va nabotot olamini o'rganishga qiziqib, hind tili bo'lgan sanskrit tilini mukammal o'rganishga bel bog'ladi. U 1048-yilda o'simliklar, hayvonlar va ma'danlar to'g'risida «Saydana» asarini yaratdi. Ushbu asarda tilga oid qimmatli ma'lumotlarni berdi. Asarda dorivor o'simliklarning nomlari bir necha tilda va shu jumladan, dialektlardagi nomlari ham berilganligi alohida o'rinni egallaydi.

Beruniy arab yozuvining insoniyat tomonidan kashf etilganligin ko'rsatib, yunon, lotin, hind tillaridagi ayrim so'zlarni transkripsiyyada berishni lozim topadi. Uning «Saydana» asari dorivor o'simliklar lug'ati vazifasini ham bajaradi. Ushbu asar, o'z navbatida, ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik, ham terminologik lug'atning ilk namunasi hisoblanadi.

Tabobat olamida dunyoni lol qoldirgan Ibn Sinoning tilshunoslikka oid «Asbobi xudut al xuruf» asari hozirga qadar tilshunoslari diqqatini jalb etib kelmoqda. Ibn Sinoning dahosiga mahliyo bo'lgan Mikelanjelo: «Boshqa olimlarni ma'qullab haq bo'lgandan ko'ra Galen va Ibn Sinolar orqasidan ergashib xato qilgan yaxshirokdir», - deydi. Allomaning

«Asbob» asari asosan, arab til fonetikasiga bag'ishlangan bo'lsa ham, unda fors, turk va boshqa tillar materiallaridan foydalanilgan. Asar mundarijasi asosan quyidagilardan iborat: 1.Tovushning paydo bo'lish sabablari haqida. 2. Nutq tovushlarining paydo bo'lishi. 3. Bo'g'iz va til anatomiyasi. 4. Ayrim arab tovushlarining paydo bo'lishidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida. 5. Bu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari haqida. 6. Bu tovushlarning nutqiy bo'lmagan harakatda eshitilishi.


Ibn Sino tovushlarning qanday paydo bo'lishini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergen olimdir. Muallif birinchilardan bo'lib, fizikaviy va nutq tovushlarini ajratib, fizikaviy-akustik tovushni «savt», nutq tovushlarini «harf» termini bilan izohlaydi. Muallif unli va undoshlarni ajratib, unlilar uchun – musannito, undoshlar uchun samita terminlarini qo'llaydi. U arab tilida yigirma sakkizta undosh va uchta unli fonema mavjud ekanligini ko'rsatadi. U tovushlarni akustik belgisiga ko'ra jarangli-maghura va jarangsiz-magmusa kabilarga ajratadi.

Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiycha tub va yasamalardan hamda buddizm va moniyzm ta'sirida so'g'd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o'zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, *barg'u* «o'lja», *qarg'u* «soqchi, dozor», *tamg'a* «mug'r», *ko'rug* «ayg'oqchi», *elchi* «elchi; hukmdor, yurtboshi», *yo'lchi* «sardor», *chig'ay* «yo'qsil, kambag'al», *qishlag'(q)* «qo'shining qishki qarorgohi», *ayg'uchi* «davlat maslahatchisi» singari asl turkcha, *cherig/cherik* «qo'shin, armiya», *sart* «tojir, savdogar» kabi sanskritcha, *xatun/qatun* «malika», *kent* «qishloq; shahar» singari so'g'dcha, *qag'an* «hukmdor», *xan* «hokim», *tegin* «xonzoda, shahzoda», *yabg'u* «xoqondan keyingi oliy lavozim egasi», *sengun* «xitoy generali», *tarqan* «tarxon», *tutug'* «tuman hokimi» kabi xitoycha, *shad* «Turk xoqonligida oliy lavozim», *shadapit* singari eroncha terminlar faol qo'llanishda bo'lganligini manbalar so'z boyligi yaqqol ko'rsatadi. Ayni chog'da e'tirof etish

joizki, sanskrit, eron, xitoy tillarida bitilgan asarlarning turkiy tilga qilingan tarjimalarida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sotsial, hayvonot dunyosi – fauna, o'simlik dunyosi – flora, ilmi nujum – astoronomiya va h.k. sohalariga xos terminlar keyinchalik deyarli qo'llanmadi, turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tili ularni qabul qilmadi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Terminologiyaning taraqqiyot bosqichlarining ketma-ketlik zanjirini tuzing.* 1) istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi; 2) eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi; 3) sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi; 4) eski turkiy til terminologiyasi; 5) qadimgi turkiy til terminologiyasi.



2-topshiriq. *Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri? Javoblar jadvaliga «ha» yoki «yo'q» so'zlarini yozing.*

A.Umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi.

B.O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatları negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminlogiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrashtirish.

C.Hozirgi qardosh turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili leksik xazinasida muayyan darajada qo'llanishda davom etayotgan yoki bugun iste'moldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika asosiy o'rinni egallamagan.

D.O'zbek tili terminologiyasini davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminlogik leksika tizimida ekstralolingvistik va intralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi.

E.Qadimgi turkiy til terminologiyasi o'z ichiga X-XII asrlarni oladi.

F.Eski turkiy til terminologiyasi o'z ichiga XI-XIV asrlarni oladi.

G.Eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi o'z ichiga XV-XX asrlarni oladi.

3-topshiriq. Talabalarni guruhlarga bo'ling. Guruhlarga qadimgi turkiy til terminologiyasiga xos 5 tadan qarindosh-urug'chilikka oid terminni daftaringizga yozib oling va lug'at maqolasi tuzing.

4-topshiriq. *Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.*

- 1) Oromiy yozuvi asosida shakllangan. Xorazm alifbosi miloddan avvalgi asrlarda qo'llanilgan bo'lib, u harfdan iborat. U,dan topilgan sopol idishning sirtida saqlangan. 2) Bizgacha yuzdan ortiq so'zlari yetib kelgan. Uning topilmalari milodning asrlariga tegishlidir. 3) So'g'diyona viloyati Zarafshon, Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan.....yozuvidir. 4) So'g'd yozuviharfiy belgidan iborat bo'lib, u qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjur yozuvlari uchun asos bo'lgan. 5) Markaziy Osiyo va Qozog'istonda istiqomat qilgan ko'chmanchi qabilalardir. 6) asrlardayoq o'l kamizda Fanlar akademiyasi, keyinchalik 1010-yilda Xorazmda tashkil topgan.

5-topshiriq. Berilgan terminlarni ularga mos keluvchi ma'lumotlar bilan moslashtiring.

1.	«Avesto»	A	Oromiy yozuvi asosida shakllangan. Miloddan avvalgi V-III asrlarda qo'llanilgan bo'lib, u 22 harfdan iborat. U Katta Oybuyirqal'a, Qo'yqirilgan qal'adan topilgan sopol idishning sirtida saqlangan. Bu manba yagona aspabarak – otliq so'zidan iborat.
2.	Qadimgi Xorazm tili va yozuvi	B	U 12 ming qoramol terisiga yozilgan bu kitobning bir qismini kuydirtiradi. Lekin uning qolgan qismlari miloddan avvalgi III asrda kitobat qilingan. XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan.
3.	Baqtriya tili va yozuvi	C	Milodning I-IV asrlaridan boshlab, mazkur yozuv keng hududda tarqalgan. Mazkur tildagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'ulistonidan topilib o'r ganilgan. Mazkur yozuv 17 harfiy belgidan iborat bo'lib, u qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjur yozuvlari uchun asos bo'lган.
4.	So'g'd tili va yozuvi	D	Uning topilmalari milodning I asrlariga tegishlidir. Mazkur yozuvi oromiy va qadimgi yunon alifbesiga asoslanib rivojlangan. Mazkur til va yozuvning namunalari Surxon vohasi, Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonidan topilgan bo'lib, ular uncha yaxshi o'r ganilmagan.
5.	Sak tili va yozuvi	E	Mazkur tilda yoritilgan eng qadimgi manba – bu Olmaota yaqinidagi Issiq qo'rg'oni, Andijonning Lo'mbitepa, Termizning Fayoztepa, Afg'onistonning Dashti Novur, Sharqiy Turkistonning Xotan vohasidan topilgandir. Bu yodgorliklar alifbesida 26 harfiy belgi mavjud.
Javob	1 -	2-	3- 4- 5-

6-topshiriq. Testlarni bajaring.

1.Ibn Sino tovushlarning qanday paydo bo'lishini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan olimdir. Muallif birinchilardan bo'lib, fizikaviy va nutq tovushlarini ajratib, fizikaviy-akustik tovushni ... termini bilan ataydi.

- A) *savt;
- B) harf;
- S) unlilar;
- D) undoshlar;

2.Ibn Sino tovushlarning qanday paydo bo'lishini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan olimdir. Muallif birinchilardan bo'lib nutq tovushlarini ... «harf» termini bilan izohlaydi.

- A) *harf;
- B) savt;
- S) unlilar;
- D) undoshlar;

3. Forobiy tilshunoslikni quyidagicha tasnif etadi: a) sodda so'z haqidagi fan; b) so'z birikmalari haqidagi fan; v) sodda so'z qonunlari haqidagi fan; g) yozuv qonunlari va to'g'ri talaffuz haqidagi fan; d) she'r tuzilishi qoidalari haqidagi fan.

- A) noto'g'ri;
- B) qisman to'g'ri;
- S)* to'g'ri;
- D) faqat A va B javoblar to'g'ri;

4. Tabobat olamida dunyoni lol qoldirgan Ibn Sinoning tilshunoslikka oid asari hozirga qadar tilshunoslар diqqatini jalb etib kelmoqda.

- A) *«Asbobi xudut al xuruf»;
- B) «Saydana»;

- S) «Minerologiya»;
D) «Kimyo»;

5. Beruniyning asari dorivor o'simliklar lug'ati vazifasini ham bajaradi. Ushbu asar, o'z navbatida, ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik, ham terminologik lug'atning ilk namunasi hisoblanadi.

- A) «Asbobi xudut al xuruf»;
B) *«Saydana»;
S) «Minerologiya»;
D) «Kimyo»;

6. Terminlarni sohasiga qarab tartiblang.

- | | |
|------------------|----------------------|
| 1. barg'u | A) qo'shin |
| 2. cherig/cherik | B) o'lja |
| 3. tegin | S) muxr |
| 4. tamg'a | D) xonzoda, shahzoda |

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Nazorat uchun savollar.*

1. «O'zbek terminologiyasi»da yozma manbalarni o'rganishdan maqsad nima?
2. Forobiy tilshunoslik fanining qaysi sohalari bilan shug'ullangan?
3. Forobiyning qaysi asarida terminologiyaga oid masalalar ko'rsatilgan?
4. Beruniyning «Saydana» asari haqida nimalarni bilasiz?
5. Ibn Sinoning terminologiyaga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

2-topshiriq. Berilgan matndan terminlarni topib, daftaringizga yozib oling. Terminlarning izohini keltirib, qaysi fan sohasiga tegishli ekanligini ayting. Kichik lug 'at yarating.

Yurtdoshimiz Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzluo‘ Tarxon Forobiy (873-950) ni esga olish joiz. U Forobda turkiy elatdan bo‘lgan harbiy oilasida tug‘ildi. Shosh, Buxoro, Samarqand shaharlarida ta’lim olib, so‘ng Rey, Isfahon, Hamadon shaharlarini bosib o‘tib, Bag‘dodga kirib bordi. 70 dan ortiq tilni, o‘z davrigacha yaratilgan ilmiy-falsafiy boylikni chuqur o‘zlashtirdi. Forobiy saroy doiralaridan iloji boricha o‘zini uzoq tutgan, kamtarona hayot kechirgan, faqat umrining oxirida Xalab hokimi Sayfuddavla (943-967) iltifotiga sazovor bo‘lib, uning homiyligida birmuncha barakali ijod qilishga tuyassar bo‘lgan. Arab dunyosining Misrdan tortib ko‘p shaharlarini kezib chiqqan alloma Damashq shahrida vafot etgan va o‘sha yerga dafn etilgan.

Forobiy 160 dan oshiq asar yozgan qomusiy bilim sohibi edi. U yunon faylasuflari merosini chuqur o‘rganib, ularga sharhlar yozdi. Ayniqsa, Aristotelning murakkab falsafiy asarlarini batafsil sharhlab berdi. Uning sharhlari asosida katta bir guruh allomalar yunon falsafa maktabi mazmunini yangicha talqinda o‘zlashtirdilar. Bundan tashqari Forobiy ilmning turli yo‘nalishlari bo‘yicha (falsafaning umumiyligi masalalari, bilish nazariyasi, fanlar tasnifi, matematika, astronomiya, muzika, adabiyot nazariyasi, notiqlik san’ati, fizika, kimyo, tibbiyat, biologiya, etika, pedagogika, huquqshunoslik, davlatni boshqarish nazariyasi, siyosatshunoslik va boshqa turli sohalarda) mustaqil risolalar yarattdi.

Insonning baxt-saodatga erishuvi, fozil jamiyat va uning hukmdori haqidagi Forobiy olg‘a surgan g‘oyalar keyingi asr allomalari tomonidan yanada rivojlantirilib, insoniyat tarixini to‘g‘ri tushunish va talqin qilishda yangicha yondashuvlarga asos soldi. Forobiy merosi XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy va boshqa tillarga tarjima qilinib,

Evropa xalqlari ma'naviyatini boyitishga xizmat qildi. Forobiy va uning ijodiy faoliyati haqida katta monografik risolalar o'zbek tilida bosilib chiqqanligi uchun bu haqda ortiqcha ta'rif shart bo'lmasa kerak. Faqat bir narsaga e'tibor berishni bugungi kun taqozo qiladi. Allomaning borliq haqidagi yaxlit tasavvuri va talqinlari sobiq sovet davri hukmron mafkurasi talablaridan kelib chiqib ko'p jihatlari chalkash talqin etilgan.

Forobiy sof falsafiy Tavhid ta'limotini yaratishni niyat qilgan, desak to'g'riroq bo'lar. Uning mulohazalari islomdan tashqarida emas, balki ilohiy kitobda ta'kid etilgan Tavhid ta'limotini to'g'ri talqin etishga tomon yana bir pog'ona yuqoriyoq ko'tarilish, deyish ma'qulroq ko'rinadi. Shu o'rinda Aristotel va Forobiy, kengroq olsak, qadim Yunon mumtoz falsafasi va islom ma'rifatchiligi davri bilan Tavhid falsafasi orasidagi nisbat haqida ba'zi mulohazalarga ehtiyoj seziladi. Nega islom ma'rifatchilari Homerning badiiy ijodiga yoki Esxil va Sofokl tragediyalariga kamroq e'tibor berib, Aflatun va Arastu falsafasiga ayricha diqqat qaratdilar? Avval musulmon mutafakkirlari yunon badiiy adabiyotidan xabardor bo'limganlar deb faraz qilindi, ammo bu noto'g'ri bo'lib chiqdi. Bizning nazarimizda, masalaning mohiyati boshqacharoq. Ma'lumki, qadim yunon madaniyati asotir tafakkur bosqichida (fikrlash tarziga ko'ra olganda «Avesto» madaniyatining mantiqiy davomi sifatida) shakllangan. Shu sababli u davr badiiy adabiyoti ham xalqqa yaxshi ma'lum bo'lgan asotir timsollarga tayanib yaratilgandir. To Aflatun falsafasiga qadar biz shu holatni mushohada qilamiz. Aflatun falsafasida asotir timsoliy qobiq yoki po'stloqqa aylangan. Asl idealizm – bu Aflatun falsafasidir. Undagi ideyalar olami haqidagi tasavvur asotir tafakkur qobig'ida yangi bir dunyoqarash – borliqning falsafiy talqini yaralib kelayotganidan darak berardi.

Forobiyni va umuman, X-XI asr musulmon donishmandlarini Aristotel falsafiy merosiga jazb etgan narsa xuddi shu holat, ya'ni asotir tafakkurni sof falsafiy dunyoqarash yengib o'tganligi bo'lsa, ajab emas.

Shu nuqtai nazardan Aristotel qarashlari Borliq haqiqatini ochiq ko'z bilan, ya'ni sof aql ko'zi bilan idrok etishdagi bиринчи qadam bo'lib, Forobiy talqinida bu qarashlar sohibi Birinchi muallim nomini oldi. Talqin etuvchining o'zi esa Ikkinchi muallim ataldi. Shu o'rinda yana Navoiy yaratgan timsollar yodga tushadi. Suqrot Farhodni ming yil kutganini aytadi. Aristotel merosi ham turk yigit Abu Nasr Muhammadni 14 asr kutdi. Islomgacha ahli bashar falsafiy tafakkuri avj nuqtasi bilan Tavhid falsafasining sof aqlga tayangan ifodasi tutashuvi shu tariqa amalga oshdi.

Forobiy timsolida milliy tafakkurimiz umumbashariy miqyosga ko'tarildi, ya'ni Forobiy falsafasi o'zidan oldingi umumbashariyat mantiqiy tafakkurining cho'qqisi - Aristotelning borliqni idrok etish darajasiga yetishib, undan ilgarilab ketdi. Islom Tavhid falsafasining Forobiyan keyingi taraqqiyoti butun bashariyatni tafakkur taraqqiyotida yangi pillapoyalardan yuqoriga olib chiqib keta boshladи.

3-topshiriq. «Qadimgi turkiy til terminologiyasi» mavzusi yuzasidan keysni bajaring.

Ishdan maqsad: Qadimgi turkiy til terminologiyasi rivojlanishi dinamikasi bo'yicha asosiy ko'nikmalarini takrorlash. Terminlanlardan va lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini egallash.

Masalaning qo'yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- qadimgi turkiy til matnlaridan terminlarni topish;
- turkiy til obidalari matnida qo'llangan sof turkiy terminlarni aniqlash;
- manbalarida qo'llangan arabcha o'zlashma terminlarni topish;
- manbalarida qo'llangan boshqa o'zlashma terminlarni topish.

4-topshiriq. «Avesto», Qadimgi Xorazm tili, Baqtriya, So'g'd va Sak tiliga oid manbalardan qo'llangan soha terminlarini toping.

5-topshiriq. Qadimgi turkiy til terminlogiyasiga oid terminlarni mavzuiy guruhlarga ajrating. *Tabg'ach, Etukan yish, Bekli cho'l, Rabati o'g'uz, Chambud, Basug'un, Yugnak, Yassi, arg'u, turk, qarluq, chigil, tatar, avar, qitaniy, tangut, Irtish, Selenga, Qarako'l, Yartiko'l, Kazliko'l, Balqashko'l, adig', bichin, at, arslan, ingak, buqa, arqar, soqaq, toba, tabishqan, ag'ru, suruk, ata, apa, og'ul, qiz, qatun, ar, ini, ag'a, achi, yigun, choluoq, kalin.*

Toponimlar	Etnonimlar	Gidrotoponimlar	Zoonimlar	Qon-qarindoshlik terminlari

6-topshiriq. Qadimgi turkiy tilga oid quyidagi o'zlashma terminlarni leksik-semantik jihatdan bir-biriga moslashtiring.

1.	Toponimlar						A	hargiz, hanuz		
2.	Somatik terminlar						B	agar		
3.	O'lchov tushunchasini ifodalovchi terminlar						S	padsha		
4.	Qurilishga oid terminlar						D	dost, dushman		
5.	Jism tushunchasini ifodalovchi terminlar						E	hanuz		
6.	Payt tushunchasini ifodalovchi terminlar						F	dohar		
7.	Antonimlar						G	dor		
8.	Mansab ifodalovchi terminlar						H	baland, bisyar		
9.	Shart ma'nosini ifodalovchi terminlar						I	apdam		
10.	Bog'lovchi vazifasida keluvchi terminlar						J	Kant, bao', buzruk		
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan falsafa faniga oid 50 ta terminini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzularga esse yozing.

«Qadimgi turkiy til terminologiyasi», «Qadimgi turkiy til va terminologiya sohasinng rivoji», «Abu nasr Forobiyning terminologiyaga qo'shgan hissasi», «Abu Rayxon Beruniy – fitonim terminlarining asoschisi», «Abu Ali ibn Sinoning terminologiya sohasiga qo'shgan hissasi».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yoki ijodiy yondashgan holda videorolik yarating.


4-topshiriq. Beruniyning «Saydana» asarida berilgan terminlarni topib, ularni tasniflab kichik lug'at yarating.

5-topshiriq. «Avesto» va sug'd tilida uchraydigan, hozirgi kunda ham qo'llaniladigan terminlar haqidagi fikrlarning qaysilari to'g'ri?

1. A. *xapta* – hafta, yetti ma'nolarini anglatadi.
2. B. *band* – bog'lab qo'yish ma'nosini anglatadi.
3. C. *zar - yorug 'lik* ma'nosini anglatadi.
4. D. *bihisht* – eng yaxshi jahon ma'nosini anglatadi.
5. E. *nau* (nav) – eski ma'nosini anglatadi.

Faqat to'g'ri javoblar yoziladi (noto'g'ri javoblar yozilmaydi).

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.



So'g'd tilida uchraydigan va hozirgi kunda ham qo'llaniladigan mazkur terminlarni ma'nolariga mos juftlang.

1.	kand (kent)	A	yangi uy-joy, makon.			
2.	tak	B	to‘rt qurilish, gumbaz;			
3.	kat	C	daryo bo‘yidagi makon, qo‘rg‘on			
4.	Katob (Kitob)	D	uy-joy, makon			
5.	Chortak (Chortoq)	E	qurilish, gumbaz;			
6.	Navkat (Navqat)	F	Shahar			
Javob	1 -	2-	3-	4-	5-	6-

5-topshiriq. 1-kurs akademik litseylar uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligida berilgan «Avesto»ning matnidan teonimlarga oid terminlarni yozish va kichik lug‘at tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи // Танланган асарлар. З жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012, 226-441-б.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002, 3-26-б.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
4. Йўлдошев Б. «Ўзбек тилшунослиги тарихи» фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012. – 164 б.
5. Ўринбоев Б., Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. – Навоий, 2002.
6. Ўринбоев Б., Курбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006, 7-39-б.
7. Абу Али ибн Сино. Фонетика ҳақида рисола. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979.
8. Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971.

9. Хайруллаев М. Абу Наср Форобий. – Тошкент: Фан, 1961.
10. Бердиёров X., Хўжаев Т., Йўлдошев Б. Умумий тилшунослик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1979.

2.2. Eski turkiy til terminologiyasi Reja:

1. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari.
2. «At-tuhfa» asarining terminologiyadagi o'rni.
3. Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asari.

Tayanch tushunchalar: *Eski turkiy til, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, Mahmud Qoshg'ariy: «Devonu lug'otit turk», Mahmud Zamaxshariy: «Muqaddimat ul-adab».*

Eski turkiy til manbalari muayyan til qoidalari, ularda yuz bergan jarayonlar, qolaversa, yozilish tarixi nuqtai nazaridan ilk eski turkiy til (XI-II) va XIII-XIV asrlarda qo'llangan eski turkiy til tarzida tasniflanadi. Sakkizinch asrdan e'tiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolalar (qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari obyektiv jarayonlar ostida o'zligini yo'qotmagan eski turkiy til (XI-XIV)da terminologik leksika ko'laming bir qadar kengayganini kuzatish mumkin.

Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga asosan qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtida yuzaga kelgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», adib Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlari», Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab», muallifi noma'lum «O'g'uznama» singari asarlar taalluqlidir. Bu asarlar shuningdek **dz** tilli manbalar deb yuritiladi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilning o'ziga xos jihatlaridan biri *yadag'* «yayov, piyoda», *adag'*

«oyoq», *adgu* «ezgu», *qadg'u* «qayg'u, alam, iztirob» singari leksemalarning inlautida d fonemasi ishlatilgan. X-XI asrlardan e'tiboran mazkur fonemaning *dz* shakliga o'tishi qonuniyat tusini olaboshlagan va keltirilgan so'zlar *adzag'*, *adzgu*, *qadzg'u* tarzida qo'llanishda bo'lgan.

XIII-XIV asrga kelib *dz* tovushining sekin-asta y tovushi bilan almashilish jarayoni kuzatiladi. Ushbu jarayon taxminan XV asr boshlariga qadar davom etgan. Ya'ni *yadzag'*, *adzag'*, *adzgu*, *qadzg'u* kabi sof turkiy so'zlar yayag', ayag', ezgu, qayg'u shakllari ham qo'llanavergan. Ba'zi manbalar matnida har uchala shaklli so'zlarning ishlatilganining guvohi bo'lamiz. Masalan, Nosiruddin Rabg'uziyning 1310-yilda Raboto'g'uz beki Nosiruddin To'qbo'g'abek iltimosiga ko'ra yaratilgan «Qissai Rabg'uziy» asari tilida «quduq» ma'nosini ifodalash uchun nafaqat so'zning asar yaratilgan davrga oid *quduq*, *quyuq* shakllari, balki qadimgi *quduq* shakli ham ifodasini topgan. Mazkur ashyoviy material XIV asrda Xorazmda d tovushining dz tovushiga o'tish jarayonining to'la-to'kis yakunlanmaganligi, ayni chog'da tilda yetakchilik qilgan dz tovushining y tovushiga o'rnini bo'shatib bera boshlaganidan dalolatdir. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida yuqorida tahlilga tortilgan leksemaning *quduq* rudiment shakli saqlanib qolgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida fotih arablar hamda salkam yuz yil taxt tepasida turgan somoniylar vaqtida qaddi dol holatiga tushib qolgan turkiy tilning qomati ma'lum darajada rostlandi, unda bir qator badiiy, didaktik, diniy, tarixiy asarlar yaratildi. Bizning kunimizga yetib kelgan obidalar matnidan eski turkiy til so'z boyligining o'ta rang-barang, miqdor jihatdan salmoqli, asosan, o'z qatlamidan iborat bo'lganligini ilg'ash qiyinchilik tug'dirmaydi. Ayni chog'da eski turkiy til so'z boyligining rivojlanishida arab, fors-tojik tillarining ham sezilarli ta'siri bo'lganligini inkor etish mumkin emas, albatta. Eski turkiy til leksikasining o'ziga xos jihatlari o'sha davrlarda tuzilgan leksikografik

manbalarda ravshan aksini topgan. Boy madaniy merosga ega bo'lgan turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining tarixida Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari alohida ahamiyatga molik. «Devon» o'z davridagi turkiy qabilalarning so'z boyligi, lug'atini izohlashga, so'zlarning ma'no va ma'no nozikliklarini ochib berishga, turli qabila tillari o'rtasidagi xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ko'rsatishga mo'ljallangan. Mahmud Qoshg'ariy eskirgan (arxaizm) so'z namunasini ko'rsatib, ularning adad jihatdan ko'pligini e'tirof etgan. Bu holat «Devon»da izohlangan tilning juda qadimiyligini belgilaydi. Lug'atdan o'rinni olgan so'zlar ikki, ya'ni ism va fe'llarga taqsimlangan holda izohlangan. Dastlab ismlar, so'ngra fe'llar berilgan. Ismlarda ham, fe'llarda ham oldin hamza (*u*, *o*, *a*) harflari bilan boshlagan so'zlar, keyin maxsus alifbo tartibida *b*, *t ba* h.k. harflar bilan boshlangan leksemalar izohini topgan. Mahmud Qoshg'ariy lug'at materiallarini yig'ish asnosida nafaqat jonli so'zlashuv tili materiallari, shuningdek, eski turkiy til terminologiyasi tizimiga doir ko'pdan-ko'p terminlarni ham to'plagan va izohlagan. Chunonchi, *su* «lashkar, armiya», *oq* «o'q», *im* «parol», *alp* «qahramon, botir», *sungu* «nayza», *urush* «jang», *atlig'* «suvoriyilar», *tutg'aq* «ayg'oqchi qism» va h.k., *qag'an* «xoqon», *xan* «xon», *yafg'u* «oliy lavozim egasi», *tutuq* «harbiy gubernator singari ijtimoiy-siyosiy terminlar shular jumlasidandir.

Eski turkiy va eski o'zbek adabiy tili so'z boyligini o'zida mujassam etgan leksikografik manbalar sirasiga avvalgi mavzuda ta'kidlanganidek, arab tilida yaratilgan bir qator risolalarni kiritish o'zini oqlaydi. Zotan, «Kitob ul idrok», «Tarjumon», «At-tuhfa», «Kitob ul-bulg'ot», «Al-qavonin» singari filologik risolalar asosan turk tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan qo'llanma vazifasini o'tagan bo'lsa-da, biroq bu asarlarda turkiy tillarning so'z boyligi, ularning strukturasi, tematik guruqlariga oid qimmatli ma'lumotlar aksini topgan.

Turkiy-qipchoq tili fonetikasi, leksik boyligi, morfologiyasini arab millati vakillariga tanishtirish uchun yuzaga chiqqan «Tarjumon turki va

ajami va mo‘g‘ali» risolasi to‘rt qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda ismlar, ikkinchi qismda fe’l masdari buyruq mayli, uchinchi qismda so‘zlarning turlanishi va fe’llarining tuslanishi, to‘rtinchi qismda so‘zlarning qo‘llanish qoidalar haqida mulohaza yuritgan. Asarning birinchi ismlar haqidagi qismi 26 faslni o‘z ichiga olgan. Bular: oson va unga tegishli narsalar, yer va undagi joylar, daraxtlar, mevalar, o‘simliklar, ekin va donlar, qushlar va ularga o‘xshash narsalar, yirtqich hayvonlar, hashoratlar, otlar va ularning turlari, ot abzali, qurol-aslaha va urush asboblari, tuya va qoramollar, qo‘y va echkilar, oziq-ovqat va sutlar, uy asbob-anjomlari, palos, ayollarga xos narsalar, kiyim-kechak, gazmol, uning xillari, insonning tashqi va ichki a’zolari, son va sanoq sonlar, hunar turlari, martabalar, kishilarning sifatlari, har bir narsaning nomi va ularning zidi, vaqt, turki va turkiy bo‘lmagan ismlarning izohi, ranglar va ularning orttirma darajalari, ma’danlar, qarindosh urug‘lar, xo‘jayin, qul-cho‘ri, tanish-bilishlar va dard-kasalliklar, dori-darmonlar va o‘lim haqidagi fasllardan tashkil toptirilgan. Ayni shunga yaqin fikrni «At-tuhfa»ning tuzilishi borasida ham bildirish mumkin. Harflar bo‘limidan keyin bevosita so‘zlarning izohi, ma’nosи ochilgan. Izohlanayotgan so‘zlar qanday harf bilan boshlanishi jihatidan guruhlashtirilgan: hamza harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar-*tangri* «Olloh», *kichi* «kishi», *qadash* «aka», *tul* «tul», *yalmag‘ay*, *saqalsiz* «saqolsiz», *solagay* «chapaqay», *tumav*, *tumag‘* «tumov» va h.k., b/p harfli so‘zlar *qarin* «egov», *qizliq* «qizlik, bokiralik», *qut* «baxt», *qizg‘ansh* «baxil», *abdal* «ahmoq», *kol* «ko‘l» va h.k. Asar boy leksik materialni qamrab olgan bo‘lib, unda katta miqdordagi sinonimlar, antonimlar, omonimlar qatori boshqa filologik risolalarda qayd etilmagan leksemalarning ham mavjudligi bilan ahamiyat kasb etadi. Asarning leksik tarkibi taxminan 8000 ga yaqin so‘zlardan iborat bo‘lib, 1729 tasi ot, 1185 tasi fe’l, 313 tasi sifat, 92 tasi son, 53 tasi olmosh, 34 ravish, 22 tasi bog‘lovchi, 32tasi ko‘makchi, 7 tasi yuklama, 6tasi undovlardir. Asarning lug‘at qismi 36 tematik guruhni tashkil qiladi.

Asar muallifi va boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, «Attuhfa»ning til materiallari turkiy tillar va shevalarga xos bo'lib, aralash tilning qipchoq-o'g'uz tipi xususiyatlarini ifodalaydi.

O'zbek leksikografiyasining shakllanishida Mahmud Zamaxshariyning (18.03.1075 -1144) «Muqaddimat ul-adab»(Adab ilmiga muqaddima) asari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Otsiz Xorazmshohga bag'ishlab tuzilgan asardagi arabcha so'zlar ostida forscha va turkiycha tarjimalarning berilishi o'zbek tarixiy leksikologiyasi, leksikografiysi va terminologiyasi uchun qimmatli hisoblanadi. Lug'at besh qismdan iborat bo'lib, ot, fe'l, bog'lovchi hamda ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi. Lug'at muallifi asarda o'sha davr arab tilida qo'llanishda bo'lgan hamma so'zlarni, iboralar, terminlarni qamrab olgan holda izohlashga harakat qilgan, ularning etimologiyasini aniqlashga intilgan. Lug'at arabchadan fors, eski o'zbek tili (chig'atoy tili), mo'g'ul hamda turk tillariga ilk bor 1706-yilda Xoja Is'hoq afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan. Zamaxshariyning mazkur asarida she'rshunoslik, uslubshunoslik xususida ham bahs yuritilgan. Badiiy tasvir vositalariga aniq, lo'nda izohlar keltirilgan. Chunonchi, kinoya va tarz badiiy san'atlari orasidagi farqni ko'rsatib bergen va shu jihatdan terminologiya sohasiga o'z hissasini qo'shgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Qoraxoniylar davrida yaratilgan asarlarni mualliflari bilan juftlang.*

1.	Yusuf Xos Hojib	A	«O'g'uznomा»
2.	Mahmud Qoshg'ariy	B	«Muqaddimat ul-adab»,
3.	Ahmad adib Yugnakiy	C	«Hikmatlar»
4.	Ahmad Yassaviyning	D	«Hibat ul-haqoyiq»,
5.	Mahmud Zamaxshariyning	E	«Devonu lug'otit turk»
6.	Muallifi noma'lum asar	F	«Qutadg'u bilig»
Javob	1 -	2-	3-
	4-	5-	6-

2-topshiriq. «*Devoni lug'atit turk*» asarida berilgan terminlarni ma'nolari bilan juftlang.

1.	su	A	hukmdor, yurtboshi			
2.	elchi	B	lashkar			
3.	qag'an	C	xoqondan keyingi oliy lavozim egasi			
4.	yabg'u	D	hukmdor			
5.	xatun/qatun	E	malika			
6.	tutug'	F	tuman hokimi			
Javob	1 -	2-	3-	4-	5-	6-

3-topshiriq. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri?

- ✓ Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Ahmad adib Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i, Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab», muallifi noma'lum «O'g'uznama» singari asarlar taalluqlidir.
- ✓ Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga «Avesto», xorazmiy, baqtriy, so'g'd, sak tili va yozuviga oid asarlar taalluqlidir.
- ✓ Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga kiruvchi asarlar **dz** tilli manbalar deb yuritiladi.
- ✓ Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o'z davridagi turkiy qabilalarning so'z boyligi, lug'atini izohlashga, so'zlarning ma'no va ma'no nozikliklarini ochib berishga, turli qabila tillari o'rtasidagi faqatgina terminologik birliklarni ko'rsatishga mo'ljallangan.
- ✓ Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga kiruvchi asarlar **sh** tilli manbalar deb yuritiladi.
- ✓ Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o'z davridagi turkiy qabilalarning so'z boyligi, lug'atini izohlashga, so'zlarning ma'no va ma'no nozikliklarini ochib berishga, turli qabila

tillari o'rtasidagi xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ko'rsatishga mo'ljallangan.

✓ XIII-XIV asrga kelib *dz* tovushining sekin-asta y tovushi bilan almashilish jarayoni kuzatiladi.

✓ «Tarjumon turki va ajami va mo'g'ali» risolasi to'rt qismdan iborat bo'lib, asarning birinchi ismlar haqidagi qismi 26 faslni o'z ichiga olgan.

✓ Nosiruddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» asari tilida *dz* tovushining *d* tovushi bilan almashilish jarayoni kuzatiladi.

✓ «Devon» Muqaddima va Lug'at qismidan iborat.

✓ «Devon» Muqaddima, Ilova, Asosiy qism va Lug'at qismidan iborat.

✓ «Kitob ul-idrok», «Tarjumon», «At-tuhfa», «Kitob ul-bulg'ot», «Al-qavonin» singari filologik risolalar asosan turk tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan qo'llanma vazifasini o'tagan.

✓ «Tarjumon turki va ajami va mo'g'ali» risolasi besh qismdan iborat bo'lib, asarning har bir qismi 26 faslni o'z ichiga olgan.

✓ Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» (Adab ilmiga muqaddima) asari terminologiya uchun qimmatli hisoblanadi.

4-topshiriq. «Besh minutlik esse» usuli bo'yicha mavzu yuzasidan nimalarni o'rganganliklaringizni mustaqil bayon qiling va javobini topolmagan bitta savol bering.

5-topshiriq. Eski turkiy til terminologiyasiga oid arabcha va forstojikcha o'zlashma terminlarni ma'nolari bilan moslashtiring.

1.	Alim	A	qarz, kredit
2.	Bitigchi	B	mirza, munshiy
3.	Yatg'aq	S	tungi soqchi
4.	Yarisha	D	ko'rshapalak

5.	Yarg‘uchi						E	qozi, sudya		
6.	Malik						F	hukmdor		
7.	Handasa						G	geometriya		
8.	Darug‘a						H	qal‘a, qo‘rg‘on boshlig‘i		
9.	Muranay						I	sotuvchi		
10.	Lashkar						J	qo‘shin		
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Nazorat uchun savollar.*

1. O‘zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida leksikografiyaning ta’siri qanday bo‘lgan?

2. O‘zbek leksikografiysi qanday an’anlar va prinsiplarga suyangan tarzda shakllandidi?

3. O‘zbek leksikografiysi va terminologiyasida Maxmud Qoshg‘ariyning hissasi haqida nimalar bilasiz?

4. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishida «Devonu lug‘otit turk»ning qanday ulushi bor?

5. «Muqaddimat ul-adab» necha tillik lug‘at?

6. O‘zbek terminologiyasining rivojida Zamaxshariyning hissasi qanday bo‘lgan?

2-topshiriq. «Eski turkiy til terminologiyasi» mavzusi yuzasidan keysni bajaring.

Ishdan maqsad: Eski turkiy til terminologiyasi rivojlanishi dinamikasi bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. Terminlardan va lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini egallash.

Masalaning qo‘yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:


- eski turkiy til obidalari matnida qo‘llangan so‘f turkiy terminlarni aniqlash;

- eski o'zbek adabiy tili manbalarida qo'llangan o'zlashma terminlarni ko'rsatish;
- «Devonu lug'otit turk»dagi terminlar talqinini izohlash;
- «Qutadg'u bilig» pandnomasida qo'llangan harbiy terminlarni sharhlash;

3-topshiriq. Mavzuni «FSMU» usulida tahlil qiling.

4-topshiriq. Qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasini qiyoslang va o'xshash, farqli jihatlarini ko'rsating. «Venn diagrammasi» usuli asosida tahlil qiling.

5-topshiriq. Rasmlarda kimlar tasvirlangan, ularning terminologiyaga oid fikrlari yoki asarlarini keltiring va izoh bering.



MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan falsafa faniga oid 50 ta terminni daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzularda esse yozing.

«Eski turkiy til terminologiyasi», «Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida terminlarning qo'llanishi», «Mahmud Qoshg'ariyning terminologiyaga oid qarashlari», «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida soha terminlarining o'rni», «Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» va terminoligiya», «Mahmud Zamaxshariyning terminologiyaga oid qarashlari».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yoki videorolik yarating.

4-topshiriq. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida qo'llangan terminlarni yozib oling va kichik lug'at tayyorlang.

5-topshiriq. Sartaroshlikka oid terminlarni to'plab, kichik lug'at tayyorlang (Eslatma: sartaroshxonaga borib, usta bilan suhbatlashib, nomma-nom yoziladi).

Adabiyotlar:

1. Абдушукоров Б. Эски туркий тил лексикаси. – Тошкент, 2015.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент, 1940.
3. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.

4. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан.
– Тошкент: Фан, 1981.

2.3. Eski o'zbek adabiy tili terminlogiyasi Reja:

1. XIV asrga oid arab tilida yozilgan grammatik (filologik) risolalar.
2. Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» asarlari.
3. Alisher Navoiy asarlarida terminlarning qo'llanilishi.

Tayanch tushunchalar: Abu Hayyon: «Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok», Mamlyuklar davlati, Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy: «Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali», «Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya», Jamoluddin Turkiy: «Kitob bulg'at al-mushtoq fi-l-lug'atit- turkiya va-l-qifchaq», «Al-qavoninu-l kulliya li-zabtil-lug'atitturkiya».

O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasining qaror topishida XIV asrga oid arab tilida yozilgan grammatik(filologik) risolalarining sezilarli o'rni borligi turkologiyada allaqachon e'tirof etilgan. Turkiy tilning grammatikasi haqida bahs yuritishga yo'naltirilgan Abu Hayyonning (vafoti 1344-yil) «Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok», M.T.Xoutsma fikricha, 1245-yilda Mamlyuklar davlati(1250-1517)da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan «Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali», muallifi noma'lum «Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya», Jamoluddin Turkiyning «Kitob bulg'at al-mushtoq fi-l-lug'atit- turk va-l-qifchaq», XVI asr boshida Qohirada ta'rif etilgan «Al-qavoninu-l kulliya li-zabtil-lug'atitturkiya» singari asrlarda turkiy tilning so'z boyligi, alalxusus, terminlar tizimi ma'lum darajada ifodasini topgan. Mazkur davr

asarlarida qayd etilgan turkiy til leksikasi, chunonchi, terminlar tizimini «Tarjumoni turki va ajami va mug‘ali»da keltirilgan quyidagi mavzuiy guruhlarning ajratilganini qayd etish bilan cheklanamiz: *kishi nomlari* – Alaqush, Aqtay, Altuntash, Baybars, Sonqur va h.k.; *Astronomilar*: Ulkar; *geografik nomlar*: Sham, Misr; *zoonimlar*: at, okuz, qatir, bog‘a, ayg‘ir va h.k.; *yirtqich hayvonlar*: aslan, sirtlan, bori, tulku va h.k.; *qush va hashoratlar*: qartal «burgut», sarcha «chumchuq», qaz, qarlag‘ach, qarg‘a va h.k.; *harbiy asbob-anjomlar* ya, kirish «yo‘y ipi(tetiva)», sungu «nayza», qalqan, choqmar va h.k.; *tibbiy terminlar*: yig/ik «kasallik, illat», ag‘ri «og‘riq», sokan «bemor, kasal», isitma, oturmak «yo‘tal» va h.k.; *musiqiy terminlar*: duduk «musiqa asbobi», tomru «do‘mbira», yaqliq «rubob», sibizg‘u «sivizg‘a» va h.k.

O‘zbek leksikografiyasining shakllanishida Alisher Navoiy va o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlariga tuzilgan lug‘atlarning roli sezilarlidir. Jumladan, Husayn Boyqaro mirzo ko‘rsatmasiga binoan 1405-yilda Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan «Badoye ul-lug‘at», Turkiya (Rum)da yaratilgan muallifi noma’lum chig‘atoycha(eski o‘zbekcha)-usmonli turkcha «Abushqa» (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o‘zbekcha-forscha «Sanglox» (1748), Fathali Kojar Qazviniyning 1862 - yilda tuzilgan «Lug‘ati atrokiya», Ya’qub Chingiyning «Kelurnoma», Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy» kabi asarlar o‘zbek lug‘atnavisligining durdonalari safidan o‘rin olgan.

Abu Muzaffar Muhitdin Avrangzeb (1658-1707) saroyida xizmat qilgan Muhammad Yoqub Changiy «Kelurnoma» asarini yaratdi. Bu asar ikki xil lug‘atning ajoyib namunasidir. Lug‘at 15 bobdan va 332 fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alfaviti asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe’llarni izohlashga bag‘ishlanadi. Sarlavha so‘z sifatida fe’lning infinitiv shakli beriladi.

O‘zbek tilshunosligi tarixida terminologiya masalalarini o‘z ichiga olgan lug‘atlar ham uchraydi. Ana shunday lug‘atlardan biri Mirza

Mehdixonning «Sangloh» lug‘atidir. Bu lug‘at «Maboni ul-lug‘at» («Til asoslari») nomli grammatik ocherkni ham o‘z ichiga oladi. Unda Mirzo Mehdixonning lingvistik qarashlari atroflicha berilgan. Lug‘at 1172-1173 - yillarda yozilgan. Lug‘atda fe’l zamonlari, affikslarining fonetik variantlari, olmoshlar hamda umuman grammatik terminlar haqida fikr yuritiladi.

Xonliklar davrida tilshunoslik sohasida maxsus asarlar yuzaga kelmagan bo‘lsa ham, tarix, adabiyotshunoslikka oid asarlarda terminologiyaning ayrim masalalari e’tirof etiladi. Bu jihatdan Abulg‘oziy Bahodirxonning «Shajrai turk», «Shajrai tarokima» asarlari alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining «Shajrai turk» asari to‘g‘risida shunday deydi: «Bu tayirg‘a xudoyi taolo inoyat qilib, ko‘p nimarsa bergen turur. Xususan, uch hunar bergen turur. Avval sipohigarlikning qonuni va yo‘sinkim, nechuk otlanmoq va yurumak va yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq. Do‘stga, dushmanga nechuk so‘zlashmak. Ikkinci, masnaviyot va qasoid va g‘azaliyat va muqatta’ot va ruboiyot va barcha ash’orni fahmlamaklik, arabiya va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik. Uchinchi, odam axdindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshog‘larning otlari va umrlarining va sultanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik¹».

Abulg‘oziy Bahodirxonning tilga bo‘lgan munosabati yuqoridagi ikki asarda o‘z ifodasini topadi. Muallif har ikki asarda onomastik (antroponomik, toponimik, etnografik) ma'lumotlar berayotgan paytda, avvalo, uning etimologiyasi haqida so‘z yuritadi. Masalan, *mungul-mo‘g‘ul-soddadil*, ya’ni *qayg‘uli sodda* demakdir; *do‘rman-do‘rmon – to‘rt demakdir*. Yana oqayotgan suvni turklar soy, tojiklar *rudxona*, arablar *vodiy* derlar; *qiyot* tog‘dan oqqan suv va boshqalar.

¹ Абдусаидов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўкув-услубий мажмуа. – Самарқанд, 2013. - Б.167.

Abulg'ozи Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asarida quyidagi terminlar keltirilgan:

1. Qarindosh urug'chilikka oid terminlar: *ko 'chini-xotini, hilayi-xotini, o 'g 'lon-ushoq - bola-chaqa, o 'g 'il-o 'g 'il, er-er, xotun-xotin, kelin-kelin, do 'st-do 'st; ota-ota; ini-uka*

2. Geografiya faniga oid terminlar: *atil suyi-volga daryosi, yoyiq-yoyiq daryosi, yoyleash-yozda yashaydigan joy, kend-aholi yashaydigan joy, Mozandaron-Erondagi joy nomi; Tajan-suyi-Tajan daryosi; tengiz-dengiz; tushluq-janub; Tin suyi-don daryosi; temurqoziq-shimol; Xavorazm-xorazm;*

3. Zoologiya faniga oid terminlar: *tabushqan-quyon, qoz oyog 'i-g 'oz oyog 'i, taquq-xo 'roz, tovuq, teva-tuya, chiyin-chivin, semurg '-qush, qo 'y-qo 'y, yilqi-ot.*

Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli so'zlashuv tili, turfa sheva materiallari qatori so'z yasash andozalari – modellari asosida yuzaga chiqqan istilohlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy tildan farqli o'laroq eski turkiy tilda sanskrit, so'g'd, xitoy tiliga oid o'zlashmalarning ishlatalish sur'ati pasaydi, aksincha, arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalarning qo'llanish chastotasi va ko'lami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o'zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom etdi. *Alim* «qarz, kredit», *berim* «to'lov, qarzni qaytarish», *beglig* «beklik», *bitigchi* «mirza, munshiy, kotib», *yatg'aq* «tungi soqchi», *yarisha* «ko'rshapalak», *yarg'u* «ajrim», *yarg'uchi* «qozi, sudya» kabi turkiycha, *rabat* «karvonsaroy», *malik* «hukmdor», *siyasat* «siyosat», *omil* «ish yurituvchi», *tib* «meditsina, tibbiyat», *nujum* «astrologiya», *handasa* «geometriya» singari arabcha, *lashkar* «qo'shin», *mayfurush* «may ichuvchi; may sotuvchi» singari forscha-tojikcha, *darug'a* «qal'a, qo'rg'on komendanti», *muranay* sotuvchi» singari forscha-tojikcha, *darug'a* «qal'a, qo'rg'on

komendanti», *muran* «daryo», *nukar/navkar* «navkar, askar» kabi mo‘g‘ulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng ko‘lamda ishlatilgan.

Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqoriqoq bosqichga ko‘tarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi ta’sirning, ya’ni ekstralengvistik omillarning roli salmoqli bo‘lgan. O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Otoiy, Sakkokiy, Yaqiniy singari salaflari, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy, Munis kabi shoirlarning leksik boyligi tahlilidan kelib chiqqan holda aytish joizki, o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalanilgan tarzda termin yaratish bu davr uchun ancha sermahsul usul hisoblangan. Ona tiliga millatning bosh ko‘zgusi tarzida munosabatda bo‘lish zaruriyatining Alisher Navoiy tomonidan ziyolilar, olimlar, shoiru yozuvchilar oldida kun tartibiga qat’iy va ro‘y-rost qo‘yilishi o‘z ijobiylar aksini terminlar tizimida ham topgan edi. Aniq fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining shakllanib borish jarayoni ularga taalluqli maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar yaratilishi bilan parallel kechdi. Bunda birinchi galda eski o‘zbek adabiy tili, jonli so‘zlashuv tili, lahja va shevalarda mavjud leksik birliklar terminlar safini kengaytirdi, o‘zbek tilida so‘z yasashda keng qo‘llangan affikslar yordamida katta adadda terminlar hosil qilindi. Alisher Navoiyning qomusiy lug‘atida quyidagi sohaga oid terminlar keltirilgan¹:

Botanika faniga oid terminlar: *Arg‘uvon* – *burchoqdoshlar* *oиласига мансуб баҳорда гуллайдиган қизил гули дарахт*; *binafsha* – *gunafshadoshlarga mansub*, *ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik*; *bo‘stonafro‘z* – *gultojixo‘roz*; *yig‘och* – *daraxt*, *yog‘och*; *lola* – *ko‘p yillik yovvoyi o‘simlik тuri*, *lolaqizg‘aldoq*; *mug‘ilon* – *cho‘lda o‘suvchi tikonli o‘simlik*; *nargis* – *chuchmomadoshlar* *oиласига мансуб xonakilashtirilgan сариқ*, *oq rangli bahor guli*; *nasrin (nastarin)* –

¹ Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2016.

zaytundoshlar oilasiga mansub bargi to 'kiladigan bo 'ta yoki daraxtlar turkumi; nilufar – nilufarguldoshlarga mansub suvda o 'sadigan gul; rayhon – lolaguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o 't; ra 'no – bir tomoni qizil, bir tomoni sariq rangdagi gul; sabza – yashillik, ko 'kat, maysa; savsan – ignabarglilar oilasiga mansub o 'simlik; sandal – marjono 'tdoshlar oilasiga mansub doim yashil o 'simlik, yoqimli hid taratuvchi daraxt; sarv – janubda tik o 'sadigan, ignabargli, doim yashil daraxt; suman – yasmin guli;

Musiqaga oid terminlar: *Abdor - o 'rta asrlar musiqa ilmining amaliy qismi; ayolg 'u - o 'tmishda mashxur bo 'lgan o 'lan va yallalarning muayyan turi; arg 'unun – damli, klavishli trubalarga yuborilgan havo yordamida chalinadigan asbob; arg 'ushtak – raqsga moslangan musiqiy usul; bayot – 12 maqom tizimi hamda shashmaqom tarkibida muayyan shubalar nomi; bam - yo 'g 'on tor, bas tovushini beradigan tor turi; barbat – ud sozining qadimgi o 'tmishdoshi bo 'lgan musiqa asbobi; bozg 'o 'y – kuy ijro jarayonida takrorlanadigan jumla, naqorat; yotug 'on – turkiy xalqlarning qadimgi mashxur torli musiqa asbobi; zer (zir) – baland tovush; yir (jir) - o 'zbek, qozoq xalqlarida qo 'shiq; mutrib - cholg 'uchi, sozanda;*

Zoologiyaga oid terminlar: *abobil – qanotlari uzun kichik qush turi; adham – qora to 'riq ot; anqo – afsonaviy qush nomi; ashhab – oqimtir, kulrang tusdagi ot; bulbul – chumchuqsimonlar turkumiga mansub sayroqi qush; burgut - qirg 'iylar oilasiga mansub yirtqich qush; durroj - qirg 'ovul; kabutar – qush nomi, dunyo mifologiyasida ruh; kuf – boyqush; samur – qunduz; ankabut - o 'rgimchak;*

Tikuvchilik va kiyim-kechakka oid terminlar: *abo – oldi ochiq, jundan to 'qilgan ustki kiyim; burqa – yuzga tutiladigan pard; debo – turli rangda tovlanuvchi harir ipak mato; jubba – darveshlarning xos kiyimi; dalq - so 'fiylarning junli kiyimi; daklay – ustki kiyim, paxtali chopon;*

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Tarjumoni turki va ajami va mug‘ali»da keltirilgan quyidagi terminlarni mavzuiy guruhlarga ajrating.

Alaqush, Aqtay, Altuntash, Baybars, Sonqur, Ulkar, Sham, Misr, at, okuz, qatir, bog‘a, ayg‘ir, aslan, sirtlan, bori, tulku, qartal «burgut», sarcha «chumchuq», qaz, qarlag‘ach, qarg‘a, ya, kirish «yoy ipi (tetiva)», sungu «nayza», qalqan, choqmar, yig‘ik «kasallik, illat», ag‘ri «og‘riq», sokan «bemor, kasal», isitma, oturmak «yo‘tal», duduk «musiqa asbobi», tomru «do‘mbira», yaqliq «rubob», sibizg‘u «sivizg‘a.

1.	Kishi nomlari:	
2.	Astronomilar:	
3.	Geografik nomlar:	
4.	Zoonimlar:	
5.	Qush va hasharotlar:	
6.	Harbiy asbob-anjomlar:	
7.	Tibbiy terminlar:	
8.	Musiqiy terminlar:	

2-topshiriq. Eski o‘zbek adabiy tili davrida yaratilgan asarlarni mualliflari bilan juftlang.

1.	Abu Hayyon	A	«Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok»
2.	Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko‘nyaviy	B	«Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug‘ali»
3.	Muallifi noma'lum	C	«Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug‘atit turkiya»
4.	Jamoluddin Turkiy	D	«Kitob bulg‘at al-mushtoq fi-l-lug‘atat- turk va-l-qifchaq»
5.	Toli Imoni Hiraviy	E	«Badoye ul-lug‘at»
6.	Muhammad Mahdiyxon	F	«Sanglox»
7.	Ya’qub Chingiy	G	«Kelurnoma»
8.	Shayx Sulaymon Buxoriy	H	«Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy»

Javob	1-	2-	3-	4-
	5-	6-	7-	8-

3-topshiriq. Abulg'ozি Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida keltirilgan terminlarni ma'nosiga ko'ra moslashtiring.

1.	handasa	A	geometriya
2.	nujum	B	astrologiya
3.	malik	C	hukmdor
4.	yarg'uchi	D	qozi
5.	yarisha	E	ko'rshapalak
Javob	1-	2-	3- 4- 5-

4-topshiriq. Eng maqbul javobni tanlang.

1. Qaysi asar to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda ismlar, ikkinchi qismda fe'l masdari buyruq mayli, uchinchi qismda so'zlarning turlanishi va fe'llarining tuslanishi, to'rtinchi qismda so'zlarning qo'llanish qoidalari haqida mulohaza yuritilgan?

- A) «Tarjumon turki va ajami va mo'g'ali»
- B) «At-tuhfa»
- S) «Minerologiya»
- D) «Kimyo»

2. ta'kidlaganidek, devon faqat izohli lug'atgina bo'lib qolmay, XI asr tilining fonetika va grammatikasi hamdir.

- A) S.Mutallibov
- B) A.Hojiyev
- S) Sh.Rahmatullayev
- D) U.Tursunov

3. Mahmud Qoshg'ariy devonda eng kam harfli ism ..., eng ko'p harfli ism harfli deb ko'rsatadi.

- A) ikki, yetti
- B) uch, besh

S) to'rt, besh

D) uch, olti

4. o'z davridagi turkiy qabilalarning so'z boyligi, lug'atini izohlashga, so'zlarning ma'no va ma'no nozikliklarini ochib berishga, turli qabila tillari o'rtasidagi xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ko'rsatishga mo'ljallangan.

A) «Devonu lug'otit turk»

B) «Tarjumon»

S) «At-tuhfa»

D) «Kitob ul-bulg'ot»

5. ning leksik tarkibi taxminan 8000 ga yaqin so'zlardan iborat bo'lib, 1729 tasi ot, 1185 tasi fe'l, 313 tasi sifat, 92 tasi son, 53 tasi olmosh, 34 ravish, 22 tasi bog'lovchi, 32tasi ko'makchi, 7 tasi yuklama, 6tasi undovlardir.

A) «Devonu lug'otit turk»

B) «Tarjumon»

S) «At-tuhfa»

D) «Kitob ul-bulg'ot»

5-topshiriq. Alisher Navoiy asarlarining qomusiy lug'atidan olingan botanika faniga oid terminlarni bir-biriga moslashtiring.

1.	Bo'stonafro'z	A	gultojixo'roz
2.	Ra'no	B	bir tomoni qizil, bir tomoni sariq rangdagi gul
3.	Suman	S	yasmin guli
4.	mug'ilon	D	cho'lda o'suvchi tikonli o'simlik
5.	binafsha	E	gunafshadoshlarga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik
6.	rayhon	F	lolaguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o't
7.	yig'och	G	daraxt, yog'och
8.	nilufar	H	nilufarguldoshlarga mansub suvda o'sadigan gul
1	2	3	4
			5
			6
			7
			8

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Nazorat uchun savollar.*

1. XIV asrda Mamlyuklar davlatida arab tilida yozilgan risolalarni tavsiflang.
2. XV-XX asr boshi eski o'zbek adabiy tili vakillari asarlariga tuzilgan qanday lug'atlar bor?
3. «Tarjumoni turki va ajami va mug'ali» lug'atida terminologiyaga oid so'zlarning qo'llanilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. XIII-XIV asrlarda o'zbek leksikografiyasining taraqqiyotiga hissa qo'shgan «Sangloh» lug'ati to'g'risida nima bilasiz?
5. «Abushqa», «Badoyi al-lug'at» asarlari qachon va kimlar tomonidan nashr qilingan?
6. «Kelurnoma» lug'ati haqida ma'lumot bering.
7. Mehdixonning «Sangloh» lug'ati qanday lug'at hisoblanadi?

2-topshiriq. «Shajarai turk» asaridan tilshunoslikka oid terminlarni yozib oling va kichik lug'at tayyorlang.

3-topshiriq. Alisher Navoiy asarlarining qomusiy lug'atidan musiqa, zoologiya, botanika va tikuvchilikka oid terminlarni topib, yozib oling. Mazkur terminlarni bugungi kundagi zamonaviy nomlari bilan taqqoslab chiqing.

4-topshiriq. Oybekning «Navoiy» romanini o'qib, undan kiyim-kechak, qurol-aslaha nomlari hamda adabiyot faniga oid terminlarni topish va struktura jihatdan tahlil qiling.

Foydalanish uchun misollar. Adabiyot faniga oid terminlar: *devon- she'r lar to'plami; muammo-jumboqli, sirli, g'alati; qasida- biror shaxsning madhiga bag'ishlangan she'riy asar; nazm-tizish, terish, she'r yozish, ash'or-she'r lar, ruboiy-to'rt misradan iborat she'r, zullisonayin-ikki tilda ijod qiloladigan shoir, shuaro-shoirlar, sarbast-*

she'r vazni turlaridan biri, tuyuq-so'z o'yiniga asoslangan kichik she'r, tashbix-o'xshatish.

Kiyim-kechakka oid terminlar: *bo'rk-oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, qo'sqi-kiyilaverib, eskirib ketgan juldur kiyim, takya-to'rt burchakli do'ppi, abrishim-ipak gazlamadan tikilgan kiyim, kafsh-kalish, isqarlot-to'q qizil qimmatbaho matodan tikilgan chakmon, dastor-salla, kuloh-qalandarlar bosh kiyimi, joma-oltin bilan ishlangan to'n.*

Tarixiy qurol-aslahaga oid terminlar: *dubulg'a- boshni tig' yoki o'qdan saqlash uchun temir yoki po'latdan ishlangan bosh kiyim, tirandoz-o'q otuvchi, tirandozlik-merganlik, sopqon-ichiga tosh solib otiladigan qadimgi sodda qurol, sadoq-o'qdon.*

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan adabiyotshunoslik faniga oid 50 ta terminni daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Abulg'ozzi Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asaridan qarindosh-urug'chilikka oid terminlarni yozib oling va kichik lug'at tayyorlang.

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lmagan prezentatsiya yarating.

4-topshiriq. Zargarlikka oid terminlarni to'plab, kichik lug'at tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Абдушукров Б. Эски туркий тил лексикаси. – Тошкент, 2015.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. –Ташкент, 1940.

3. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке / Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 3-83.
4. Дадабаев Х. Обественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.
5. «Таржумон» - XIV аср ёзма обидаси. – Тошкент: Фан, 1980.
6. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981.

2.4. Sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi

Reja:

1. XIX asrning 70-yillarida o'zbek terminologiyasi.
2. Ulug' Tursunov va o'zbek tili terminologiyasi.
3. Sho'rolar davrida o'zbek tili terminologiyasining rivoji.

Tayanch tushunchalar: rus tili, soha terminologiyasi, terminologik lug'atlari, arab va fors tilidan o'zlashgan terminlar, o'zlashgan termin.

XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasi rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelayotgan o'zlashmalar ta'sirida rivojlandi. Sho'rolar hukmronligi vaqtida o'zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko'p miqdordagi o'zlashma terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o'zbekcha leksik birliklar qatori ruscha-baynalminal terminlarning roli yuqori bo'ldi. Bu jihat, ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik tizimda yaqqol ifodasini topdi.

O'zbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita rus hamda boshqa xalqlar terminshunoslarning ishlari bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, N.A.Baskakov, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformaskiy, D.S.Lotte, S.A.Chapligina, T.L.Kandelaki, V.P.Danilenko kabi o'nlab terminshunos olimlarning izlanishlari o'zbek terminshunosligining qaror topishiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Turkiy xalqlar tilshunoslarning, jumladan, M.Sh.Gasimov, B.U.Oruzbayeva, R.A.Urekenova, F.S.Faseyev kabi olimlarning ishlari ham o'zbek terminologiyidan rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqidagi nazariy masalalar ham ishlab chiqildi. Birinchilardan bo'lib Ulug' Tursunov o'zbek tili terminologiyasi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qildi: «Til – terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi», «O'zbek terminologiyasi masalalari», «O'zbek adabiy tilida so'z – terminlar tanlash prinsiplari» kabilar. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, toplash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr yetish sohasidagi turli xil qarashlar va tushunchalar haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari, terminlogiya sohasida ro'y bergan va ro'y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko'zga tashlana boshlashi ta'kidlanadi. Masalan, bir tushunchaning turlicha atalishi va yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o'rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o'zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari mavjudligi ko'rsatildi.

Prof. U.Tursunovning terminlogiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida ikki muammo alohida o'rinn tutadi: 1.Terminlarning qo'llanilishi. 2. Terminologiyadan boyish manbalari.

Terminlar qo'llanilishi haqida fikr yuritar ekan prof. U.Tursunov ularni uch guruhga ajratib tahlil qiladi: a) bir sohada qo'llaniladigan terminlar; b) har xil sohada qo'llaniladigan terminlar; v) termin ham oddiy so'z sifatida qo'llaniladigan terminlar.

Prof. U.Tursunov asarlarida o'zbek tili terminologiyasining boyish manbalari batafsil yoritilgan. O'z asarlarida U.Tursunov o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. O'z asarlarida U.Tursunov o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi¹. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik yo'l hisobiga boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi.

Qator terminologik sistemalarda semantik yo'l bilan termin yasashdan unumli foydalanib keladilar. Chunki semantik so'z yasash terminologiyada amal qilinadigan doimiy va an'anaviy yo'ldir. Terminlarni tekshirish jarayonida qator leksik qatlamlar semantik o'zgarish tufayli terminologik sistemadan joy olishi mumkinligini ko'rsatdi. Ular biror ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan o'zbek tilining odatdag'i so'zlaridir. Ulardan termin sifatida foydalanadilar:

- 1. Ro'zg'or buyumlari nomlari:** *qozon, cho'mich, quyi, kurak, panjara, pichoq* kabilar.
- 2. Odam yoki hayvon a'zolarining nomlari:** *barmoq, tirnoq, quloq, bo'g'iz, qanot* kabilar.
- 3. Maishiy narsa-buyum nomlari:** *taroq, ko'zgu, qalpoq* kabilar.
- 4. Texnikaga oid bo'limgan so'zlar:** *kalit, burqi, pona, payvandlash* kabi texnik termin sifatida qo'llaniladi.

So'zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so'zning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va u til terminologiyasini boyitishga xizmat

¹ Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari. –Toshkent, 1933.

qiladi. Morfologik usul bilan termin yasashda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday termin yasash o'zbek tilida eng mahsuldor usuldir. Terminlarni yasashda - *gich* (-*g'ich*, -*qich*, -*kich*), -*soz*, -*ma*, -*lik*, -*sh(-ish)*, -*lash*, -*cha*, -*chi* affikslari faol ishtirok etadi: *chang ajratgich*, *yem buqlatgich*; *mashinasoz*, *asbobsoz*; *moslama*, *tirkama*; *temirchilik*, *mashinistlik*; *burq'ilash*, *payvandlash*; *bakcha*, *vagoncha*; *aniqlovchi*, *to'ldiruvchi* kabilar.

O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Terminlar tuzilish materiali, ya'ni qanday so'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo'lishi mumkin: **Ot+ot tipidagi terminlar**: *samolyot borti*, *bug'mashina*, *shamol tegirmon*, *moy juvoz*, *temir qopqoq*, *arava gupchagi*, *radioning qulog'i*, *samolyotning parragi* kabilar. **Nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar**: *motorli qayiq*, *parrakli samolyot*, *magnitli diska*, *tirkama plug*, *halqasimon zichlagich* kabilar. **Sifatdosh+ot tipidagi terminlar**: *o'ta sezgir apparat*, *sezgir asbob*, *o'zi yurar mashina*, *pilla tortadigan avtomat*, *qirquvchi asbob*, *yurgizuvchi aravacha* kabilar.

O'zbek terminologiyasining tashqi manbalar hisobiga boyishi. Hozirgio'zbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib foydalilaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga bo'linadi: **1. Arab va fors-tojik so'zlari.** Arab va fors-tojik tillariga mansub bo'lgan so'zlar yordamida termin yasash ko'proq davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya va fan, madaniy qurilish sohalariga oid bo'lib, ular XX asrning boshlaridan uning 90-yillarigacha yaratilgan, ularning umumiyligi miqdori, deyarli, bir nuqtada saqlandi.

XX asrning 90-yillaridan so'ng islomiy leksikaning hajmi ko'paydi. Chunonchi *nur*, *hujayra*, *davlat*, *huquq*, *moliya*, *mudofaa*, *sanoat*, *ittifoq*, *millat*, *ma'rifat*, *maorif*, *doira*, *markaz*, *nisbat*, *isbot*, *san'at* kabilar arab tilidan; *barg*, *dastgoh*, *ohang*, *rang*, *poydevor* kabilar fors-tojik tilidan kirgan so'zlardan hosil bo'lgan terminlar sanaladi.

2. Rus tilida qo'llaniladigan so'zlar. Rus tilida o'zlashtirilgan terminlarning ba'zilari etimologik jihatdan rus tiliga boshqa tillardan kirgan baynalminal terminlardir. Masalan: *parovoz*, *teplokhod*, *samovar*, *samolyot*, *minor*, *gamma*, *silindrlar*, *bruslar*, *basketbol korzinasi* so'zlari ruscha; *omonim*, *sinonim*, *metafora*, *vergul*, *metonimiya*, *sinekdoxa* so'zlari grek-lotincha asosda shakllangan.

O'zbek terminologiyasida o'tgan asrning 50-yillaridan keyin qator salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan, ya'ni nomzodilik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Jumladan, N.Mamatov¹, S.Ibrohimov², T.Dadaxonova³, T.O'rungov⁴, S.Usmanov⁵, N.T.Hotamov⁶, R.Doniyorov⁷, M.Asomiddinova⁸, S.A.Azizov⁹, A.I.Qosimov¹⁰, S.Akabirov¹¹, R.Doniyorov¹², O.Ramazonov¹³, A.Madvaliyev¹⁴,

¹ Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: НДА. – Тошкент: Изд-во АН Республика Узбекистан, Т. 1955, 16 с.

²Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси нашриёти, - Тошкент, 1959, 157 б.

³ Дадаҳонова Т. Лексики вышивального искусства в узбекском языке. – Тошкент: АН Республика Узбекистан, 1963, 20 стр

⁴ Урунов Т. Узбекская овцеводческая терминология. АКД. – Самарканд, 1964, 19 стр

⁵ Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968, 8-бет

⁶ Хатамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологии в ... период: АКД. – Тошкент, 1971. 28 стр.

⁷ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. - 160 бет.

⁸ Ассомиддинова М. Кийим – кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981, 116 -б.

⁹ Азизов С.А. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка: АКД. – Тошкент, 1981. - 23 с.

¹⁰ Қосимов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. АКД. – Тошкент, 1982, с.6.

¹¹ Акбаров С. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях. АКД. – Тошкент, 1969.

¹² Дониёров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. – Тошкент, 1988.

¹³ Рамазонов О. Ўзбек математика терминологиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент, 1973.

¹⁴ Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. – Тошкент, 1986.

H.Dadaboyev¹, Q.Sapayev², A.Madvaliyev³, T.Tursunova⁴, A.Sh.Sobirov⁵, N.M.Ikromova⁶, Z.M.Mirxoliqov⁷, H.Shamsiddinov⁸ kabi ilmiy tadqiqotlarda o'zbek tili terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o'rinni olgan.

Bu davrda lug'atlar nashr ettirilishiga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, H.Homidiy, Sh.Abdullayev, S.Ibrohimovalarning «Adabiyotshunoslik terminlari» (1967), Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati (O.Usmon tahriri ostida) (1976), B.Ahmedovning «Tarixdan qisqacha izohli lug'at» (1977), A.Hoziyev, L.Reshetovalarning «O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati» (1980), M.X. Karayevning «Fransuzcha-ruscha-o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug'at» (1980), D.Rashidova, M.Nigmatboyevalarning «Nemischa-ruscha-o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug'at» (1980), X.Abdurahmonov, N.Maxmudov, R.Shukurovning «Madaniy-oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug'at» (1983), N.Hotamov, B.Sarimsoqovning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati» (1983), S.Majidovning «Elektro-texnikadan ruscha-o'zbekcha lug'at spravochnik» (1985), «Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati» (1989) kabi lug'atlar shular jumlasidandir.

Ruscha-baynalminal so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Bu jarayon o'zbek tili terminologiyasi dinamikasini kuzatishda yorqin namoyon bo'ldi. O'zbek

¹ Дадабоев Х. XI-XIV асрлар туркӣ тиллар ёзма ёдгорликларидағи ижтимоий-сиёсий ва социал-иктисодий терминология. – Тошкент, 1991.

² Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: АКД. – Тошкент, 1984 – 22 с.

³ Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: АКД. – Тошкент, 1986. – 23 с.

⁴ Турсунова Т. Меморчилик терминларининг лексик – грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – 130 бет.

⁵ Собиров А.Ш. Термины узбекских народных зрелиц. АКД. – Тошкент, 1988, 18 стр.

⁶ Икрамова Н.М. Узбекская кулинарная лексика. – Тошкент: Фан, 1989, 70 с.

⁷ Мирхаликов З.М. Лексико-семантические и грамматические особенности названий рыб в узбекском языке. АКД. – Тошкент, 1991, 18 стр.

⁸ Шамсиддинов Х. Умумистемъомдаги сўзлардан лексик-семантик усул билан ясалган терминлар ва уларни тартибига солиш// Ўзбек тили техникавий терминларини тартибига солиш принциплари. – Тошкент: Фан, 1991, 132 - 161 – 6.

tiliga xos ilmiy-texnikaviy terminlarning juda ulkan qismini boshqa tillardan o'zlashgan leksik birliklar tashkil qiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Turli xil fanlarga oid berilgan terminlarni guruhlashtiring.

Fonetika, morfema, yer shari, sinus, izoglassa, izomorf, kosinus, radius, diametr, aylana, uchburchak, teorema, Nyutoon qonunlari, zichlik, masala, alfa, betta, shimoliy qutb, janub, romb, to'g'ri to'rtburchak, massa, og'irlik, tezlik, sifat, vergul, nuqta, silindr, geodeziya, dialekt, sheva, kuchlanish, tok kuchi, handasa.

Tilshunoslik	Geografiya	Matematika	Fizika	Geometriya

2-topshiriq. Lug'atlarni mualliflari bilan moslashtiring.

1.	Abdurahmonov X., Maxmudov N., Shukurov R.	A	O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati
2.	Hotamov N., Sarimsoqov B.	B	Elektro-texnikadan ruscha-o'zbekcha lug'at spravochnik
3.	Majidov S.	S	Fransuzcha-ruscha-o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug'at
4.	Rashidova D., Nigmatboyeva M.	D	Madaniy-oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug'at
5.	Karayev M.X.	E	Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati
6.	Hojiyev A., Reshetova L.	F	Nemischa-ruscha-o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug'at
7.	Ahmedov B.	G	Adabiyotshunoslik terminlari
8.	Homidiy H., Abdullayev Sh., Ibrohimova S.	H	Tarixdan qisqacha izohli lug'at

1	2	3	4	5	6	7	8

3-topshiriq. Turli sohalarga oid berilgan terminlarni guruhlashtiring.


Tahlil uchun terminlar: *o'choq, qabzagirak (pichoqni qistirib turib, charxga tutiladigan asbob), yulduztamg'a (qushpichoq tig'ining yuziga tushuriladigan naqshning bir turi), otashdon, bozg'onchi, damgar, charxdor, charxkash, zo'g'ata, pesh, peshlash, tana, avra, tillaqosh, tillazulf, zebigardon, bo'yintumor, to'ponchi, teruvgar, yog'lash, yog'lovchi, katta dam, kichik damnaychatumor, ko'kraktumor, quymauzuk, anjirbaldoq, qashqarbaldoq, zirak, aravabaldoq, tangajevak, zulukzira, avg'oncha uzuk, gulqalam (pichoqni guldor qilib bezashda ishlatiladigan asbob), kesindi (bir dona pichoq yasash uchun mo'ljallab kesilgan temir bo'lak), qirov (pichoqni charxlaganda tig'ining ikkinchi tomonga qayrilib qolgan ensiz, mayin qismi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq), qushpichoq (pichoq turlaridan biri), qayqi (tig'ining uchi orqasiga sal qayrib yasalgan pichoq turi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq).*

Temirchilik sohasi	Zargarlik sohasi	Pichoqchilik sohasi

4-topshiriq. Terminologiyaga oid ilmiy tadqiqotlarni xronologik jihatdan ketma – ketlik zanjirini tuzing.

- 1) S.Ibrohimov. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi; 2) N.Mamatov. O'zbek paxtachilik terminologiyasi; 3) Р.Даниёров. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе; 4) H.Dadaboyev. XI-XIV asrlar turkey tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotcial-iqtisodiy terminologiya; 5) O.Ramazonov. O'zbek matematika terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixidan. 6) С.Акабиров. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях; 7) N.Ikromova. O'zbek

taomlari leksikasi; 8) А.Мадвалиев. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации.



SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *Nazorat uchun savollar.*

1. XIX asrning 70-yillaridagi o'zbek terminologiyasi haqida nimalarni bilasiz?

2. Ulug' Tursunovning o'zbek tili terminologiyasi to'g'risidagi fikrlarini izohlang.

3. Sho'rolar davrida o'zbek tili terminologiyasining rivoji xususida fikringizni bildiring.

4. O'zbek tili terminologiyasining boyish manbalari haqida so'z yuriting.

2-topshiriq. N.Ikromovaning «O'zbek taomlari leksikasi» (1983) tadqiqtini o'qing va taomlarning etimologiyasi xususida ma'lumotlarni aniqlang.

3-topshiriq. «Erkin yozish» metodi asosida fikringizni ayting. Besh daqiqa ichida «Sho'rolar davrida terminologiya» mavzusi bo'yicha o'z xayollariningizga kelgan barcha ma'lumotlarni to'xtamasdan yozing. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero, qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif eting. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun

guruh bilan o'rtoqlashishni taklif eting va guruhiy-aqliy hujum vaziyatini yarating.

4-topshiriq. «Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi» metodi asosida tahlilni amalga oshiring. Terminlar: *parovoz, teploxd, samovar, samolyot, minor, gamma, silindrlar, bruslar, nur, chang ajratgich, yem buqlatgich, mashinasoz, asbobsoz; moslama, tirkama, temirchilik, mashinistlik; burq'ilash, payvandlash, bakcha, vagoncha; aniqlovchi, to'ldiruvchi, hujayra, davlat, huquq, moliya, mudofaa, sanoat, ittifoq, millat, ma'rifat, maorif, doira, markaz, nisbat, isbot, san'at, basketbol korzinasi so'zlari, omonim, barg, dastgoh, ohang, rang, poydevor, sinonim, metafora, vergul, metonimiya, sinekdoxa.*

O'zbek tili terminlari	Arab va fors tilidan o'zlashgan terminlar	Rus tilidan o'zlashgan terminlar

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan falsafa faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzulariga esse yozing.

«Sho'rolar davri terminologiyasi», «Sho'rolar davri va terminologiya sohasinng rivoji», «Sho'rolar davrida Ulug' Tursunovning terminologiyaga oid qarashlari» «Sho'rolar davrida terminologik lug'atlarning o'rni».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yarating.

4-topshiriq. Quyidagi mavzu yuzasidan keysni bajaring: Sho'rolar davrida o'zbek terminologiyasining tashqi manbalar hisobiga boyidi. Hozirgi o'zbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib foydalaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga bo'linadi. Ular qaysilar ekanligini aniqlang va misollar keltiring.

Ishning maqsadi: Sho'rolar davrida o'zbek terminologiyasi shakllanishi va rivojlanishi dinamikasi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash.

Masalaning qo'yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- tashqi manba asosida terminlarning boyishini izohlang.
- rus tilidan kirib kelayotgan terminlarni aniqlang.
- arab va fors-tojik tilidan kirib kelayotgan terminlarni aniqlang.

5-topshiriq. N.Ikromovaning «O'zbek taomlari leksikasi» (1983) va M.T.Xudayarovaning «O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog'iston hududi materiallari asosida)» (2008) tadqiqotlarini solishtiring va farqli xususiyatlarini aniqlang. Taomlarning nomlarini o'xshash va farqli nomlarini aniqlang.

Adabiyotlar:

1. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари.
– Тошкент, 2002.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. –Ташкент, 1940.
3. Дадабаев Х. Обественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.
– Ташкент: Ёзувчи, 1991.
4. Дониёров Р. Ўзбек тили илмий-техникавий терминлар тарихидан. – Тошкент, 1974.

5. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977.

6. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981.

2.5. **Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi Reja:**

1. Mustaqillik davrida Atamashunoslik qo'mitasining tashkil etilishi.

2. Atamaqo'mita tomonidan amalga oshirilgan ishlar.

3. O'zbek terminologiyasining boyishi.

Tayanch tushunchalar: Mustaqillik davri, Atamashunoslik qo'mitasi, o'zbek terminologiyasi, ruscha-baynalminal terminlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlar.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida 1992-yilda Atamashunoslik qo'mitasi tashkil etildi. Atamaqo'm raisi sifatida Odil Yoqubov rahbarligi ostida bir qator ishlarni amalga oshirildi. Jumladan, atamalarni tartibga solish, ruscha-baynalminal o'zlashmalarga o'zbekcha muqobillarini tanlash, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atama lug'atlarini muhokamadan o'tkazish, tasdiqlangan atamalarni joriylanishini nazorat qilish, Davlat tili haqidagi Qonunni amalga oshirish va boshqalar. Shunga ko'ra, 1992-yil O'zR FA muxbir a'zosi, Tilshunoslik institutining direktori A.Hojiyev «Ruscha-baynalminal o'zlashmalarining o'zbekcha muqobillarini tanlash prinsiplari» loyihasini ishlab chiqdi. Loyihada quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi:

1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z va so'z birikmasini

termin deb atash lozim. Umuman, narsa-hodisalar nomlari ma'nosida atama so'zini qo'llayverish mumkin.

2. Ilgari o'zbek tilida qo'llangan va narsa-hodisani, u haqidagi tushunchani to'g'ri ifodali so'zlar, hech qanday ehtiyojsiz, rus tilidagi so'zlar bilan almashtirilgan bo'lsa, bunday so'zlar yana o'z o'rniga tiklanishi kerak. Shu jihatdan *foiz*, *inqilob*, *ziyoli*, *bekat*, *risola*, *matn* kabi so'zlar qayta iste'molga kiritilishi o'rini.

3. Tushunchani aniq va to'g'ri ifodalay oladigan so'z o'z tilida bo'lgan holda yoki shunday so'zni yasash mumkin bo'lgani holda uni ifodalash uchun rus tilidagi so'z qabul qilinavergan bo'lsa, ular ham o'zbekcha bilan almashtirilishi kerak. Masalan, *soyuz*, *soviet*, *prosess*, *sostav*, *faktor* o'rnida *uyushma*, *kengash*, *jarayon*, *tarkib*, *omil* kabi.

4. Rus tilidan olinib, o'zbek tilining o'z materialiga aylanib ketgan, narsa-hodisani to'g'ri, aniq ifodalaydigan, hamma uchun tushunarli bo'lган so'zlarni shunday xususiyatga ega bo'lman, ya'ni tushunchani to'g'ri, aniq ifodalay olmagan, ko'pchilik tushunmaydigan so'zlar bilan almashtirishga urinish tilga, uning iste'molchisiga zarardan boshqa narsa keltirmaydi: *institut*, *universitet*, *fakultet*, *gazeta* kabilar.

5. Rus tilidan o'zlashib, hozir iste'molda bo'lgan so'zni boshqa so'z bilan almashtirish masalasida o'zlashma so'zning bir yoki ko'p ma'noli ekanini hisobga olish lozim. Agar o'zlashma so'z ko'p ma'noli bo'lib, u bilan almashtirilmoqchi bo'lgan so'z uning barcha ma'nolarini aniq ifodalay olsa, almashtirish mumkin. Aks holda u yoki bu so'zni o'zlashma so'zning ma'lum bir ma'nosida qo'llash mumkin. Masalan, *sistema* so'zi ko'p ma'noli bo'lib *tizim* so'zi bilan almashtirildi. Ammo hamma holatda to'g'ri kelmaydi. Masalan, *asab sistemasi* birikmasida *tizimni* qo'llab bo'lmaydi.

6. O'zlashma so'zdan yangi-yangi so'zlar yasalishi yoki rus tilidan uning yasama vositalari ham o'zlashgan bo'lishi mumkin: *gazet(a)* - gazetxon, gazetchi; *jurnal*, *jurnalist*, *jurnalxon*, *jurnalistika*. Tavsiya

etilgan so'zlardan bunday so'zlar yasalmasligi mumkin: *Ro'znoma, xafthanoma, oynoma, jarida, majalla* kabi.

7. U yoki bu o'zlashma so'zni boshqasi bilan almashtirish yoki almashtirmaslikda uning qarindosh yoki qarindosh bo'limgan tillarda qo'llanishi hisobga olinishi kerak. Agar o'zbek tilidagi biror so'z dunyodagi juda ko'p tillarda ham iste'molda bo'lsa, uni boshqa so'z bilan almashtirish befoyda. Masalan, *respublika*.

Globallashuv va kompyuterlashtirish asrida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k. aloqalarning qizg'in, jadal oshishiga olib keldi. Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda o'zbek terminologiyasi tayyor xorijiy leksik birliklar hamda ular anglatuvchi *preferensiya, investitsiya, litsenziya, diler, megapolis, ekologiya, ekspert, demping, inflyatsiya, kliring, supermarket, mini market, giper market, chat, paynet, elektorat, narkobiznes, milliy aviakompaniya* va h.k. mutlaqo yangi tushunchalar hisobiga boyib bordi. O'zbekiston Respublikasi olimlarining dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi olimlari bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallahuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi mos terminlarning yaqinlashuviga ko'mak berdi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi uchun G'arb tillaridan, ayniqsa, ingлиз tilidan ko'plab terminlari quyilib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili terminlarining boshqa tillar tomonidan o'zlashtirilayotgani ajablanarli hol emas. Zero, so'z o'zlashtirish hodisasining ikki tomonlama sodir bo'lishi tilshunoslikda allaqachon tasdig'ini topgan. Ta'kidlash joizki, 1999-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusiga muvofiq o'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligi o'tkazildi. Keyinchalik bu sport turining ommalashuvi va

dunyo arenasiga chiqishi natijasida *kurash*, *yonbosh*, *chala*, *halol*, *g'irrom* kabi terminlar xalqaro sport terminologiyasining mulkiga aylandi¹.

Sharq taronalari (восточная мелодия), *o'zbek modeli* (узбекская модель) singari terminlar jahonga mashhur bo'ldi. Mahalla institutining qayta tiklanishi *fuqarolar yig'ini*, *fuqarolar yig'ini raisi*, *oqsaqol* va h.k. terminlarning o'zga tillar so'z boyligidan mustahkam o'rin olishiga yoki tarjima qilinishiga bois bo'ldi. Qayd etish lozimki, o'zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o'zlashmalarning bir qismi o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o'ta qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Masalan, *aksiyadorlik jamiyati* (акционерное общество), *erkinlashtirish* (либерализация), *tijorat banki* (коммерческий банк), *muzyorar* (ледокол), *kichik biznes* (малый бизнес), *soliq stavkasi* (налоговая ставка), *tadbirkor* (предприниматель), *xususiy sektor* (сачтный сектор), *infratuzilma* (инфраструктура), *ekologik xavfsizlik* (экологическая безопасность), *siyosiy ekstremizm* (политический экстремизм), *potensial xavf-xatar* (потенциальная угроза), *mintaqaviy mojaro* (региональный конфликт) va h.k. shular jumlasidandir. Chet tili terminlarini so'z yasalish usullari (so'z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o'zbek tili lug'at fondida *oluvchi* (адресат), *jo 'natuvchi* (адресант), *tavsiyanoma* (характеристика), *buyurtma* (заявка), *narxnomma* (прейсквант), *ma'lumotnomma* (справка), *fuqarolik* (подданство), *daxlsizlik* (иммунитет), *ishbilarmon* (предприниматель), *ta'mirchi* (реставратор) singari ko'pgina terminlar.

¹ Bektemirov X., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. –Toshkent, 2002. B. 10.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobili bo'limganligi bois ularni bitta so'z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Kirib kelayotgan tushunchani bir qancha so'zlar yordamida izohlash yoki tavsiflash terminologiya talablariga ziddir. Mana shunday holatlarda ruscha-baynalminal terminlar donor tilida qanday shaklda bo'lsa o'zbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi. Masalan: *budget* – бюджет, *kredit* - кредит, *atom* - атом, *gidrolokatsiya* – гидролокация, *deduksiya* - дедукция, *gerb* – герб, *auditor* – аудитор, *repatriatsiya* – репатриация, *komunikatsiya* – коммуникация, *fraksiya* – фракция, *profisit* - профисит, *integratsiya* - интеграция, *diplomiya* - дипломатия, *texnologiya* – технология va boshqalar.

O'zbek tili terminologiyasining hozirgi holatida o'z hamda o'zlashma paralellarning yonma-yon qo'llanayotganiga shohid bo'lami. Ushbu jarayon avvalgi terminologiya tizimidagi me'yor va yangi leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdan guvohlik beradi. Tabiiy, bulardan qaysi biri o'zbek tili terminologiyasi tizimidan munosib o'rin egallashini lisoniy hayot, nutqiy amaliyot va vaqt ko'rsatadi. Hozircha ikki variantli terminlar jumlasiga акция - *harakat*, *aksiya*, археолог – *qadimshunos*, *arxeolog*, блок - *ittifoq*, *blok* (депутатский), вето - *veto*, *ta'qiq*, офицер – *zobit*, *ofitser*, реанимация – *jonlantirish*, *reanimatsiya*, термин - *atama*, *termin*, эмбарго – *embargo*, *ta'qiqlash*, цивилизация – *sivilizatsiya*, *tamaddun*, коллегия – *hay'at*, *kollegiya*, денонсация - *denonsatsiya*, *bekor qilish* singarilar kiritilmoqda. Ba'zi vaziyatlarda, mabodo biror bir tushuncha ikki, ya'ni o'z va o'zlashma termin bilan ifodalansa, shubhasiz, afzallik o'zbekcha variantga beriladi – *tilshunoslik* (лингвистика), *nazoratchi* (инспектор), *qalam haqi* (гонорар), *nizom* (устав), *giyohvandlik* (наркомания), *zahira* (резерв), *tenglik* (паритет), *hokim* (мер), *jarroh* (хирург) va h.k. O'zlashma terminlarning ma'lum guruhi o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Chunonchi, o'zlashma

terminlarning o'zbek tili fonetikasiga moslashuvi quyidagi jihatlari bilan oydinlashadi: 1) fonemalarning qisqarishi: авианосец – *avinos*, ракетаносец - *raketanos*; 2) fonemalardagi tovush almashinushi: маяк – *mayoq*, очаг – *o'choq*, плащ-палатка - *plashch-palatka* va h.k. O'zbek tilida qurilishi jiddiy o'zgarishlarga uchragan o'zlashma terminlar kategoriyasiga комитет - *qo'mita*, бомбардировка – *bombardimon*, командующий – *qo'mondon*, подряд – *pudrat* kabilarni kiritish o'rindir.

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida o'zlashmalardan o'zbekcha so'z yasovchi affikslar ishtirokida yangi hosil qilingan terminlar keng miqyosda qo'llanishga kirib kelmoqda. Xusuan, бомбардировщик – *bombardimonchi*, дозиметрист – *dozimetrchi*, генеральский - *generallik*, комиссариат – *komissarlik*, патронный – *patronli*, гусеничный – *gusenisali*, бетонирование – *betonlash*, ионизация - *ionlanish; ionlash*, модернизация – *modernizatsiyalash* kabi ashayoviy misollar qayd etilgan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillari o'zbek tili lug'at fondining boyib borishida respublika xalq xo'jaligi uchun mutlaqo yangi sohalarning shiddat bilan shakllanishi va rivojlanishi kabi favqulotda muhim omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda Andijon viloyati Asaka shahrida Janubiy Koreyaning DEU (DAEWOO) avtomobil korporatsiyasi bilan hamkorlikda «O'zDEU Avto» qo'shma korxonasining ishga tushirilishi natijasida O'zbekiston dunyodagi 28 ta avtomobilsozlik davlatlari qatoridan munosib o'rin oldi. 1999-yilda Samarqand shahrida «SamKochAvto» o'zbek-turk qo'shma korxonasi avtobuslar va yuk mashinalarini ishlab chiqarishga kirishdi. Hozirgi paytda Yaponiya va Germaniya avtokompaniyalari hamkorligida «Isuzu» avtobuslari hamda «Man» yuk mashinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. «O'zDEU Avto» qo'shma korxonasining amerika avtomobil ishlab chiqarish giganti «Jeneral Motors» (General Motors) tarkibiga singdirilishi oqibatida bugungi talablarga to'la javob beradigan, yuqori tezlikka ega,

har tomonlama qulay hamda yoqilg'ini tejaydigan yengil avtomobilarning yangi rusumlarini ishlab chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Buning natijasida o'zbek tilida ushbu soha terminologiyasi tubdan takomillashdi.

O'zbek terminologiyasi *Tiko* (*Tiko*), *Damas* (*Damas*), *Neksiya* (*Neksia*), *Lasetti* (*Lacetti*), *Matiz* (*Matiz*), *Spark* (*Spark*), *Epika* (*Epika*), *Kaptiva* (*Kaptiva*), *Malibu* (*Malibu*), *Kobolt* (*Cobolt*) singari Respublikada konveyerga qo'yilgan yengil avtomobilarning tijoriy nomini anglatuvchi terminlar hisobiga yana ham boyidi.

Turmushda tubdan sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlar yangi tushunchalar, yangi nomlanishlarning voqelanishiga olib keldi. O'zbek tilining leksik xazinasi mustaqil mamlakat yuritayotgan milliy siyosatni aks ettiruvchi rang-barang so'zlar va terminlar bilan kengaydi. Bunday terminlar safiga tubandagi faktik misollarni kiritamiz: *milliy o'zlik*, *milliy davlatchilik*, *milliy siyosat*, *siyosiy islohot*, *ma'naviy qadriyat* (духовное наследство) va h.k. Bo'linish tamoyillari negizida yangi davlat boshqaruvi organlarining tuzilishi va faoliyat olib borishi pirovard natijada *Oliy Majlis*, *senat*, *Vazirlar Mahkamasi*, *qonun chiqaruvchi organ*, *ijro etuvchi organ*, *sud hokimiyati*, *departament*, *konsern*, *xolding*, *kompaniya*, *hokimlar instituti*, *nodavlat ijtimoiy birlashma*, *mas'uliyati cheklangan jamoa* kabi ko'pdan-ko'p terminlarning muomalaga kirishiga turki berdi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi asosida terminologik leksika *milliy valyuta*, *kichik biznes*, *o'rta biznes*, *xususiy tadbirkorlik*, *qimmatli qog'ozlar bozori*, *tadbirkorlar palatasi*, *konsalting*, *injiniring*, *lizing firma*, *biznes-inkubator* singari qator yangi terminlar bilan tag'in ham kengaydi. Ma'lumki, O'zbekiston kamdan-kam uchraydigan ulkan yoqilg'i-energetik manbalariga egaligi bilan dong chiqargan. Neft, gaz va kondensatning g'oyat katta zahiralari nafaqat ichki ehtiyojni to'la qondirish, balki ularni xorijga eksport qilish imkonini yaratdi. Ushbu sohaga taalluqli *neft zaxirasi*, *neft koni*, *neft*

mahsulotlari, gaz kondensati, metan, propan, butan, polimer materiallar, polietilen, polivinilxlorid, nitrilikril kislota, suyultirilgan gaz, xom neft singari turfa terminlar darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop adabiyot hamda mahalliy matbuot sahifalarida faol qo'llanib kelmoqda. Milliy istiqqloldan so'ng O'zbekistonda kechgan agrar islohot, so'zsiz, qishloq xo'jaligini qayta qurishda yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Sobiq sho'rolardan qolgan kolxozi va sovxozi tugatildi. Qabul qilingan Yer kodeksiga muvofiq dehqon va fermer yer mulkdoriga aylandi. Fermer xo'jaliklari o'zlariga bildirilgan umid va ishonchni sharaf bilan oqladilar. Respublika agrar sektorida olib borilgan islohotlar *mulkdor, mulkdorlar sinfi, fermer xo'jaligi, ko'p ukladli iqtisodiyot, tomorqa xo'jaligi, subsidiya, pay, investisiya* singari mutlaqo yangi tushuncha va realiyalarning yuzaga chiqishini ta'minladi. Hozirgi vaqtida fan va texnik sohlarida yuz berayotgan shiddatli rivojlanish respublika aholisi faoliyatining turli qirralariga samarali ta'sir o'tkazmoqda. Fan va texnika qo'lga kiritgan eng oxirgi muvaffaqiyat va yutuqlar asosidagi yangi texnika vostilariga egalik qilinmoqda. Ushbu texnika vositalari nomlarini anglatuvchi terminologik leksika o'zbek tili lug'at tarkibining kundan-kunga boyib, kengayib borishida munosib ulush bo'lib qo'shilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi o'z qaror topish yo'lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o'zbek tilshunosligining muhim sohasi sifatida yillar davomida yig'ilgan tajribalar zamirida taraqqiy etmoqda va kengaymoqda.

Terminologiyaning yuzaga kelish va taraqqiyot bosqichlarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida terminlar quyidagi tarzda rivojlanmoqda.

1. O'zbek tilida terminlarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo'llab kelinmoqda. O'zbek adabiy tili boyligining bir qismi o'laroq, bunday so'zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan sohalarning maxsus tushunchalarini

ifodalash uchun jalg qilina boshladi: *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so'm, sug 'urta, savdo, omonat, g 'amlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo'limgan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtirilayapti, ya'ni iqtisodiy terminlar sifatida ishlatilmoqda: *taklif, sohibkor, o'sim, qoldiq, daraja, palata, kadrli, yetakchi, yig'im, qaydnama, baho, xo'jalik*. Semantik-sintaktik usulda so'z yasalishi natijasida boshqa sohalarga tegishli so'zlar iqtisodiyot terminologiyasini mulkiga aylanmoqda: *daromadning qoldig'i, bozor hajmi, foyda miqdori, qiymat solig'i, kreditning elastikliligi, talabning egiluvchanligi, o'zgaruvchan narx, pul massasi, pul undirish, iqtisodiy o'sish, yetakchi valyuta, o'rinnbosar tovarlar, o'rmalovchi inflyatsiya*. Demak, yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holida ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida qo'llanilayapti.

3. Terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: *ijarachi, nazoratchi, moliyachi, iqtisodchi, iste'molchi, jamg'arma, uyushma, ustama, undirma, tejamkor, tadbirkor, ta'minot, bojxona, zarbxona, sarmoyador, mulkdor, xaridor, hissador, shartnama, omonatnama, so'rovnoma, boylik, rentabellik, beba ho, befoyda, merosxo'r, sudxo'r, kirim, chiqim, bitim, to'lov, o'lchov, mulkchilik, tejamkorlik, unumlilik, aksiyadorlik*.

4. Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridaqidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha leksemalar ham qo'llanib kelinayotir: *sarmoya, davlat, tijorat, tojir, maosh, mablag'; sarkor, daromad, dastmoya, manfaat*.

5. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasi ruscha-baynalminal terminlar hisobiga ham boyib bormoqda: *avans, aktiv, aktsiz, budjet, birja, buxgalter, bank, balans, biznes, veksel, valyuta, debitor, demping, dotatsiya, diler, zalm, kredit, kassir, litsenziya, lizing, menejment*,

sal'do, tarif va boshqalar. Ba'zi ruscha-baynalminal iqtisodiy terminlar o'zbek tiliga tarjima qilindi yoki muqobil varianti qo'llanilmoqda: *auksion - kimoshdi savdosi, barter - ayirboshlash, brakeraj - saralash, garant - kafil, defitsit - taqchillik, dolya -hissa, kapital - sarmoya, makler - dallol, oborot - aylanma, ssuda- qarz, schet - hisob.* Terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalminal muqobillarining o'zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan. Umuman, o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi mustaqillikdan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi va har lahzada yangi-yangi terminlar yuzaga kelmoqda.

O'zbek tilshunosligi terminologiyasining ayrim masalalari bo'yicha qilingan ishlar maydonga keldi. Jumladan, A.Saidov, M.Qosimova, L.Karimovalarning «O'zbek huquqiy atamalari muammolari» («O'zbek tili va adabiyoti», 1993,), A.Hojiyevning «Metodika yoki uslub?» («O'zbek tili va adabiyoti», 1995,2-son), R.Doniyorov, A.Qosimovlarning «Terminologiya va so'z yasalishining ayrim masalalari» («O'zbek tili va adabiyoti», 1995,4-son) kabi maqolalar fikrimizning dalilidir. Bir qator ilmiy ishlar himoya qilindi: O'.M.Po'latova¹, L.S.Xudoyberdiyeva², M.Abdiyev³, G'.M.Ismailov⁴, Sh.X.Norbayeva⁵ning izlanishlarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, 2003-yilda himoya qilingan L.S.Xudoyberdiyevaning «O'zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi»⁶ nomli ilmiy izlanishlari hamda H.Shamsiddinovning «Umumiste'moldagi so'zlardan leksik-

¹ Пўлатова Ў.М. Ўзбек хореография терминологиясининг шаклланиш манбалари ва ривожланиши. Филол. фан. номз. дис. автореферати. – Тошкент, 2001. 26 бет.

² Худойбердиева Л.С. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши. Филология. фан. номзоди дис. автореф. – Тошкент, 2003. 24 бет.

³ Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ меъроси нашриёти. 2004. – 117 бет

⁴ Исмаилов F.M. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. - Тошкент, 2011. -26 б.

⁵ Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқики. Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Тошкент, -2017. -44 б.

⁶ Худойбердиева Л.С. Ўзбек тили-да номинатив бирликларнинг даражаланиши. Филология. фан. номзоди дис. автореф. – Тошкент, 2003. 24 бет.

semantik usul bilan yasalgan terminlar va ularni tartibga solish»¹ mavzusidagi qariyib 2 bosma taboqdan iborat ishda ikkilamchi nomlashga oid masalaning ham nazariy, ham amaliy tomonlari yoritib berilganligi atroflicha tahlil etilgan.

Mamlakatimizning mustaqillik yillarda fan va madaniyat taraqqiyoti yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishi munosabati bilan milliy terminologiyamizda ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu holat quyidagi masalalarni kun tartibiga qo'ydi:

- tildagi mavjud terminlar sistemasini yangilash;
- fan va texnika, madaniyat, siyosat va boshqa sohalardagi terminlarni unifikatsiyalash;
- tilimizga o'zlashayotgan terminlarning milliy shaklini tartibga solish;
- terminologik lug'atlar tuzish va nashr qilish;
- boshqa tillardan terminlar o'zlashtirishda xalqaro kommunikatsiya masalalarini hisobga olgan holda ish yuritish.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish yengil kechmaydi. Yangi milliy terminologiyani shakllantirish va uning rivojlanishini ta'minlashda o'ziga xos qiyinchiliklar, chekinishlar va yutuqlarga erishilmoqdaki, bularning barchasi til qonuniyatları asosida amalga oshirib borilmoqda. Shu bilan birga bu boradagi ishlar ko'lami hamon katta bo'lib qolmoqda.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Jadvalni to'ldiring, tilshunoslikka oid terminlarni mavzusiga qarab guruhlashtiring.

Fon, allofon, undoshlar, unlilar, til oldi tovushlari, til orqa tovushlari, leksema, so'z, semema, hosila ma'no, sinonimlar,

¹ Шамсиддинов X. Умумистеъмолдаги сўзлардан лексик – семантик усул билан ясалган терминлар ва уларни тартибга солиш / Ўзбек тили илмий – техникавий терминларини тартибга солиш принциплари. – – Тошкент, 1991. – 132 -161 – бетлар.

antonimlar, ot, yordamchi so‘z turkumlari, harakat tarzi shakllari, sifat, fe'l, teng bog‘lovchilar, tobe bog‘lanish, so‘z birikmalari zanjiri, predikat, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi, qo‘sib yozish, uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub, bayonnomma, ariza, ma'lumotnomma.

1.	Fonetika	
2.	Leksikalogiya	
3.	Morfologiya	
4.	Sintaksis	
5.	Orfografiya	
6.	Stilistika	
7.	Frazeologiya	

2-topshiriq. N.Maxmudovning “Til siyosati va siyosat tili” maqolasidan olingan parchani o‘qing, qisqa konspekt qiling.

Til va jamiyat munosabatlari bilan bog‘liq muammolar silsilasida tilning lug‘at tarkibidagi “ijtimoiy-siyosiy leksika” deb nomlanadigan guruh alohida o‘rin tutadi. Tabiiyki, bunday leksika davlat va jamiyat hayotiga daxldor xilma-xil va juda katta miqdordagi tushunchalarni ifodalovchi zaruriy lisoniy birliklar sifatida siyosiy muloqotning birlamchi vositasi bo‘lmish siyosat tilining bevosita asosini tashkil etadi.

Yurtimiz juda qadimdan davlatchilik an'analariga sohib bo‘lib kelganligi uchun ham bizning tilimizda ijtimoiy-siyosiy leksika shakllanib, rivoj topib kelayotganiga ko‘p zamonlar bo‘lganligi hech kimga sir emas [Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. –Тошкент: Ёзувчи, 1991]. Bugun mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan misli ko‘rilmagan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy o‘zgarishlar, tub islohotlar bu leksikaning yanada o‘zgarishi va

boyishiga zamin bo'ldi, zotan, davlat va jamiyatdagi evrilishlar tilda o'zining in'ikosini topishi tabiiy.

Bugun mutaxassislar asosiy maqsadi siyosat tilini tadqiq etishdan iborat bo'lgan "siyosiy lingvistika" sohasi shakllanib ulgurganligini aytmoqdalar. Ularning qayd etishlaricha, "siyosiy kommunikatsiyani o'rganishni nazarda tutuvchi siyosiy lingvistika va sotsiolingvistikating o'rganish doirasiga daxldor bo'lgan davlat til siyosati sohasidagi tadqiqotlarni farqlash zarur. Masalani bir qadar soddalashtirib aytganda, siyosiy lingvistika mutaxassislarini siyosatchilarning qanday gapirishi qiziqtirsa, til siyosati mutaxassislari siyosatchilar tilni qo'llash samaradorligini oshirish uchun nima qilayotganligi (yoki nima qilishlari kerakligi)ni o'rganish bilan shug'ullanadi" [Чудинов А.П. Политическая лингвистика. –М.: Флинта-Наука, 2006. –С.9].

Turli tilshunosliklarda ijtimoiy-siyosiy leksikaning ko'pincha ijtimoiy-siyosiy terminlardan farqini belgilashga harakat qilinadi, masalan, rus tilshunosi T.B.Kryuchkova ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiyani bir-biridan farqlash zarur ekanligini, ular bir-biri bilan aloqadorlikka ega bo'lsa-da, bir narsa emasligini asoslashga harakat qiladi va ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga shunday tavsif beradi: "Ijtimoiy-siyosiy terminologiya ijtimoiy fanlar terminologiyasining mafkuralashganlik xususiyatiga ega bo'lgan qismidir" [Крючкова Т.Б. Особенности формирования и развития общественно-политической лексики и терминологии. –М.: Наука, 1989. –С.15]. Uning ta'biricha, masalan, *fonema* va *til siyosati* birliklari tilshunoslik terminlaridir, lekin *fonema* ijtimoiy-siyosiy termin emas, *til siyosati* esa ijtimoiy-siyosiy termin bo'la oladi.

Aytish joizki, ijtimoiy fanlar sirasiga kiruvchi ilm sohalari, T.B.Kryuchkovaning o'zi ham qayd etganiday, salmoqli miqdorni tashkil etadi, xususan: tarix, arxeologiya, etnografiya, jamiyatshunoslik, iqtisodiy geografiya, davlat va huquq fani, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, psixologiya,

falsafa fanlari, pedagogika va h.k.o. Aksariyat tilshunoslар, mazkur tadqiqotchi ham tanqid ma'nosida ko'rsatib o'tganiday, "ijtimoiy-siyosiy leksika" va "ijtimoiy-siyosiy terminlogiya" terminlarini sinonim holatda qo'llaydilar [Крючкова Т.Б. Особенности формирования и развития общественно-политической лексики и терминологии. –М.: Наука, 1989. –С.15].

Ayni muammoni jiddiy tadqiq etgan ayrim tilshunoslар hatto "ijtimoiy-siyosiy terminlogiya" terminidan tamoman voz kechish ma'qulligini aytadilar, ularning "Agar aniqlikka intiladigan bo'lsak, bu o'rinda ijtimoiy-siyosiy terminlogiya haqida emas, balki ijtimoiy fanlar terminologiyasi va terminlari haqida gapirish maqsadga muvofiq [Лейчик В.М. Особенности терминологии общественных наук и сферы ее использования / Язык и стиль научного изложения. Лингвометодические исследования. –М., 1983]" tarzidagi mulohazalarida anchagina jon bor. Har holda tegishli terminlar mazkur ijtimoiy fanlarning har birining o'zida ta'riflangan, bu fanlarning o'z "mulki"ga aylangan, ularning turli kommunikativ maqsadlar bilan o'z "uy"idan boshqa maydonlarga olib chiqilishi tildan foydalanishning eng oddiy odatidir. Har qanday termin muayyan lisoniy birlik sifatida yaxlit til leksikasidan tashqarida bo'limgani kabi "ijtimoiy-siyosiy terminlar" ham ijtimoiy-siyosiy leksika deyiladigan, ta'bir joiz bo'lsa, "mega leksik" guruhning ichida ekanligi tabiiy.

"Ijtimoiy-siyosiy terminlar" deyish yana shuning uchun ham asosli va ilmiy mantiqqa unchalik ham muvofiq emaski, "ijtimoiy-siyosiy" degan to'plam bir qancha turlarning jami yoki sintezidir. Bunaqa "katta to'plamning "termini" tushunchasi "termin" tushunchasining o'zini bir qadar muallaqlashtiradi. Ammo deyarli aksariyat tilshunosliklarda mazkur "ijtimoiy-siyosiy terminlar" nomi ham an'anaga kirgan, hamonki tilshunoslik an'anasida bu termin mavjud ekan, uni hozircha shartli ravishda qo'llab turish mumkindir.

Mazkur ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalaydigan birliklarning muayyan bir qismini termin deyish kerakmi yoki yo‘qmi, bundan qat’iy nazar, ular yaxlit ijtimoiy-siyosiy leksikaning tarkibiy bir qismi ekanligi shubhasiz. Shuning uchun eng avvalo, ijtimoiy-siyosiy leksikaning o‘zini chegaralab olish muhimroq. Ammo bunday chegaralarni belgilash, mohiyati va hajmini tayin etish masalalarida mutaxassislar orasida turli qarashlar mavjud. Har qalay, bu qarashlarni shartli ravishda ikki guruh tarzida umumlashtirish mumkin, ya’ni: 1) ijtimoiy-siyosiy leksika mohiyatini tor tushunish; 2) ijtimoiy-siyosiy leksika mohiyatini keng tushunish [Маник С.А. Общее описание терминологии общественно-политической жизни / Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №1(21), 2013 / www.sisp.nkras.ru]. Bir qator lingvistik manbalar tahlili asosida bu ikki tur qarashlarning mazmun-mohiyatini S.A.Manik shunday tavsiflaydi: tor tushunishga ko‘ra, ijtimoiy-siyosiy leksikani ijtimoiy-siyosiy hayot sohasiga daxldor tushunchalarni ifodalovchi va ma’no strukturasida “ijtimoiy”, “siyosiy”, “davlatga oid”, “sotsial” kabi doimiy semalari mavjud bo‘lgan so‘zlar tashkil etadi. Keng tushunishga ko‘ra, ijtimoiy-siyosiy leksika markaziy siyosiy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar va ijtimoiy-siyosiy soha bilan bilvosita bog‘langan so‘zlar, ya’ni ma’nolarida “ijtimoiy”, “siyosiy”, “davlatga oid” kabi semalar ehtimol tutiladigan so‘zlardan tarkib topadi.

Rus tilshunosligida nisbatan keng tarqalgan va mazkur ikki qarashni o‘zida mantiqiy birlashtirgan, anchayin aniq va mo‘tadil ta’rifga ko‘ra, ijtimoiy-siyosiy leksika “lug‘atning ijtimoiy-siyosiy hayot doirasiga daxldor, ya’ni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-falsafiy sohalarga taalluqli tushunchalar va hodisalar nomlaridan tarkib topgan qismidir. Bunday so‘zlar guruhi o‘zining anchayin sezilarli chegaralariga ega bo‘lishiga qaramasdan, ijtimoiy-siyosiy leksika inson faoliyatining yana bir qator boshqa sohalarining nomlari bilan, xususan, ijtimoiy fanlar: tarix, jamiyatshunoslik, huquq, falsafa, iqtisod,

shuningdek, adabiyot, san'at, diplomatiya, harbiy-mudofaa, madaniyat-ma'rifat sohalari nomlari bilan ham o'zaro zich aloqadorlikda bo'ladi" [Протченко И.Ф. Русский язык: проблемы изучения и развития. – М.: Педагогика, 1984. –С.54]. Ko'rinib turganiday, bu tavsifda ham ijtimoiy-siyosiy leksika chegaralarida yana qandaydir mezonlar etishmayotganday tuyuladi.

Ana shu qandaydir noto'liqlikni N.R.Geyko to'ldirganday bo'ladi, ya'ni u bunday mezonlarning asosiylaridan biri sifatida "mafkrashganlik" ("ideologizirovannost") belgisini ko'rsatadi. Uningcha, ijtimoiy-siyosiy leksika deganda, "lug'atning jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va sotsial hayoti tushunchalarini aks ettiruvchi mafkrashgan qismini tushunish kerak" [Гейко Н.Р. Общественно-политическая лексика в публицистическом дискурсе // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. N1 (192). Филология. Искусствоведение. Вып.73. –С.196].

Qisqasi, o'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksikani, mavjud qarashlarni hisobga olgan holda, "lug'atning ijtimoiy-siyosiy hayotga, ya'ni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga taalluqli tushunchalar va hodisalar nomlaridan tarkib topgan, mafkrashgan va ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyada faol ishtirok etadigan qismi" tarzida ta'riflash maqsadga muvofiq. Tabiiyki, siyosat tilining lug'aviy asosini ana shunday leksika tashkil etadi. Ana shunday ta'rif asosida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasiga yondashilsa, yaqinlargacha ana shunday leksika tarkibida qaralgan, masalan, *abiturient, abonnement, abonent, absolyut//mutlaq, avans, avans hisoboti, avtograf//dastxat, avtomatlashtirish, avtor//muallif, avtotransport, talvasa, adres, adresat, adresant, mashaqqatli ish, alifbo, aksiz, ochko 'zlik, oriylar, assortiment, attestat, auditoriya*¹ kabi juda ko'plab birliklarning mazkur leksikaga mutlaqo daxlsizligi ma'lum bo'ladi.

¹ Қар.: Ижтимоий-сиёсий терминлар лугати. –Тошкент: Фан, 1976. –Б.15 – 22.

Ikki karra ikki to'rtday ravshanki, muayyan til belgisining u yoki bu mavzuiy-mazmuniy guruhga mansubligini belgilashda bu belgi ma'nosining tarkibi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muayyan lisoniy birlikni ijtimoiy-siyosiy leksika deyiladigan yirik guruhga kiritish yoki kiritmaslik borasida ham ayni shu holat hisobga olinmog'i shart, shunday qilinganda, mazkur leksik guruhning chegaralarini xolisroq va aniqroq belgilash imkoniyatlari kengayadi.

Til belgisining semantik strukturasini anchayin murakkab tuzilmadir. Nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki boshqa tilshunosliklarda ham lisoniy belgi semantik strukturasining ikki yirik uzvdan, ya'ni denotativ va konnotativ uzvlardan tarkib topishini e'tirof etish an'anaga kirgan. Albatta, leksik ma'noning denotativ uzvi muayyan tushunchani ifoda etadi, konnotativ uzvi esa so'zlovchining yoki til sohibining unga munosabatini aks ettiradi. Mutaxassislar konnotatsiyaning nutq pragmatikasi bilan bog'liq ekanligini, konnotatsiya til sohibining baholash nigohining mahsuli ekanligini, konnotatsiyaning antropometrik asosga egaligini qayd etadilar. Bugungi dunyo tilshunosligida barqarorlashib ulgurgan antropoligivistik paradigmaning birlamchi zaminini tashkil etadigan tilning mohiyatan antropotsentrikligi haqidagi haqiqat bu o'rinda ham yaqqol namoyon bo'ladi [Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2017. –Б.15-22].

1) *Mazkur ma'lumotdagi hodisaga o'zingiz misollar toping.*

2) *Jadvalni to'ldiring.*

Terminologiyaga ko'chgan umumadabiy leksik birlıklarning ma'lum qismi o'z ma'nosini saqlab qolgan birliklar	Umumadabiy leksikaning boshqa bo'lagi yuz bergen ma'noviy o'zgarish oqibatida terminlar safiga o'tgan birliklar

2) *Ma'lumotlarga tahliliy yondashing. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar bilan taqqoslang.*

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Nazorat uchun savollar.

1. Terminologiya masalalarining mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini izohlang.

2. Istiqłoldan keyin qanday terminlar jamiyat a'zolari uchun xizmat qila boshladi?

3. Mustaqillik boshlarida noilmiy terminlarning paydo bo'lishi qanday omillar bilan bog'liq edi?

4. Qaysi o'zbek sporti turi terminlari jahon tillari tomonidan o'zlashtirilgan?

5. Qanday chet tili terminlari o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtirilmoqda?

10. Xorijiy o'zlashmalarning o'zbekcha tarjimalariga baho bering.

11. Qanday xorijiy o'zlashma terminlar aynan, tayyor qabul qilinadi?

12. O'zbek milliy siyosati qaysi terminlarda ifodasini topgan?

13. Davlat boshqaruvi tizimi qanday terminlar hisobiga yanada boyidi?

2-topshiriq. 1) N.Maxmudovning "Til siyosati va siyosat tili" maqolasini o'qib, o'z munosabatingizni bildirgan holda gazetaga maqola yozing.

3) Maqolada keltirilgan terminlarni ajratib oling va quyidagi jadvalni to'ldiring.

4)

Termin	Tuzilishiga ko'ra	Yasalishiga ko'ra	O'zlashganligiga ko'ra

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan mantiq faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzularda esse yozing.

«Istiqlol davri terminologiyasi», «Mustaqillik davrida Atamashunoslik qo'mitasining tashkil etilishi va uning faoliyati», «Mustaqillik davrida o'zbek terminologiyasining boyishi».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lмаган prezentatsiya yoki videorolik yarating.

4-topshiriq. N.Maxmudovning “Til siyosati va siyosat tili” maqolasini o'qib, o'z munosabatingiz asosida “Idrok xaritasi” yarating.

Adabiyotlar:

1. Бектемиров X., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент, 2002.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. –Ташкент, 1940.
3. Дониёров Р. Ўзбек тили илмий-техникавий терминлар тарихидан. – Тошкент, 1974.
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977.
5. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981.

III. O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA LINGVISTIK MASALALAR

3.1. Termin va uning o'ziga xos xususiyatlari Reja:

1. Termin haqida tushuncha.
2. Terminlarga qo'yiladigan talablar.
3. Terminlarga xos belgilar.

Tayanch tushunchalar: *termin, so'z, nom, obrazli so'z, metafora, terminologiya, terminologik tizim, terminotizim, sintaktik, tuzilishi, termin shakli, semantik, mazmuni, termin ma'nosi, pragmatik, funksionallik, terminning qo'llanishi.*

Termin (lotincha terminus - chegara, chek so'zidan) gapdan tashqarida olinganda ham aniq bir ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi so'z birikmasidir. Uning asl lug'aviy ma'nosi ham shuni anglatadi. Demak, termin hamma so'zlar singari so'z bo'lib, u ham ma'lum bir mustaqil tushuncha anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo'lgan bir vosita hisoblanadi.

Bitta soha doirasidagi terminlar terminotizimni tashkil qiladi. Terminlar fanning metatili va ilmiy tadqiqotlarning, shuningdek, insonning amaliy faoliyati sohalarining o'ziga xos voqeligini anglatuvchi so'zlar (iboralar) sifatida belgilanishi mumkin. Ko'pgina hollarda, olimlar tomonidan "nomenklatura" atamasi ishlatiladi. Bu ikki tushuncha o'zaro farqlanmasdan qo'llanadi. Shuning uchun ushbu o'rinda yo'l-yo'lakay nomenklaturaga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Nomenklatura (lot. Nomenclatura ro'yxat) – ilm-fanning turdosh (tipik) obyektlarining nomi. Agar termin umumiyligi tushunchani ifodalasa, nomenklatura xususiy tushunchani ifodalaydi¹. Masalan, ta'lim muassasalari turlari, o'quv-didaktik jihoz va shu kabilar nomlari nomenklaturalardir. Bundan kelib chiqadiki, terminlar, masalan,

¹ Суперанская А. В. Терминология и номенклатура / А. В. Суперанская // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Л.: Наука, 1976. – С. 73–78.

formulalar, turli xil matematik va ramziy ifodalar, shubhasiz, tegishli fanlarning metatiliga kiritilgan, ammo tabiiy tilning butun lug‘at tarkibiga kiritilmaydi. Biroq, ayrim belgilar ham termin sifatida kiritilishi mumkin, μ -nurlanish. Boshqacha qilib aytganda, metatil va terminologiya sinonim bo‘la olmaydi. Ko‘pgina terminlar tegishli terminotizimlar orqali tilning lug‘at tarkibiga kiritilgan¹.

Odatda, termin tushunchasi terminotizimda amalga oshiriladigan xususiyatlari orqali aniqlanadi. Oddiy so‘z birikmalaridan farqli o‘laroq, terminlardan foydalanish sezgi emas, balki mavjud ta’riflar, qoidalarga asoslanadi. Termin, qoidaga binoan bitta ma’noga ega bo‘lishi kerak; terminotizimda terminlarning omonimi bo‘lmasligi ma’qul. Biror termin uch ma’noda uch sohaning termini bo‘lib xizmat qilar ekan, uch xil ma’no yukini tashishga xizmat qiladi. Jumladan, *operatsiya* so‘zini olib ko‘raylik: 1. Tibbiyat sohasida: yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini qo‘yish va shu yo‘llar bilan kasallikni tuzatish, davolash ma’nosidagi termin. 2. Harbiy sohada: biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma’nosidagi termin. 3. Moliya sohasida: kirim, chiqim, foyda va zarar hisob-kitobi ma’nosida qo‘llaniladigan termin. Yoki, *tekislik* - so‘pi geografiyada ham (‘равнина’ ma’nosida), matematikada ham (‘плоскость’ ma’nosida) termin sifatida ishlatiladi. Bunday ko‘p ma’nolilik bir soha, jumladan, tarix, falsafa, filologik terminlar tizimida ham uchraydi. Ko‘pma’nolilik notermin so‘zda tabiiy, hatto zaruriy holat deb qaralsa, terminda g‘ayriqonuniy, chalkashlikka olib keladigan, qiyinchilikni yuzaga keltiradigan holat deyiladi. Chunki notermin so‘z nutqda har gal bir leksik ma’nosi bilan ishlatiladi. Ko‘p ma’noli (aniqrog‘i har xil ma’noli) terminda esa uning bir ma’nosi boshqa ma’nosini istisno qilib turavermaydi. Shunga ko‘ra ayni bir matnda har xil mazmun duch kelib

¹ Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. - С. 49.

qoladi. Bunday salbiy holat asosan termin bir sohaning o'zida ko'p ma'noli (har xil ma'noli) bo'lganida yuz beradi¹.

Ba'zan bir sohaning o'zi doirasida ikki har xil tushuncha ayni bir so'z bilan anglashiladi. Bunday salbiy holatga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilshunosligida *daraja* - leksemasi uzoq vaqt ikki har xil hodisaning nomi sifatida ishlatildi: *sifat darajalari, fe'l darajalari*; keyinchalik ikkinchi hodisa *nisbat* - termini bilan nomlandi; *qaratqich* leksemasi ham uzoq vaqt kelishikning va bo'lakning nomi sifatida ishlatildi, hozir bo'lakning nomi sifatida *qaratuvchi*- termini qabul qilindi. Demak, terminlarning ko'p ma'noda ishlatilishi fan uchun ijobjiy xususiyat sanalmaydi.

Terminlarning chegaralangan qo'llanishga egaligi ularning boshqa soha vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi degani emas. Masalan: *to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik* atamalari ko'pchilik uchun tushunarli, soha kishilaridan boshqalar nutqida kam iste'molli.

Shunday ekan, terminlarga ham asl substansiyasidan uzilgan mustaqil so'z sifatida qarash lozim. Bunga terminga qo'yiladigan bir ma'nolilik talabi ham asos bo'ladi. Demak, termin va umumiste'mol so'z bir narsaning ikki qirrasi, bir so'zning ikki ma'noda qo'llanilishi emas.

Terminga o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda bir qator me'yoriy talablar ham qo'yilgan. Dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ana shunday me'yoriy talablar ishlab chiqilgan. Ushbu talablar ko'plab olimlar, jumladan, I.N.Volkova, A.V.Krijanovskaya, L.A.Simonenko va boshqalarning ishlarida to'ldirilgan va kengaytirilgan.

Terminlarning o'ziga xos xususiyatlari va talablari haqida so'z yuritilar ekan, uni semiotik birlik sifatida qarab, uch aspektda o'rganishni taqozo etiladi: sintaktik (tuzilishi, termin shakli), semantik

¹ Rahmatullayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.

(mazmuni, termin ma'nosi), pragmatik (funktionallik, terminning qo'llanishi)¹. Shunga ko'ra, terminlarga qo'yiladigan talablar 3 guruhga bo'linadi:

1. Shakliy talablar.

2. Mazmuniy talablar.

3. Pragmatik talablar.

Shakliy talablar quyidagilar:

1) **til me'yorlariga mos kelishlik.** Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- til me'yorlariga mos ravishda: professional jargonizmlarni bartaraf qilish: tibbiyotda - o'pkaning toshqini, nevrotik, akkordeon o'ynash va boshqalar.

- fonetik va grammatik me'yordan chekinishga yo'l qo'ymaslik: qurilishda - kran, o'q, mexanizm, lift, klapan;

- adabiy tilga xos bo'lмаган birliklarni almashadirish: Ω shaklidagi kompensator o'rniga omega shaklidagi kompensator;

- baynalminal so'zlarni qo'llashda ularning til me'yorlariga amal qilish.

2) **qisqalik** (lo'ndalik, ixchamlik): terminning qisqa varianti – bu funksional nuqtai nazardan terminga teng shakl. Uni erkin va ixtiyoriy shakl qo'llashning imkonи yo'q: atamaning nomuvofiqligi nutqda keng qo'llanilishini oldini oladi:

- leksik qisqalik: *tiamnasetamindinpatotetraxloroplateat, etilendia-menmetilamin, natrodxiloroplatoxlorid, metan oksid etil diamidofenilditolikar-binosulfonik kislota, optik kvantli generator – lazer;*

- formal qisqalik: *nusxa olishning fotonabor metodi – fotonabor, enterodermatokardiopatik sindrom – karsinoid sindrom, neyromezodermatodistrofiya – neyrofibromatoz.*

¹ Гринев-Гриневич С. Терминоведение. – М., 2008. – С. 31.

2)derivatsionallik: terminlarning talablaridan biri bo'lib, termin olinayotgan tilga xos qo'shimchalar yordamida yangi termin hosil qilish jarayoni. Masalan, tibbiyotda qo'llanadigan *perikard* terminidan *perikardit*, *perikardiomiya* kabi terminlar hosil qilinadi. O'zbek tilida *yurakoldi xaltacha* sifatida qo'llanadi. Yoki kimyo sohasidagi *gidratatsiya* termini o'zbek tiliga *gidratatsiya*, *gidratatsiyalash*, *gidratlash*, *gidratlanish* kabi qo'llanadi.

3)invariantlik: terminlarning fonetik, leksik, morfologik, so'z yasalishi, sintaktik va boshqa variantlari muayyan voqelanishdan ajratib, mavhum olinishi natijasida terminni o'zgarmas holatga kelishi. Masalan, arxitekturada *graffito* – *graffitto* – *graffito* – *sgraffitto* (*graffiti* – devorlarga yozuv; *sgraffito* – devorlarni o'yib naqsh berish orqali dekorativ bezak berish); informatikada *disketa* – *diskette* – *disket*. Ammo bunday holat mutaxassislar muloqotida tushunmovchilikka olib keladi.

4)motivlanganlik: har qanday termin tushunchasi bilan semantik aloqada bo'lishi. Bu talabni to'liq namoyon bo'lishi tizimlilik bilan ko'zga tashlanadi.

5)tizimlilik: har qanday termin muayyan terminologik tizimning bir bo'lagi. Aynan shu xususiyat uni termin maqomiga ko'taradi. Terminotizim esa ikki xil tizimlilikka ega – mantiqiy tizimlilik va lisoniy tizimlilik¹.

6)lisoniyasos: o'z yoki o'zga til asosida yasalgan terminlardan birini tanlash lozim bo'lganda, albatta, o'z termindan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki o'zlashma terminlarni ko'p va asossiz ravishda qo'llash muqarrar ravishda terminologiyaning umumxalq tilidan ajralib va nomutaxassislarga tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi².

¹ Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М., 2006. – С.15-16.

² Волкова И.Н. Стандартизация научно-технической терминологии. – М., 1984. – С. 75.

Mazmuniy talablar quyidagilar:

1)birma'nolilik: termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir terminga mos bo'lishi kerak. Termin ma'nosining kontekstga qarab turlanib turishi, D.S.Lottening fikriga ko'ra, terminologiyaning eng jiddiy kamchiliklaridan biridir.

2)termin semantikasiga qarama-qarshi qo'yilmaslik: terminning so'z sifatida va leksik ma'nosи o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yo'qligi, ya'ni D.S.Lottening ta'kidlashicha, termin tushuncha aks ettirgan ma'nosiga mos kelishi lozim. Bu terminning semantik tarkibini murakkabligidan yuzaga kelib, odatda termin maxsus tushunchaning mazmuniga tenglashtiriladi, terminning so'zma-so'z anglatgan ma'nosи terminologik ma'noni keltirib chiqaradi. Leksik va terminologik ma'nolar o'zaro turli munosabatlarga kirishadi, jumladan, to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik va to'liq mos kelmasligi mumkin.

3)to'la ma'noga ega bo'lishlik: (termin ma'nosida aks ettirish, aniqlash uchun yetarli bo'lган minimal belgilar soni, u tomonidan berilgan tushunchalarni tenglashtirish). Masalan, "Tibbiy atamalarning ensiklopedik lug'ati"da sedimentatsiya koeffisenti termini ostida eritrotsitlar sedimentatsiyasi tushuniladi. Ammo terminning shakliy talabida bu ko'rinxmaydi, leksik ma'nosи uning tushunchasiga nisbatan ancha kengroq.

4)aniqlilik: ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Terminning aniqligi deganda uning ta'rifida berilgan tushunchaga xos barcha belgilarning mavjudligi tushuniladi.

5)sinonimga ega bo'lmasislik: terminga qo'yiladigan talab barcha terminlar va terminotizimga nisbatan qo'yiladi. Barcha soha terminologik leksikasida sinonimlarning ko'pligi (sinonimiyaning ba'zi turlarini o'zlashmalar, ba'zilari neologizmlar, eskirgan atamalar va boshqalardan olingan) muntazamlik xususiyatiga ega. Ayrim terminlar

sinonimlari juda ko‘p. Masalan, jahonda qo‘llanayotgan *candida albicans* tibbiyot terminining 100 dan ortiq sinonimi mavjud¹.

Pragmatik talablar quyidagilar:

1) **joriylanish:** ilmiy doiralar yoki uning foydalanuvchilari, mutaxassislar tomonidan qabul qilingan umumiste'molda bo‘lgan terminlar tushuniladi. Yozma matnlarda terminlarning qo‘llanilishi ularning chastotasini aniqlash, hisoblash orqali va chastota bilan tavsiflanadi.

2) **baynalminallik:** ilmiy tadqiqotlarning baynalminallashuvi an'anasing o‘sib borishi, xalqaro mutaxassislarning muloqotiga ehtiyojning yuzaga kelishi, ilmiy va texnik ma’lumorlarning xalqaro miqyosda almashinuvi bir nechta (kamida uchta) milliy tillarda ishlatiladigan terminlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

3) **zamonaviylik:** eskirgan terminlarning siqib chiqarilishi va o‘rnini zamonaviy terminlar bilan almashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

4) **ohangdorlik:** terminni ohangdorligining ikki jihatni mavjud. Birinchidan, terminlarning talaffuz qilish qulayligi ularning orfoepik ohangdorligi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, termin talaffuz qilinganda nomaqbul taassurot qoldirmasligi lozim. Masalan, *bitlash – pedikulyoz, cho ‘chqa bashara – erizipeloid*.

Demak, qisqacha aytganda, terminlarning quyidagi belgilari mavjud:

- 1)biror fan va texnika sohasiga tegishli ekanligi bilan izohlanadi;
- 2)terminning ma’nosini tushunchaga tengdir;
- 3)terminlar bir-ikki so‘zdan va so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lishi mumkin;
- 4)termin uchun kontekstning bo‘lishi shart emas;

¹ Лидов И. П. Актуальные вопросы упорядочения медицинской терминологии // Научно-техническая терминология. — М., 1985. - Вып. 1. - С. 1-4.

5)termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;

6)termin stilistik jihatdan neytraldir;

7)termin bir ma'noli (monosemantik ekanligi) yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;

8)terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan atamalar ichidan faqat terminlarga qo'yiladigan talablarni tanlab oling va jadvalga ketma-ketlikda yozing.

Shakliy talablar; nazariy talablar; mazmuniy talablar; o'xshashligiga ko'ra talablar; bajaradigan vazifasiga ko'ra talablar; pragmatik talablar; sotsiolingvistik talablar;

1.	
2.	
3.	
4.	

2-topshiriq. Terminlarga qo'yiladigan shakliy talablarni ularga xos bo'lgan tushunchalar bilan moslashtiring.

1.	til me'yorlariga mos kelishlik	A	terminning qisqa varianti – bu funksional nuqtai nazardan terminga teng shakl. Uni erkin va ixtiyoriy shakl qo'llashning imkoni yo'q
2.	qisqalik	B	til me'yorlariga mos ravishda: professional jargonizmlarni bartaraf qilish: tibbiyotda - o'pkaning toshqini, nevrotik,

			akkordeon o'ynash va boshqalar.
3.	derivatsionallik	S	terminlarning fonetik, leksik, morfologik, so'zyasalishi, sintaktik va boshqa variantlari muayyan voqelanishdan ajratib, mavhum olinishi natijasida terminni o'zgarmas holatga kelishi.
4.	invariantlik	D	terminlarning talablaridan biri bo'lib, termin olinayotgan tilga xos qo'shimchalar yordamida yangi termin hosil qilish jarayoni.
5.	motivlanganlik	E	har qanday termin muayyan terminologik tizimning bir bo'lagi. Aynan shu xususiyat uni termin maqomiga ko'taradi.
6.	tizimlilik	F	har qanday termin tushunchasi bilan semantik aloqada bo'lishi. Bu talabni to'liq namoyon bo'lishi tizimlilik bilan ko'zga tashlanadi.
7.	lisoniy asos	G	o'z yoki o'zga til asosida yasalgan terminlardan birini tanlash lozim bo'lganda, albatta, o'z termindan foydalanish maqsadga muvofiq.

1	2	3	4	5	6	7

3-topshiriq. Terminlarga qo'yiladigan pragmatik talablar: *joriylanish*, *ohangdorlik*, *baynalminallik* va *zamonaviylik* kabi xususiyatlarga mos keluvchi 25 ta terminni O'TILning 2-jildidan topib yozing va ma'nosini izohlang.

4-topshiriq. Bugungi kundagi internet tarmog'ida qo'llanilayotgan yangi terminlardan 10 ta yozing.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Terminlarga qo'yiladigan mazmuniy talablarni bir-biriga moslashtirib chiqing.

1.	bir ma'nolilik	A	termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir terminga mos bo'lishi kerak.
2.	termin semantikasiga qarama-qarshi qo'yimaslik	B	terminning so'z sifatida va leksik ma'nosи o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yo'qligi.
3.	to'la ma'noga ega bo'lishlik	V	termin ma'nosida aks ettirish, aniqlash uchun yetarli bo'lgan minimal belgilar soni, u tomonidan berilgan tushunchalarni tenglashtirish.
4.	aniqlilik	G	ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Uning ta'rifida berilgan tushunchaga xos barcha belgilarning mavjudligi tushuniladi.
5.	sinonimga ega bo'lmaslik	D	terminga qo'yiladigan talab barcha terminlar va terminotizimga nisbatan qo'yiladi. Barcha soha terminologik leksikasida sinonimlarning ko'pligi (sinonimiyaning ba'zi turlarini

					o'zlashmalar, ba'zilari neologizmlar, eskirgan atamalar va boshqalardan olingan) muntazamlik xususiyatiga ega.
1	2	3	4	5	

2-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan fan sohasidan sinonimlik xususiyatiga ega bo'lgan terminlarni aniqlang va struktur tuzilishiga ko'ra tahlil qilib bering.

3-topshiriq. Berilgan jadvalni to'ldiring. Terminlar haqida bildirilgan fikrlar muallifini toping. Tanlab olish uchun ismlar: V.G.Gak, A.A.Reformatskiy, G.I.Chepanov, N.P.Kuzkin, D.P.Gorskiy, K.A.Levkovskaya, A.S.Gerd, Ye.M.Galkina – Fedoruk, P.S.Popov, V.A.Zvegensev, L.A.Kapanadze.

	- termin bilan so'zning farqli munosabatini ifoda planiga ko'ra uch tipga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatadi.
	- termin ko'p ma'nolikdan – polisemiyadan ajralib turishi kerak.
	- rus tilidagi <i>красивый, делимый, конечный, некрасивый, неделимый, бесконечный</i> so'zлари ijobjiy (положительный) va salbiy (отрицательный) terminlardir.
	- termin va so'z orasida mazmunan ham, shaklan ham jiddiy farq yo'q.
	- termin lug'aviy ma'noga ega, ammo bu ma'no faqat ifodalananayotgan tushuncha bilan chegaralanmaydi.
	- termin lug'aviy ma'noga ega va bu ma'no tushunchadir.
	- termin lug'aviy ma'noga ega emas, balki tushunchaga to'g'ri keladi.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 2-jildidan botanikaga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzularda esse yozing.

«Terminlarda zamonaviylik va ohangdorlik», «Terminlarda baynalminallik» mavzularida esse yozish va eng yaxshi esselar tanlovini o'tkazish. Eng yaxshi esselar yashirin ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lмаган prezentatsiya yarating.

4-topshiriq. «Reklama» usulida mavzuga oid reklama yarating.

3.2. Termin, so'z va nom

Reja:

1. Termin va so'zning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Termin, so'z va nom munosabati.
3. Terminning o'zgarishi.

Tayanch tushunchalar: *termin, so'z, nom, determinologizatsiyalash, determinlashish, reterminologizatsiya, o'zgaruvchan, metafora, metonimiya.*

Jamiyatda mavjud narsa-hodisalar g'oyat xilma-xil va rangbarang, shu bilan birga son-sanoqsiz. Bu xilma-xillikni inson hali to'liq o'r ganib adog'iga yetgan emas. Bu jarayon hali ham davom etmoqda va keyin ham davom etadi. Buning ustiga, jamiyatdagi mavjud narsa-hodisalar tuzilishida, fe'l-atvorida, shakl-shamoyilida bir-biriga o'xshash, ayni paytda bir-birini takrorlamaydigan noo'xshash, farqli jihat va belgi-xususiyatlar bor. Inson ularni o'r ganib borish jarayonida ularning o'ziga xos, o'ziga mos nomlar ham topishi zarur. Bu nomlar insonning zarur

paytda informatsiya almashuvi uchun, zarur paytda tafakkur qilishi uchun moddiy borliqning vakili sifatida g'oyaviy asos vazifasini o'taydi. Tilning tafakkur bilan bog'liq jihatni ham shunda ko'rindi.

Nomlash jarayoni ham inson uchun o'ziga xos tafakkur va ijod jarayoni sifatida qaralishi lozim. Chunki nomlash jarayonida ham bilishdagidek insonga xos qiyoslash, tasniflash, abstraksiyalash, analiz, sintez va boshqa tafakkur operatsiyalari bajariladi. Bularsiz borliqni tashkil etuvchi narsa-hodisalarga o'ziga xos va o'ziga mos nom berib bo'lmaydi.

Termin bilan odatdagi so'zni bir narsa deb bo'lmaydi. O'tmishda Yevropada ilm-fanning dastlabki yaratuvchilari bo'lgan qadimgi greklarda va rimliklarda termin fanga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar sifatida qo'llangan.

Bizning davrimizga kelib bu tushuncha o'zgarishga uchradi. Ko'pchilik olimlar termin so'zining ma'nosini avvalgicha, ya'ni ma'lum fan va fan bilan bog'langan texnika, san'at va madaniyatga oid hodisalar bilan belgilasalar, ba'zi olimlar har qanday ot(atama)ni termin deb ataydilar. Bu jihatdan ular «termin» so'zini morfologiyadagi «ot» so'zining ekvivalenti, sinonimiga aylantirib qo'yadilar.

Terminni otning sinonimi deb hisoblovchilar, aslida ingliz faylasuflarining, so'ngra esa XIX asrning boshlarida o'n martadan ortiq nashr qilingan «Mantiq darsligi» muallifi G.I.Chepanovning fikrlarini tasdiqlaydilar.

Ingliz faylasuflarining fikricha, «mantiqda tushunchalar haqida emas, atamalar, nomlar yoki terminlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir». G.I.Chepanovning fikricha, rus tilidagi *красивый, делимый, конечный, некрасивый, неделимый, бесконечный* so'zlari ijobiy (положительный) va salbiy (отрицательный) terminlardir¹.

Demak, mantiqshunos uchun termin – mantiqiy muhokama elementi bo'lib, uning faqat ot bilan ifodalanishi shart emas. Ammo

¹ Челпанов Г.И. Учебник логики. - М., 1946. – С.8.

tilshunos terminni bu xilda tushunmasligi kerak. Tilshunoslikda hamma atamalarni, shu jumladan, odatdagи sifatlarni ham terminga kiritish terminning doirasini asossiz ravishda kengaytirib yuborish bo'lar edi. Hozirgi mantiqshunoslar terminni bu xilda keng ma'noda, ya'ni so'z ma'nosida qo'lllamaydilar.

Termin – so'zlarning bir xili, ammo hamma otlar (ayniqsa, sifatlar) ham termin hisoblanmasligi lozim. Terminlarning maxsus termin ekanligi o'zi qo'llanayotgan sohada yaqqol ko'zga tashlanadi. U bu tizimdan boshqa tizimga o'sha oddiy so'zga aylanadi. Shu sababli ham M.Mukarramov «bo'g'in» so'zi tilshunoslikda, ya'ni fonetikada termin, «yosh bo'g'in», «qo'l bo'g'irlari» birikmalarida inson tanasining a'zolari sifatida ekanligini ta'kidlaydi¹.

V.G.Gak termin bilan so'zning farqli munosabatini ifoda planiga ko'ra uch tipga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatadi: 1) bir planli leksik birlik – oddiy so'z; 2) bir planli leksik birlik – termin; 3) ikki planli leksik birlik – bir o'rinda oddiy so'z, ikkinchi bir o'rinda termindir. V.G.Gakning fikricha, *birinchi tip* leksik birliklar doimo o'zining oddiy so'zligini saqlaydi. Ular ilmiy adabiyotlar tilida ham termin sifatida qo'llanmaydi. Bu so'zlarga atoqli otlar, olmosh va yordamchi so'zlar kiradi. *Ikkinci tip* birliklar haqiqiy terminlardir. Ular kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham o'zlarining terminologik xususiyatini saqlay oladi. Ular oddiy so'z bilan yonma-yon qo'yilganda ham o'zlarining oddiy so'zdan uzoqlashganligini, begonalashganligini namoyon qilib turadi. Bunday so'zlar *tangens*, *sinus*, *affiks*, *prefiks*, *oqsil*, *oltingugurt*, *umurtqasizlar* tipidagi so'zlardir.

Uchinchi tipda so'zlar bir o'rinda oddiy so'z, ikkinchi bir o'rinda termin ma'nosida qo'llanishi mumkin. Bunday terminlar ko'pincha o'z til imkoniyatlari zaminida hosil qilinadi: Masalan: *so'z*, *gap*, *kuch*, *bo'g'in*, *maydon*, *uchburchak*, *ildiz*, *to'qima kabi*².

¹ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984. –Б.55 – 56.

² Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии / Актуальные проблемы учебной лексикографии. - Москва, 1977. – С. 54-55.

A.A.Reformatskiyning fikricha, termin ko‘p ma’nolikdan – polisemiyadan ajralib turishi kerak. Termin bir va aniq ma’noni bildiradigan maxsus so‘zdir¹.

Adabiyotlarda terminlar bilan so‘zni qarama-qarshi qo‘yish tamoyili asosida tadqiqot olib borganlar. Terminlarni (tor soha birliklarini) noterminlarga (milliy tilning umumiste’moldagi leksemalariga) qarama-qarshi qo‘yish² tamoyili o‘zini oqlamadi, chunki u ikki lug‘aviy qatlam orasida doimo transpozitsiya holati kuzatiladi. N.P.Kuzkinning fikriga qaraganda, ular orasida mazmunan ham, shaklan ham jiddiy farq yo‘q. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan yagona va obyektiv farq uning g‘ayrilisoniy voqelik bilan bog‘liqligidir: umumqo‘llanishdagi so‘z turmushdagi tushunchani aks ettirsa, termin tor doiradagi mutaxassislarga tushunarli bo‘lgan tushunchani ifodalaydi³.

Bizningcha, muallifning bu fikriga qo‘shilish qiyin, chunki keng doiradagi mutaxassislarga tushunarli bo‘lgan terminlar ham ko‘p va ular umumiylar terminotizimning juda katta qismini tashkil qiladi. Narsa-buyum ma’nosи va tushuncha ma’nosи orasidagi munosabatni o‘rganishda quyidagi uch holatni inobatga olgan holda ish ko‘rish maqsadga muvofiq: a) termin lug‘aviy ma’noga ega, ammo bu ma’no faqat ifodalanayotgan tushuncha bilan chegaralanmaydi (D.P.Gorskiy, K.A.Levkovskaya, A.S.Gerd); termin lug‘aviy ma’noga ega va bu ma’no tushunchadir (Ye.M.Galkina – Fedoruk, P.S.Popov); v) termin lug‘aviy ma’noga ega emas, balki tushunchaga to‘g‘ri keladi, (V.A.Zvegensev, A.A.Reformatskiy, L.A.Kapanadze).

Tilshunoslikda terminlarning o‘zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo‘lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta’kidlaydi: «Texnika

¹ Реформатский А.А. Введение в языкознание. –Москва, 1955. – С.85.

² Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина / Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. - Москва, 1970. – С. 54-55.

³ Кузькин Н.П. К вопросу о сущности термина / Вестник ЛГУ, №20. Серия истории, языка и литературы, Вып. 4. – Л., 1962. – С. 225.

taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progresi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi»¹. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. D.S.Lotte qanday kategoriyyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: «...texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriylar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblar, detallar va h.k.); xossalari; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari²«.

Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Kelib chiqishi jihatidan terminlar har bir tilning ichki imkoniyatlariga xos (*to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol*) va boshqa tillardan o'zlashgan (*meditsina, biologiya, ximiya, fizika*) bo'lishi mumkin.

¹ Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка / Филологические науки. 1971. № 5. – стр. 103.

² Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии / Вопросы теории и методики. – М.:1961. – стр. 29.

Oddiy leksika bilan terminologik leksika bir-biri bilan mustahkam aloqada bo'ladi¹. Lekin shunday holat ham uchraydiki, terminologiyaning o'zi ham avtonom tarzda boyib boradi, ya'ni biror bir soha termini semantik siljish natijasida ikkinchi bir soha terminiga aylanadi. Bunday aloqalar quyidagi uchta jarayondan kelib chiqadi:

1. Oddiy so'zdan termin hosil bo'lishi: *og'iz* (botanika), *kalit* (musiqa) va h.k.
2. Terminlarning oddiy leksikaga aylanishi: *telefon*, *vazn*, va b.

3. Terminologiyaning o'z hisobiga boyishi: *chechak*, *gul* va h.k. Yanada aniqroq qilib aytsak, bu jarayonda metafora, metonimiya va funksiyadoshlik natijasi bo'lmish termin uch xil ma'noviy xususiyat kasb etishi mumkin, ya'ni termin konkret ma'noga ega bo'ladi. Terminlar determinologizatsiyalashadi, ya'ni terminologik maqomini yo'qotadi, adabiy tilning leksik tizimiga kiradi. Termin o'ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qoladi. Xususan, *radio*, *televizor*, *telefon* so'zlari ham ma'lum soha terminlari sifatida yuzaga kelgan, ammo hozirgi paytda bu terminlar ommalashib, barchaning nutqida qo'llanadigan, barchaga tushunarli bo'lgan so'zlarga aylangan. Bu hodisa tilshunoslikka oid ayrim adabiyotlarda **determinologizatsiyalash**², ayrim adabiyotlarda **determinlashish**³ deb keltirilgan.

Terminlarning determinologizatsiyalashishi lingvistik ifodani ekspressivligini kuchaytirishi mumkin, qiyoslang; jismoniy madaniyat sohasidagi termin *qora tuynuk* va uning asosida paydo bo'lgan idioma *qora tuynuk*.

Terminlar nafaqat terminologik maqomini yo'qotishi, balki bir

¹ Мельников Г.П. Основы терминоведения. М.: Изд-во ун-та дружбы народов, 1991. - С. 37-39. <http://www.rema44.ru/resurs/conspcts/all/trmnved.html>: Косова М.В. Терминологизация как процесс переосмысления русской общеупотребительной лексики. Дисс... докт.филол.наук. - Волгоград, 2004. <http://www.dissland.com/catalog/131416.html>

² Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. - С. 50.

³ Хозирги ўзбек адабий тили. 1-кисм. –Тошкент,

fandan boshqasiga o'tishi mumkin. Ushbu jarayon **reterminologizatsiya¹** deb ataladi. Masalan, fizika fanida "o'zgaruvchan" termini matematik tanlangan matnlar to'plami ko'rib chiqiladigan tushunchani anglatadi.

Terminning struktur tarkibi, V.P.Danilenkoning ko'rsatishicha, uch lug'aviy qatlamni o'z ichiga oladi: 1) noterminologik leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Agar umumilmiy terminlar bir fan doirasi bilan chegaralanmaydigan umumiylar ma'nolarni ifodalasa, terminologik leksika (konkret terminotizimning maxsus so'zlari) ilm-fan tilining eng ko'p ma'no tashuvchi qismidir².

Z.I.Komarova leksemalarni stilistik nuqtai nazardan *me'yoriy* (so'zning o'z ma'nosidagi terminlar) va *g'ayrime'yoriy* (professionalizm, terminoid individual obrazli iboralar) guruhlarga ajratadi. Terminlar – ilm-fan, texnika, san'at, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qo'llanadigan maxsus nomlardir. Ular, o'z navbatida, proteterminlarga, ilk terminlarga va terminoidlarga bo'linadi³.

Demak, termin odatdag'i so'zlardan farq qiladi. Termin bilan odatdag'i muomala chog'ida qo'llanadigan so'zlar orasidagi farqlar aniqlanar ekan, bu bilan terminning o'ziga xos xususiyatlari ham ochiladi. Terminlar «paydo bo'lib qolmaydi», aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda «o'ylab topiladi», «ijod qilinadi». Shuningdek, oddiy so'zdan farqli ravishda, terminning ma'nosini kontekstga bog'liq bo'lmaydi, maxsus so'z-termin o'z terminlik ma'nosida va o'z terminologik maydonida qo'llanar ekan, uning ayni ma'nosini saqlanib qolaveradi. Shuning uchun quyida bu atamalarning eng

¹ Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. - С. 51.

² Даниленко В.П. Введение в языкознание. Курс лекций (с грифом УМО Министерства образования РФ). 5-е изд. - М: Флинта: Наука, 2017.

³ Комарова З.И. Технология научных исследований в системной методологии современной лингвистики. - Екатеринбург, 2016. – С.54-59.

muhimlariga, terminlarning o'ziga xos xususiyatlariiga to'xtab o'tishga to'g'ri keladi.

1. Ma'lumki, so'zning ma'nosi ko'p hollarda murakkab bo'ladi, uning asosini tushuncha tashkil qilib, tushuncha ustiga kishiga ta'sir qiladigan qo'shimcha emotsiyal-ta'sirchan ottenka - «bo'yoq» qo'shiladi. Bundan tashqari, so'z nutqning turli xillarida (oddiy muomalada, publitsistik matnlarda, she'riyatda, ilmiy asarlarda, jamoatchilik oldida so'zlanadigan nutqlarda, idora qog'ozlarida va boshqa shu kabilarda) qo'llanishga xoslangan bo'ladi, boshqacha aytganda, stilistik (uslubiy) belgiga ega bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, so'z emotsiyal - ta'sirchanlik xususiyatga ham ega bo'lib, tushuncha va stilistik belgi ifodalaydi. Uning stilistik belgisi ma'lum ishlab chiqarish, fan sohasiga oid bo'lgan aloqa jarayoni ilk ilmiy asarlar bilan bog'langanligida va bu belgi shunday maxsus sharoitida sezilib turmagandan, odatda, aniq bir tushuncha ishlatalishiga e'tibor qilinadi.

Terminlardagi tushuncha bilan bog'langanlikning bo'rtib turishi uni mantiq qoidasi asosida ta'riflash imkoniyatini beradi. Masalan: **kurtak** - o'simlikning tana, barg, gul va boshqa qatlamlarini hosil qiluvchi organ, boshlang'ich novda (botanika), **diafragma** – qursoq bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratib turadigan to'siq (anatomiya) va boshqalar.

Mantiqiy ta'riflash termin sifatida olingan so'zdan anglashiladigan tushunchaning bir necha muhim belgisini ifodalash demakdir. Bunda termin xususiy tushunchani ifodalasa, ta'riflash uchun foydalanilgan so'z umumiyligi tushunchani, keng tushunchani ifodalaydi. Masalan, yuqorida **kurtak** terminidan anglashilgan tushuncha organ va novda singari umumiyligi va keng tushunchalar yordamida ifodalangan.

2. Termin hamma vaqt – gapda ham, gapdan tashqari ham bir ma'noli bo'ladi. Uning bir ma'noli bo'lishi ma'lum fan yoki ma'lum sohada qo'llanish xususiyati orqali yuzaga keladi. Masalan, **til** oddiy so'z sifatida ko'p ma'nolidir: turli gapda turli ma'nolarda qo'llanishi

mumkin (kishi va hayvonlardagi ma'lum organ nomi, aloqa quroli nomi, «so'z» degan ma'noda: *qulog sol, tingla*, «*sir*», «*usul*» ma'nolarida: *Rizamat biladi nihol tilini* va boshqalar). Ammo termin sifatida odam yoki hayvon anatomiysi sohasidagi ma'lum bir organninga ifodalaydi, ijtimoiy fanlar sohasida esa faqat kishilarning jamiyatda o'zaro aloqa qilish qurolini anglatadi. Bunday maxsus sohalarda qo'llangan termin turli gapda kelganda faqat bir xil ma'noni anglataveradi.

3. Termin so'zning ko'pincha qo'llaniladigan asosiy (bosh) ma'nosiga tayanmaydi, balki ko'chma (yoki yasama) ma'nolariga asoslanadi. Masalan, ***o'zak*** termini botanika fani sohasida o'z ma'nosida – o'simlik tanasining o'rta qismi ma'nosida qo'llanilsa, zoologiyada patning o'rta qismi, texnikada «elektromagnitning o'zagi» ma'nosida ko'chma holda qo'llanadi. ***O'zak*** termini grammatikada ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Chunki so'zning o'zagi so'z o'rtasida kelishi shart emas, aksincha, o'zbek tilida ko'proq so'z boshida (ya'ni «chetida») keladi.

Termin murakkab tuzilgan bo'lsa, uning bir yoki bir necha elementi (komponenti) ko'chma ma'noda bo'lishi mumkin. Masalan: anatomiya sohasidagi «*miya po'sti maydonlari*» termini sostavidagi po'st va maydon so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangandir.

Terminning ko'chma ma'nosini asosiy (bosh) ma'no bilan ikki xil munosabatda bo'ladi:

a) asosiy ma'no bilan termin anglatgan ko'chma ma'no o'zaro bog'langan bo'ladi va bu bog'lanish anglashilib turadi.

Ma'lumki, so'zlardagi ma'no ko'chishi metafora, metonimiya, vazifadoshlik, sinekdoxa usullarida yuzaga keladi. Ma'no ko'chishidan hosil bo'lgan terminlarda metafora ko'proq uchraydi. Masalan, geografiya sohasidagi *qo'lтиq, burun* terminlari joylarning ko'rinishini (shaklini) odamning qo'ltig'iga, burniga o'xshatishga asoslangan; botanika sohasidagi ***chang*** o'simlik ichidagi mayda otalik urug'larini tuproqqa, to'zonga o'xshatishga asoslangan.

Ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan terminlar u qadar ko'p bo'lmasa ham, har holda uchrab turadi. Masalan, *qorako'l* qo'yning bir zoti nomi, *modera*, *madeyra*, *tokay* (vino turlarining nomi) aslida joy nomlaridan olingan.

Elektrda tok kuchi o'lchov birligi *amper*, tokning kuchlanish o'lchov birligi *volt* shu hodisalarни kashf qilgan olimlar (Amper, Volt) nomini metonimiya usulida ko'chma ma'noda qo'llashdan tug'ilgan.

Sinekdoxa usulida, ya'ni butun bilan qism o'rtasidagi munosabat asosida ma'no ko'chishi natijasida ma'lum hayvonning terisi ma'nosini anglatadigan *tulki*, *qorako'l*, *qunduz*, *ondatra*, *nutriya* kabi terminlar vujudga kelgan.

b) asosiy ma'no bilan ko'chma ma'noda qo'llangan termin orasidagi aloqa uzoqlashib, pirovardida yo'qolib ketadi. Natijada, odatdagi so'zga omonim bo'lgan termin hosil bo'ladi. Masalan, yuqorida ko'rsatilgan o'zak aslida o'rtada keladigan narsani anglatadigan so'z bo'lsa ham grammatik termin sifatida asosiy qismni (so'zning asosiy leksik ma'nosini tashuvchi qismni) anglatadi. Bu ma'noda u o'rtada bo'lish belgisiga ega emas. *Ega* – «xo'jayin», «xudo» degan ma'nolarini anglatadigan so'z, ammo grammatik termin sifatida qo'llanganda bu ma'nolar esga olinmaydi.

4. Terminning ma'nosi sun'iy ravishda semantik taraqqiyotdan, o'zgarishlardan to'xtatilgan bo'ladi. Ba'zan termin so'zning ko'chma ma'noda qo'llangandagi ma'nosini anglatsa ham, bu ko'chma ma'no o'sha terminning birdan bir ma'nosi bo'lib qoladi. Vaholanki, odatdagi so'zlarda ko'chma ma'nolardan biri bilan bunday chegaralanib bo'lmaydi. Davr o'tishi bilan so'zning bosh ma'nosi yoki ayrim ko'chma ma'nolari unutilishi va boshqa ko'chma ma'no saqlanib qolib, asosiy ma'noga aylanishi mumkin bo'lsa ham, bu so'nggi ma'no(yoki ma'nolar) asosida keyinchalik yangi ko'chma ma'nolar hosil bo'lish jarayoniga chek qo'yilmaydi. Shuningdek, *so'z va gap*, *ildiz va tomir* so'zlari odatda bir-birlariga sinonimdir, ammo termin sifatida ular bir

biriga sinonim bo'lmaydi. *So'z* tilshunoslikda leksikologiya va morfologiyaning obyekti bo'lgan birlikni ifodalaydi. Ularni farqlamaslik anglashilmovchilikka sabab bo'lgan. Botanika fani sohasiga *ildiz* va *tomir* terminlari ham mana shunday boshqa boshqa tushunchalarni anglatadi. *Ildiz* – o'simlik bargidagi pastki qismi bo'lsa, *tomir* – o'simlik bargidagi taram-taram «ip»lardir.

5. Tarkibidagi ma'nosi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan narsa va hodisalar ilmiy klassifikatsiyada o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Masalan, tabiatda qattiq narsaning aksi yumshoq narsa ham mavjud. Tabiiy fanlar sohasida jismlarni qattiq jism, yumshoq jismga bo'ladilar. Ammo fizika fani sohasida qattiq jism terminining antonimi yumshoq jism yo'q. Lekin ba'zi so'zlarning sinonimiyasi terminga aylanganda yuzaga keladi. Masalan, ximiya sohasida qo'llanadigan *og'ir suv* termini mavjud bo'lsa-da, odatda *og'ir* so'zi bilan *suv* so'zi erkin birlik hosil qilmaydi, binobarin oddiy muomalada uning antonim sifatida *yengil suv* birikmasi ham tuzilmaydi.

6. Termin emotsiyal ta'sirga, «bo'yoqqa» ega emas. Bunday rang terminni aniq bir ma'noda qo'llashga halal beradi. Chunki emotsiyalta'sirchanlik kishining nutq madaniyatiga, predmet yoki hodisaga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Predmetning ma'nosida subyektiv moment bo'lmasligi kerak.

Ba'zi terminlarning morfologik tuzilishida ko'rsatilgan, erkalash ma'nosini ifodalaydigan aforizmlar bo'ladi. Ammo bunday aforizmlar termin sostavida hech qanday erkalash atamasini ifodalamaydi. Masalan, yurakning tuzilishiga oid bo'lgan *qorincha*, o'simlik tuzilishiga oid bo'lgan *og'izcha*, avtomobil tuzilishiga oid bo'lgan *mushtcha* terminlari odatdag'i so'zlar kabi qo'llanib bolalarning qorinchasi yoki jajji og'izchasini, mushtchasini anglatganda edi, kichiklik ma'nosinigina

emas, o'sha kichkina predmetlarga nisbatan bo'lgan erkalash ma'nosini anglatgan bo'lar edi¹.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Chalkash harflar» mashqini bajaring.

1. Terminta'sirga, «bo'yoqqa» ega emas.	1. ionomesal
2. Terminning ma'nosi sun'iy ravishda taraqqiyotdan, o'zgarishlardan to'xtatilgan bo'ladi.	2. maeiknts
3. Termin murakkab tuzilgan bo'lsa, uning bir yoki bir necha elementi (komponenti)..... bo'lishi mumkin.	3. machko' mda'noa
4. V.G.Gak termin bilan so'zning farqli munosabatini ifoda planiga ko'raga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatadi.	4. chu pit
5. Ma'nosi..... asosida ko'chgan terminlar u qadar ko'p bo'lmasa ham, har holda uchrab turadi.	5. tiyaeommni

2-topshiriq. Atamalarni toping.

1. Terminning qisqa varianti – bu funksional nuqtai nazardan terminga teng shakl.
2. Terminlarning fonetik, leksik, morfologik, so'zyasalishi, sintaktik va boshqa variantlari muayyan voqelanishdan ajratib, mavhum olinishi natijasida terminni o'zgarmas holatga kelishi.
3. Har qanday termin tushunchasi bilan semantik aloqada bo'lishi.
4. Termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir terminga mos bo'lishi kerak.
5. Ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi.

¹ Ўтаева И. Инглиз ва ўзбек тилида нофаол сўзлар. Магистр академик даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарканд, 2016. – 24-28-бетлар.

6. Ilmiy doiralar yoki uning foydalanuvchilari, mutaxassislar tomonidan qabul qilingan umumiste'molda bo'lgan terminlar tushuniladi.

7. Ilmiy tadqiqotlarning baynalminallashuvi an'anasing o'sib borishi, xalqaro mutaxassislarning muloqotiga ehtiyojning yuzaga kelishi.

J	T	H	T	T	T	T	T	T	T	T
H	A	Q	Y	B	A	Y	N	J	A	
N	G	S	A	O	O	A	A	O	L	
B	T	Q	L	I	A	A	A	R	Y	
Y	B	A	Y	N	A	L	M	I	L	
T	I	L	G	V	N	A	O	Y	A	
A	R	I	E	A	I	L	T	L	L	
G	M	K	R	R	Q	Y	I	A	I	
E	A	T	T	I	L	G	V	N	K	
R	'	A	Y	N	I	E	L	I	A	
T	N	G	H	T	K	R	A	Sh	L	
Y	O	T	J	L	A	T	N	A	Y	
H	L	A	B	I	L	Y	G	L	G	
J	I	G	G	K	Y	A	A	Y	E	
B	K	T	E	K	I	L	N	G	R	

3-topshiriq. «Insoniyatning ekologik ixtisoslashishi» matnini o'qing va terminlarni topib daftarga yozing. Qaysi fanga oid ekanligini aniqlang.

Tabiiy va sun'iy muhit omillari insonga doimo ta'sir ko'rsatadi. Sayyoraning turli joylarida har xil tabiiy omillarning ta'sirida insoniyat rivojlanishi tarixi davomida yer shari aholisining ekologik ixtisoslashishi natijasida odamlarning adaptiv (moslashish) tiplari kelib chiqqan.

Adaptiv tip - yashash sharoitiga biologik reaksiya normasi bo'lib, insonning o'sha sharoitga yaxshi moslashishini ta'minlovchi morfologik, funksional, biokimyoviy, immunologik belgilar kompleksining rivojlanishi bilan ta'riflanadi. Har xil iqlimli hududlarda yashovchi xalqlarning ovqatlanishida ham o'ziga xosliklar mavjud. Shu tufayli ularning hazm fermentlari sintezida, ajratilishida va sifatida ham moslanuvchanlik o'zgarishlari kuzatiladi.

Insonlarning quyidagi adaptiv tiplari farq qilinadi: arktik, tropik, o'rta iqlim zonalari, baland tog'lik, cho'l va chalacho'l adaptiv tiplari.

Arktik adaptiv tip. Sovuq iqlim va ko'proq hayvon mahsulotlari bilan oziqlanish sharoitida shakllanadi. Arktika xalqlari hazm sistemasida o'simliklar tarkibidagi C vitaminni kam iste'mol qilishga moslanish xususiyati rivojlangan. Arktik adaptiv tipning xarakterli belgilariga tananing suyak-muskul sistemasi yaxshi rivojlanganligi, qonda oqsil, yog'larning ko'p miqdorda bo'lishi va boshqalar kiradi. Arktik tip uchun energiya almashinuvining kuchliligi va termoregulyatsiyaning yaxshi rivojlanganligi ham xarakterlidir.

Tropik adaptiv tip. Issiq va nam iqlim, oziq ratsionida hayvon oqsili nisbatan kam sharoitda shakllanadi. Ekologik sharoitning xilma-xilligi ham bu tipning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham subtropik va tropik viloyatlarda yashovchi aholi irqiy, etnik jihatdan xilma-xil guruhlarga kiradi. Negroidlar uchun xarakterli belgilarga tananing uzunchoq shakli, mushak massasining kamligi, oyoq va qo'llarning uzunligi, ko'krak qafasi torligi, ter bezlarining ko'p bo'lishi hisobiga terner ko'p ajralishi kabi belgilar xarakterlidir.

Tog' adaptiv tipi. Bu tipning shakllanishida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik omil - gipoksiya (havoning tarkibida kislorodning miqdori kamligi hodisasi) hisoblanadi. Baland tog'likda yashovchi aholida uning qanday irqqa kirishidan qatiy nazar moddalar almashinuvি jadal, ko'krak qafasi keng, qonda eritrotsitlar ko'p bo'lishi kuzatiladi. Markaziy Osiyo aholisi orasida tog' adaptiv tipiga mansub

populyatsiyalar ham uchraydi (Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekistonning tog'li hududlari).

Sahro, yarimsahro, cho'l adaptiv tipi Quyosh nurlanishi kuchli, issiq, quruq, o'ta kontinental iqlim sharoitida shakllanadi. Bu tip uchun issiqlikning, ko'p ajralishi, ter bezlarining yaxshi rivojlanishi, suvning ko'p iste'mol qilinishi xarakterlidir. Markaziy Osiyo hududida yashovchi ko'pchilik aholi shu adaptiv tipga kiradi. Shunday qilib, tarixiy rivojlanish jarayonida insoniyat ekologik omillar ta'sirida ixtisoslashib, bir-biridan ayrim belgilari bilan farq qiluvchi adaptiv (moslashgan) tiplarga ajralgan. Adaptiv tiplar irqiy mansubligidan qatiy nazar, turning genofondi bilan belgilanuvchi moslashish mexanizmlari asosida, konkret ekologik muhitga moslashish natijasida shakllangan. Antropogen ekosistemalar, ularning inson salomatligiga ta'siri. Eng muhim hozirgi zamon antropogen ekosistemalariga shaharlar, qishloqlar, transport kommunikatsiyalari kiradi.

Shaharlarda tabiat muhitining o'zgarishi yaqqol namoyon bo'ladi. Sanoat va turmush chiqindilari tuproqda, suvda, o'simliklarda mikroelementlarning ko'payib ketishi-ga sabab bo'ladi, shahar aholisining zichligi natijasida yuqumli kasalliklar keng tarqaladi. Havoning ifloslanganligi natijasida, yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarning ancha miqdori yetib kelmaydi. Yorug'lik yetishmasligi esa Davitaminozini ko'paytiradi.

Qishloq ekologik sistemalari o'z xususiyatlari jihatidan shahar ekosistemasidan ancha farq qiladi. Qishloqda hayvon va o'simlik turlarining xilma-xilligi kuzatiladi. Hayvonlar orqali yuqadigan yuqumli va parazitar kasalliklar qishloqda ko'proq uchraydi.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan nostandart testlarni javobini toping.

Jadvalga *HA* yoki *YO'Q* javoblarini yozing.

1. Termin – so‘zlarning bir xili, ammo hamma otlar (ayniqsa, sifatlar) ham termin hisoblanmasligi lozim. Terminlarning maxsus termin ekanligi o‘zi qo‘llanayotgan sohada yaqqol ko‘zga tashlanadi.
2. Termin so‘zning ko‘pincha qo‘llaniladigan asosiy (bosh) ma’nosiga tayanadi, balki ko‘chma (yoki yasama) ma’nolariga asoslanmaydi.
3. Mantiqiy ta’riflash termin sifatida olingan so‘zdan anglashiladigan tushunchaning bir necha muhim belgisini ifodalash demakdir. Bunda termin xususiy tushunchani ifodalasa, ta’riflash uchun foydalanilgan so‘z umumiy tushunchani, keng tushunchani ifodalaydi.
4. Asosiy ma’no bilan ko‘chma ma’noda qo‘llangan termin orasidagi aloqa uzoqlashib, pirovardida yo‘qolib ketadi. Natijada, odatdagi so‘zga omonim bo‘lgan termin hosil bo‘lgan.
5. So‘zning ma’nosini ko‘p hollarda murakkab bo‘ladi, uning asosini tushuncha tashkil qilib, tushuncha ustiga kishiga ta’sir qiladigan qo‘shimcha emotSIONAL-ta’sirchan ottenka - «bo‘yoq» qo‘shilmaydi.
6. Asosiy ma’no bilan termin anglatgan ko‘chma ma’no o‘zaro bog‘langan bo‘ladi va bu bog‘lanish anglashilib turadi.
7. Ba’zi terminlarning morfologik tuzilishida ko‘rsatilgan, erkalash ma’nosini ifodalaydigan aforizmlar bo‘ladi. Ammo bunday aforizmlar termin sostavida hech qanday erkalash atamasini ifodalamaydi.
8. Terminning ma’nosini sun’iy ravishda semantik taraqqiyotdan, o‘zgarishlardan to‘xtatilgan bo‘ladi. Ba’zan termin so‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llangandagi ma’nosini anglatsa ham, bu ko‘chma ma’no o‘sha terminning birdan bir ma’nosini bo‘la olmaydi.

1	2	3	4	5	6	7	8

2-topshiriq. Mavzu yuzasidan konseptual jadval shaklidagi topshiriqni bajaring.

	Oddiy so'z	Termin	Bir o'rinda oddiy so'z, ikkinchi bir o'rinda termindir	Termin
Bir planli leksik birlik				
Bir planli leksik birlik				
Ikki planli leksik birlik				
Ikki o'rinda oddiy so'z				

3-topshiriq. Javoblarni bir-biriga moslashtiring.

1.	V.A.Zvegensev	A	termin lug'aviy ma'noga ega emas, balki tushunchaga to'g'ri keladi
2.	Ye.M.Galkina	B	termin lug'aviy ma'noga ega va bu ma'no tushunchadir
3.	D.P.Gorskiy	D	termin lug'aviy ma'noga ega, ammo bu ma'no faqat ifodalanayotgan tushuncha bilan chegaralanmaydi
4.	E.N.Tolikina	E	Terminlarni (tor soha birliklarini) noterminlarga (milliy tilning umumiste'moldagi leksemalariga) qarama-qarshi

			qo'yish tamoyili o'zini oqlamadi		
5.	A.A.Reformatskiy	F	termin ko'p ma'nolikdan – polisemiyadan ajralib turishi kerak. Termin bir va aniq ma'noni bildiradigan maxsus so'zdir		
6.	N.P.Kuzkin	G	termin va so'z orasida mazmunan ham, shaklan ham jiddiy farq yo'q		
1	2	3	4	5	6

4-topshiriq. So'z, nom va terminining o'ziga xos va farqli xususiyatlarini «Venn diagrammasi» asosida tahlil qiling.

5-topshiriq. «Siniq chiziq» usuli. Bu usulda har bir guruhdan bitta ekspert tanlanadi. Ular o'z guruhining to'g'ri yoki noto'g'ri javob berayotganini javob varaqasidan kuzatib boradi. Alovida qismlarga bo'lingan yaxlit mavzu shu tariqa takrorlanadi. Guruhlar birma-bir javob bergenlaridan so'ng ekspertlarga so'z beriladi. Ular oqilona xulosalashlari kerak bo'ladi.

1-topshiriq varaqasi. Terminning hosil bo'lishi.

2-topshiriq varaqasi. Terminning o'ziga xos xususiyati.

3- topshiriq varaqasi. So'z va terminning farqi.

4-topshiriq varaqasi. Termin va so'z, ularning nominativ funksiyasi.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»dan astronomiya faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzulardan biriga referat yozing.

«D.P.Gorskiy (K.A.Levkovskaya, A.S.Gerd, Ye.M.Galkina – Fedoruk, P.S.Popov, V.A.Zvegensev, A.A.Reformatskiy, L.A.Kapanadze) ning terminologiya sohasiga oid qarashlari», «Termin atamasiga turlicha qarashlar», «Termin: birma'nolik va ko'pma'nolik», «Termin: omonim, sinonim, antonim».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yoki videorolik yarating.

4-topshiriq. Mavzuni «Blum moychechagi» usulida tahlil qiling.

1-gulbarg, oddiy savollar: kim? nima? qayer? qachon? qanday?

2-gulbarg, aniqlashtiruvchi savollar: «Sizning aytishingizcha, ...», «Agar sizni to'g'ri tushungan bo'lsam,...», «Balkim adashayotgandirman, ammo siz dedingiz».

3-gulbarg, tushuntiruvchi savollar: Nima uchun.... bo'ldi?

4-gulbarg, ijodiy savollar: «Agar....bo'lsa, nima qilar edi?», «Siz nima deb o'ylaysiz.....bo'lsa, nima bo'ladi?».

5-gulbarg, baholovchi savollar: «Nima uchun bu salbiy, bu ijobiy?», «Bu narsa bunisidan nima bilan farq qilardi?»

6-gulbarg, amaliy savollar: «Buni qanday qo'llash mumkin?», «Bunday hollarda nima qilish mumkin?» kabilar.

3.3. Terminlarning nominativ vazifasi

Reja:

1. Terminning nominativ vazifasi.
2. Terminotizimning kategorial xususiyati.
3. Terminlarning munosabatlari va funksiyalari.


Tayanch tushunchalar: terminologik ma'no, umumiste'moldagi so'z, funksional ko'chishi, funksional aloqa, metafora, nominatsiya, kommunikatsiya jarayonlari.

So‘z sof leksik sathning birligi sifatida vazifasiga ko‘ra nominativ vosita bo‘la olishi bilan tavsiflanadi. So‘zning ma’nolarida borliqdagi obyekt va hodisalarning umumlashma obrazи haqida tasavvur va axborot bor.

O‘z ma’nosiga ko‘ra murakkab hosila hisoblanmish so‘z nisbatan kichik birliklar leksik-semantik variantlar majmuidan iborat mazmuniy qurilmadir. So‘zning valentligi grammatik sathda ham, leksik sathda ham o‘rganilishi mumkin. Boshqacha aytganda, valentlik – bu so‘zning so‘z birikmasida voqelanadigan leksik-grammatik imkoniyatlaridir.

Tilning leksik tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar terminologik va umumadabiy leksika o‘zaro muhim va uzviy aloqada bo‘lishini ko‘rsatadi: termin va umumiste’mol so‘zlar bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi; u orasidagi aloqalar unsurlar bilan ayirboshlashga, bir-biriga o‘tib turishga va o‘zaro ta’sirning turli-tuman shakllariga olib keladi. Bu murakkab jarayonlarning ko‘rinishlaridan biri terminologiyaning umumiste’mol so‘zlari hisobiga boyishidir. Til yangi paydo bo‘lgan so‘zlar hisobiga emas, balki o‘zining mavjud unsurlari yordamida rivojlanadi.

Termin leksik birlik sifatida muayyan bilim sohasining ilmiy va texnikaviy tushunchasini nomlash funksiyasini hamda kommunikativ va kognitiv funksiyani bajaradi, ya’ni terminologiyaning xususiyati konkret bilishni namoyon etish xususiyati bilan oldindan belgilanadi.



Tilshunoslikda doimo bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan muhim masalalardan biri – so‘z bilan terminning o‘zaro munosabati

masalasidir. Ba'zi tilshunoslar so'z bilan terminni qarama-qarshi qo'ysalar, boshqalari ularni qiyoslab o'rganishni taklif etadilar. Haqiqatan so'z ham, so'z-termin ham tushunchani ifodalaydi. Binobarin, so'zlarning bu ikki guruhi orasidagi farqni ulardan birining tushunchani ifodalashi, ikkinchisining ifodalamasligidan emas, balki ifodalanayotgan tushunchaning strukturasidan izlash kerak.

Termin leksik birlik sifatida muayyan bilim sohasining ilmiy va texnikaviy tushunchasini nomlash funksiyasini hamda kommunikativ va kognitiv funksiyani bajaradi, ya'ni terminologiyaning xususiyati konkret bilishni namoyon etish xususiyati bilan oldindan belgilanadi.

Terminotizimlar alohida olingan bir tilda o'zining strukturasini semantik, kommunikativ-funksional va boshqa xususiyatlarini chuqr o'rganishga imkon beradi. Masalan, tilda texnik vositalarning joriy etilish jarayonida keng iste'mol qilinadigan so'zlar faol ravishda metaforiklashadi (majoziy ma'no kasb etadi)¹. (Metaforiklashish xususida keyingi bo'limda fikr yuritamiz).

Terminotizimda terminlar nominativ atash vazifasini bajaradi. Bu vazifani ko'pchilik terminlar bajara olsa-da, ba'zilar bu vazifani bilvosita bajaradi, boshqalari esa umuman bajara olmaydi.

Tillardagi barcha terminlar uch xil munosabatga kirisha oladi:

- 1) terminning o'zi anglatgan predmet va hodisaga;
- 2) terminning inson fikriga, hissiyotiga, xohish-istiklariga;
- 3) terminning boshqa terminlarga nisbatan.

Terminning o'zi anglatgan narsa va hodisalarga munosabati tushuncha bilan uzviy bog'langan.

Termin o'zining ma'nosini tufayli narsa va hodisalarni atay oladi, tushunchani anglatadi, vaholanki, predmet ham, tushuncha ham o'z-o'zicha terminning ma'nosini tashkil etmaydi.

¹ Сайдова А.Д. Терминология системасининг дефиниция талқини (инглиз тили мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. –Самарқанд, -2019.24 б.

G.O.Vinokur terminning atash ma'nosi xususida shunday yozadi: «terminlar – bu maxsus so'zlar emas, faqatgina maxsus funksiya bajaradigan so'zlardir¹». Akademik V.V.Vinogradov fikricha: bu funksiya definitiv funksiya deb ataladi, ya'ni «terminning umumqo'llanishdagi so'zdan farqi unda definitiv funksiyaning mavjudligidir, chunki termin ortida predmet, narsa, hodisaning emas, balki faqatgina «mantiqiy ta'rif²» turadi. A.I.Moiseyeva esa quyidagicha ta'kidlaydi: definitiv funksiyani terminning xususiyati sifatida tan olish mumkin emas: «termin tushunchani aniqlamaydi va aniqlay olmaydi. Bu mantiqiy defitsiyaning vazifasidir. Termin – ot va uning asosida yuzaga kelgan so'z hamda birikmalardan tashkil topgan, nominativ funksiya bajaradigan muayyan tip³».

V.M.Leychik yozadi: terminga so'zning quyidagi asosiy funksiyalari xos: nominativlik, signifikativlik, kommunikativlik, pragmatiklik⁴.

Nominativlik – (lot. nominatio–atash, nom qo'yish) tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish.

Signifikativlik – (log. significatus – ishora etuvchi, ayon etuvchi) – til birligini ifodalash va farqlash vazifasi.

Kommunikativlik – tilning aloqa-aratashuv vositasi sifatidagi asosiy vazifasi.

Pragmatiklik – so'zlovchining voqyelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlash vazifasi. Demak, ma'no borliqdagi predmetni aks ettiradi, terminning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo'lib xizmat qiladi. Ma'no asosida tushuncha

¹ Кухно И.Ю. Терминология – семиотическая система «второго порядка» / Language. Philology. Culture. 2014. №4. –С.48.

² Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М., 1972. – С. 87.

³ Моисеев А.И. О языковой системе термина / Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М., 1970.- С.168.

⁴ Лейчик В.М., Шелов С. Д. Российское терминоведение: опыт синтеза «старой» и «новой» парадигмы / Научно-техническая терминология. – М., 2004. – Вып. 1. – С. 45-48.


shakllanadi, terminning moddiy qobig'i orqali tushuncha aks ettiriladi, ifodalanadi va u tushunchaning ishorasi deb qaraladi.

Terminning moddiy qobig'i tushunchaning ishorasi, so'zning ma'nosi esa tushunchaning shakllanish asosidir: so'z yordamida va uning asosida paydo bo'ladi. Ko'pgina terminlar ular ifodalaydigan tushuncha va jismning nomi bilan butunlay bog'lanmaydi. Mas., *gagarinit, iravdit*.

Termin jamiyat a'zolari o'rtasida bir xil tushuniladi yoki umumiyl tushunchaga ega bo'ladi. Tushuncha ayrim predmet va uning xossalariini umumlashtiradi, predmetning umumiyl belgi va xususiyatlarini ko'zda tutadi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Assisment» mashqini bajaring. *Namuna:*

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
<p>Terminning nechta funksiyasi mavjud?</p> <p>a) 1 b) 2 c) 3 d) 4</p>	<p>Termin so'zmi? Nommi? Tushuncha?</p> <p>So'zning leksik ma'nosi (LM) tushuncha (T) bilan to'g'ri kelishi mumkin. LM=T.</p> <p>Terminga aylangandan keyin u o'z leksik ma'nosidan uzoqlashishi mumkin. Yoki bir necha tushuncha bir terminni ifodalaydi.</p> 
SIMPTOM (TAShQI BELGILARI) <p>Termin nominativlik, signifikativlik, kommunikativlik, pragmatiklik so'zning asosiy funksiyalariga xos.</p>	AMALIY KO'NIKMA <p><i>Ildiz</i> - o'simlik bargidagi pastki qismi. <i>Ildiz</i> so'zi biologik termin sifatida qo'llaniladi.</p>

2-topshiriq. «Tushunchalar tahlili» usulida topshiriqni bajaring.

Tushunchalar	Izohi
Nominativlik –	
Signifikativlik –	
Kommunikativlik –	
Pragmatiklik –	
Nominativlik –	

3-topshiriq. Mos tushgan fikrlar ro‘parasiga (+) ishorasini qo‘ying.

	So‘z	Termin	Nom	Gap	Birikma
Nominativlik xususiyatiga ega					
Signifikativlik xususiyatiga ega					
Kommunikativlik xususiyatiga ega					
Pragmatiklik xususiyatiga ega					
Nominativlik xususiyatiga ega					

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Tutunsiz poroxning «sir»i» matnini o‘qing. Matn tarkibidan terminlarni topib daftaringizga yozing. Terminlar qaysi sohaga tegishli ekanligini ayting.

1880-yili Rossiya harbiy dengiz floti ministrligi D.I.Mendeleevga Fransiyada ishlab chiqarilayotgan tutunsiz portlovchi modda – poroxning tarkibini aniqlab berish vazifasini topshirdi. Tezda u yerga yetib borgan Mendeleevdan poroxni kashf qilgan fransuz ximik olimi M.Bertlo sirni yashirdi. Bertlo porox ishlab chiqarilayotgan zavodni

ko'rsatishga ko'rsatdi-yu, ammo ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni yozib olishga, biron narsani olib chiqishga ruxsat bermadi.

O'shanda o'tkir zehnli Mendeleev porox ishlab chiqarish sirini mana bunday kashf qilgandi: eng avval, temir yo'l orqali zavodga tashib keltirilayotgan ximiyaviy moddalar va chiqarib tashlanayotgan chiqindilar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqdi. So'ngra ular orasidagi miqdoriy tenglikni hisoblagach haqiqat oydinlashdi. Keyinchalik bu haqda Bertloga so'zlab bergenida, u olimning topqirligiga tasannolar aytgan edi.

2-topshiriq. Atamalar sinfiga tegishli bo'lish har xil so'zlarda turli namoyon bo'ladi. Masalan, atamalarda so'z ma'nolarining bittasi mavjud bo'ladi, qiyoslang, *tovush so'zi tushayotgan tomchilar tovushi* va *ifodadagi undosh tovush*. Bir tomondan, ba'zi leksemalar terminologik tizimlardan tashqarida umuman qo'llanilmaydi, masalan, *fonema*, *morfema*, *sema*, *semema* kabi lingvistik atamalar. Bundan tashqari, atamalar ma'lum bir nazariya, ilmiy sohaga tegishli bo'lishi mumkin yoki umumiyligi leksika tarkibiga kirishi mumkin, qiyoslang, funksiya, tizim kabi so'zlar. Boshqacha qilib aytganda, so'z u yoki bu ma'noda terminologik tizimga kirishi mumkin. Quyidagi matndagi terminlarini aniqlang va ularning terminologik holatini yuqoridagi jihatlarga ko'ra tavsiflang:

Musiqada biz uzun va qisqa tovushlarga duch kelamiz. Ularning alternativlari bir xil yoki davomiyligi turlicha bo'lib, ritm hosil qiladi. Ritmnning ichki tashkil etilishi metr deb ataladi. Tashkil bo'lishning birinchi darajasi - vaqtning teng taqsimlanishi, ulushning sanoqliligi. Aniqrog'i, musiqada ulush, asosan, harakatning bog'liqligi yaqqol ajralib turadi, masalan, marshda, lirik xalq qo'shiqlarida, yig'lovlarda.

Tashkil bo'lishning ikkinchi darajasi – musiqaning ulushi qismlarining kuchli va kuchsiz ekanligiga bog'liq bo'ladi. Vals qismlarining sanog'i - bir, ikki, uch, "bir" deb ta'kidlaganimizda va shu

tariqa taktning ulushini guruhlaymiz: kuchli ulushdan so‘ng zaif, keyin kuchli ulush davom etadi va o‘lchovni hosil qiladi [«*Yosh musiqachining ensiklopedik lug‘ati*»].

3-topshiriq. Terminlarning nominativ vazifasiga ko‘ra beshta termin yozing va uch xil munosabatiga ko‘ra tahlil qiling. Masalan, «Olmos kamar», «Cho‘l burguti» .

4-topshiriq. Yuqoridagi jadvalda berilgan turli sohalarga oid terminlardan beshta termin ajratib oling va nominativlik, signifikativlik, pragmatiklik va kommunikativlik xususiyatiga ko‘ra tahlil qiling.

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan chorvachilikka oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug‘at yarating.

2-topshiriq. «Tutunsiz poroxning «sir»i» matnini o‘qing. Matnga ijodiy yondashib kichik hikoya tuzing.

3-topshiriq. Quyidagi mavzulardan biriga esse yozing. «Termin va nom», «Termin va so‘z», «Terminning nominativ vazifasi», «Qadimgi Gretsiyada so‘z va terminning rivoji», «Texnikaviy terminlar badiiy tasviriy vositasi sifatida».

4-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo‘lmagan prezentatsiya yoki videorolik yarating.

3.4. Termin, obrazli so‘z va metafora Reja:

- 1.Termin va obrazli so‘zning o‘zaro munosabati.
- 2.Termin va metaforaning o‘zaro munosabati.

Tayanch tushunchalar: *termin, obrazli so‘z, badiiy so‘z, metafora, funksional ko‘chish, evristik vazifa, kognitiv mexanizm.*

Terminlarning yuzaga kelishiday murakkab jarayonda metaforalar, shubhasiz, alohida o‘rin tutadi. Badiiy so‘zning tug‘ilishida metafora qanchalik faol ishtirok etsa, aksariyat terminlarning yuzaga kelishida bu hodisa undan ham faol rol o‘ynaydi. Zotan, g‘arb tadqiqotchilarining ta’kidlashlaricha, fanda metaforaga bo‘lgan ehtiyoj va zaruriyat poeziyadagidan aslo kam emas¹. Masalan, *tillarning qarindoshligi* lingvistik terminining yuzaga kelishida metafora mavjud, bu metafora tillarning geneologik birligini odamlarning bir ajdodga mansubligi haqidagi avvaldan ma'lum bo‘lgan bilim vositachiligidagi idrok etish mexanizmi tarzida talqin qilinganda, tabiiy, keltirilgan ta’rifga ko‘ra, metafora maqomini oladi, ayni paytda u shu mazmunning nominatsiyasi sifatida lisoniy metafora ekanligi ravshan.

Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya’ni ular yangi bilimlarni ochishiga ham ko‘maklashadi². Metaforalarning ilmiy bilishning qudratli quroli sifatidagi kognitiv mexanizmlari ularning faol evristik vazifa bajarishini ham ko‘rsatadi³. Metafora asosida termin yaratilar ekan, yuzaga kelgan maxsus til birligining evristik quvvati ikkilanishi, yanada yuksak bo‘lishi mutlaqo tabiiydir. Yaxshi va asosli topilgan metafora bevosita ko‘rish, tasavvur qilish mumkin bo‘lmagan obyekt-obrazlarni aniq gavdalantirib beradi, ularning ichiga kirish, mohiyat-mexanizmini «qo‘lga olib ko‘rish» imkoniyatini yaratadi. Taniqli rus tilshunosi N.D.Arutyunova aksariyat abstrakt tushunchalarning ifodalanishi va nomlanishida metafora alohida o‘rin tutishini, hatto metaforasiz «ko‘rinmas olamlar» (insonning ichki olami) leksikasining mavjud bo‘la olmasligini alohida ta’kidlaydi,

¹ Супрунова Л.В. Изучение метафоры как средства механизма познания / www.rusnauka.com/15 NPN_ 2013/Philologia/2_137943.doc.htm

² Великова Т.Н. Когнитивно-эвристический потенциал термина / Вестник НГЛУ. Вып. 12. –Нижний Новгород, 2010. С.20-31; Орлова М.В. Теоретические обоснования термина как языкового явления / scientific-notes.ru/pdf/013-8.pdf

³ Занина М.А. Проблемы понимания метафоры в англоязычном научно-техническом тексте / Вестник Челябинского государственного университета. 2013. –N1 (292). Филология. Искусствоведение. Вып.73. – С.211.

«metaforani o‘rganish so‘z ma’nosini yaratilishi uchun xomashyo bo‘ladigan narsani ko‘rish imkonini berishi»ni aytadi¹. Albatta, bu olamlarning metafora vositasida kashf qilinishi, aynan shu hodisa vositasida bu olamlar haqidagi tushunchalarning shamoyil topishi va nomlanishini inkor etib bo‘lmaydi.

Ta’kidlash lozimki, metafora termin yasalishining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, ko‘proq muayyan soha terminologiyasi shakllanishining ilk davrlariga xos bo‘ladi, ammo tamoman o‘tib bo‘lingan bosqich hisoblanmaydi, yangi paydo bo‘lgan fan sohalari terminologiyasining yaratilishida faol bo‘ladi, yetakchilik qiladi, masalan, bugun turli tillarda shakllanayotgan axborot texnologiyalari terminologiyasida (rus tilida *окно, память, меню, вирус, мышь, язык программирования* gibi) buni ko‘rish mumkin. Aytish joizki, fan terminologiyasining paydo bo‘lishi va taraqqiyotida metafora alohida va salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, sintaksisdagi fundamental tushunchalardan biri kesimdir, u turli tillarda turli terminlar bilan nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida sintaktik nazariyadagi bu fundamental tushuncha «kesim» metafora-termini bilan atalgan, uning ixtirochisi esa buyuk adib va tilshunos Fitratdir. U «Nahv» asarida shunday yozadi: «1.*Qushlar bog‘chada ertalab...* 2.*Cho‘lpon yaqinda yaxshi bir she‘r...* Yuqoridagi ikki so‘z qo‘shimidan hech bittasi gap bo‘la olmaydir, bulardan tugal «o‘y» anglashilmaydir. Bu tubandaki so‘z qo‘shimidan qay birini eshitgach so‘z kesildi, gap bitdi deb o‘ylamaymiz. Gapning so‘ngini kutamiz. Bularni tugatmak, gap qilmoq uchun birinchisiga *sayraydir*, ikkinchisiga *yozdi* so‘zlarini qo‘shib: 1. *Qushlar bog‘chada ertalab sayraydir.* 2. *Cho‘lpon yaqinda yaxshi bir she‘r yozdi* deymiz, anglatmoqchi bo‘lganimiz o‘yni tugallatamiz. Gap tugaladir, so‘z kesiladir. Gapning tamomlanib, so‘zning kesilgani shu *sayraydir* ham *yozdi* so‘zlarini bilan bo‘ldi. Shuning uchun yuqoridagi ikki gapning oxiridagi *yozdi*, *sayraydir* so‘zlariga «gapning kesim so‘zlar»

¹ Арутюнова Н.Д. Языковая метафора / Лингвистика и поэтика. –М.: Наука, 1979. –С.169, 173.

yo sodacha «kesim» deymiz. Gapdag'i so'zlarning oxirig'a kelgan, o'z kelishi bilan so'z qo'shimini gapka aylantirgan so'z – «kesim» so'zdir¹. Fitrat bu tushunchani o'zbek ilmiy grammatikasi endigma shakllanayotgan paytda ana shunday metafora-termin bilan nomlagan. Bu termin ayni sintaktik tushunchani behad aniq va to'liq ifodalashi bilan alohida diqqatga sazovor.

Ingliz tilidagi quyidagi so'zlarni qiyoslash mumkin:

1) Qush, hayvon, hashorat nomlari – caterpillar («gusenisa»-g'ildirak vazifasini o'tovchi keng zanjir tasma) – «gusenisali zanjir», «gusensali traktor»; penguins («pingvinlar»-»aviatsiyaning yerda xizmat qiladigan shaxsiy tarkibi»), rubber cow («rezina sigir» – havo shari), spider («o'rgimchak» – kechayli gupchak, krestovina, kollektor yulduzi).

2) Odam gavdasi qismlari – elbow («tirsak», «tizza», «egik» («...»)), elbow pieces («tirsaklı tugunlar»), daraxt, o'simliklar nomlari, chestnut coal («xol-xol gul»-dukkaklilar oilasiga mansub o'tsimon o'simlik nomi-antrasiyet (toshko'mirning eng yaxshi navi) bir xili), maishiy narsa-buyumlar nomlari flying bedstead («karavatning qimirlab turadigan sinchi» – sinov stendi), blade («olmos» – parrak, kaft, turbina qanoti, vertolyotning murvati (vinti), collar («yoqacha» – ...yeng (manjeta) va boshqalar.

Ayrim qism (detal) va konstruksiyalarning texnik jihatdan takomillashishi yangi metaforik terminlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, vertolyotni ba'zan hazillashib flying banana («uchar banan»), samolyotning zamonaviy shaklini esa flying cigar («uchar sigara») deyishadi.

Hozirgi bosqichda metaforaning tadqiqotchilari shu nom bilan bog'langan ikki o'zaro yaqin (qardosh) hodisani farqlaydilar: 1) so'zning o'z ma'nosidagi metafora va 2) yangi ma'no hosil qilish usuli sifatidagi metaforizatsiya.

¹ Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. –Тошкент: Маннавият, 2006. –Б.177 – 178.

Terminlarning kattagina qismi umumiste'mol so'zlarni metaforizatsiya qilish yo'li bilan hosil qilingan. Termin yasashning bu usuli keng tarqalgani sabablari metaforizatsiyaning asosiy xarakterli xususiyatlari va terminning xos belgilari qiyoslashganda namoyon bo'ladi: terminda uning nominativ funksiyasi alohida ta'kidlansa, metaforizasiya deb nomlash jarayonini amalga oshiradi; terminning asosiy xususiyatlaridan biri uning bir ma'noliligi-metaforizatsiya yordamida voqelanadigan ma'no semasiologik nuqtai nazardan bir planlidir; termin emotsiyal neytral, chunki metaforizatsiyada baholash unsuri bo'lmaydi.

Nomlarning funksional ko'chishi shundan iboratki, u yoki bu predmet yoxud hodisaning nomi ular funksiyalarining umumiyligi asosida boshqa predmet yoki hodisaga o'tadi.

Asos qilib olingan so'z va undan yasalgan termin orasidagi funksional o'xshashlik nafaqat yangi predmet yoki hodisa nomlanayotganda, balki umumiste'mol so'z va termin mavjud bo'lgan va qo'llangan paytda ham saqlanib qoladi. Bu leksik-semantik terminlar ma'nolari orasidagi aloqa faqat etimologik xarakterda bo'lmaydi. Ular orasida funksional aloqa ham saqlanib qoladi. Shu bilan birga, terminologik ma'no umumiste'moldagi so'z taraqqiyotining izchil tarixiy bosqichini o'zida namoyon etadi¹.

Tabiiyki, metafora tufayli so'zda yuzaga keladigan ikkilamchi nominatsiya imkoniyati, ya'ni so'z shaklan o'zgarmasdan qolgani holda unga yana boshqa tushunchani ifodalash vazifasini yuklash imkoniyati tilda son-sanoqsiz yangi so'zlar paydo bo'lishining oldini oladi, inson xotirasini mazkur og'ir yukdan qutqaradi. Bu holat terminologiya amaliyoti, ilmiy kommunikatsiya jarayonlarini yanada qulaylashtirish uchun ham benihoya muhimdir. Chunki ilmiy nutqda maxsus birliklarning terminologik ma'nosи «ishlasa»-da, uning dastlabki, asl

¹ Сайдова А.Д. Терминология системасининг дефиниция талқини (инглиз тили мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, -2019.24 б.

ma'nosi termin asosidagi tushunchaga u yoki bu darajada ishora qilib turadi. Atoqli o'zbek terminshunosi R.Doniyorov T.A.Degterovaning «Agar kishilik tafakkurida yuzaga keladigan har qanday tushunchani alohida-alohida tovush kompleksi bilan ifodalashga muhtojlik sezilganda, tilning lug'at sostavi shu qadar ko'p so'zlardan iborat bo'lib qolar ediki, natijada til kollektivining tilni egallab olishi nihoyatda qiyinlashib qolardi, til shu qadar tez o'sib ketardiki, jamiyat hayotida yo'l qo'yib bo'lmaydigan muomalaviy qiyinlik tug'ilardi», - degan fikrlarini iqtibos qilar ekan, o'zbek tili texnik terminologik sistemasida semantik usul bilan, ayniqsa, metafora yo'li bilan hosil qilingan terminlar ko'plab uchrashini ta'kidlaydi¹.

Terminologiya va metafora munosabati haqida gap ketganda, yana bir muhim jihatga to'xtab o'tish lozim. O'zbek tili ilmiy uslubini monografik aspektida tadqiq etgan M.Mukarramov terminlardagi leksik-semantik jarayonlar haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: «Terminologiyada ma'no taraqqiyoti metaforik ko'chirish orqali hosil qilinmaydi. Ya'ni bir termin anglatgan shakl, belgi, harakat yoki mazmun orqali boshqa terminni atash xususiyati yo'q. Balki terminning o'zi leksik birlik zaminidan hosil qilinishi mumkin. Uning keyingi terminologik ma'no taraqqiyoti metaforaga asoslanmaydi. Masalan, *yoy*, *maydon*, *tekislik*, *tengsizlik*, *burchak*, *ildiz* kabi matematik terminlar metafora asosida ma'no ko'chirish orqali adabiy til zaminidan hosil qilingan. Tilshunoslikdagi *bo'g'in*, *gap*, *ega*, *aniqlovchi*, *to'ldiruvchi* kabi terminlar ham oddiy leksik birlikdan terminologik leksikaga o'xshashlik asosida ko'chirilgan²». Bu fikr, umuman, to'g'ri, muayyan fan sohasidagi muayyan bir termin bir ma'noli bo'lishi, bir tushunchaning nomi bo'lishi lozimligi haqida terminshunoslikda deyarli turg'unlashgan qoida shunday deyishga asos bo'ladi. Masalan, Tog'ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» asari qahramonlari Oymoma va

¹ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. –Тошкент: Фан, 1977. –Б.80.

² Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984. –Б.55 – 56.

Qoplonbeklarning ismlari ham metafora asosida ko'chgan. Ya'ni, astronomiya va zoologiyaga xos terminlar metafora asosida nominativ vazifasiga ko'ra antroponimlarga ko'chgan. Shuningdek, turli sohaga oid terminlar: *bolta*, *tesha*, *lochin*, *qumri*, *sinchalak* kabilar metafora asosida ko'chgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan ma'lumotlarni diqqat bilan o'qing va tog'ri-noto'g'rili giga qarab, jadvalga **ha** yoki **yo'q** javoblarini yozing.

1. Terminologiyada ma'no taraqqiyoti metaforik ko'chirish orqali hosil qilinmaydi. Ya'ni bir termin anglatgan shakl, belgi, harakat yoki mazmun orqali boshqa terminni atash xususiyati yo'q.

2. Ta'kidlash lozimki, metafora termin yasalishining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, ko'proq muayyan soha terminologiyasi shakllanishining ilk davrlariga xos bo'lmaydi.

3. Badiiy so'zning tug'ilishida metafora qanchalik faol ishtirok etsa, aksariyat terminlarning yuzaga kelishida bu hodisa undan ham faol rol o'ynaydi.

4. Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya'ni ular yangi bilimlarni ochishga ham ko'maklashmaydi.

5. Metafora asosida termin yaratilar ekan, yuzaga kelgan maxsus til birligining evristik quvvati ikkilanishi, yanada yuksak bo'lishi mutlaqo tabiiydir.

6. Termin jamiyat a'zolari o'rtasida bir xil tushuniladi yoki umumiy tushunchaga ega emas.

7. Nominativlik – (lot. nomination -atash, nom qo'yish) tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish ma'nolarini anglatadi.

1	2	3	4	5	6	7

2-topshiriq. Jadvalda berilgan terminlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni bir-biriga moslashtiring.

1. Nominativlik	A	tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish.
2. Signifikativlik	B	til birligini ifodalash va farqlash vazifasi.
3. Kommunikativlik	S	tilning aloqa-aratashuv vositasi sifatidagi asosiy vazifasi.
4. Pragmatiklik	D	so'zlovchining voqyelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlash vazifasi.

3-topshiriq. Berilgan ismlar orasidan faqat metafora asosida ko'chgan terminlarni aniqlang. O'zingiz ham 5 ta termin toping.

Binafsha, Lola, Bolta, Aziza, Dilnoza, Oymoma, Qoplombek, Bo'rivoy, Yulduz, Shalola, Gulchehra, Ezzoza, Malika, Hulkar, Bahrom, Tesha, Guldasta, Gulchiroy, Lochin, Qumri, Sinchalak.

4-topshiriq. Berilgan jadvalni to'ldiring. Terminlar haqida bildirilgan fikrlar muallifini toping. Tanlab olish uchun ismlar: *G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.I.Moiseyeva, V.M.Leychik, N.D.Arutyunova, M.Mukarramov.*

	- terminlar – bu maxsus so'zlar emas, faqatgina maxsus funksiya bajaradigan so'zlardir.
	- terminning umumqo'llanishdagi so'zdan farqi unda definitiv funksiyaning mavjudligidir.

	- termin tushunchani aniqlamaydi va aniqlay olmaydi. Bu mantiqiy definitsiyaning vazifasidir.
	- terminga so'zning quyidagi asosiy funksiyalari xos: nominativlik, signifikativlik, kommunikativlik, pragmatiklik.
	- aksariyat abstrakt tushunchalarning ifodalanishi va nomlanishida metafora alohida o'rin tutishini, hatto metaforasiz «ko'rinas olamlar» leksikasining mavjud bo'la olmasligini alohida ta'kidlaydi.
	- terminologiyada ma'no taraqqiyoti metaforik ko'chirish orqali hosil qilinmaydi. Ya'ni bir termin anglatgan shakl, belgi, harakat yoki mazmun orqali boshqa terminni atash xususiyati yo'q.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Turli sohalarga oid terminlarni toping va ularni qo'llanishi? Ma'nosini izohlang. Masalan, avtomobilsozlikka oid termin *Avtopark – avtomobillar turadigan va ta'mirlanadigan joy* ma'nolarini anglatadi.

2-topshiriq. Terminlar terminotizimda turli xil usullarda shakllanishi mumkin. Masalan, *oldqo'shimcha* lingvistik termini kompozitsioyn usulda shakllangan, *propozitsiya* termini ingliz tilidan o'zlashgan. Boshqa tomondan, *boshqarish* va *bog'lash nazariyasi* termini ingliz tilidan semantik kalkalab olingan. Quyidagi matndan terminlarni shakllantirish usullarini aniqlang:

Termodinamikaning 2-qonuni ta'rifini har xil olimlar turlicha bergenlar, lekin ularning fizik ma'nosi bir xildir. Bu qonun ta'rifi: *Birdan bar natiasi issiqlikning batamom ishga aylantirishdan iborat bo'lgan jarayonni amalga oshirib bo'lmaydi.*

Bu qonunni yana shunday ta'riflari bor:

- 1) Klaizius: Issiqlik o'z-o'zidan sovuq jismdan issiq jismga o'tavermaydi.

2) Tomson (Kelvin): Biror jismni issiqligini bu jismni sovutishdan boshqa hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan ishga aylantirib bo'lmaydi.

3) Ostvald: Ikkinchi jins abadiy dvigatelni amalgal oshirib bo'lmaydi, ya'ni issiqlikni to'la ishga aylantiradigan mashinani qo'rib bo'lmaydi.

4) Bolsman: Tabiat ehtimoli kam bo'lgan holatdan ehtimoli ko'proq bo'lgan holatga o'tishga intiladi. Termodinamikaning 1-va 2-qonunlari empirik qonunlardir. Termodinamikaning 2-qonuni faqat ma'lum chegaragacha to'g'ri bo'ladi. Termodinamikaning asoschilaridan biri Saddi Karko *foydali ish koeffitsienti* eng katta bo'lgan siklni taklif etgan. Bu siklni Saddi *Karko sikli* deyiladi. U ikki izoterma va ikki adiabatadan iborat bo'lgan qaytuvchi aylanma jarayondir [Abduraximov A., Madaminov X. Fizika va astronomiya tarixi. Ma'ruza matnlari. Andijon, 2007].

3-topshiriq. «Ona tili» maktab darsligidan terminlarni toping va quyidagi jadvalni to'ldiring.

Nº	Manba nomi	Termin	Izohi	Ma'nolari	Metaforizatsiyalangan

4-topshiriq. Mavzudagi istalgan termin yoki fikrni tanlang. «SWOT universal tahlil» metodi asosida tahlil qiling.

S – kuchli tomon	W – kuchsiz tomon
O - imkoniyat	T – xavf-xatar

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Terminlarning nominativ vazifasiga ko'ra o'zingiz yashaydigan shahringiz hududidan turli tashkilot va muassasalarini nomlab kelayotgan terminlarni aniqlang.

2-topshiriq. Ernst Begmatovning «O'zbek ismlari»(14600 ta) kitobidan zoologiyaga oid terminlarning metafora asosida ko'chishiga misol yozing va kichik lug'at yarating.

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lmagan prezentatsiya va videorolik yarating.

4-topshiriq. So'zning terminga, terminning so'zga o'zgarishi, obrazli so'z va termin munosabatiga 10 ta misol toping. Har bir topgan misolni o'tish jarayoni chizmasini chizing va qoliplashga harakat qiling.

5-topshiriq. Mavzu yuzasidan ilmiy-ommabop maqola yozing va «Samarqand universiteti» gazetasida nashr ettiring.

3.5. O'zbek terminologiyasida dubletlik

Reja:

1. Terminlarning sinonimligi.
2. Dublet va sinonimning farqi.
3. Dubletning hosil bo'lish omillari.
4. Dubletlarning turlari.

Tayanch tushunchalar: *dubletlik – absolyut sinonimiya, leksik dubletlar, absolyut sinonimlar, mutlaq sinonimlar, leksik dublet, morfologik dublet, sintaktik dublet, etimologik dubletlar va sohalararo dubletlar.*

Tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham biror tushunchani ifodalash maqsadida, avvalo, bitta lug'aviy birlikdan foydalaniladi. Shu bilan birga, muayyan bir tushuncha ikki va undan ortiq lug'aviy birlik vositasida ham ifodalanadi. Bunday lug'aviy birliklar shaklan har xil bo'lsa-da, faqat bitta ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda, xususan, terminshunoslikda bunday leksemalar qatori xilma-xil atalayotganligini ta'kidlab o'tamiz. Masalan: **dubletlik** – absolyut sinonimiya¹; **leksik dubletlar** – absolyut sinonimlar²; mutlaq sinonimlar³.

¹ Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясида дублетлик ва уни минимумга келтириш масаласи / Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар.- Тошкент: «Фан», 1986. - Б. 80-102; Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: - Б. 109.

² Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: “ЎзМЭ” давлат нашриёти, 2002. - Б. 37.

³ Шу манба. - Б. 69.

Keltirilgan dalillardan hatto bitta terminologik tushunchaning o‘zi to‘rt xil, ya’ni dublet, absolyut sinonim, mutlaq sinonim hamda parallel termin¹ deb atalib kelinayotganligi ma’lum bo‘ldi. Qisqalik, ma’noni to‘g‘ri ifodalash prinsipidan kelib chiqilganda, yuqorida qayd etilgan tushunchaning dublet, dubletlik terminlari vositasida ifodalanishini ma’qul deb bilamiz². Sinonimlarning bir turi bo‘lmish dubletlar xoslanish belgisiga ko‘ra ilmiy uslubga aloqadorligi bilan ularning boshqa turlaridan farq qilib turadi. Ma’lumki, «sinonimlar bir-biridan anglatgan ma’no qirrasiga, uslubiy bahosiga ko‘ra, nutqiy xoslanish belgisiga ko‘ra (bir yoki bir necha jihatdan) farq qiladi»³. Har bir tilda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham sinonimik qatorning qaror topishida xilma-xil omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bular quyidagilardan iborat: a) o‘z qatlamga oid leksik birliklardan iborat sinonimlar; b) o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamdan tashkil topgan sinonimlar; v) o‘zlashma qatlamga oid sinonimlar.

I. O‘z qatlamga mansub dublet transterminlar.

Bunday dubletlik munosabatidagi terminlar soha terminologik tizimlarida nisbatan kamroq uchraydi. Shuning uchun ular muayyan mavzuiy guruhlarga ajratib ko‘rsatilmadi. Biroq har bir dublet qatorning qaysi sohaga oid ekanligi qayd etildi. Dominanti va uning dubleti ham o‘zbekcha bo‘lgan terminlar qatoridan *qo‘ltiq – ko‘rfaz* va *bo‘g‘iz – bo‘yin* dubletlik qatorlari tahlil etildi.

II. O‘z va o‘zlashma qatlamga mansub terminlar dubletligi.

O‘zbek tilining leksikasi tarkibida o‘z qatlam bilan bir qatorda o‘zlashma qatlam ham o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Shuni ta’kidlash mumkinki, tadqiqotimizda o‘z transterminlar bilan o‘zga tillar terminlari yoki transterminlarining o‘zaro munosabati natijasida dubletlik qatorlari ham qo‘llanayotganligi aniqlandi. Bunday qatorlar dominantining

¹ Хотамова Д. Адабиётшуносликдаги параллел терминлар ҳакида / Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. - №2. - Б. 65-66.

² Исломилов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011. 19-20-бетлар.

³ Турсунов У., Мухторов. Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент:1992. - Б. 109.

dubletlari qaysi tilga oidligi bilan farqlanishi tabiiydir. Bunday dubletlar fors-tojikcha, arabcha yoki baynalminal bo'lishi mumkin.

1. *Dominanti o'zbekcha, dubletlari fors-tojikcha yoki arabcha bo'lgan qator.* Masalan, *qalpoq – kallak* dubletligi va *qo'l – imzo* dubletligi.

2. *O'zbekcha va baynalminal dublet terminlar.* O'z va o'zlashma transterminlar sinonimiyasi haqida so'z yuritilar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, bunday lisoniy omillar sirasida dominanti o'zbekcha, dubletlari ruscha-baynalminal bo'lgan qator yuqoridagilardan nisbatan miqdori ko'pligi bilan alohida ajralib turadi. Buni o'zbek tiliga ko'plab ruscha baynalminal terminlarning o'zlashtirilganligi bilan izohlash mumkin.

Terminologik tizimlar yangi-yangi terminlar bilan boyib borar ekan yoki yangi terminotizim vujudga kelar ekan, dubletlik saqlanib qoladi. Fan rivojlangan sari yangi tushunchalar paydo bo'ladi, avvaldan mavjud tushunchalar haqidagi fikr o'zgaradi, bu esa yangi terminlarni yuzaga keltiradi. Shunga o'xshash sabablarga ko'ra, dubletlar yuzaga keladi. Bunday turli obyektiv va subyektiv sabablar quyidagilar:

1. **Bir necha nomenklatura tizimlarning qo'llanishi.** Masalan, kimyo fanida organik va anorganik kimyoga taalluqli terminlar. Bunga ko'pincha birikma yoki moddaga qo'yilgan nom shu moddaning tabiiy olinish manbaiga, usuliga, rangi yoki hidiga, shuningdek, olingan joyiga, uni kashf etgan shaxsning nomiga asoslanadi. M: *olma kislotasi* (яблочная кислота), *qo'rg'oshin shakari* (свинцовый сахар), *qaldiroq kislota* (гречучая кислота).

2. **O'zbek tilida mavjud bo'lgan terminlar bilan o'zlashma yoki xalqaro terminning parallel qo'llanishi.** Bunday ko'rinish ko'proq kimyo va adabiyot fanlarida mavjud. Masalan: *kimyo-ximiya, tuzilish-struktura, xalq og'zaki ijodi – folklor, tanakor-bura, o'rta-normal*.

3. **Termin va turmushdag'i nomlarning parallel qo'llanishi.** Masalan: *natriy xlorid – osh tuzi, ammoniy xlorid - novshadil, magniy sulfat – ingliz tuzi, kalsiy oksid – so'ndirilgan ohak kabilar*.

4. Bir necha o'zlashma terminning parallel qo'llanishi.

Masalan, baynalminal *karbon*, *karbamid*, *selluloza* terminlari bilan bir qatorda ularning ruscha variant *uglerod*, *mochevina*, *kletchatka* kabi dubletlar o'zbek tiliga qabul qilingan va qo'llanmoqda.

5. Muayyan terminning o'zini va uning to'liq yoki qisman harfiy qisqartmasini baravar qo'llash. Masalan, *alfanurlar* – α -*nurlar*, *beta yemirilish* – β -*yemirilish*, *dinitrofenol* – *DNF*, *biologik kimyo* – *biokimyo*, *agronomik kimyo* – *agrokimyo*, *azoguruhli birikmalar* – *azobirikmalar* kabi.

6. Prefiks va suffikslar hamda shu xarakterdagи terminelementlarni aralash qo'llash. Masalan, *polyarmas* // *qutbsiz* // *qutblanmagan*, *qutbli* // *qutblangan* // *qutbiy*, *kislotali* // *kislotaviy*, *gidrataesiya* // *gidratlanish*.

Dubletlar uch xil bo'ladi:

1. Leksik dublet.

2. Morfologik (grammatik) dublet¹.

3. Sintaktik dublet².

1. Leksik dubletlar o'z navbatida ikkiga bo'linadi: **etimologik dubletlar va sohalararo dubletlar.**

Etimologik dubletlar – terminologiyada dubletlikni hosil qiluvchi etimologik jihatdan turli tillarga mansub terminelementlar. Masalan, «o'zbekcha-o'zbekcha», «o'zbekcha-ruscha», «baynalminal-o'zbekcha», «o'zbekcha-baynalminal», «baynalminal-baynalminal» tipidagi dubletlar.

«O'zbekcha-o'zbekcha» modelidagi dubletlar. Masalan, *oltintilla*, *bir asosli kislota* – *bir negizli kislota*, *xursand qildiruvchi gaz* – *kuldiruvchi gaz*, *uzum shakari* – *uzum sharbati*.

¹ Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясида дублетлик ва уни минимумга келтириш масаласи / Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. – Тошкент: «Фан», 1986. - Б. 94-116.

² Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясидаги нуқсонлар ва уларни тартибга солиш ҳакида / Ўзбек терминологияси ва унинг тараққиёти перспективалари. – Тошкент: «Фан», 1986. – Б.68.

«O'zbekcha-ruscha» modelidagi dubletlar. *Kislota – javhar, bura – tanakor, nashatir – navshadil, belila – oqbo 'yoq.*

«Ruscha-baynalminal» modelidagi dubletlar. *Vodorod sulfid – serovodorod, sellyuloza – kletchatka.*

«Baynalminal-baynalminal» modelidagi dubletlar. *Nitrat kislota – azot kislota, sitrat kislota – limon kislota, karbon oksid – karbonat angidrid.*

Sohalararo dubletlar – bunda dubletlik munosabatidagi terminlarning biri sof termin ekanligi, ikkinchisi esa ko‘proq texnikada yoki turmushda, sohaga yaqin fan sohalarida qo‘llanishi bilan farqlanadi, lekin tushunchani ifodalashda tafovut sezilmaydi. Masalan: *galit* (minerologiya) – *natriy xlorid* (kimyo) – *osh tuzi* (texnika).

N.Jalilova qon-qarindoshlik terminlari tarkibidagi leksik dubletlarni badiiy matnlar orqali tahlil qilib, leksik dubletlar nutqning barcha uslublarida birdek qo‘llanilishi xusisida fikr yuritadi¹.

Badiiy asarlar tilida *ona* so‘zi bilan birga *oyi* termini birdek qo‘llanilgan bo‘lib, ular ma’no jihatdan ham o‘zaro mos keladi, demak, *ona* va *oyi* terminlarini leksik dubletlar deb atashimiz mumkin: *Onam menga achinib qarab qo‘yadi-yu, to‘xtamaydi* // *Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi* (Dunyoning ishlari, 67-b.). Bu terminlar tarixiy asarlarda ham leksik dublet sifatida qo‘llanilganini ko‘ramiz: *Kumush:- Xayr, onajon!* *Mening uchun buvimni quchog‘lab qo‘ying//–Besh-olti oy... hyech narsa bo‘lmas, oyi!* (O‘tgan kunlar, 346-347-b.). *Onang qalay, kiyim-kechagi butmi?// Oyijon, siz hyech tashvish tortmang, charchadim, xolos,- javob berdi Nuri* (Qutlug‘ qon, 184-b.). *Onasi tashqariga chiqqach, Zebi borib uning bo‘yniga osildi.//–Oyi, bir yomon gap borga o‘xshaydi. Menden yashirib yotirsiz, - dedi Zebi* (Kecha va kunduz, 102-103-b.).

¹ Жалилова Н. Бадий матнадаги кон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи. – Самарқанд, 2019.

Xuddi *ona*, *oyi* terminlari kabi *ota* va *dada* terminlari ham leksik dublet sifatida ishlatalgan: *Otabek*: - *Otam* sizlardek yaqin do'stlariga salom aytishni menga omonat topshirgan edilar,-dedi // *Otabek*: -*Sizni gunohkor qilishga va gunohingizni kechishga mening haqqim yo'q, dada!* (O'tgan kunlar, 191-b.). *Gulnor* birdan jonlandi, shoshib-pishib *otasining* fikrini quvvatladi // *Gulnor*: - *Dadamning ahvolini ham tushunaman, lekin nima ham qila olardim* (Qutlug' qon, 139-b.).

2. Morfologik (grammatik) dubletlik – birikma terminlarning aniqlovchi komponenti o'zagiga yoki sodda termin ma'nosi bir-biriga o'xhash suffiks, prefiks va shu xarakterdagi terminelementlarni qo'shib, yangidan termin yasash natijasida yuzaga kelgan grammatik dubletlardir. Morfologik dubletlar quyidagicha yuzaga keladi:

a)–*li* affiksi va –*gan* sifatdosh shaklining muayyan bir o'zakka qo'shilishi natijasida: *nishonli* – *nishonlangan* (*atom*), *qutbli* – *qutblangan* (*molekula*), *ruxli* – *ruxlangan* (*temir*).

b)o'zakka turkiy –*li* hamda arabcha –*iy* (-*viy*) affiksini qo'shish natijasida: *ionli* – *ioniy* (*bog'lanish, tenglama*), *atomli* – *atomiy* (*bog'lanish*), *asosli* – *asosiy* (*oksid*), *yadroli* – *yadroviy* (*tuzilish*).

c)muayyan o'zakka forscha *no-* prefiksi hamda o'zbekcha – *mas* inkor shaklini qo'shish natijasida: *nometallar* – *metallmaslar*, *noaktiv* – *aktivmas*.

d)o'zbekcha, forscha, arabcha, ruscha-baynalminal termin elementlarni muayyan o'zakka qo'shish natijasida: *asiklik* – *siklsiz* (*karbonvodorod*), *anorganik* – *noorganik* (*kimyo*), *grafik* – *grafikaviy* (*tasvir*), *tipik* – *tipaviy* (*masala*).

2. Sintaktik dublet – birikma terminlar komponentlarini so'z birikuving turli ko'rinishlari asosida shakllantirilishi natijasida kelib chiqadi: *kaliy selitrasи* – *kaliyli selitra*, *kristalli suv* – *kristallizatsiyalangan suv*, *brom suvi* – *bromli suv*.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan dubletlarni tasniflang va jadvalga joylashtiring.

Kaliy selitrası – kaliyli selitra, grafik – grafikaviy, anorganik – noorganik, brom suvi – bromli suv, noaktiv – aktivmas, nometallar – metallmaslar, kristalli suv – kristallizatsiyalangan suv, yadroli – yadroviy, asosli – asosiy (oksid), Nitrat kislota – azot kislota, sitrat kislota – limon kislota, karbon oksid – karbonat angidrid, oltin - tilla, bir asosli kislota – bir negizli kislota, xursand qildiruvchi gaz – kuldiruvchi gaz, uzum shakari – uzum sharbati, vodorod sulfid – serovodorod, sellyuloza – kletchatka.

Leksik dublet	Morfologik dublet	Sintaktik dublet

2-topshiriq. Dubletlar yuzaga kelishining obyektiv va subyektiv sabablarini ularga mos terminlar bilan juftlashtiring.

1.	Bir necha nomenklatura tizimlarning qo'llanishi	A	<i>olma kislotasi (яблочная кислота), qo'rg'oshin shakari (свинцовый сарап), qaldiroq kislota (грешечная кислота).</i>
2.	O'zbek tilida mavjud bo'lgan terminlar bilan o'zlashma yoki xalqaro terminning parallel qo'llanishi	B	<i>kimyo-ximiya, tuzilish-struktura, xalq og'zaki ijodi – folklor, tanakor-bura, o'rta-normal.</i>
3.	Termin va turmushdagi nomlarning parallel qo'llanishi	S	<i>natriy xlорид – osh tuzi, ammoniy xlорид - novshadil, magniy sulfat – ingliz tuzi, kalsiy oksid – so'ndirilgan ohak.</i>
4.	Bir necha o'zlashma terminning parallel	D	<i>karbon-uglerod, karbamid-mochevina, sellyuloza- kletchatka.</i>

	qo'llanishi				
5.	Muayyan terminning o'zini va uning to'liq yoki qisman harfiy qisqartmasini baravar qo'llash	E	<i>alfanurlar</i> – α -nurlar, <i>beta hemirilish</i> – β -hemirilish, <i>dinitrofenol</i> – DNF, <i>biologik kimyo</i> – biokimyo, <i>agronomik kimyo</i> – agrokimyo.		
6.	Prefiks va suffikslar hamda shu xarakterdagи termin elementlarni aralash qo'llash	F	<i>polyarmas</i> – <i>qutbsiz</i> - <i>qutblanmagan</i> ; <i>qutbli</i> - <i>qutblangan</i> – <i>qutbiy</i> ; <i>kislotali</i> – <i>kislotaviy</i> ; <i>gidrataesiya</i> – <i>gidratlanish</i> .		
1	2	3	4	5	6

3-topshiriq. Berilgan ma'lumotlarni diqqat bilan o'qing va tog'ri-noto'g'rili giga qarab, jadvalga **ha** yoki **yo'q** javoblarini yozing.

1.Terminologik tizimlar yangi-yangi terminlar bilan boyib borar ekan yoki yangi terminotizim vujudga kelar ekan, dubletlik saqlanib qolmaydi.

2.O'zbek tilining leksikasi tarkibida o'z qatlam bilan bir qatorda o'zlashma qatlam ham o'ziga xos o'rinni egallaydi.

3.Tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham biror tushunchani ifodalash maqsadida, avvalo, bitta lug'aviy birlikdan foydalaniladi.

4.Fan rivojlangan sari yangi tushunchalar paydo bo'ladi, avvaldan mavjud tushunchalar haqidagi fikr o'zgaradi, bu esa yangi terminlarni yuzaga keltirmaydi.

5. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham sinonimik qatorning qaror topishida xilma-xil omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

6.O'z va o'zlashma transterminlar sinonimiysi haqida so'z yuritilar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, bunday lisoniy omillar sirasida dominanti o'zbekcha, dubletlari ruscha-baynalminal bo'lgan qator yuqoridagilardan nisbatan miqdori ko'pligi bilan alohida ajralib turadi.

7. Dominanti o'zbekcha, dubletlari fors-tojikcha yoki arabcha bo'lgan qator. Masalan, *qalpoq* – *kallak* dubletligi va *qo'l* – *imzo* dubletligi misol bo'la oladi.

8. Muayyan terminning o'zini va uning to'liq yoki qisman harfiy qisqartmasini baravar qo'llash mumkin emas.

9. Etimologik dubletlar – terminologiyada dubletlikni hosil qiluvchi etimologik jihatdan turli tillarga mansub terminelementlardir.

10. O'z qatlamga mansub dublet transterminlar munosabatidagi terminlar soha terminologik tizimlarida nisbatan ko'proq uchraydi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

4-topshiriq. Dubletlarni qoliqlar bilan bir-biriga moslashtiring.

1.	«O'zbekcha-o'zbekcha» modelidagi dubletlar	A	<i>oltin-</i> <i>tilla</i> , <i>bir asosli kislota</i> – <i>bir negizli kislota</i> , <i>xursand qildiruvchi gaz</i> – <i>kuldiruvchi gaz</i> , <i>uzum shakari</i> – <i>uzum sharbati</i>
2.	«O'zbekcha-ruscha» modelidagi dubletlar	B	<i>Kislota</i> – <i>javhar</i> , <i>bura</i> – <i>tanakor</i> , <i>nashatir</i> – <i>navshadil</i> , <i>belila</i> – <i>oqbuyoq</i>
3.	«Ruscha-baynalminal» modelidagi dubletlar	S	<i>Vodorod sulfid</i> – <i>serovodorod</i> , <i>selluloza</i> – <i>kletchatka</i>
4.	«Baynalminal-baynalminal» modelidagi dubletlar	D	<i>Nitrat kislota</i> – <i>azot kislota</i> , <i>sitrat kislota</i> – <i>limon kislota</i> , <i>karbon oksid</i> – <i>karbonat angidrid</i>
	1	2	3
			4

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida qo'llaniladigan dubletlarni aniqlang va tahlil qiling.

2-topshiriq. «5 minutlik esse» metodi asosida «Terminologik dubletlikning muammolari va yechimlari» mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. Matndan morfologik va sintaktik dubletlarga misol toping.

Antik kosmologiyada Demokrit (460-370 y.e.o.) alohida o'rinn tutadi. U quyoshning o'lchami yer va oy bilan solishtirilganda, ulkanligini birinchilardan bo'lib qayd etdi. Oy o'zidan nur chiqarmay, quyosh nurlarini qaytaradi, Somon yo'li esa, zinch joylashgan yulduzlardir deb uqtirgan edi u.

Osmon jismlari harakatlarini tushuntiruvchi matematik nazariya ham birinchi marta grek olimlari tomonidan yaratildi. Yevdoks Knidskiy (410-355 y.e.o.) quyosh, oy, yulduzlar markazi yer atrofida aylanma harakat qiladilar deb tushuntirdi. Uning aytishicha, yulduzlar yerdan bir xil masofada joylashib, koinotni chegarasi hisoblanadi.

Aristotel kosmologiyasi. Aristotel (384 – 322 y.e.o.) o'z asarlarida osmon, yer hamda ularning harakat qonunlari haqidagi bilimlarni teoremaga soldi. Aristotel astronomik kuzatishlarga tayanib, yerning va boshqa osmon jismlarining shakllarini o'rgandi. Yer shar shaklda ekanligini uzil-kesil isbot qildi. Shu bilan birga u yer-koinotning markazi deb qabul qildi va Koinot cheklangan bo'lib, uning barcha jismlari yer tomonidan tortib ushlab turiladi deb uqtirdi u. [Abduraximov A., Madaminov X. Fizika va astronomiya tarixi. Ma'ruza matnlari. Andijon, 2007].

4-topshiriq. «Siniq chiziq» usuli. Bu usulda har bir guruhdan bitta ekspert tanlanadi. Ular o'z guruhining to'g'ri yoki noto'g'ri javob berayotganini javob varaqasidan kuzatib boradi. Alohida qismlarga bo'lingan yaxlit mavzu shu tariqa takrorlanadi. Guruhlar birma-bir javob

berganlaridan so'ng ekspertlarga so'z beriladi. Ular oqilona xulosalashlari kerak bo'ladi.

1-topshiriq varaqasi. Dubletlarning hosil bo'lishi. Dublet va uning turlari.

2-topshiriq varaqasi. Dubletning o'ziga xos xususiyati.

3- topshiriq varaqasi. Sohalararo va etimologik dubletlarning farqi.

4-topshiriq varaqasi. Dublet qoliplari.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 2-tomidan terminlarning etimologik, morfologik va sintaktik dubletligiga misol toping va kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzulardan biriga ilmiy-ommabop maqola yozing.

«Ruscha-baynalminal modelidagi dubletlarning yutuqlari va kamchiliklari», «Sohalararo dubletlarning afzalliliklari va noqulayliklari».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yoki ijodiy yondashgan holda videorolik yarating.

Adabiyotlar:

1. Сайдова А.Д. Терминология системасининг дефиниция талқини (инглиз тили мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, -2019.24 б.

2. Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясида дублетлик ва уни минимумга келтириш масаласи / Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар.- Тошкент: «Фан», 1986. - Б. 80-102.

3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент:1992. - Б. 109.

4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «ЎзМЭ» давлат нашриёти, 2002. - Б. 37.
5. Исломов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. –Тошкент, 2011. 19-20-бетлар.
6. Жалилова Н. Бадиий матндағи қон-қариндошлиқ терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи. – Самарқанд, 2019.

VI. O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING YASALISHI MASALALARI

4.1. Terminlarning yasalish usullari

Reja:

1. Terminlarning yasalish usullari.
2. Morfologik (affiksal) usul.
3. Sintaktik (kompozitsion) usul.
4. Semantik usul.

Tayanch tushunchalar: struktur tuzilish, sodda, qo'shma, murakkab terminlar, yasama, morfologik usul, sintaktik usul, semantik usul.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda terminologik so'z yasalishining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kirishi e'tirof etiladi:

1. Terminlar tor professional soha bilan bog'liq tushunchalarning nomlari sifatida yasaladi. Ular kishilarning muayyan guruhining ishlab chiqarish jarayonlarida muloqot vositasi bo'lib xizmat qilishga mo'ljallangan. Terminlarni faoliyatning konkret sohalari vakillari amaliy zaruriyat munosabati bilan yaratadilar. Professional muhitga yuzaga kelgan terminlar keyinchalik faqat maxsus adabiyot va professional muloqotda qat'iy terminologik funksiyada qo'llanadi.

2. Terminologik so'z yasalishi stixiyali tarzda emas, balki ongli tarzda kechadigan jarayondir. Shuning uchun ko'pincha, terminlarning paydo bo'lish sanalari ma'lum. Terminlarning yaratilishiga ongli yondashish ma'nosiga ko'ra xoslangan so'z yasovchi morfemalarni sohaviy terminologiyalarga sun'iy ravishda olib kirishga, tushunchalarning ma'lum tasnifiy tizimini shu tushunchalarning lisoniy ifoda vositalari muayyan tizimi bilan bog'lashga imkon beradi.

3. Ongli ravishda sodir bo'ladigan termin ijodkorligi uni nazorat qilinadigan, muvofiqlashtirilib turadigan jarayonga aylantiradi va uning terminologik standartlar doirasida amal qilinishi uchun kafolat bo'ladi.

4. Termin yaratish hodisasi maishiy xarakterdagi so‘z yasash jarayoniga qaraganda birmuncha murakkab. Agar keyingi jarayon uchun so‘z yasalishining mavjud usullaridan biri yetarli deya hisoblash mumkin bo‘lsa, termindan yasash jarayoni uchun yana terminologik nominasiya ma’nosini so‘z bilan ifodalash, ya’ni tushunchani ta’riflash lozim bo‘ladi.

5. Terminologik nominatsiyalar uchun ularning ichki shakli shaffof bo‘lishi juda muhim. So‘z yasovchi vositalar asosan so‘z qo‘shishning standart qismlari hamda affikslar-terminning ommabop ichki shaklini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Chunki ichki shakl termin sohaviy muhitga to‘g‘ri qaror toptirish vositasidir. Shuningdek, terminning ichki shakli tilning so‘z yasovchi morfemalari vositasida mazkur ilmiytexnikaviy tushunchaning ma’lum tasnifiy qatorning boshqa uyalariga munosabatini aks ettiradi. Shuning uchun terminologiyada so‘z yasovchi morfemalarning funksiyasi umumadabiy tildagi funksiyadan biroz kengroq bo‘ladi. Muayyan ma’nolarni ma’lum terminologiyada ifodalashga xoslangan so‘z yasovchi morfemalar terminologiyada tasniflovchi funksiyani ham bajaradi¹.

Hozirgi paytda fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgani bilan bog‘liq holda elektron, yarim o‘tkazgich, kvant-mexanik uskunalarning yangi turlari soni ortib bormoqda. Ularning nomlari nafaqat mutaxassislar orasida keng ko‘lamlarda tarqalmoqda, balki tilning umumxalq qatlamlariga ham asta-sekin kirib bormoqda. Bunday o‘ta murakkab muammoni tilshunoslik nuqtai nazaridan hal qilish uchun agar bizni fanning ertangi kuni, uning terminologiyasi, shu terminologiyaning avtomatlashtirish vositalari keng qo‘llanayotgan sharoitlarda haqiqatan ham qiziqtirsa, sun’iy tilning formallahsgan turlarini yaratishning barcha imkoniyatlarini sinab ko‘rish kerak. Shu nuqtai nazardan terminlar va

¹ Сайдова А.Д. Терминология системасининг дефинация талқини (инглиз тили мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, 2019. - Б.16.

nomenklatur nomlarni standartlash bo'yicha olib borilayotgan barcha ishlar, ayniqsa, terminlarning yasalishi doimo e'tiborda bo'lishi kerak.

Terminologik so'z yasash jarayoni tushunchalar tasnifiga bog'liq bo'lib, yangi paydo bo'lgan termin (shu qator tushunchasining nomi sifatida) tushunchalar qatoridan o'rin egallaydi. Chunki bir tasnify qator terminlari, imkon boricha, bir so'z yasovchi qolip asosida yasalishi kerak (u so'z – termin, termin – so'z birikma bo'lsin). Shu bilan birga, termin nafaqat tushunchaning nomlanishi (uning nomi bo'lib xizmat qilinishi), balki ma'lum darajada tushunchaning mazmunini ham aks ettirishini e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Tilshunoslikda, xususan, terminologik tadqiqotlarda terminlarning hosil bo'lishi, asosan, uch xil usul orqali amalga oshiriladi:

- 1. Morfologik (affiksal) usul.**
- 2. Sintaktik (kompozitsion) usul.**
- 3. Semantik usul.**

Morfologik (affiksal) usul – tildagi biror mavjud terminga bir va ba'zan bir necha yasovchi affikslarning qo'shilishi bilan yangi termin yasaydi. Har bir soha terminlarining o'z yasovchi qo'shimchalari mavjud. Jumladan, yog'ochsozlik sohasida¹ faol qo'llanadigan affikslar: - **soz**: *yog'ochsoz, eshiksoz*; - **i (sh)**: *ulash, uzaytirish*; - **lik**: *duradgorlik, panjarasozlik*; - **k (q)**: *kurak, qipiqlik*; - **ch**: *sandiqlik, savatchi*; yuridik²: - **lik**: *qarzdorlik, dezertirlik*; - **i (sh)**: *tahqirlash, ayplash, qiyash*; - **chi**: *qoralovchi, talovchi*; - **dor**: *mulkdor, sarmoyador*; - **xo'r**: *qasamxo'r, merosxo'r*; - **boz**: *arizaboz, guruhboz*; – **gich (-qich, - qich, - kich)**: *chang ajratgich, yem buqlatgich*;, - **lash**: *burg'ilash, payvandlash* kabilar.

Sintaktik (kompozitsion) usul – birikmaning bir komponenti ma'nosi ko'chgan so'zdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat

¹ Аҳатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси. Филол.фан.номз...автореф. – Тошкент, 2004. – Б.8.

² Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқол даври тараққиётни. Филол.фан.номз... автореф. – Тошкент, 2005. – Б.14.

lug‘aviy birlikning hosil bo‘lishi tushuniladi. Yog‘ochsozlik sohasida: *pilta vassa, kindik qoziq, tirnoq chiqarish*.

O'zbek tili terminologiyasida yakka so‘zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o‘rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Ma'lumki, har bir til o‘ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko‘radi. Terminlar tuzilish materiali, ya’ni qanday so‘zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo‘lishi mumkin:

Ot+ot tipidagi terminlar: *samolyot borti, bug‘ mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, temir qopqoq, arava gupchagi, radioning qulog‘i, samolyotning parragi* kabilar.

Nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: *motorli qayiq, parrakli samolyot, magnitli diska, tirkama plug, halqasimon zichlagich* kabilar.

Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: *o‘ta sezgir apparat, sezgir asbob, o‘zi yurar mashina, pilla tortadigan avtomat, qirquvchi asbob, yurgizuvchi aravacha* kabilar¹.

Semantik usul – bir soha terminologiyasining «mulki» bo‘lgan lug‘aviy birlik ma’nosini metaforik ko‘chirish asosida ikkinchi bir sohaga o‘tadi.

Semantik usul bilan terminlar hosil bo‘lishi, boshqacha aytganda, transterminlashuv (lotincha trans – «orqali, ichidan, o‘rtasidan, orasidan» ma’nolarini anglatadi) jarayonida, birinchidan, umumiste’moldagi leksemalarning muayyan soha terminlariga aylanishi, ikkinchidan, biror fan sohasi terminlarining ma’no ko‘chishi natijasida boshqa fan sohasi terminologik tizimida qo‘llana boshlashi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Ayni shunday jarayon terminshunoslikda

¹ Ўринбоев Б. Ўзбек терминологияси У.Турсунов талқинида / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. III қисм. – Тошкент, 2006. – Б.151.

«transterminlashuv» deb atalayotganligini ta'kidlash lozim¹. Ushbu terminni qo'llash terminlar semantikasidagi semantik ko'chim hodisasini boshqa (oddiy) leksik birliklardagi holatdan farqlashda ko'proq ahamiyat kasb etadi. Transterminlashgan, ya'ni semantik usulda hosil bo'lgan terminlar terminologik lug'atlarning kattagina qismini tashkil qilib, ularning ayrimlari izohli lug'atlar, ensiklopediyalar, ma'lumotnomalarda ham o'z ifodasini topmoqda².

Masalan, zooterminlarning nafaqat o'zbek, balki boshqa tillarda ham transterminlashuvi kuzatiladi³.

I. Zooterminlar jismoniy tarbiya va sport sohasida. *Qaldirg'och* fizkultura va sport sohasida ham maxsus termin sifatida qo'llanadi: «Bir oyoqni orqaga uzatib, gavdani gorizontal holatda egib, qo'llarni yon tomonlarga uzatib qilinadigan mashq» (RO'FS).

II. Zooterminlar kasb-hunar sohasida. «O'yib, tikib, to'qib yoki bo'yoq bilan ishlangan gul, bezak» (O'TIL-08), ya'ni naqshlarning 50 dan ortiq turi hayvonot olamiga oid terminlardan kelib chiqqan. Masalan: *qirqoyoq, mingoyoq, qoraqurt, qoraquloq, qo'chqor(ak), qo'ng'iz, tovus, chumchuq(cha)* va boshqalar.

III. Zooterminlar boshqa sohalar terminologiyasida. «Zootermin + zootermin» qolipli qo'shma terminlar geografiya hamda astronomiya terminologik tizimlarining boyishida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, geografiyada *yo'lbarsquyruq*, astronomiyada *echkishox*, musiqashunoslikda *xona* terminlari ana shunday zooterminlardandir⁴.

Yog'ochsozlik sohasida: *tilcha* (sinchning ikki uchidan maxsus kesib kichraytirilgan qoziqsimon qism), *qovurg'a* (sinchli devorning yog'och qismi).

¹ Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. М.: Наука, 1989. - С. 203.

² Исмоилов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011. –Б.7-8.

³ Труфанова Н.О. Проблема номинации лиц в финансово-экономической терминологии: Автореф. ... канд. филол. наук: - Москва, 2006. - С. 18.

⁴ Исмоилов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011. –Б.10-11.

Tilshunos olima M.Xudayarova Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida semantik usul bilan yasalgan taom nomlarini quyidagi ikki usulda o‘rganadi: sof semantik va semantik-sintaktik¹.

1. *Sof semantik usul*. Bu usul bilan yasalgan taom nomlarida so‘z shakli o‘zgarmay, faqat ma’no ko‘chadi va ayni shunday ma’noni anglataveradi. Masalan, *qayish* so‘zining asl ma’nosini «belga taqiladigan, tasma shaklidagi belbog‘» ma’nosini anglatadi. Taom nomlarida ham *qayish* nomi uchraydi. Bu taom xamiri yupqa yoyilib, tasmalardek kesiladi va qaynagan suvga solib tayyorlanadigan ovqat.

Pechak so‘zining asl ma’nosini – chirmashib o‘sadigan gul². Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida shunday shaklli qandolat mahsulotining bir turini *pəchək* nomi bilan atashadi.

2. *Semantik-sintaktik usul*. Taom nomlarini hosil qilishda shu sohaga tegishli bo‘lmagan biror leksik birlikning (o‘xshatilgan, nisbat berilgan va h.k.) nomidan keyin, taom nomlari qo‘shilib kelib, yangi nom yasalgan: masalan, o‘rganilayotgan hududning To‘rtko‘l tumanida *chang‘alaq bərək* taom nomi qo‘llanadi. Bu taom paxta chanog‘iga o‘xshatilib tugilgani uchun shunday nomlangan. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida paxta chanog‘ini *chang‘alaq* deb atashadi. *Qo‘tir* so‘zi asli tibbiyotda qo‘llanilib, «badanda pufakchalar hosil qilib, qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi» ma’nosini bildiradi. Bu so‘z zargarlik terminologiyasida ham ishlatilib, «rejjaga eritib quyilgan metallning yuzida paydo bo‘lgan g‘adir-budurlar»³ni anglatadi. Bu taom nomlari guruhida go‘sht qiymasi va tuxum aralashmasidan tayyorlanadigan barakning bir turini bildiradi (*qotyır bərək*).

¹ Худаярова М.Т. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида). НДА. – Тошкент, 2008. - Б.14; Абдиев М. Касб-хунар атамаларининг таркиб топишида сўз ясашнинг семантик усули // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2002. – №5. – Б. 41-43.

² Ўзбек тилининг изохли лугати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, учинчи жилд. Н-Т. 2007. – Б. 249.

³ Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 15.

Mazkur so'zlar til taraqqiyoti yoki undagi evolyutsion taraqqiyot natijasida avvalgi ma'nosidan boshqa ma'nolarni anglatuvchi, taom nomlari sifatida yangicha ahamiyat kasb etgan va o'sha narsalarning nomlarini bildiruvchi alohida so'zga aylangan. Ma'nodagi yaxlitlik shakliy yaxlitlikka olib kelgan, so'z ma'nosida semantik ajralish voqe bo'lgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. 1-topshiriq. Jadvalda berilgan morfologik usul bilan terminlarni yasovchi qo'shimchalarga turli sohalarga kiruvchi terminlar yozing.

- soz	
- i (sh)	
- lik	
- k (q)	
- ch	
- chi	
- dor	
- boz	
- gich (-qich, - g'ich, - kich)	
- lash	

2-topshiriq. Konseptual jadval shaklidagi topshiriqni bajaring. Terminlarning sintaktik (kompozitsion) usul bilan yasalishiga qarab + belgisini qo'yib chiqing.

	Ot+ot	Nisbiy sifat+ot	Sifatdosh+ot
samolyot borti	+		
bug' mashina			
motorli qayiq			
sezgir asbob			
temir qopqoq			
samolyotning parragi			
qirquvchi asbob			

magnitli diska			
tirkama plug			
magnitli diska			

3-topshiriq. Berilgan ma'lumotlarni yaxshilab o'qib chiqing hamda to'g'ri va noto'g'rilingiga qarab *ha* yoki *yo'q* javoblarini jadvalga yozing.

1. **Ot+ot** tipidagi terminlarga *samolyot borti*, *bug' mashina* kabilar kiradi.

2. Semantik usul bu-bir soha terminologiyasining «mulki» bo'lgan lug'aviy birlik ma'nosini metaforik ko'chirish asosida ikkinchi bir sohaga o'tadi.

3. O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar mavjud emas.

4. Sintaktik (kompozitsion) usul deganda birikmaning bir komponenti ma'nosi ko'chgan so'zdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat lug'aviy birlikning hosil bo'lishi tushuniladi.

5. Ulash, uzaytirish; duradgorlik, panjarasozlik kabi terminlar morfologik (affiksal) usul bilan yasalgan terminlardir.

6. Tilshunoslikda, xususan, terminologik tadqiqotlarda terminlarning hosil bo'lishi, asosan, to'rt xil usul orqali amalga oshiriladi.

7. Ongli ravishda sodir bo'ladigan termin ijodkorligi uni nazorat qilinadigan, muvofiqlashtirilib turadigan jarayonga aylantiradi va uning terminologik standartlar doirasida amal qilinishi uchun kafolat vazifasini bajarmaydi.

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Jadvalda berilgan ma'lumotlarni davomini toping va bir-biriga moslashtiring.

1.	Terminlar			stixiyali tarzda emas, balki ongli tarzda kechadigan jarayondir.
2.	Terminologik so'z yasalishi			tor professional soha bilan bog'liq tushunchalarining nomlari sifatida yasaladi.
3.	Ongli ravishda sodir bo'ladigan termin			ijodkorligi uni nazorat qilinadigan, muvofiqlashtirilib turadigan jarayonga aylantiradi.
4.	Termin yaratish			ularning ichki shakli shaffof bo'lishi juda muhim.
5.	Terminologik nominatsiyalar			hodisasi maishiy xarakterdagи so'z yasash jarayoniga qaraganda birmuncha murakkab.
1	2	3	4	5
B	A	D	F	E

2-topshiriq. Berilgan terminlarni yasalishiga ko'ra guruhlarga ajrating. *yog'ochsoz, yo'lbarsquyruq, echki shox, eshiksoz, ulash, uzaytirish, duradgorlik, panjarasozlik, kurak, qipiqlik, sandiqchi, savatchi; pilta vassa, kindik qoziq, tirnoq chiqarish, yuridik, tahqirlash, ayplash, qiyash, qoralovchi, talovchi, samolyot borti, bug' mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, qirqoyoq, mingoyoq, qoraqurt, qoraquloq, qo'chqor(ak), qo'ng'iz, tovus, chumchuq(cha), temir qopqoq, arava gupchagi, mulkdor, sarmoyador, qasamxo'r, merosxo'r, arizaboz, guruhboz, chang ajratgich, yem buqlatgich, burqilash, payvandlash,*

Morfologik (affiksal) usul	Sintaktik (kompozitsion) usul	Semantik usul

3-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va terminlarni aniqlang. Yasalishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Ispaniyaning Grenada shahri aholisi to'rt kun mobaynida nima bo'layotganini tushunishmadi. Shaharning turli ko'chalarida biror sababsiz politsiyachilarining hushtagi qattiq chalinardi, ammo ko'chada na tartibbuzarlar bor, na politsiyachilar. Hech kim ko'rinxmasdi.

Mashina haydovchilariga qiyin bo'ldi: shiddat bilan chalingan hushtak shofyorlarni tinimsiz to'xtashga majbur qilardi.

Sirli politsiyachi hatto avtobuslar va piyodalar harakatiga ham xalaqit berardi. Beshinchı kun hamma narsa ma'lum bo'ldi: ko'rinxmas politsiyachi rolini qafasdan qochib chiqqan to'tiqush bajarayotgan ekan... Qarg'alar ham, zog'chalar ham, zag'izg'onlar ham gaplashishni bilishadi. Soykalar ham, qorayaloqlar ham va hattoki... kanareykalar ham odamlarga o'xshab gaplashishadi.

O'rgatilgan it amrimizni bajarib o'tirsa, yotsa, biz bilan yonma-yon yursa, «Ovozingni chiqar!» deganimizda vovullasa, biz hayron bo'lmaymiz-ku. Hamma biladiki, itni shunga o'rgatganmiz. Itni o'rgatish juda oson emas - undan nima talab qilayotganimizni u darrov tushunib yetmaydi [Internet ma'lumot].

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»dan geografiyaga oid 50 ta termini daftaringizga yozing hamda yasalishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

2-topshiriq. O'zingiz o'qiyotgan badiiy asaringizdan terminlarni toping va izohlang.

3-topshiriq. O'zingiz o'qiyotgan badiiy asaringizdan topgan terminlarni guruhlang va shular asosida gazetaga maqola yozing.

4-topshiriq. O'zingiz o'qiyotgan badiiy asaringizdan topgan terminlarni bittasini tanlab, «Idrok xaritasi» yarating.

5-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lmagan prezentatsiya yoki videorolik yarating.

4.2. Terminlarning struktur tuzilishi

Reja:

1. Terminlarning struktur tuzilishi.
2. Sodda termin.
2. Qo'shma termin.
3. Birikma va murakkab termin.

Tayanch tushunchalar: o'zbek terminlari, struktur tuzilishi, sodda terminlar, qo'shma terminlar, juft terminlar, birikma terminlar, qisqartma terminlar.

Terminlar xususiyatiga ko'ra turli xil shakl va ma'nolarda qo'llanilgan bo'lib, ularning struktur-grammatik tuzilishini aniqlash maqsadida terminlarni shakl strukturasiga ko'ra tavsiflash, terminlarning struktural-grammatik xususiyatlari haqida fikrlar xilma-xildir. Jumladan, I.Ismoilov¹ qon-qarindoshlik terminlarini strukturasiga ko'ra ikkiga ajratadi: 1) tub so'z bilan ifodalangan terminlar: *ona, bola, qiz, aka, opa, jiyan, tog'a, amma* va boshqalar; 2) qo'shma so'z bilan ifodalangan terminlar: *ammavachcha, qayinona, kattabuvi, o'gayona* kabi.

M.Saidovaning fikricha, «qon-qarindoshlik terminlarining tarkibi unchalik ko'p emas, alohida tillar bo'yicha olinganda ham ularning soni o'ttiztadan oshmaydi. Deyarli barcha turkiy tillar, xususan, o'zbek tili va shevalarida qon-qarindoshlik terminlari bir o'zakli so'zlardan iborat bo'lib, nikohdan keyin paydo bo'lgan terminlargina, ikki o'zak (qo'shma so'z)dan iborat»².

M.Narziyeva qon-qarindoshlik terminlarini strukturasiga ko'ra ikkiga ajratadi: 1) sodda (tub) terminlar: *opa, qiz, aka, jiyan, tog'a,*

¹ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: “Фан”, 1966. – 8-б.

² Сайдова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. НДА. – Тошкент, 1995, -24 б.

nevara,bobo, buvi va boshqalar; 2) qo'shma terminlar: *amakivachcha, xolavachcha, qayinota, o'gay o'g'il kabi*¹.

Har qanday tilning lug'aviy boyligi ko'p davrlarning mahsulidir. Tilda biror so'z paydo bo'lishi bilan birga uning lisoniy tuzilishi ham o'zgarib, shakllanib va qat'iylashib boradi. Tilda ba'zi so'zlarning tub so'z holatida saqlangani, aslida yasama bo'lgan ba'zi so'zlarning hozirda tub so'z sifatida tushunilishi, tub so'zlardan yasama so'zlarning hosil qilinishi, ba'zi qo'shma so'zlarning sodda so'z shakliga, ayrim birikma tipli so'zlarning qo'shma so'z shakliga kelib qolishi va boshqalar qayd qilingan tarixiy o'zgarish va rivojlanish natijasidir.

Terminlar til sistemasining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. O'zbek terminlarini struktur jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) sodda terminlar: *burg'ilash, shibbalash, planirovkalash, rejakash, shosse, shtir*; 2) qo'shma terminlar: *qalamto'sin, yarimko'pri, suvto'siq, ravoqqulf, chokto'ldirma*; 3) juft terminlar: *bitumli-gruntli, sement-tuproqli, asfalt-beton, temir-beton, termos-bunker*; 4) birikma terminlar: *yo'l qoplamasni, yo'l poyi, yo'l chetidagi ariq* (kyuvet); 5) qisqartma terminlar: ABT (avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemasi) QTL (qurilishni tashkil etish loyihasi) TMB (tosh maydalaydigan baza) kabilar. Birikma terminlar struktur jihatdan ikki uzvlidan yetti uzvligacha terminlarga bo'linadi².

Ayrim adabiyotlarda 3, ayrimlarida 4 turga bo'linadi. Terminlar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda terminlar.
2. Qo'shma terminlar.
3. Birikma terminlar.

Sodda terminlar - tarkibida so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affikslarning bor-yo'qligiga qaramay, yolg'iz bir o'zakdan yoki

¹ Нарзиева М.Ж. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 26 с.

² Валиев Т.К. Ўзбек тили йўлсозлиқ терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, 2018. - Б.13.

negizdan paydo bo'lgan, birgina lug'aviy ma'noli qism bo'lgan so'z hisoblanadi. Masalan: *qo'shin*, *shtab*, *avtomat* (harbiy); *panjara*, *shpal*, *yog'och* (*yog'ochsozlik*); *voris*, *guvoh* (yuridik).

Sodda terminlar ikki guruhga bo'linadi:

1. **Tub terminlar** – yolg'iz o'zakdan hosil bo'lgan terminlar: *bola*, *jiyan*, *tog'a* (qarindoshlik); *mebel*, *go'sha*, *eshik* (*yog'ochsozlik*); *jarima*, *huquq*, *jazo* (yuridik).

Yasama terminlar – tub terminlarga biror yasovchi affiksning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan terminlar: *mebelsozlik*, *duradgorlik* (*yog'ochsozlik*); *dalolatchi*, *jinoyatchi* (yuridik). Affiksatsiya usuli bilan so'z yasash asosan doimiy jarayon bo'lsa ham, lekin affikslarning tarkibi va miqdori o'zgaruvchan bo'lgan. Ba'zi bir affikslar hozirgi davrda mahsulsiz affikslarga aylangan, yangi affikslar vujudga kelgan, biri-ikkinchisi bilan almashtirilgan, ba'zi affikslar o'zak bilan chatishib ketgan, affikslar allomorflari, omonimlari rivojlangan, affiksal bloklar va yarim affikslar bloki ko'paygan¹. Masalan, *bildiruv*, *serjant*, *nazoratchi*.

Yarim affikslar o'z mohiyatiga ko'ra so'z yasalishining ikki asosiy usulini o'zida mujassamlashtiradi. Yarim affikslar sodda va murakkab affikslar shakllarida bo'lib, ko'pincha fe'lning hozirgi zamon o'zagi hamda ot so'z turkumiga xos so'zlardan iborat bo'ladi. Yarim affikslarning affikslardan farqi ular o'z ma'nosini aniqroq saqlab qolgan bo'ladi. Yarim affikslar sifatida hozirgi zamon fe'l negizi va ot yarim suffikslaridan tashqari prefiksli fe'llar, qo'shma fe'llar va frazeologik birikmalar ham so'z yasashda ishtirok etadi. Yarim affikslar umumiyligi fe'li ma'nosini saqlab qolgan bo'lsa ham ammo tobora mavhumlashib kengroq ma'nolarda qo'llanilmoqda. Hozirgi davrda keng qo'llaniladigan yarim affikslardan: - *aniz*, - *pazir*, - *avar*, - *za*, - *parvar*, - *gara*, - *kah* va boshqa fe'l negizlari, shuningdek, - *bandi*, - *gari*, - *bini*, - *rizi* va shu turdag'i boshqa affiks

¹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - Toshkent, 2009. B.16.

bloklarini keltirish mumkin¹. Masalan, *otish tayyorgarligi, topografiya, mustaqil tayyorgarlik, loyihalash, transportyor*.

Qo'shma termin - ikki va undan ortiq sodda terminlarning birikuvidan tuzilgan terminlar. Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlam so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi. O'zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo'shma terminlar asosan umumiste'moldagi tayyor qo'shma so'zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminologik tizimlarga qabul qilinishi mahsulidir. Bunday ikki planda qo'llanuvchi leksik birliklar ko'proq xalq tili bilan bog'liq holda rivojlangan terminologik sistemalarda tez-tez uchraydi. Shuningdek, o'z tilimiz materiallaridan tuzilgan qo'shma terminlar ayni ruscha terminlarni to'liq kalkalash jarayonida ham yuzaga keladi².

Birikma terminlar ko'proq terminologik xarakterda bo'ladi va u birikma holida bir tushuncha beradi. Unda hokim bo'lak tushuncha mohiyatini bildirib, tobe bo'lak unig nimaga xosligini belgilaydi yoki ma'noni mo'ljallangan tushuncha hajmigacha toraytirib ifoda etishga xizmat qiladi. Masalan, *agrар masала* birikma terminining ma'no mohiyati masala so'zidan anglashiladi. Uning aniqlovchisi esa uning nimaga taalluqligini ko'rsatib kelgan.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan sodda terminlarni tub va yasama terminlarga ajrating.

Bola, jiyan, tog'a, anjir shaftoli, nok behi, pista bodom, mebel, go'sha, eshik, jarima, huquq, jazo, tezlik, massa, misol, zichlik, gul, lola, binafsha, xujayra, agrar, qo'shin, shtab, avtomat, panjara, oqquyruq, arslonquyruq, ayiqtovonlar, bo'tako'z, itburun, itog'iz, kiyikpanja,

¹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - Toshkent, 2009. B.17.

² Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. –Б. 60.

moralquloq, shpal, yog'och, voris, guvoh, mebelsozlik, duradgorlik, yog'ochsozlik, dalolatchi, jinoyatchi, bildiruv, serjant, nazoratchi.

Sodda tub terminlar	Sodda yasama terminlar

2-topshiriq. Berilgam ma'lumotlarni diqqat bilan o'qing, hamda to'g'ri yoki noto'g'riliiga qarab, ha yoki yo'q javoblarini jadvalga yozing.

1. Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlam so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi.
2. Sodda terminlar - tarkibida so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affikslarning bor-yo'qligiga qaramay, yolg'iz bir o'zakdan yoki negizdan paydo bo'lgan, birgina lug'aviy ma'noli qism bo'lgan so'z hisoblanadi.
3. Tub terminlar – yolg'iz o'zakdan hosil bo'lgan terminlar hisoblanmaydi.
4. Yasama terminlar – tub terminlarga biror yasovchi affiksning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan terminlardir.
5. Terminlar til sistemasining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi.
6. Deyarli barcha turkiy tillar, xususan, o'zbek tili va shevalarida qon-qarindoshlik terminlari bir o'zakli so'zlardan iborat bo'lib, nikohdan keyin paydo bo'lgan terminlargina, ikki o'zak (qo'shma so'z)dan iborat.
7. Birikma va soda terminlar struktur jihatdan ikki uzvlidan yetti uzvligacha terminlarga bo'linadi.

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.

3-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va terminlarni aniqlang. Tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Fan va texnika taraqqiy etgani sari tilimizga ko'plab yangi so'z va atamalar kirib kelmoqda. Shulardan biri telefaks so'zidir. «Amerika» oynomasida yozilishiga qaraganda, bu so'z telefon va faksimil (asl nusxadan olingan tasvir) so'zlarining qisqartirilgan shaklidir. Bunda buyumning nomi yozilgan matn, fotosurat yoki chizma telefon simi orqali mijozlarga yetkaziladi.

Birinchi avtomobil Germaniyada paydo bo'ldi, lekin haydovchilarning no'noqligi tufayli tez-tez ko'ngilsiz voqealar ro'y bera boshladi. Shunda Germaniyada chop etiladigan jurnallardan biri ajoyib bir taklif kiritdi. Bu taklifga ko'ra, politsiya mashina egasiga guvohnoma berishdan oldin uning mashina haydashni bilish-bilmasligini tekshirib ko'rishi va quvohnoma berishi kerak edi. Dunyoda birinchi haydovchilik guvohnomasi shu tariqa Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan.

Kunlardan bir kuni Janubiy Afrikadagi Kyeptaun shahar ro'znomasining muharriri mahalliy qamoqxonadan maktub oldi. Unda g'alati to'rtburchaklar - kvadratlar tasvirlangan bo'lib, har bir katak ichiga bittadan harf joylashtirilgan edi.

- Janob, - deb yozgandi xat muallifi, - men qamoqda o'tirib bir o'zin topdim. Uni krossvord deb atadim. Agar lozim topsangiz, buni ro'znomangizda e'lon qilsangiz [Internet ma'lumot].

Sodda terminlar	Qo'shma terminlar	Birikmali terminlar

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Konseptual jadval shaklidagi mashqni bajaring.
Berilgan terminlarni tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

	Sodda terminlar	Qo'shma terminlar	Birikmali terminlar
avtomobilsoz		+	
avtoruchka			
agregat			
ayiqtovon			
agrар masala			
val			
qizil kartochka			
oltilik burchak			
sariq kartochka			
aut			
buyvol baliq			
gol			
buqa akula			
avto gol			
dribling			
kit akula			
kirpi baliq			
taym			
modulli			
chavandozlik			
uzumchilik			

2-topshiriq. Berilgan matnni o'qing. Matndan sodda, qo'shma va birikmali terminlarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

Bir kuni gazeta muharrirlaridan biri havaskor shoirdan xat oldi. Shoir o'ta mazmunsiz she'r yozib, tagiga xat ham ilova qilib qo'ygan ekan:


- Tinish belgilarini qo'ymadim, uzr, o'zingiz qo'yib olarsiz. Fig'oni falakka chiqqan muharrir darhol havaskor shoirga javob xati yo'lladi:

- Kelgusi safar tinish belgilarining o'zini qo'yib yuboravering, so'zlarini o'zim topib qo'yarman.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda go'zal, ta'rifi yetti iqlimga ketgan chiroyli bir qiz bor ekan. Kunlarning birida sehgar kampir bu qizni umrbod uxlatisib qo'yibdi. Shahzoda bu qizni uyg'otish payiga tushib uzoq o'yabdi. Juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazibdi, bu qiz faqat «hayot suvi» bilan uyg'onarmish. «Hayot suvi»ni topish maqsadida haligi shahzoda ko'p choralarini izlabdi, oxir-oqibatda shahzoda baland tog'ga chiqib tabiblar aytgan o'sha «hayot bulog'i»ni topibdi va suvni olib kelib qizga ichiribdi. Go'zal qiz o'sha zahotiyoy o'ziga kelib ko'zini ochibdi. Ular murod-maqsadlariga yetishibdi.

Sodda terminlar	Qo'shma terminlar	Birikmali terminlar

3-topshiriq. Berilgan «Venn diagrammasi» metodi bo'yicha topshiriqni bajaring. Terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari bo'yicha har birining o'ziga xos xususiyatlarini va umumlashtiruvchi xususiyatlarini tahlil qiling.



MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 10-jildidan farmatsevtikaga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, sodda, qo'shma va birikmali terminlarga ajrating.

2-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lmagan prezentatsiya va videorolik yarating.

3-topshiriq. «Reklama» usulidan foydalangan holda mavzuga oid reklama yarating.

4-topshiriq. Yashayotgan shahringiz (mahalla, qishloq, viloyat) dagi reklama pehstaxtalari, tashkilot va do'kon nomlariga e'tibor qarating. Shular orasidan terminlarni toping va izohlang.

4.3. Qo'shma terminlar

Reja:

1. Qo'shma terminlar haqida tushuncha.
2. Qo'shma terminlarning yasash bo'limi.
3. Qo'shma terminlarning yasalish qoliplari.

Tayanch tushunchalar: qo'shma terminlar, birikma, kopulyativlar, determinantlar, komponentlari bir leksik qatlamga mansub, o'zbekcha, arabcha, forscha so'zlar, qolip.

Qo'shma so'z sodda so'z kabi yaxlit bir so'z, tilning bir butun birligi tarzida tushuniladi va foydalilanadi. Qo'shma so'zning bir butun so'z holatiga kelishi unga quyidagi lisoniy xususiyatlarni beradi: Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no – bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanishi – grammatik strukturasining ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir so'zdir, uning komponentlari qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida – gapda, so'z birikmasida – bir sintaktik funksiyani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, til birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz.

Qo'shma so'zning mazkur xususiyatlari qo'shma terminlar uchun ham tegishlidir. Demak, terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning qo'shilishidan yasalgan bo'lsa, bunday terminlar qo'shma termin deyiladi.

Qo'shma termin yasash asosan ikki yirik bo'limdan iborat.

1. **Kopulyativlar¹** - ikki bir-biri bilan teng negizlar qo'shilishidan yasaladigan qo'shma terminlardir. Kopulyativ terminlar ko'pincha o'zaro bog'lovchi yoki ko'makchilar vositasida bog'langan bo'ladi. Kopulyativ usulda yasalgan harbiy terminlar kam bo'lib, bizdan oldinroq qilingan ilmiy ishlarda ular bat afsil ko'rsatib berilgan. Ular to'plagan terminlar quyidagilardan iborat: *transportirovka, jihozlar, aloqa*.

2. **Determinativlar.** Determinativ qo'shma terminlarda «ot bilan ot», «ot - sifat», «son bilan ot», «olmosh bilan ot» va hokazolar biri-birini aniqlab keladi: *pogon, zirhli, granatamyot, general leytenant, qo'mondon*.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boshqa xalqlar bilan hamkorlikda, qo'shnichilikda yashab kelgan. Shunga ko'ra, tilimizda ayrim komponentlari arabcha, forscha yoki ruscha-baynalminal bo'lgan, hatto har ikkala qismi ham muayyan (o'zbek tilidan boshqa) til materialidan yasalgan qo'shma so'zlar va terminlar uchraydi. Demak, qo'shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko'ra turlichaydi. Shunga ko'ra, ya'ni qo'shma terminlarni ularni tashkil etgan komponentlarining kelib chiqish materialiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1) bir tildagi qatlamga mansub so'z birliklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar; 2) turli tillarga mansub so'z birliklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar².

¹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - Toshkent, 2009. - B.17.

² Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – Б.60.

1. Komponentlari bir leksik qatlamga mansub so‘z birliklaridan hosil etilgan qo‘shma terminlar. Bunday qo‘shma terminlar ham o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

a) o‘zbek tilida avvaldan qo‘llanib kelingan o‘zbekcha, arabcha, forscha so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishidan yuzaga kelgan qo‘shma terminlar. Bunday terminlar quyidagi ko‘rinishlarga ega:

Ot+ot modelida yasalgan qo‘shma terminlar. Bu model botanika, zoologiya singari tabiiy fanlarda, ularning terminologik tizimida mahsuldor hisoblanadi. Masalan: *ayiqtovon, ituzum, tuyaqush* (botanika) kabi. Keyingi davrda texnikaning bir qator terminologik tizimlarida ham shu tipidagi qo‘shma terminlar miqdori ortib bormoqda: *qismfazo, tagmaxraj, ustmaydon, olovbardoshlik* (fizika-matem.); *qayin ona, katta buva* (qarindoshlik); *tintuv qilish, huquqni cheklash* (yuridik) kabi.

Sifat+ot modelida yasalgan qo‘shma terminlar ko‘proq tabiiy fanlar terminotizimida uchraydi: *to‘g‘ri burchak, qo‘shbog‘, issiqbardoshlik, sovuqbardoshlik* (fizika-matem.); *huquqiy norma, yuridik konsultant* (yuridik) kabi.

Son+ot modelida yasalgan qo‘shma terminlar matematika fanida ko‘proq qo‘llaniladi: *uchhad, birhad, o‘nyoq, beshyoq, yarim doira, yarimyig‘indi, yarimfazo, yarimo‘tkazgich* (fizika-matem.) kabilar.

Ot+fe’l modelida yasalgan qo‘shma terminlar. Bunda ikkinchi komponentga – ar sifatdosh ko‘rsatkichi qo‘shiladi. Masalan: *o‘g‘itsepar, markaztopar, go‘ngsochar* (botanika), *xususiy ajrim, adolatli sudlov* (yuridik) kabi.

Keyingi vaqtarda ikkinchi komponentga **-gich (-kich, - qich, - g‘ich)** affiksi bilan ham ko‘plab yasalmoqda: *havo qizdirgich, havo haydagich, go‘ng sepkich, urug‘ o‘tkazgich, oqim keskich, ko‘chat tutqich, xamirkeskich, go‘shtqiyimalagich, yashinqaytargich* kabi.

Ravish + ot yoki harakat nomi modelida yasalgan qo‘shma terminlar: *o‘ta tuyinish* (xim.), *o‘takuchlanish, o‘taqizitish,*

o'tauyg'onish (fiz.), *o'ta struktura, chala o'tkazgich, qisqa tutashuv* kabi.

b) komponentlari ruscha-baynalminal termin yoki termin-elementlardan iborat, rus tilidan tayyor holda o'zlashtirilgan qo'shma terminlar. Bunday terminlar uchta holatda yuzaga keladi:

- agar ruscha-baynalminal qo'shma terminning har ikkala komponenti o'zbek tilida mustaqil termin yoki terminelement sifatida qo'llansa, bunday terminlar o'zbek tilida ham qo'shma sanaladi. Masalan: *karbonvodorod, elektrstansiya, radiostansiya, radiolampa, kinokomediya, kvarsgenerator, kristallgidrat* kabi.

- birinchi komponenti muntazam takrorlanuvchi (**anti-, avto-**) elementdan tashkil topgan qo'shma terminlar. Masalan: *antikosinus, antiparallel, antisimmertiya, avtokataliz, avtokran, avtorentgen, avtobenzin* kabi.

- boshqa holatlarda esa, ya'ni qismlarga ajraluvchi ruscha terminlarning muayyan qismi mustaqil termindan va **de-, per-, re-, so-, sub-** kabi prefikslardan iborat bo'lganda yoki ikkinchi komponenti mustaqil qo'llanmaydigan suffiksoid orqali ifodalanadi: *depolyarizator, peroksid, reekstraksiya, rekristallizasiya, sopolimer, suboksid* kabi.

2. Turli tillarga mansub so'z birliklaridan hosil bo'lgan (gibrid) qo'shma terminlar. Bunday terminlar ikkita boshqa-boshqa qatlamlarga oid so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Adabiyotlarda bunday terminlarni «**duragay qo'shma so'zlar**¹» yoki **gibrid terminlar**² deb yuritmoqdalar. Bunday terminlar ikki xil bo'ladi:

a) gibridlarning har ikkalasi ham ruscha-baynalminal, ham o'zbekcha komponenti mustaqil ma'no va qo'llanishga ega bo'lgan so'z-terminlardan iborat bo'ladi: *karbonsuvlar, elektrarra, xlorsirka, limitko'rsatkich, elektrasbob, yodmoy* va boshqalar.

¹ Маматов Н. Ўзбек тилида кўшма сўзлар. –Тошкент, 1982. – Б.33.

² Дониёров Р. Гибрид сўзлар ҳакида / Ўзбек тили грамматик курилиши ва диалектологияси масалалари. – Тошкент, 1966. – Б.144-152.

b) baynalminal komponenti **avto-, azo-, nitro-, psevdо-** singari aniqlovchilar bilan ifodalangan gibridd terminlar. Masalan, *avtosug* ‘orgich, *agroqoida*, *azoqo* ‘shilma, *allodolchin kislota*, *antixossa*, *aeropurkagich*, *geteroqutbiylik*, *gidroqurilma*, *izotuzilish*, *makrodunyo*, *mikroiqtisod*, *pnev mog* ‘ildirak, *psevdoko* ‘paytma, *protoyulduz*, *fotoqog* ‘oz, *infracizil*, *ultrako* ‘paytma, *multiturg* ‘unlik, *videoyo zuv* kabi.

S.Usmonov metaforaga bag‘ishlangan maqolasida shunday bir dalilni alohida ta’kidlab o‘tgan edi: Qo‘shma so‘z sostavidagi komponentlar, ko‘pincha, ko‘chgan ma’noga ega bo‘ladi. O‘simliklarning nomlari bu jihatdan juda xarakterli. Masalan: *bo‘tako* ‘z (*gul*), *otqul oq*, *echkiichak*, *echkisoqol*, *eshakmiya*, *chumchuqtil*, *ho‘kiztili... itburun* (*o‘simlik*) va boshqalar¹.

Tilshunos M.Mukarramov metaforalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida so‘z yuritib shunday degan edi: «... metaforalar doimo bir so‘zdan tarkib topmay, balki birikmali bo‘lishi ham mumkin»². O‘simliklarning nomlari bu jihatdan juda xarakterli. Masalan:

1. **«Zoologik termin + zoologik termin» yoki «zoologik leksema + anatomik leksema»** qolipli terminlar: *kapalakqanot*, *mushukquyruq*, *sigirquyruq*, *otqul oq*, *bo‘tako* ‘z, *echkiichak*, *echkisoqol*, *eshakmiya*, *cho‘chqayol*.

2. **«Zoologik termin + botanik termin»** qolipli botanik terminlar: *baqajo* ‘xori, *baqaterak*, *baqayaproq* va b.

3. **«Zoologik termin + boshqa soha termini yoki oddiy leksema»** qolipli botanik terminlar: *pashshaqopqon*, *to‘ng‘iztaroq*, *qushqo* ‘nmas, *pashshaqo* ‘nmas va boshqalar.

4. **«Botanik termin + botanik termin»** qolipli botanik terminlar: *gulkaram*.

¹ Усмонов С. Метафора / Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. – №4. – Б. 39.

² Мукаррамов М. Кўчимларнинг ўзаро муносабати / Ўзбек тили ва адабиёти, 1976. - №5. - Б. 53.

Keltirilgan botanik terminlardan ma'lumki, zoologiya sohasiga oid terminning qaysidir xususiyati o'simliklarda mavjud bo'lganligi bois zootermin bilan birga ifodalanadi¹.

Bir predmetda mavjud belgi boshqa bir predmet tasavvurini jonlantirishi natijasida shakllangan qo'shma terminlar *o'xshatish obyekti*, *o'xshatish obrazi* va *o'xshatma belgining o'zaro munosabati* asosida shakllanadi. Mazkur qo'shma terminlarda *o'xshatish obyekti* umumiyligliki anglatadi, *o'xshatish obrazi* xususiylikni anglatib, umumiylilik anglatgan denotatning farqlovchi belgisi mavqeyida bo'ladi. Bu jarayonda *o'xshatma belgi umumiylilik* va *xususiylikni bog'lovchi bir rishta vazifasini* bajaradi. Bundan tashqari, bunday shakllangan terminlarda ellipsisning ishtiroki ham mavjud. Ularning quyidagi tiplari bor: *itsichqonlar*, *tiyinsichqonlar*, *yo'lbarsot*, *kalamushkengru*, *qo'ykaltakesak*, *mushukilonlar*².

B.M.Mirsanov doktorlik dissertatsiyasida o'simlik nomlari orasida *daraxt* so'zi aniqlanmish mavqeida, aniqlovchi esa adyektivlashgan ot orqali shakllangan qo'shma terminlar ham birmuncha keng tarqalganligi xususida fikr bildiradi. Uning ta'kidlashicha, bularning ayrimlari *o'xshatishga asoslangan bo'lib*, *baxmaldaraxt*, *atlasdaraxt*, *loladaraxt*, *mamontdaraxt*, *mumdaraxt*, *mo'jizadaraxt*, *ajdardaraxt*, *temirdaraxt*, *qovundaraxt*, *marjondaraxt*, *satindaraxt* kabi shakllangan. Ayrimlari esa daraxt po'stlog'i, yog'ochi, mevasi tarkibidan biror narsa olinishi, biron narsa tayyorlanishi asosida shakllangan qo'shma terminlardir: *sovundaraxt*, *suvdondaraxt*, *sutdaraxt*, *qalamdaraxt*, *qog'ozdaraxt* kabi.

¹ Исломов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин хосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011. –Б.9-10.

² Мирсанов Б.М. Ўзбек тили терминологиясида иккиласмчи номлашлар ва уларнинг мотивлашуви (ўзбек тили зоонимлари ва фитонимлари мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, 2018. - Б.13.

Hayvonning biror belgili a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma terminlar ham anchagina bor. Ular odatda sifatlovchi-sifatlanmish modelida bo'ladi: *oqquyruq, arslonquyruq, ayiqtovonlar, bo'tako'z, itburun, itog'iz, kiyikpanja, moralquloq, otquloloq* kabi. Hayvon va uning a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma nomlarda assotsiativ tafakkurning o'xshatish assotsiatsiyasi qonuniyati muhim rol o'ynaydi. Shunga muvofiq tarzda o'xshatish obyekti, o'xshatish obrazi va o'xshatma belgi munosabati orqali kechgan jarayon ta'sirida o'xshatish oborotiga teng keladigan aniqlovchi komponentdan va o'simlik nomidan iborat murakkab nom yuzaga keladi. Keyingi bosqichda ro'y beradigan ellipsislashuv jarayoni natijasida o'xshatish obrazining nomidan iborat komponentlar o'simlikning qo'shma nomiga aylanadi.

Qush va uning a'zosi nomi o'xhashlik assotsiatsiyasi qonuniyati asosida kechib, nomini kutayotgan o'simlikning biror belgisini anglatadi. Bu jarayon metaforik ko'chim deb baholanadi: *laylaktumshuq, zag'chako'z, chumchuqko'z, qarg'ako'z, qarg'atirnoq, qushtirnoq, g'ozoyoq, g'ozpanja*.

Qo'shma terminlarning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra qo'shma terminlarni ikkiga ajratish mumkin:

1. Qismlari qo'shib yoziladigan terminlar: *qaynona, qaynota, qaynopa, qayinsingil, ammavachcha, laylaktumshuq, zag'chako'z*,

2. Qismlari ajratib yoziladigan terminlar: *katta oyi* (ona), *katta dada* (ota), *oppog' dada, oppoq oyi, nabira kelin* (kuyov), *quda xola, quda buva, quda buvi, o'gay ona, o'gay ota, o'gay o'g'il* (qiz): Badiiy asarlarda mazkur terminlarning ma'no va qo'llanish doirasi bir-biridan farqlanadi. Jumladan, katta oyi, katta ona terminlari buvi – otaning yoki onaning onasi ma'nosida ishlatiladi: *Saltining onasi bilan katta onasi uni o'zi tenglik yosh qizlar bilan birga olis joyga yuborarkan, ehtiyyot tomonini ham unutmagan edilar* (Kecha va kunduz, 27-b.). Ba'zi asarlarda esa bek oyi, ya'ni uyning katta bekasiga nisbatan xizmatkorlari tomonidan hurmat yuzasidan murojaat etishda keng qo'llaniladi: Katta

oyi, ko'rmanani bering-chi, men sizning qochqoq keliningizni tutib keldim,- dedi Hasanali yo'lakka qarab (O'tkan kunlar, 382-b.).

«Kecha va kunduz» asarida katta aya yoki kichik aya shaklida katta xotinning farzandlari onasining kundoshlariga nisbatan yoshiga qarab ifodalashi kuzatiladi: - *Men sizdan so'roqsiz chaqirishga botinolmadim, ikkovimiz maslahatlashib ertangi kunga kichik ayam chaqirib keldi* (Kecha va kunduz, 53-b.). Katta dada, (ota) termini buva so'zining sinonimi sifatida ishlataladi: Katta dadam: «*Chalma, sen naychi bo'lasanmi, yomon ko'raman*», deydi (Qutlug' qon, 38-b.).

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan qo'shma terminlarni komponenlariga ko'ra to'g'ri javoblar bilan moslashtiring.

1.	Ot+ot	A	<i>uchhad, birhad, o'nyoq, beshyoq, yarim doira, yarimyig'indi.</i>
2.	Sifat+ot	B	<i>to'g'ri burchak, qo'shbog', issiqbardoshlik,sovubardoshlik, huquqiy norma, yuridik konsultant.</i>
3.	Son+ot	D	<i>ayiqtovon, ituzum, tuyaqush.</i>
4.	Ot+fe'l	E	<i>o'ta to'yinish (xim.), o'ta kuchlanish, o'ta qizitish, o'ta uyg'onish (fiz.), o'ta struktura, chala o'tkazgich, qisqa tutashuv.</i>
5.	Ravish+ ot yoki harakat nomi	F	<i>havo qizdirgich, havo haydagich, go'ng sepkich, urug' o'tkazgich, oqim keskich, ko'chan tutqich, xamirkeskich.</i>

1	2	3	4	5

2-topshiriq. Qo'shma terminlar haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan o'qing. To'g'ri yoki noto'g'riliqiga qarab *ha* yoki *yo'q* javoblarini yozing.

1. Baynalminal komponenti avto-, azo-, nitro-, psevdo- singari aniqlovchilar bilan ifodalangan gibrild terminlardir.
2. Gibridlarning har ikkalasi ham ruscha-baynalminal, ham o'zbekcha komponenti mustaqil ma'no va qo'llanishga ega bo'lgan so'z-terminlardan iborat bo'ladi.
3. Gibril qo'shma terminlar ikkita boshqa-boshqa qatlamlarga oid so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lmaydi.
4. Determinativ qo'shma terminlarda «ot - ot», «ot - sifat», «son - ot», «olmosh - ot» va hokazolar biri-birini aniqlamaydi.
5. Kopulyativ terminlar ko'pincha o'zaro bog'lovchi yoki ko'makchilar vositasida bog'langan bo'ladi.
6. Qo'shma so'z sodda so'z kabi yaxlit bir so'z, tilning bir butun birligi tarzida tushuniladi va foydalaniladi.
7. Qo'shma termin yasash asosan ikki yirik bo'limdan iborat.

1	2	3	4	5	6	7

3-topshiriq. Berilgan matnni diqqat bilan o'qing. Matndan qo'shma terminlarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

Masalan, radio, televide niye orqali uzatiluvchi suxandon yoki jurnalist nutqi va hokazolar. Adabiy tilning rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me'yorlarining shakllanishida adabiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas. Badiiy tilda adabiy til bilan birgalikda turli shevalarga yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

Qovun tanlashda tashqi ko'rinishiga qarab tanlamaslik kerak ekan. Yaxshi qovun deb olsam, pirsildoq chiqib qoldi.

Muhammadjon:

- Yangi qovun navlarini yaratayotgan mirishkor dehqonlarimizga rahmat, oshqovoqqa o'xshaganini oluvdim, obinovvot ekan.

Odiljon: -Bu safar qovun tanlashda adashmagan ekanman, oq qovun deb olsam, eski chopon chiqib qoldi.

Muhammadjon: - O'zi kichkina-yu, nimaga tosh bosyapti desam, bo'rikallaga o'xshaydi.

Odiljon: - Rahmat, qovun bahonasida ozgina kulishib ham oldik. Xalqimizning dasturxoniga shirin-shakar qovunlarni yetkazib berayotgan dehqonlarimizning umri boqiy bo'lsin [Internet ma'lumot].

4-topshiriq. «Erkin yozish» usuli. Besh daqiqa ichida mavzu bo'yicha o'z xayollariningizga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozing. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero, qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) o'z yozganlaringizni sheriklaringizga o'qib bering va fikrlaringizni birgalikda tahlil qiling.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Konseptual jadval» usulida terminlarni strukturasiga ko'ra bir-biriga moslashtiring.

	Zoologik termin + zoologik termin	Zoologik termin + botanik termin»	Zoologik termin + boshqa soha termini yoki oddiy leksema	Botanik termin + botanik termin»
gulkaram				+
pashshaqopqon				
to'ng'iztaroq				
baqajo'xori				
baqaterak				
eshakmiya				

echkisoqol				
bo'takuz				
otquloq				
kapalakqanot				
kurakburun				
baliqchi				
tillaqosh				
chiporilon				
qoshiqbosh				
ilonlar				
xumbosh baliq				
oqsaqol maymun				
bo'ritish ilonlar				

2-topshiriq. Qo'shma terminlar haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan o'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni tanlang

1. - ikki bir-biri bilan teng negizlar qo'shilishidan yasaladigan qo'shma terminlardir.

2. Bir predmetda mavjud belgi boshqa bir predmet tasavvurini jonlantirishi natijasida shakllangan ... *o'xshatish obyekti*, *o'xshatish obrazi* va *o'xshatma belgining* o'zaro munosabati asosida shakllanadi.

3. modelida yasalgan qo'shma terminlar qo'proq tabiiy fanlar terminotizimida uchraydi.

4. qo'shma terminlarda «ot - ot», «ot - sifat», «son - ot», «olmosh - ot» va hokazolar biri-birini aniqlab keladi.

5. har ikkalasi ham ruscha-baynalminal, ham o'zbekcha komponenti mustaqil ma'no va qo'llanishga ega bo'lgan so'z-terminlardan iborat bo'ladi.

6. Qismlarga ajraluvchi ruscha terminlarning muayyan qismi mustaqil termindan va de-, per-, re-, so-, sub- kabi ... dan iborat bo'lganda yoki ikkinchi komponenti mustaqil qo'llanmaydigan suffiksoid orqali ifodalanadi.

7. ... modelida yasalgan qo'shma terminlar modeli botanika, zoologiya singari tabiiy fanlarda, ularning terminologik tizimida mahsuldor hisoblanadi.

8. Terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning qo'shilishidan yasalgan bo'lsa, bunday terminlar ... termin deyiladi.

Tanlash uchun so'zlar: *Kopulyativlar, qo'shma, ot+ot, prefikslar, gibrild terminlarning, determinativ, sifat+ot, qo'shma terminlar.*

3-topshiriq. N.Maxmudovning "Tilimizning kecha va kunduzi" maqolasidan olingan parchani o'qing, qisqa konspekt qiling.

O'zbek tili lug'at boyligi tarkibi doirasida mustaqillik davrida kechayotgan faollashgan jarayonlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Muayyan so'z yasovchi qo'shimchaning bevosita faollashuvi yorqin bir tarzda deyarli kuzatilmasa-da, ayrim, masalan, *-noma, -aro, no-, -lashtirish* kabi yasovchilarning nisbatan ko'proq yangi yasalmalardagi ishtirokini qayd etish mumkin. Misollar: *taomnoma, axborotnoma, so'rovnama, narxnama, dalolatnoma, qaydnoma, ma'lumotnoma, asosnama, yo'rinqoma, tashakkurnoma, talabnama, ahdnama, kafolatnoma; idoralararo, hukumatlararo, davlatlararo; nodavlat, nohukumat, notijorat, nomoddiy, nodavriy, nofaol; avtomatlashtirish, mahalliylashtirish, kompyuterlashtirish, modellashtirish* kabi.

2. Mustaqillik davrida faollashgan tamoyillardan biri tilimizning ilgarigi davrlariga mansub bo'lgan, demakki, nofaol bo'lgan so'zlarning faol qatlamga o'tishidir. Albatta, eskirgan so'zlarni tiklash tilimizning ming yillik boy zaxiralaridagi muayyan qismlarni harakatga keltirish, ishga solish demakdir. Bunda, asosan, uch xil holatni kuzatish mumkin: 1) eskirgan deb qaralgan so'z mavjud ma'nolari bilan faollashadi; 2) eskirgan deb qaralgan so'z mavjud ma'nolari bilan bir qatorda yangi

ma'nolarni ham kasb qilgan holda faollashadi; 3) eskirgan deb qaralgan so'z mavjud ma'nolaridan faqat bittasi bilan faollashadi.

Eskirgan deb qaralgan so'zning mavjud ma'nolari bilan faollashishi ma'naviyat-ma'rifatga daxldor tushunchalarni ifodalovchi leksika doirasida nisbatan kengroq kuzatiladi. Mustaqillikkacha bo'lган davrdagi hukmron mafkura talablariga ko'ra, milliy mentalitetimiz va ming yillik madaniyatimiz ma'naviyatimizning mag'zi-mohiyatini tayin etadigan juda ko'p tushunchalarni ifodalaydigan, masalan, *ajr, aziz-avliyo, vorisiylik, ma'naviyat, millatparvar, milliylik, qadriyat* kabi bir qancha so'zlarning tilimizdagi faol leksik qatlam tarkibiga kirishiga izn berilmagan edi. Shuning uchun ham ularga ilgarigi ikki jildli o'zbek tilining izohli lug'ati (1981)da joy topilmagan edi. O'zbek tilining yangi besh jildli izohli lug'atida bu so'zlar hayotimizdagi eng faol so'zlar sifatida qayd qilingan va ularning mavjud ma'nolari batafsil izohlangan. Shuningdek, *jarroh, matbaa, muallif, muloqot, munaqqid, musahhih, muharrir, tashxis, tijorat* kabi juda ko'plab so'zlar ham mavjud ma'nolari bilan faollashgan.

Eskirgan deb qaralgan so'zning mavjud ma'nolari bilan bir qatorda yangi ma'nolarni ham kasb qilgan holda faollashishi konkret tushunchalarni bildiruvchi leksika doirasida nisbatan kengroq kuzatiladi. Masalan, ilgari eskirgan degan qaralgan *vazir, viloyat, tuman* kabi bir qancha so'zlar faollashib, tilimizdagi asl maqomini tikladi va mavjud ma'nolarini saqlagan holda yangi, ya'ni "ministr", "oblast", "rayon" kabi ma'nolarni ham o'z ustiga olgan holda faollashgan birliklarga aylandi, shuning uchun ham ularning barcha ma'nolari yangi izohli lug'atda tegishli tarzda tavsiflangan.

Eski izohli lug'atda, masalan, *hokim* so'zining ikki tarixiy va bir zamonaviy ma'nosi qayd qilingan va tavsiflangan. Yangi izohli lug'atda esa bu so'zga mustaqillik davrida yangi davlat tuzumidagi yangi tushunchani aks ettiruvchi leksik ma'no yuklangani inobatga olinib, uning ma'nolari quyidagicha izohlangan: "...1 tar. O'rta Osiyo

xonliklarida belgili bir shahar va uning atrofidagi qishloqlar ustidan xonu bek amrini o'tkazish uchun belgilab qo'yilgan amaldor... 2 *tar.* Sobiq Turkiston o'lkasidagi ayrim shahar yoki muzofotlarda chor hukumatining siyosatini o'tkazish uchun belgilab qo'yilgan yuqori mansabli amaldor... 3 Umuman, hukmini, buyrug'ini o'tkazuvchi (shaxs, sinf va sh.k.)... 4 O'zbekiston Respublikasida viloyat, shahar va tumanlarning birinchi rahbari lavozimidagi shaxs; hokimlikning birinchi rahbari... 5 *ko'chma* O'z ixtiyoriga olgan, egallagan narsa haqida; hukmron".

Eskirgan deb qaralgan so'z mavjud ma'nolaridan faqqat bittasi bilan faollashishi ham mumkin. Masalan, *zobit* so'zi ilgari "ofitser" va "zabt etuvchi, bosqinch'i" ma'nolariga ega edi, mustaqillik davrida bu so'z faqat "ofitser" ma'nosi bilangina faollashgan.

3. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda hukmron siyosat tufayli benihoya faol bo'lgan so'zlarning mutlaqo nofaol qatlamga o'tishi ham istiqlol davrining tabiiy taqozosidir. Anglatgan tushunchalari tarix qa'ridan joy olib bo'lgan nomlarning o'zi ham qadru qimmatini yo'qotishi tayin. *Ateist, ateizm, butunittifoq, ittifoqdosh, kommunizm, komsomol, kommunist, sotsialistik, kolxozi, sovxozi, pioner* kabi yuzlab so'zlarning bugungi taqdiri bu holning shahodatidir.

4. Mustaqillik davrida faollashgan semantik jarayonlardan yana biri so'z va uning ma'noviy mohiyatiga sub'yektiv-baho munosabatining salbiydan ijobiyga tomon o'zgarishidir. Masalan, *mafcura* so'zini olib ko'raylik. Sho'rolar davrida mafcura shu qadar qattol qudratga aylantirilgan ediki, uning shafqatsiz jodisi nafaqat oydin tafakkurli, jasur niyatli insonlarni, to'g'ri so'z mehnatkashlarni, balki butun boshli millatlarni ham qatag'on qilgandi. Sho'ro mafkurasi ayni paytda ikki yuzlamachilik, riyokorlikning namunaviy ramzi edi, so'zda barcha xalqlarning tengligi haqida ayyuhannos solardi, lekin amalda «ulug'» xalqning teshasini chopardi, so'zda milliy tillarning taraqqiyoti uchun g'amxo'rlik qilganday bo'lardi, lekin amalda

ketmonchining tilxatiga ham o'zining tilini tiqardi. Bu mafkura xalqlarni istibdodda tutib turish vositalarining pishiq, ammo g'irrom tizimi edi. Bu so'zning ma'nosi eski izohli lug'atda "muayyan bir sinfning manfaatlariga qaratilgan falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy qarashlari sistemasi; ideologiya" tarzida izohlangan, ko'rinish turganiday, faqatgina "muayyan bir sinfning manfaati" bu tushunchaning asosini tashkil etgan. Shuning uchun faqat qizil mafkuragagina emas, hatto *mafcura* so'ziga ham xalq qalbida nafratga o'xhash bir narsa uyg'ongandi. Aslida, so'zda gunoh yo'q, gunoh, tabiiyki, bu so'zni shu ko'yga solganlarda. *Mafcura* so'zining o'zagi fikrdir, *tafakkur* so'zi ham shu o'zakdan yasalganligi har kimga ma'lum. Istiqlol o'zbek xalqi kabi bu so'zning ham o'zligini tikladi. Bugun *mafcura* "Jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy farashlar, fikrlar va g'oyalar majmui" (yangi izohli lug'atagi tavsif) sifatida butun jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi va ularning ehtiromini qozongan qudratli omilga aylangan.

Mustaqillikdan avval, hali bozor iqtisodiyoti munosabatlari jamiyatimizga begona bo'lgan davrlarda *biznes*, *biznesmen*, *millioner*, *savdogar*, *fermer* kabi bir qancha so'zlar salbiy yoki kamida, manfiy sub'ektiv baho bilan idrok qilinar edi. Eski izohli lug'atda *biznes* va *biznesmen* so'zlari shunday tavsiflangan: *biznes* – "kapitalistik mamlakatlarda: shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish (mas., chayqov, kommersiya, katta daromad keltiradigan korxona va sh.k.)"; *biznesmen* – "biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs; korchalon". Ko'rinish turganiday, sho'ro tuzumi davrida "shaxsiy boylik", "foyda orttirish", "kommersiya", "katta daromad" kabi tushunchalar tamoman zararli deb e'lon qilingan, bunday ishlar bilan mashg'ul bo'lganlar chayqovchi, korchalon sifatida malomatga mahkum bo'lgan, bu fikr omma ongiga zo'r berib singdirilgan. Mustaqillik bu so'zlardagi qora ranglarni sidirib tashlab, ularga mutlaq ijobjiy, hatto havasli munosabatni shakllantirdi,

ular ana shunday musbat baho bilan faollashdi. Bu so‘zlarga yangi izohli lug‘atda mana bunday haqiqiy tavsif berilgan: “*biznes* – daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko‘zlangan va qonunlarga xilof bo‘lмаган har qanday tashkiliy, xo‘jalik faoliyati; tijorat; ishbilarmonlik; *biznesmen – aynan ishbilarmon*”.

Bugun O‘zbekistonda halol mehnati orqasidan topgan daromadi millionlar bilan o‘lchanadigan tadbirkorlar ko‘p, bunday *millionerlarga* jamiyat ola ko‘z bilan emas, balki havas va hayrat bilan qaraydi. *Millioner* so‘zi, demakki, ijobiy baho bilan idrok qilinadi. Ammo sho‘ro tuzumi davrida bu so‘z salbiy munosabatdan xoli bo‘lмаган. Hatto eski izohli lug‘atda bu so‘zning “millionlar bilan hisoblanadigan boylikka ega bo‘lgan kishi” ma’nosini izohlovchi misol sifatida “*ingliz millionerlari*” birikmasi keltirilgan, mazkur ma’noning belgi tarzidagi turini tavsiflashda esa “kolxoz haqida” degan izoh berilgan, go‘yoki o‘zbek *millioner* bo‘lishi mumkin emasdek.

Sho‘ro davrida yuzi qora bo‘lgan so‘zlardan yana biri *savdogar* so‘zidir. Hatto so‘zlashuv tilida bu so‘zning “xususiy manfaati uchun arzimagan narsaga ham talashadigan, pastkash odam” (eski izohli lug‘at) tarzidagi ko‘chma ma’nosi ham yuzaga keldi. Bugun bu so‘z savdosoti, tijorat faoliyati bilan halol shug‘ullanadigan shaxsni ifodalaydi va bunday kishilar jamiyatda hurmat-ehtiromga sazovordir, bugun mazkur so‘zning yuzi ham yorug‘ bo‘ldi. Yuzi yorug‘ bo‘lgan ko‘plab so‘zlardan yana biri sifatida *fermer* so‘zini tilga olish mumkin. Bu so‘z ilgari “kapitalistik mamlakatlarda: fermani ijaraga oluvchi kishi yoki ferma egasi” ma’nosida salbiy bo‘yoq bilan bo‘yalgandi. Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan favqulodda muhim iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq fermer degan yaratuvchi shaxs shakllandi. Bugun *fermer* “o‘ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi mayda yoki o‘rtacha qishloq xo‘jaligi korxonasi egasi” (yangi izohli lug‘at) bo‘lib, jamiyatda alohida obro‘-e’tiborga sazovordir.

Oliy niyati “kishilar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan” sho‘ro tuzumi, ajabki, barcha kambag‘alni boy qilib emas, balki barcha boylarni kambag‘al qilib, mazkur oliy niyatning ijobatiga yetmoqday dumbul tutum bilan sa’y-harakat qilganligi bugun hech kimga sir emas. Ana shu tutumning palag‘da mohiyati bois *boy* so‘ziga nisbatan ham salbiy nigoh mezon bo‘lgan, jamiyatda bu kabi so‘zlarga xolis munosabatning qaror topishi mushkullashgan. Eski jamiyatda barqarorlashgan ommaviy idrok o‘zaniga muvofiq bu so‘zning asosiy ma’nolaridan biri ham eski izohli lug‘atda “kishi kuchidan foydalanish hisobiga boylik, dunyo orttirgan (odam)” tarzida tavsiflangan. Muhtasham maqsadi “yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi”ga qaratilgan “o‘zbek modeli” asosida muntazam taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda *boy* so‘zi o‘zining chin ma’nosi bilan qovushdi, “birovning kuchidan foydalanish hisobiga” emas, balki o‘zining halol va mashaqqatli mehnati, favqulorra aqlu zakovati, tadbirkorligining hadisi hisobiga boylik, dunyo orttirgan(odam)ni nomlaydigan bo‘ldi, bu so‘z anglatgan tushuncha jamiyatda haqiqiy havasning hadafiga aylandi.

Shuningdek, *mulkdor* so‘zi “katta yer-suv egasi; zamindor” ma’nosi bilan eskirgan, tarixiy so‘z deb qaralgan. Buning ustiga, ayni so‘z anglatgan tushunchaga o‘sha jamiyatning aksariyat a’zolari g‘ashlik bilan qaragan, chunki, atoqli adib va adabiyotshunos I.Sulton ta’biri bilan aytganda, “sotsialistik davrda mulkka, mulkdorga nafrat ruhida tarbiyalandik”; “mana, hozirgi jamiyatimiz taraqqiyotida Inson, Imon, Mulk muqaddas bo‘ldi” [Рахимжонов Н. Бадий асар биографияси. – Т.: Фан, 2008. –Б. 201 – 202], shuning uchun ham *mulkdor* so‘zi mustaqillik davrida “mulk sub’ekti; mulk ob’ektiga egalik, foydalanish, tasarruf etish huquqiy tamoyllari asosida mustahkamlangan huquqlarga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs” degan yangi ma’noni kasb qilib, mutlaqo ijobiy rang bilan tilimizda faollashdi [Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2017. – Б.97-101].

- 1) *Mazkur ma'lumotdagi hodisaga o'zingiz misollar toping.*
- 2) *Jadvalni to'ldiring.*

Termin	Tuzilishiga ko'ra	Yasalishiga ko'ra	O'zlashganligiga ko'ra

- 3) *Ma'lumotlarga tahliliy yondashing. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar bilan taqqoslang.*

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»dan tilshunoslikka oid 50 ta qo'shma terminni daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'limgan prezentatsiya yarating.

3-topshiriq. «**Tushunchalar asosida matn tuzish**» usuli. Mavzu yuzasidan berilgan tushunchalar asosida mustaqil tarzda matn tuzing.

1. Komponentlar, leksik qatlam, so'z birliklari, qo'shma terminlar.
2. O'zbek tili, o'zbekcha, arabcha, forscha so'zlar, qo'shma terminlar.
3. Turli tillar, so'z birliklari, gibrid, qo'shma terminlar.
4. Komponentlar, ruscha-baynalminal termin, termin-elementlar, rus tili, o'zlashgan, qo'shma terminlar.

4.4. Birikma terminlar

Reja:

1. Birikma terminlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Birikma terminlarning yasalishi.
3. Birikma terminlarning turlari.

Tayanch tushunchalar: *birikma terminlar, xususiyatlar, yasalish, terminlarning turlari, yig'iq, yoyiq birikma terminlar.*

Tadqiqotchi B.Mirisanov terminlarning ikkilamchi nomlash xususida fikr yuritib, birikma orqali shakllangan ikkilamchi nomlashda asosan uch ko'rinishini qayd etgan¹. 1. Ularning eng xarakterlisi sifatlovchi–sifatlanmish bo'lib, sifatlovchi bo'lak sifatlanmishni aniqlab keladi va ularning ikkisi ham ot turkumidagi so'zdan ifodalanadi. O'z navbatida, otdan ifodalangan sifatlovchi bo'lak otlik xususiyatini neytrallashtirib, sifatga xos vazifa bajaradi, ya'ni adektivlashgan bo'ladi. Bu o'zgarish sirtdan qaraganda, metaforik ko'chim bo'lib ko'rindi. Demak, ot turkumidagi so'zning sifatlashuvini nazarga olsak, uni *metaforik adyektivatsiya* deb baholashimiz zarur bo'ladi. Albatta, bu jarayonda ellipsisning ham ta'siri bor. Masalan, *boshi buyvolning boshiga o'xshagan baliq > buyvol baliq*. Qiyos: sutemizuvchi+baliq. Qiyos mevalar orasida ham bo'lishi mumkin: *anjir shaftoli, nok behi, pista bodom*.

2. Qaralmish komponent ikkilamchi nomlash mavqeida bo'lган birikmalarda asosan bir-biridan keskin farq qiluvchi muhit jonivorlari qiyoslanadi. Shu sababli ham muhitni bildiruvchi ot qaratqich vazifasidagi aniqlovchi hisoblanadi. Quyidagi zoonimlar shunday shakllangan: *dengiz mushugi, dengiz sigiri, dengiz toychalari, dengiz fili, dengiz cho'chqasi, dengiz cho'chqachasi, dengiz quyoni, dengiz sheri, dengiz qoploni, dengiz qunduzi* kabi. E'tibor berilsa, quruqlik sutemizuvchilar dengiz sutemizuvchilariga qiyoslangan.

Qiyos ba'zan bir dengiz jonivorlari quruqlik o'simligi mevalari orasida kechadi: *dengiz bodringlari, dengiz yong'oqlari* kabi.

Ayrim hollarda qiyos astronimlarga asoslanadi: *dengiz yulduzlari* kabi.

Gohida o'xshashlik asosidagi qiyos dunyoviy manzaralardan topilmasa, diniy tasavvurlarda yaratilgan teonimlardan topiladi: *dengiz farishtasi, dengiz iblislari, dengiz shaytoni, jannat quchlari* kabi.

¹ Мирсанов Б. М. Ўзбек тили терминологиясида иккиламчи номлашлар ва уларнинг мотивлашуви (ўзбек тили зоонимлари ва фитонимлари мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. - Самарқанд, 2018. -24 б.

3. Ikkilamchi nomlashning birikmalar orqali voqelanishida sifatlovchi komponent qo'shma terminlar bilan shakllanganlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning aksari sifatlovchi-sifatlanmish modelida shakllanib, sifatlovchilari qo'shma so'z ko'rinishida bo'ladi: *kurakburun baliqchi, tillaqosh chiporilon, qoshiqbosh ilonlar, xumbosh baliq, oqsaqol maymun, bo'ritish ilonlar* kabi.

Yana *melodiy yil, qamara yil, muchal yili* birikma terminlarida birikma ma'nosi mohiyati *yil* so'zida ifoda topgan. U to'rt fasl vaqtiga teng. Lekin unga aniqlik kiritish uchun aniqlovchi berilgan. Aniqlovchi aniqlanmishdan anglashilgan vaqtning aniq belgilanishida ahamiyat kasb etadi. Melodiy yil 365-366 kundan, qamara yil 354 kundan, muchal yili esa 365 kunu qancha soat va daqiqadan iborat bo'ladi.

Birikma terminlar ma'nosi xoh u terminologik xarakterda bo'lzin, xoh terminologik xarakterda bo'lmasin, albatta, nomlovchili xususiyatini o'zida saqlaydi. Bu uning nomlovchi ma'nosi ham hokim bo'lakdan, ham tobe bo'lakdan tarkib topganligi bilan izohlanadi.

Birikma terminlar asosan ot turkumida ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Bu birikma terminlar esa asosan terminlardan iborat. Masalan, *aylanma harakat, yo'nalma harakat, ayirish belgisi, analitik geometriya* kabi birikma terminlar matematik, *yetti og'ayni, somon yo'li, andromeda tumshig'i* kabi birikma terminlar astronomik, *absolyut monarxiya, demokratik hokimiyat, agrar masala, vaziri akbar* kabi birikma terminlar siyosiy terminlardir. Shularga o'xshash yana terminologik bo'lмаган *chin arafa, yolg'on arafa, tashviqot nuqtasi, katta maslahatchi, ilmiy xodim, ichki ishlar* kabi birikma terminlar o'zbek tilida ot turkumiga oid lug'aviy birliklar ichida ko'plab uchraydi.

Birikma terminlar so'z turkumi nuqtai nazaridan, aytilganiday, chegaralangan emas. U sifat turkumida ham ko'plab uchraydi. Masalan, *avzoyi buzuq, amri mahol, arzon-garov, arki namokob* kabi birikma terminlarni ko'rsatish mumkin. Bunday birikma terminlarning hokim bo'lagi sifat turkumiga mansub bo'lib, tobe bo'lagi ot turkumida ham,

sifat turkumida ham bo'lishi mumkin. Yuqoridagi birikma terminlarning 1- va 2-sida tobe bo'lak ot, keyingi ikkitasida esa sifatga oiddir. Birikma terminlar fe'l turkumida ham uchraydi. Masalan, *aholining absolyut o'sishi, aybga buyurmoq, aksiga olmoq, aks tegmoq* kabi birikma terminlarni ko'rsatish mumkin. Bunday birikma terminlarning ham hokim bo'lagi fe'l bo'lib, tobe bo'lagi ot yoki sifat turkumiga mansub ekanligi kuzatiladi. Tobe bo'lak ot turkumiga mansub bo'lsa, birikma yo obyektlili birikma, yo predikativ qo'shilma qolipida tarkib topadi. Yuqoridagi birikma terminlarning 2- va 3-si obyektlili birikma qolipida bo'lib, oxirgisi predikativ qo'shilma qolipidadir. Birinchi sifat birikmali terminning tobe bo'lagi esa uyushmagan aniqlovchilardan iborat.

Birikma terminlar ravish turkumida bo'lishi ham mumkin. Biroq u tilda juda kam uchraydi. Masalan, *aks holda* birikma termini ravish turkumidadir.

Birikma terminlarning murakkab birikmadan tarkib topganligi ham tilda kuzatiladi. Masalan, *yuqorigi o'rta kurak tish* kabi. Bunday birikma terminlarda ham eng so'nggi o'rindagi bo'lak hokim bo'lak bo'lib, birikma ma'nosi mohiyatini belgilaydi.

Turli korxona, muassasa, tashkilotga, gazetalarga berilgan nomlar ham birikma terminlar tipiga kiradi.

Birikma terminlar ikki xil bo'ladi¹:

1) **Yig'iq birikmalar.** Bular ikki komponentli birikmalardir: *yog'och to'qmoq, kitob tokchasi, taxta pol, qo'yim qoldirish* (*yog'ochsozlik*); *odil sudlov, sud taftishi* (*yuridik*).

2) **Yoyiq birikmalar.** Bular uch va undan ortiq mustaqil leksemalardan tarkib topadi: a) uch komponentli birikmalar: *tob tashlab qiyshaytirish, bo'ylama tob tashlash* (*yog'ochsozlik*); b) to'rt komponentli biriikmalar: «*qaldirg'och quyruq*» *tiroqli birikmalar, dasta bet bog'lash usuli* (*yog'ochsozlik*); s) besh komponentli birikmalar:

¹ Ахатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси. Филол. фан. номз... автореф. – Тошкент, 2004. – Б.9.

uzunasiga qirquvchi disk arrali stanok (yog'ochsozlik); d) olti komponentli biriikmalar: *markazlar yordamida silindrik sirtlarni xomaki yo 'nish* (yog'ochsozlik).

Birikma terminlar quyidagi modellarda yasaladi:

Ot+ot modeli. *Taxta pol, yog'och oyoq* (yog'ochsozlik); *yo 'l boji, jinoyat ishi* (yuridik).

Sifat+ot modeli. *Pog'onali sirt, ponasimon ulash, shakldor oyoqlar* (yog'ochsozlik); *huquqiy vorislik, davomli jinoyatlar* (yuridik); *qattiq tanglay, to 'g 'ri ichak* (anatomiya).

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Jadvalni to'ldiring. Berilgan birikmali terminlarni yig'iq va yoyiq birikmalarga ajrating. *Yog'och to 'qmoq, kitob tokchasi, taxta pol, qo'yim qoldirish, odil sudlov, sud taftishi, tob tashlab qiyshaytirish, bo'ylama tob tashlash, «qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar, oqquyruq, arslonquyruq, ayiqtovonlar, bo'tako 'z, itburun, itog'iz, kiyikpanja, moralquloq, otquloq, dasta bet bog'lash usuli, uzunasiga qirquvchi disk arrali stanok, markazlar yordamida silindrik sirtlarni xomaki yo 'nish.*

Yoyiq birikmalar	Yig'iq birikmalar

2-topshiriq. Berilgan matnni diqqat bilan o'qing. Matndan birikmali terminlarga misollar toping va daftaringizga ko'chiring.

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas

darajada kam mablag‘ ajratilardi. O‘rmonlar o‘ylamay-netmay, vahshiy-larcha kesib tashlanar edi. Yoqilg‘i va mineral-xomashyo zaxiralari real ehtiyoj bilan taqqoslanmagan holda juda ko‘p miqdorda qazib olinganidan ko‘pchilik qismi qayta ishlanmagan chiqitlar sifatida uyulib yotar edi. Tabiatni muhofaza qiluvchi eng oddiy tozalash inshootlariga ega bo‘lmagan bahaybat sanoat korxonalari faol bunyod etildi. Natijada barcha zaharli va zararli sanoat chiqindilari ulkan havo kengliklarini, suv havzalarini, yer maydonlarini ifloslantiradigan bo‘ldi. O‘z ko‘lamijihatidan beqiyos darajada katta gidroenergetika loyihamalarini ro‘yobga chiqarish, transport kommunikatsiyalarini (BAM, TurkSib kabi temiryo‘llarni, avtomobil, neft-gaz magistral arina va irrigatsiya tarmoqlarini) bunyod etish nafaqat tabiiy zaxiralarni qashshoqlashtirdi, balki butun boshli aholi punktlarining yo‘q bo‘lib ketishiga, ekologik muvozanat, iqlim, odamlarning hayot va faoliyat sharoitlarining buzilishiga ham olib keldi.

...Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalb etish birinchi darajali vazifadir [Internet ma’lumot].

3-topshiriq. Berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘qing va undagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping.

1.... birikmalar ikki komponentli birikmalardir. 2. *Taxta pol, yog‘och oyoq, yo‘l boji, jinoyat ishi* kabi birikmali terminlar ... qolipidadir. 3.. *Pog‘onali sirt, ponasimon ulash, shakldor oyoqlar* ... modelidadir. 4. Birikma terminlar ... turkumida bo‘lishi ham mumkin. Biroq u tilda juda kam uchraydi. Masalan, *aks holda* birikma terminini misol qilib keltirish mumkin. 5. Birikma terminlar asosan ... turkumida ekanligi bilan diqqatga sazovordir. 6. terminlar ma’nosи xoh u terminologik xarakterda bo‘lsin, xoh terminologik xarakterda bo‘lmasin, albatta, nomlovchilik xususiyatini o‘zida saqlaydi. 7. Birikma terminlar so‘z turkumi nuqtai nazaridan, aytilganiday, ... emas. U sifat turkumida ham ko‘plab uchraydi.


Tanlash uchun so'zlar: *ot+ot modeli, yoyiq, sifat+ot modeli, ravish, ot, birikma, chegaralangan.*

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Jadvalda berilgan so'zlardan birikmali terminlar hosil qiling.

dengiz	<i>dengiz mushugi, dengiz sigiri, dengiz toychalari</i>
yulduz	
taxta	
yog'och	
yo'l	
kitob	
disk	
tirnoq	
dasta	
qaychi	
ko'zoynak	
<i>buzoqcha</i>	
<i>buqa</i>	
<i>tulki</i>	
<i>qoplon</i>	
<i>qunduz</i>	

2-topshiriq. Rasmlarga qarab yoyiq va yig'iq birikmali terminlar qatnashgan matn tuzing hamda daftaringizga ko'chirib oling.



3-topshiriq. Matnni o'qing hamda undagi terminlarni aniqlang. Matndan yoyiq va yig'iq birikmali terminlarni topib, daftaringizga yozib oling.

Vodorodning ishlatilishi uning kimyoviy xossalariiga asoslangan. Undan kislorod bilan birikkan paytida ko'p issiqlik chiqadi. Shu bois, vodoroddan motor yoqilg'isi sifatida foydalaniladi. Metallarni qirqish va payvandlash ishlarida ham u faol qo'llaniladi. Vodorodning metalmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi. Ammiakdan, o'z navbatida, nitrat kislota olinadi.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi» dan tarix faniga oid 50 ta yoyiq va yig'iq birikmali terminlarni daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. O'zingiz sevgan mavzuda yoyiq va yig'iq birikmlalar qatnashgan esse yozing.

4.5. Murakkab terminlar

Reja:

1. Murakkab terminlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Murakkab terminlarning yasalishi.
3. Murakkab terminlarning turlari.

Tayanch tushunchalar: *murakkab terminlar, xususiyatlar, yasalish, terminlarning turlari, sodda tarkibli, murakkab tarkibli terminlar.*

Tilshunos olma M. Xudayarova taom nomlari xususida fikr yuritib, terminlarni morfologik, sintaktik va semantik usul bilan yasalishini izohlagan¹.

Olima Qoraqolpog'istondag'i o'zbek shevalarida sintaktik usul bilan yasalgan taom nomlarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. *Sodda tarkibli (ikki so'zdan tuzilgan) taom nomlari.* Ot+ot tipida yasalgan taom nomlari: *təshəp, qatyg'ash, ynashы, maysək, maybyılatыq, sytgyrich//sytbyryynch, məshpalav, sək talqan, nan talqan, nan shorpa, buvday palav, kədi bərək, gəsh bərək, uityrtə bərək, uvyız bərək, qavaq mantı, buvday qıvırmach, djyvari qıvırmach, gəsh qıvırdaq, uityrtə qıvırdaq, kədi qıvırdaq, balыq kabap, balыq shorpa, balыq qarma, balыq dýmləmə, balыq palav, balыq qıvırdaq, kədi somsa, kədi gəmmə, gəshir gəmmə, zamatыq gəmmə, qavun təshəp, djyvari shəvlə, djigildik bıylatыq, qavun m'rabba, gəshir m'rabba, djyvari talqan, djiydə iydjan, chəkiydə qayuish, djyvari kyrilik kabi birikma tipidagi taom nomlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularning ikkala qismi ham nominativ vazifa bajaradi. Bu, bir tomondan, mazkur ovqat turlarining o'sha narsalar ishtirokida tayyorlanishini bildirsa, ikkinchi tomondan birlamchi va asosiy taom*

¹ Худаярова М.Т. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида). – Тошкент, 2008. –Б. 13.

nomlarining ot turkumidagi so‘zlardan bo‘lishini, uchinchidan, bu tip birikmalar hosila taom nomlari ekanligini ko‘rsatadi.

Sifat+ot: bunda sodda tarkibli taom nomining birinchi komponenti asliy sifatdan ifodalangan bo‘ladi. Bularga: *sarvyag* ‘//sarvymay, aqsyqman, aqshalg‘am, kækwylatyq, gæk gøttæ//kæk gøttæ, gæk bæræk, kæk pætir, qyzyl pætir, kæk chay, qara chay, mæydæ kyrtik, qaqbalyq, yaxna qoy kabi.

Nisbiy sifatli sodda tarkibli taom nomlarida boshqa turkumlardagi so‘zlardan sifat yasaladi va taomlarning turini hosil qiladi. Bu tipdagи sodda tarkibli taom nomlarini hosil qilishda quyidagi qo‘shimchalar katta rol o‘ynaydi: -лы qo‘shimchasi: *qavaqlы qyigtych, gøshly nan, ryazly qatlama, qatyqlы chælpæk, qavunly chælpæk, sarvyag‘ly palav, beuyly palav, ballы chay, shalg‘amly djarma, shorpaly qivygardaq, qavaqlы kyrtik, ayranly ynashы, qarmyizly tøshær* kabi; -ма(мә) qo‘shimchasi: *asma shorpa, salma kyrtik, syzmæ palav, yzmæ kyrtik* kabi.

Sifatdosh+ot birikmalarida ham taom turi ifodalanadi: *dudlang‘an balyq, quvylgylg‘an balyq, quvylgylg‘an uvylgylg‘an achylg‘an gødjæ* kabi.

2. *Murakkab tarkibli (uch yoki undan ortiq so‘zdan tuzilgan) taom nomlari.* Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida ot+ot+ot tipidagi *kællæbashayaq* taom nomi uchraydi. Bu taom nomi boshqa dialektlarda va adabiy tilda *kalla-pocha* tarzida juft so‘z shaklida qo‘llanadi. Fors-tojik tilidan kirib kelgan «*kalla*» so‘zi yoniga umumturkiy so‘z bo‘lgan «*bosh*» so‘zini qo‘shib «*kællæbashayaq*» deb atashadi. Bu birikmadagi *bash* so‘zi ortiqcha qo‘llangan. Bu holat qo‘shimchalarni qo‘shishda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, *yog‘ingarchilik, namgarchilik* so‘zlaridagi forschä qo‘shimcha -gar pleonastik qo‘llangan, ya’ni u -chi qo‘shimchasi bilan vazifadosh, ammo shunday qo‘llanish adabiy til me’yori sifatida qabul qilingan. Shu sababli -gar qo‘shimchasining

pleonastik qo'llanganligi unchalik sezilmaydi. «*Kəlləbashayaq*» taom nomidagi pleonazm adabiy me'yorda qabul qilinmagan.

Sifat yasovchi qo'shimchalar birikmalarga qo'shilganda murakkab tarkibli taom nomlarini hosil qiladi: *qaq yerikli palav, qaq yerikli ynashы, kədili dýyvari kyrtik, sytly məyda kyrtik, qatıqlы məyda kyrtik* kabi.

Murakkab terminlar – bir yoki birdan ortiq so'zlarning grammatik tobeklik munosabatiga asoslangan turg'un birikma holatida bo'ladi. Terminologiyaga bag'ishlangan adabiyotlarda murakkab terminlar birikmali terminlar tarkibida o'rganiladi. Ayrim adabiyotlarda esa, «tarkibli termin¹», «murakkab termin» sifatida talqin etiladi.

Murakkab tuzilgan terminlar yasashda quyidagi talablarga e'tibor berilishi lozim: a) termin mumkin qadar ixcham, kam sonli so'zlardan iborat bo'lishi kerak. Terminlarning ixcham bo'lishi ularni qo'llashda qulaylik tug'dirishdan tashqari, ulardan yangi terminlar yasash imkoniyatini beradi. Chunki, mavjud terminlardan so'z yasovchi affiks yordamida yangi termin yasash (*son-teskari son, yoy-yoyning gradusi*) hodisalar, tushunchalar orasida mavjud bo'lgan aloqani ham ko'rsatib turadi; b) murakkab termin tarkibidagi ba'zi so'zni izohlaydigan yana boshqa so'z bo'lmasligi (qavs ichida berilmasligi) kerak. Aks holda termindan foydalanishda qiyinchilik bo'ladi. Masalan, tuproqshunoslik sohasida yaratilgan *degradatsiyalangan* (aynigan) *qora tuproq*, matematika sohasidagi *erkin (bog'liq) miqdor, o'xshashlik (analogiya) metodi* kabi terminlar muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lib, ularni ishlatish ancha noqulaylik tug'diradi. Murakkab terminlar tarkibidagi har bir so'z boshqasi bilan affikslar yordamida yoki sintaktik tartib orqali birikkan bo'lishi kerak. Ularning ko'makchilar va bog'lovchilar vositasi bilan grammatik munosabatga kirishishlari ma'qul emas. Chunki yordamchi so'zlar vositasi bilan birikkan so'zlardan iborat bo'lgan murakkab

¹ Усатый И.Б. Структурно-грамматические особенности составных терминов-названий частей речи / Электронный научный журнал «Вестник Омского государственного педагогического университета», Выпуск 2007, - С.56.

terminlarning terminlik xususiyati bilinmay qoladi, oddiy, erkin birikmaga o‘xshab ketadi. Masalan, *burchak bilan o‘lchash, o‘rta va chet nisbatga bo‘lish* («золотое сечение») kabi. Ko‘rinib turibdiki, bu terminlar tarkibidagi *bilan* ko‘makchisi hamda *va* bog‘lovchisining kelishi ularni jonli nutq elementlariga o‘xshatib yuborgan.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» faniga oid 20 ta terminlarni tanlab oling va quyidagi jadvalni to‘ldiring. Terminlarni qanday hosil bo‘lganligi haqidagi mulohazalaringizni keltiring.

Termin	Ot	Sifat	Boshqa so‘z turkumi	Izoh
aniqlovchi	-	+	-	Aniq –la – ov -chi

2-topshiriq. Bugungi kunda keng qo‘llanayotgan terminlarni 10 tasini keltiring. Terminlarning qaysi so‘z turkumidan yasalganligiga e’tibor qarating.

Ot	Sifat
resurs	elektron

3-topshiriq. Yuqorida keltirilgan terminlardan (2-topshiriq) birikmali, murakkab terminlar hosil qiling.

Termin	Birikmali termin
resurs	Elektron resurslar
elektron	Elektron kutubxona

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Berilgan ma’lumotlarni o‘qing hamda nuqtalar o‘rniga mos keluvchi so‘zlarni joylashtiring.

... – bir yoki birdan ortiq so‘zlarning grammatik tobelik munosabatiga asoslangan birikma turg‘un birikma holatida bo‘ladi. ... mumkin qadar ixcham, kam sonli so‘zlardan iborat bo‘lishi kerak. Murakkab termin tarkibidagi ba’zi so‘zni izohlaydigan yana boshqa ... bo‘lmasligi (qavs ichida berilmasligi) kerak. ... qolipli sodda tarkibli taom nomining birinchi komponenti asliy sifatdan ifodalangan bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida ... tipidagi *kəlləbashayaq* taom nomi uchraydi. ... yasovchi qo‘shimchalar birikmalarga qo‘shilganda murakkab tarkibli taom nomlarini hosil qiladi. ... birikmalarida ham taom turi ifodalanadi: *dudlang‘an balыq*.

Tanlab olish uchun so‘zlar: murakkab terminlar, termin, so‘z, sifat+ot, Sifatdosh+ot, ot+ot+ot, sifat.

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring. Jadvalda berilgan so‘zlardan birikmali terminlar hosil qiling.

miqdor	Erkin miqdor,
tuproq	
o‘xshashlik	
teskari	
gradus	
palov	
chalpak	
sho‘rva	
qovun	
burchak	

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 2-jildidan botanika faniga oid murakkab terminlarga 20 ta termin toping hamda daftaringizga yozib, kichik terminologik lug‘at yarating.

2-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo‘lmagan prezentatsiya va videorolik yarating.

3-topshiriq. «Ikki qismli kundaliklar» usuli. Mavzuga oid ma'lumotlarni mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash lozim. Jadvalning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi? Ularda qanday fikrlar uyg'otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi?

Taassurotlari	Sharh

Adabiyotlar:

1. Исмоилов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. –Тошкент, 2011.
2. Мирсанов Б.М. Ўзбек тили терминологиясида иккиламчи номлашлар ва уларнинг мотивлашуви (ўзбек тили зоонимлари ва фитонимлари мисолида). Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Самарқанд, 2018.
3. Аҳатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси. Филол. фан. номз...автореф. – Тошкент, 2004.
4. Худаярова М.Т. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида). – Тошкент, 2008.

V. O'ZBEK TERMINOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

5.1. Terminologik lug'atlar

Reja:

1. Terminologik lug'atlar.
2. Terminologik lug'atlarning lug'at maqolalari.
3. Terminologik lug'atlarning yaratilishi.

Tayanch tushunchalar: *termin, terminologik lug'at, lug'at maqolasi, semantika, so'z o'zgarishi, so'z yasalishi, sintaktik aloqalar, noterminlar, terminotizimidagi paradigmatic aloqalar, sinonimlar, antonimlar, giper-giponimik aloqalar.*

Ilm-fanning barcha sohalari bo'yicha davr talablariga javob beradigan terminologik tizimlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, bularni amalga oshirish nihoyatda murakkab, katta kuch talab qiladigan ish ekanligi ham shubhasiz.

Umuman, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid terminlarni to'la qamrab olgan terminologik lug'atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug'atlarda har bir terminning o'zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to'g'ri, to'la va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir terminning talabga qanchalik muayyan javob berish - bermasligi aniqlanadi. Ana shunday lug'atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo'llanishi, va aksincha, bir necha (boshqa-boshqa) hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo'llanishi, hodisannng mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq ifodalay olmaydigan terminlarning mavjud bo'lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi.

Demak, har bir sohaga oid terminlarni iloji boricha to'la qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq aks ettiradigan

terminlarni belgilaydigan terminologik lug‘atlarni yaratish shu sohalar mutaxassislarining eng birinchi galdeg'i vazifalaridandir.

Terminologik lug‘atlar – so‘zligi ma’lum bir fan va texnika tarmog‘i, ijtimoiy yoki xo‘jalik hayotining biror sohasiga oid so‘z-terminlardan iborat bo‘lgan lug‘at. Bunday lug‘at so‘zlikning berilishi va izohlanishiga ko‘ra, ensiklopedik lug‘atlar bilan lingvistik lug‘atlar belgilariga ega bo‘ladi. Ular bir, ikki va undan ortiq tilli, izohsiz, izohli hamda ensiklopedik xarakterda bo‘lishi mumkin. Terminlar va ularning izohi qadimgi lug‘atlar – «Devonu lug‘otit turk», «Muqaddimatul adab», «Kelurnoma» asarlarida uchrasa-da, ular universal lug‘atlar hisoblanib, maxsus sohani ko‘zlab tuzilmagan¹.

Terminlar asosida lug‘atlar yaratish hamda yaratilgan lug‘atlar majmui ko‘pchilik tilshunoslar va mutaxassislar tomonidan «terminologik leksikografiya», «ilmiy-texnik leksikografiya» deb nomlanib kelindi. Tilshunoslar A.A.Reformatskiy, A.D.Xayutin, S.V.Grinyov mazkur terminlar o‘rniga, terminografiya terminini qo‘llashni taklif etadi va unga maxsus yoki terminologik lug‘atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti sifatida ta’rif beradi².

Faqatgina 1980-yil **terminografiya** atamasi alohida fan sifatida kirib keldi va maxsus so‘zlarning lug‘atini yaratish, tuzish tamoyillarini ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ullandi. XX asrning oxirlariga kelib, 2 mingdan ortiq terminologik standartlar ishlab chiqildi. Shu asosda 2,5 mingdan ortiq me’yoriy hujjatlar, 400 dan ortiq informatsion deskriptor lug‘atlar, minglab rubrikator va klassifikatorlar, o‘quv lug‘atlar, 1950-1979-yillar oralig‘ida 700ga yaqin maxsus so‘zlarning tarjima va izohli lug‘atlari yuzaga keldi³.

¹ Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017. – Б.134.

² Гринёв С.В. Введение в терминологическую лексикографию (учебное пособие). – М., 1986. – С.5.

³ Гринев-Гриневич С. Терминоведение. – М., 2008. – С. 218.

XX asrdagi dastlabki terminologik lug‘at – Nazir To‘raqulovning «Rus-o‘zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamalari lug‘ati» 1922-yilda nashr etilgan.

Terminologik lug‘atlar, odatda, sinxron materialni qamrab oladi, lekin ular eskirib borgan sari nafaqat tegishli terminologiya tarixini, balki o‘sha terminologik lug‘atlar yaratilgan tilning tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biriga aylanib qoladi. Terminologik lug‘atlar yaratish, ya’ni terminografiya umumiy leksikografiyaning ajralmas qismi bo‘lib, ulardagi jarayonlar bir-biriga o‘xshasa-da, lekin bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham, turli olimlar tomonidan lug‘at turlari va ularni tuzishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

V.G.Gakning yozishicha, tilshunoslikning lug‘atchilik nazariyasiga oid sohasi, ya’ni nazariy leksikografiya lug‘at turlari va ularni tuzishning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi va bir qancha muammolarni qamrab oladi. Chunonchi: lug‘atlarning umumiy tipologiyasini va yangi turdagи lug‘atlarni ishlab chiqish; lug‘at makrostrukturasini ishlab chiqish (so‘zlarni tanlab olish, so‘z va lug‘at maqolalarini joylashtirish tartibi, omonimlarni belgilash, lug‘at tarkibiga havola materiallarini kiritish); lug‘at mikrostrukturasini, ya’ni har bir lug‘at maqolasini ishlab chiqish (so‘zga grammatik va fonetik izoh berish, so‘z ma’nolarini ajratish va tasniflash, dalil sifatidagi illyustratsiyalar turlari, ta’riflash turlari, belgilar tizimi, so‘z etimologiyasi haqidagi ma’lumotlar) va b¹.

Terminologik lug‘atlarning lug‘at maqolalarini yozishda, terminni tavsiflashda quyidagilar muhim xususiyatlar taqqoslanadi va bir qator tamoyillar inobatga olinadi:

- 1) *semantika*: terminni ifodalayotgan tushuncha bilan bog‘lash;
- 2) *so‘z o‘zgarishi*: morfologik shakllarning yasalish xususiyatlari;
- 3) *so‘z yasalishi*: bir o‘zakli so‘zlar o‘rtasida munosabat o‘rnatish va terminlarning so‘z yasalish uyasiga kiritish (qiyoslang:

¹ Гак В.Г. Лексикография // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С.258-259.

"kommunikatsiya" terminining turli ma'nolari bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ va kommunikativlik);

4) *sintaktik aloqalar*: boshqarish, boshqa termin va noterminlar bilan mosligi;

5) *terminotizimdagi paradigmatic aloqalar*: sinonimlar, antonimlar, giper-giponimik aloqalar, ma'no kesishmalari, terminologik qatorlar;

6) *talaffuz*;

7) *matnda qo'llangan misollari*;

8) *kelib chiqishi*;

9) *tarjima ekvivalentlar*.

Terminlar ona tilining so'z yasash elementlaridan (prefiks) yoki so'zlarning semantikasining o'zgarishi orqali shakllantirilishi mumkin (maydon - semantik maydon)¹.

Rus tilshunos olimi A.N.Baranov quyidagi tamoyillarni keltiradi:

1) *lug'at tipi*: lug'at tipidan yaratilayotgan lug'at maqolasining yuzaga kelishi inobatga olinadi. Tilshunoslikda quyidgi lug'at tiplari mavjud: 1) Umumlingvistik lug'atlar. 2) Xususiy lingvistik lug'atlar;

2) *tarjima yoki izohli lug'atlar*: bu tip lug'atlarni yaratishda lug'at maqolalari muhim ahamiyatga ega. Tarjima lug'atlaridagi ma'lumotlar izohli lug'atda aks etmaydi yoki teskarisi;

3) *lug'at ma'lumotlarini joylashtirishning umumiyligi tamoyili*: tezaurus yoki alfavitli lug'at;

4) *bir tilli yoki ko'p tilli lug'atlar*;

5) *terminni talaffuz qilinishi bo'yicha ma'lumot*: tilshunoslikka oid lug'atlarda bu tamoyil juda muhim. Chunki baynalminal so'zlar tilda ko'p ularni talaffuz shakliga ham amal qilish lozim;

¹ Волкова И.А. Введение в компьютерную лингвистику. Практические аспекты создания лингвистических процессоров. (Учебное пособие для студентов факультета ВМиК МГУ). – М., 2006. – С. 21.

6) *manba-til xususida ma'lumot*: bu tamoyilga amal qilish terminning qaysi manbadan, yoki qaysi tilda qo'llanishini aniqlash uchun zarur. Shunda terminning ma'nosini tushunish yengil kechadi;

7) *grammatik ma'lumot*: bunda asosan, terminning qaysi so'z turkumiga mansubligi, uning yasalishi, struktur tuzilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi;

8) *tarjima*: tarjima lug'atlari uchun zarur, izohli lug'atlarning amaliy jihatini oshiradi;

9) *izohlash*;

10) *ko'rgazmalilik va misollar*: lug'atning tipiga qarab ushbu tamoyil amal qiladi;

11) *terminning biror soha, maktabga taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi izoh*: lug'at tipiga qarab lug'at maqolalarining tuzilishi ishlab chiqiladi;

12) *kesishgan havolalar*: terminlarning paradigmatic va sintagmatik xususiyatini tushunish uchun qo'llaniladi. Bunda *qarang.*, *so'z.ayn.*, *qiyos*. kabi markerlar qo'llaniladi;

13) *adabiyotga havola*;

14) *sitata*;

15) *ko'rsatkich*¹.

Terminologik lug'atda lug'at maqolasining tarkibiy qismlarini tahlil qilsangiz, oddiy lug'atdan ko'ra bunday lug'atlar yanada ko'proq mehnat talab qilishi mumkinligini sezasiz.

O'tgan asrning 50-90-yillarida nashr etilgan risola va qo'llanmalarda, yo'riqnomalarda terminografik faoliyat, ya'ni terminologik lug'atlar tuzish ishi bir necha bosqichdan iborat bo'lishi, har bir bosqichda qanday ishlar amalga oshirilishi kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beriladi. Lug'atshunos S.Akobirov o'z davrida Moskvadagi Texnika terminologiyasi komitetining «Ilmiy-texnikaviy

¹ Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. - С. 55.13-14.

terminologiyani tartibga solish bo'yicha ishlovchilar uchun eslatma xat»idan kelib chiqib, terminologik tadqiqotlar olib borish va terminologik lug'at tuzish ishlari 6 bosqichda olib borilishini tavsiya etadi¹. S.V.Grinyov esa bu bosqichlarni 4 ta qilib belgilaydi².

Birinchi bosqich – bo'lajak lug'atning tipi va uning asosiy xarakteristikalari – tavsiflanishi kerak bo'lgan leksik qatlam, lug'atning maqsad va vazifasi, lug'atdan foydalanuvchilar doirasi, leksikani qamrab olish va tavsiflash jihatlari, lug'atning taxminiy hajmi, lug'atga jalb etiladigan maxsus leksikani tanlab olish mezonlari, lug'at maqolalarining, va umuman, lug'atning tuzilishi va boshqalar belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqich – leksik material (so'z va so'z birikmalari) to'planadi va so'zlik – lug'atda tavsiflanishi kerak bo'lgan maxsus lug'aviy birliklar ro'yxati tuziladi. Maxsus lug'aviy birliklar lug'at tuzuvchilar tomonidan avvaldan belgilab qo'yilgan manbalardan maqbul, rasmiy mezonlarga mos holda tanlab olinadi. Aksariyat hollarda so'zlikka faqat terminlar, ya'ni maxsus tilda maxsus tushunchalarni aniq aks ettirish, maxsus predmetlarni ifodalash uchun yaratiladigan so'z va so'z birikmalari tanlab olinadi, lekin ba'zan so'zlikka nomenklaturaviy birliklar – yakka tushunchalar yoki konkret ommaviy mahsulotlar nomlari, shartli nomlar kiritiladi. Maxsus leksikani tanlab olishda har bir lug'aviy birlik alohida kartochkaga ko'chirib yoziladi va ular alifbo tartibida joylashtiriladi.

Uchinchi bosqich – so'zlikka kirgan maxsus leksika bevosita tahlil va tavsif qilinadi. Lug'atning maqsad-vazifasiga ko'ra, tanlab olingan lug'aviy birliklar o'rtasida sinonimik, ierarxik va assotsiativ munosabatlar aniqlanadi va qayd etiladi. Ularga ta'rif beriladi yoki chet til materiallaridan ekvivalent tanlanadi, zarur o'rinlarda tavsiflanayotgan lug'aviy birliklar Grammatik xarakteristika bilan ta'minlanadi.

¹ Акобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968. – Б. 13-14.

² Гринёв С.В. Курсатилган асар. – Б.11-13.

Maqolalar tarkibi va strukturasi belgilanadi, asosiy va qo'shmcha ko'rsatkichlar shakllantiriladi.

To'rtinchi bosqich – terminografik ishlarning natijalari konkret lug'atlar ko'rinishida shakllanadi, tayyorlangan material tahrir qilinadi, lug'atning ayrim maqolalari orasidagi o'zaro havolalar aniqlanib tekshirib chiqiladi, kirish qismi tayyorlanadi, lug'atni nashrga topshirish bilan bog'liq ishlar bajariladi.

Misol tariqasida O.Usmonov va R.Doniyorov tomonidan 1979-yili «O'zbekiston» nashriyotida tuzatilgan va to'ldirilgan holda ikkinchi marta nashr qilingan «Ruscha internatsional so'zlar izohli lug'ati»ni tahlil qilib ko'raylik. Mualliflar ta'kidlaganidek, lug'at o'zbek tilining keng ma'nodagi izohli lug'ati bo'lmay, uning vazifasiga faqat rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarni, shuningdek, o'zbekcha gazeta va jurnallarda, ilmiy-ommabop va ijtimoiy-siyosiy asarlarda uchraydigan Ruscha-baynalminal va ilmiy-publisistik terminlarnigina o'z ichiga olgan va ularga o'zbek tilida o'zlashtirilishi asosida izoh berilgan, izohlanayotgan so'zlarning etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida ham ba'zi ma'lumotlar keltirilgan.

Lug'atdan joy olgan so'z va terminlar rus tilidan va rus tili orqali qadimgi yunon, lotin hamda Yevropa va qisman Sharq xalqlari tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar va terminlar hisoblanadi. Bu so'z va terminlarning bir qismi sof ruscha o'zlashmalar bo'lib, qolgan qismi esa xalqaro, baynalminal yoki internatsional xarakterga ega bo'lgan. Mazkur lug'at mutaxassislarga emas, balki keng o'quvchilar ommasiga, xususan, ziyolilar va talabalarga mo'ljallangan edi. Lug'atning tuzilish tartibi tubandagicha ko'rinishni hosil qilgan:

1. Bosh so'zlarning barcha so'z va terminlar alifbe tartibida berilgan va ular yirik qora harflar bilan terilib, har qaysisi xatboshidan boshlangan.

2. So‘z yoki termin ko‘p ma’noli bo‘lsa, u holda ma’nolarning har biri arab raqamlari bilan ko‘rsatilgan va ular o‘zaro nuqta bilan ajratilgan.

3. Bosh so‘z yoki termin boshqa so‘z bilan qo‘shilib ishlatilganida, bosh so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yilib, ketidan tarkibida o‘sha so‘z yoxud termin kelgan so‘z birikmasi berilgan.

4. Tarkibida bosh so‘z ishlatilgan turg‘un so‘z birikmali, tarkibli terminlar ham misol tarzida berilgan. Lug‘atda ular romba ishorasi bilan ajratilib, qora kursiv bilan berilgan: **absolyut... absolyut namlik** va h.k.

5. Biologik jinsn anglatuvchi so‘zlarning har ikki shakli ham lug‘atga kiritilgan: *laborant – laborantka, stenografist – stenografistka* va h.k.

6. Mexanizatsiya, dezinfeksiya, koordinatsiya kabi so‘zlar mexanizatsiyalash, dezinfeksiyalash, koordinatsiyalash singari o‘zbekcha shakllari bilan yonma-yon berilgan.

7. VUZ, ZAGS, DOT, DZOT, NEP, RADAR singari qisqartmalar o‘zbek tilida mustaqil, yaxlit so‘z yoki termin sifatida lug‘atdan o‘rin olgan.

8. Omonimlar lug‘atda alohida-alohida berilgan, bir-biridan rim raqami bilan ajratilgan.

9. Omoformlar ham rim raqamlari bilan ajratilib, alohida-alohida talqin qilingan.

10. Sinonimlar mutlaq ma’nosiga ega bo‘lsa, u holda izoh eng faol qo‘llanadigan sinonimga berilib, kam ishlatiladigan yoki eskirgan ma’nodoshi so‘z.*ayn. o‘zi.* ishorasi orqali unga havola qilingan: Lokator. Radiolokator so‘z.*ayn.o‘zi* va h.k.

11. Antonim so‘z yoki terminlar mustaqil tarzda berilgan bo‘lsa-da, lekin ular bir-biriga havola qilinmaydi. Mabodo bunday xavola antonim so‘zlardan birining yoki har ikkisining ma’nosini ochishga, izohlashga yordam bersa, unday holatda ular bir-biriga havola qilingan: **mikroskopik...; aksi –makroskopik** va b.

12. O'zbek ilmiy terminlogiyasiga mansub bo'lgan qo'shma va murakkab qisqartma so'zlarning tarkibiy qismlari lug'atda bosh so'z tariqasida berilgan: **avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, mikro-, moto-, radio-, tele-, ultra-, foto-** va shu kabi.

13. Lug'atda keltirilgan so'zlarga o'rni bilan *fiz.*, *tex.*, *mat.*, *geol.*, *astr.*, *med.*, *farm.* singari belgilar qo'yilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur lug'atdan o'rin olgan va izohlangan baynalminal so'z yoki terminlarning muayyan adadi.

Tarixda qo'llangan terminlar izohiga bag'ishlab mamlakatimizda nisbatan katta yoki kichik hajmdagi lug'atlar nashr qilindi. Shunday lug'atlar sirasiga X.Yu.Bekmuhamedovning «Tarix terminlari izohli lug'ati» (Pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent, 1978), X.Hasanovning «Geografik terminlar lug'ati» (Toshkent, 1978), X.Xomidiy, Sh.Abdullayev, S.Ibrohimovlarning «Adabiyotshunoslikning terminlari lug'ati» (Toshkent, 1983), A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» (Toshkent, 2002), M.Ismoilov, A.Sharopovlarning «Tarix atamalari lug'ati» (Toshkent, 2013), H.Dadaboyevning «Tarixiy harbiy terminlar lug'ati» (Toshkent, 2007), G'.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan «Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati» (Toshkent), F.Bakirovning «Yuridik terminlar lug'ati» (Toshkent, 1959), «Yuridik atamalar va iboralar lug'ati» (Toshkent, 1993), D.Xudayberganovning «Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati» (Toshkent, 2015), Z.Muqimov va O.Tursunovalar tomonidan tuzilgan «O'zbek davlatchiligidagi qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar» (Samarqand, 2007) singari asarlarni kiritish o'zini oqlaydi.

«Yo'1 ishi sohasidagi atamalar¹» lug'atidagi terminlarni yo'lga xoslik darajasiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

¹ Йўл иши соҳасидаги атамалар. Дорожная терминология. (Ю.Т.Абдурахмонов ва бошқалар.) –Тошкент, 1990. – 96 б.; Темир йўл атамаларининг русча-ўзбекча киска лугати (И.Ибрагимов ва бошқалар.) – Тошкент, “Ўқитувчи” 1993. – 67 б.

a) faqat yo'lga xos terminlar: *avtomobil yo'li, asfalt-beton, asfalt yotqizgich, bordyur, yo'l qoplamasи, yo'l poyi* kabilar; b) yo'lga ham, boshqa sohalarga ham xos bo'lgan terminlar: *polimerlar, ohak kukuni, xlорli kalsiy, portlandsement* kabilar; v) yo'lga xos bo'lмаган terminlar: *uchish maydoni, aeroport, gidroaerodrom (suv havo uyi), qo'nalg'a* kabilar. Nazarimizda, so'nggi turdagи terminlar yo'lsozlik terminosistemasiغا daxldor emas.

Mazkur lug'at orqali rus tilidan o'zbek tiliga uch xil yo'l bilan termin o'zlashtirilganligini aniqlash mumkin. Bular: 1. Aynan olingan terminlar: *anker, domkrat, kompressor, koper, koush kyuvet* kabilar. 2. Kalkalash asosida o'zlashtirilgan terminlar: *блоки тяжелажные – takelaj bloklari, вибропадя – tebratgich badya, дизель молот – dizel bolg'a, иглофильтр – ignali filt* kabilar. 3. O'zbek tilida muqobili topilgan terminlar: *бордюр – hoshiya, земляное полотно – yo'l poyi, тротуар – yo'lka, буна – to'siq, лоток – nov, насып – ko'tarma* kabilar.

Lug'atda terminlarning berilishida ayrim nuqsonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, lug'atda ko'p hollarda terminning o'zbekcha muqobilini ko'rsatish emas, balki terminning ma'nosini tushuntirib berishga intilish hollari kuzatiladi. Nazarimizda, birikma terminlarni imkon qadar qisqartirib, termin shakliga keltirish mumkin edi. Masalan, *idora, korxona ixtiyoridagi avtomobil yo'li* (*автомобильная дорога ведомственная*) terminini *korxona yo'li*; *kolxoз,sovxoз yoki korxonalar ichidagi avtomobil yo'llari* (*автомобильная дорога внутрихозяйственная*) terminini *xo'jalik yo'li, bir qator aylanma egri chiziqdan iborat bo'lgan egrilik* (*кривая коробовая*) terminini *aylana tarzida berish* mumkin. Ikkinchidan, o'zlashgan har qanday terminni o'zbekchalishtirishga urinish, unga o'zbekcha muqobil qidirish sun'iylikni keltirib chiqaradi. Masalan, lug'atda *бордюр* termini o'rniga *hoshiya*; *брюки* termini o'rniga *qosh so'zlarining* berilishi o'zini oqlamaydi. Bizningcha, rus tilidan

o'zlashgan бордюр, бровки terminlarining o'zini qoldirish maqsadga muvofiq¹.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi lug'at maqolalarini tahlil qilib, terminologik lug'atlarning tarkibini aniqlang. Masalan, Bir tilli lug'atlar – ko'p tilli lug'atlar; Sohaga oid lug'at – sohalararo lug'at.

BANDLIK XIZMATI - aholini ish bilan ta'minlash davlat xizmati - mamlakat miqyosida aholini ish bilan ta'minlash siyosatini amalga oshirish va fuqarolarga tegishli kafolatlarni ta'minlab berish uchun tashkil etilgan davlat xizmati. O'zbekistonda 1992-yildan O'zRning «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuni (13.1.1992) asosida tashkil etilgan. B.x. ishsizlikning oldini olish va ishsizlik oqibatlaridan ijtimoiy muhofaza qilish maqsadlarida respublika miqyosida va mahalliy darajada ish bilan ta'minlash dasturlarini amalga oshiradi, jumladan, mehnat bozoridagi holatni tahlil hamda taxmin qiladi, tegishli axborot tarqatilishini ta'minlaydi; bo'sh ish joylarini va ishga joylashtirish masalasida murojaat qilgan fuqarolarning hisobini yuritadi, ularni ishga joylashtiradi, ishlamayotgan fuqarolarni kasbga o'rgatish, qayta o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etadi, ishsizlarni ro'yxatga olishni ta'minlaydi, ularga yordam ko'rsatadi va boshqa bandlik xizmati faoliyatini pul bilan ta'minlash uchun ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Davlat fondi tashkil etilgan. Bu fond mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, kooperativlar va b. ish beruvchilar mehnatga haq to'lash fondining 3%dan kam bo'limgan miqdorda majburiy ajratmalari, hukumat va mahalliy boshqaruvi organlari dotatsiyalari, ixtiyoriy xayriyalar va b.dan tashkil topaldi.

¹ Валиев Т.К. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талкини. Фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. -Самарқанд, - 2018. 15 б.

Mamlakat miqyosida B. x. tizimi O'zR Mehnat vazirligi va uning hududiy organlarini hamda mahalliy bandlik markazlari - mehnat birjalarini qamraydi (q. *Mehnat birjası*). Dilfuza Rahimova.

JARROH BALIQLAR (Acanthuridae) - okunsimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi. Tanasi yon tomondan yassilashgan, mayda tangachalar bilan qoplangan, uz. 15-60 sm. dumining ikki yonida harakatchan o'tkir pixi bo'ladi. Pixlar teridagi chuqurchaga kirib turadi, xavf tug'ilganida bir zumda to'g'rilanib chiqadi. 300 ga yaqin turi tropik dengizlarda tarqalgan. Rangi chiroyli, korall riflari va suvosti qoyalari orasida uchraydi. Uvildirig'i suvda qalqib turadi. Chavoqlari plankton bilan, voyaga yetgan baliqlar suv o'tlari bilan oziqlanadi. Suzgichlardagi tikanlari va dumidagi pixlari sanchilganida og'ritadi.

JARQALDIRG'OChLAR (Apodes) - uzunqanoltilar turkumiga mansub qushlarning kenja turkumi. 86 turi bor. Chekka shimol bilan chet janubdan boshqa hamma joyda, tekislik va tog' yalangliklarida uchraydi. Daraxt kovaklariga, uylarga, tik qoyalardagi yoriqlar va b. joylarga uya soladi. Qora J. Hindiston va Afrikada qishlaydi. O'zbekistonda 5 turi yashaydi, shundan 3 turi uya quradi. Qora J. martning o'rtalarida uchib keladi, 2-3 hafta o'tgandan keyin uya qurishga kirishadi. 4 tagacha tuxum qo'yadi. 11-16 kunda tuxumdan jo'ja chiqadi. Jo'jası 38-40 kunda uchirma bo'ladi. Ob-havo noqulay yillari uyada 56 kungacha qolib ketadi. J. hasharotlar, o'rgimchaklar bilan oziqlanadi. Hashoratlarni qirib, xo'jalikka foyda keltiradi.

2-topshiriq. A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»dan terminologiya sohasiga oid terminlarni 20 tasini tanlang va quyidagi jadvalda aks ettiring. Lug'atdagi termin va uning lug'at maqolasini yozish haqidagi mulohazalariningizni keltiring.

Terminlar	Izohi	Mulohazalar uchun

3-topshiriq. X.Yu.Bekmuhamedovning «Tarix terminlari izohli lug‘ati» (Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining studentlari va o‘rta maktab tarix o‘qituvchilari uchun. Toshkent, 1978), M.Ismoilov, A.Sharopovlarnig «Tarix atamalari lug‘ati» (Toshkent, 2013), H.Dadaboyevning «Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati» (Toshkent, 2007) dan 10 ta bir xil terminni tanlang va lug‘at maqolalarini tahlil qiling. Savollarga javob bering.

Termin	H.Dadaboyev lug‘ati	X.Yu.Bekmuhamedov lug‘ati	M.Ismoilov, A.Sharopov lug‘ati	Izoh

1. Tanlagan terminning barcha mualliflarda berilgan lug‘at maqolalari bir xilmi? _____
2. Ularning farqli jihatlarini sanang. _____
3. Qaysi lug‘at maqolasining izohi tushunarli? _____

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Lug‘at maqolalarini ierarxik tarzda tartiblang. Lug‘atlar turli tipda shakllantiriladi. Ayrim lug‘atlarda izoh, misol, illyustratsiyalar beriladi. Ayrim lug‘atlar izoh bilan chegaralanadi. Ayrim lug‘atlar bir tizimda ishlab chiqiladi. Masalan, 1) vokabula – grammatik ko‘rsatkich – stilistik ko‘rsatkich – mazmuni – frazeologiya; 2) grammatik ko‘rsatkich – kategorial tavsifi (so‘z turkumiga tegishliligi); 3) mazmuni – mazmun raqami (qo‘shimcha grammatik ko‘rsatkichi+qo‘shimcha stilistik ko‘rsatkichi) – izohi va boshqalar.

Quyidagi lug‘atlarning tizimini qoliplashtiring:

X.Hasanovning «Geografik terminlar lug‘ati» (Toshkent, 1978);

A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati» (Toshkent, 2002); M.Ismoilov, A.Sharopovlarning «Tarix atamalari lug‘ati» (Toshkent, 2013);

H.Dadaboyevning «Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati» (Toshkent, 2007);

G‘.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan «Ruscha – o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati» (Toshkent, 2002).

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Terminlogiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning ma’no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug‘atlarning qanday roli bor?
7. O‘tgan asrda o‘zbek tilida qanday fan sohalari bo‘yicha terminologik lug‘atlar yaratildi?
8. Istiqlol davrida terminologik lug‘atlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Tarix terminlari lug‘atlari nima uchun zarur?
10. Terminologik lug‘at bilan etimologik lug‘at maqolasini yozishda qanday farqli jihatlar mavjud?
11. An’anaviy terminologik lug‘at va elektron terminologik lug‘atni yaratishdagi o‘ziga xosliklarni sanab o‘ting.

3-topshiriq. Terminologik lug‘at yaratuvchi mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni keltiring. O‘zingiz zarur deb hisoblagan yangi talablar ishlab chiqishga harakat qiling.

4-topshiriq. Yangi terminologik lug‘at yaratish uchun lug‘at maqolalarini keltiring. Lug‘at maqolasi jadvalda berilgan tartibda bo‘lishi shart.

Lug‘at maqolasi zonalari	Izohi
Leksik kirish (izoh)	
Ta’riflash	
Misollar	
Manba	

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan falsafa faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug‘at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzularda esse yozing.

«Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli», «Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni», «Terminologik leksika va umumadabiy leksika», «Terminlarning ma’no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug‘atlarning ahamiyati».

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo‘lmagan prezentatsiya yarating.

Adabiyotlar:

- Аҳмедов F., Бектемиров X. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати. - Тошкент: Адолат, 2002.

2. Бекмуҳамедов Х.Ю. Тарих терминлари изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
3. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. - Тошкент, 2007.
4. Исломов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати. - Тошкент, Академнашр, 2013.
5. Муқимов З., Турсунова О. Ўзбек давлатчилигига қўлланган тарихий-ҳуқуқий атамалар. - Самарқанд 2007.
6. Усмон О., Дониёров. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон, 1972.
7. Худайберганова Д. Лингвокультурология терминларининг кисқача изоҳли луғати. - Тошкент, 2015.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Фан, 2012.

5.2. Terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish masalasi

Reja:

1. Terminologiyani tartibga solish.
2. Standartlashtirish masalasi.

Tayanch tushunchalar: termin, standart, terminotizim, terminologik kombinatsiyalar, terminlarning noaniqligi va omonimligi, xalqaro, davlat, individual kompaniyalar, firma terminologik standart darajalari.

Bilim sohalari obyektiv bo‘lganligi sababli, termin va terminologik tizimlar ma’lum bir tilga yoki hatto ma’lum bir ilmiy maktablarga «bog‘langan» bo‘lib, terminologiyaning muhim vazifasi terminlarni standartlashtirish va birlashtirish, shuningdek, ularni dunyoning turli tillariga birma-bir tarjima qilishdir. Terminologik tizimlarning birlashishi terminologik standartlardir. Ammo dunyodagi terminologik tizimlarni tashkil qilish uchun hozir 20 mingdan ortiq standartlar amal

qiladi. Bundan tashqari, turli darajadagi standartlar: xalqaro, davlat va hatto individual kompaniyalar va firma terminologik darajalari mavjud. Shu sababli terminlar va terminologik tizimlarni birlashtirish, standartlashtirish vazifasi davlat va mahalliy til siyosatining majburiy tarkibiy qismi bo'lishi kerak, chunki terminlarning noaniqligi va omonimligi, yaqin terminologik tizimlar o'rtasida muvofiqlik yo'qligi, talaffuz qilinishi qiyin bo'lgan va dissonant qisqartirishlar bilan terminologik kombinatsiyalarning yaratilishi ilmiy va texnik taraqqiyot uchun sezilarli to'siq sanaladi.

Terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish masalasi terminologik tizimlarda har doim ham dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Yangi paydo bo'layotgan mahsulotlar, ilm-fan va texnika yutuqlari, ta'lim, boshqaruv, xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ulardagи konseptual tizimlarning kengayib borishi yangi va ilmiy asosga ega bo'lgan terminologik tasniflash va standartlashtirish masalasini o'rta ga tashladi.

O'zbek tili terminologik tizimlarini tartibga solish yuzasidan bir qator tadqiqotlar e'lon qilingan. Xususan, R.Doniyorov, N.Mahkamov, A.Madvaliyev, N.Qosimov, Z.Mirahmedovalarning terminologik tizimlardagi sinonimlik, variantdorlik masalalari, ularning qo'llanishini tartibga solish bo'yicha e'lon qilingan ishlari shular jumlasidandir. Terminologiyani tartibga solish ishlari xorijda *terminologiyani standartlashtirish* termini ostida yurtiladi. Ushbu maqolada terminologiyani standartlashtirish bo'yicha xorijda e'lon qilingan ishlar xususida so'z yurtiladi¹.

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darjasini shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir². Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning

¹Хайдаров Ё. Терминологияни стандартлаштиришга доир // ЎТА, 2012, 3-сон.

² Қаранг: Нурмонов А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Шарқ, 2002. –Б. 62-63.

ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat'iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda «qat'iy ilmiy terminologiya» tushunchasini biror - bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Terminlarning «...aniqligi va qat'iy lashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzlusiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi¹». Demak, terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Zamonaviy ilm-fan, savdo yoki sanoat sohasi bo'lsin, ularning hammasida xalqaro aloqalar keng rivojlanib, sohaning ertasi butun dunyodagi mutaxassislarning o'zaro hamkorligida ko'rilmoxda. Bu hamkorlik sohaga oid tushunchalarning barcha mutaxassislar uchun tushunarli ifodalanishini taqozo qiladi. Mazkur masala xorijda o'tgan asrdayoq ko'tarilib bo'lib, International Standardization Organization (ISO) - Xalqaro standartlashtirish tashkiloti aynan shu maqsadda tashkil etilgan. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International

¹ Даниленко В.П.

Standartization Organization ISO)ga 1946-yilda 25 davlatning standartlashtirish bo'yicha tashkilotlari tomonidan asos solingan.

Syu Ellen Rayt «Terminologiyani standartlashtirish. Boshqarish strategiyalari» maqolasida standartlashtirishni tashkillashtirish strategiyalari, bir tilli terminologiyani boshqarish, standartlashtirishga oid cheklowlar kabi masalalarga to'xtaladi. Olima standartlashtirishni tashkillashtirishda soha mutaxassislari, axborot texnologiyasi bo'yicha mutaxassislar hamda tajribali terminologlarning o'zaro muloqoti natijasi o'laroq yuzaga kelgan terminologik mahsulot, shuningdek, bu mahsulotning onlayn tarzda turli foydalanuvchilarning e'tiboriga havola etilishi, shu asosda foydalanuvchilarning munosabatini bilish zamonaviy, ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratishga imkon beradi, deb hisoblaydi.

Shon Shradening «Xalqaro standartlashtirishda terminologiyani boshqarish» maqolasida plastmassa sanoati sohasi bo'yicha Xalqaro standartlashtirish tashkilotining tajribasi xususida fikr yuritiladi. Richard Strexlouning «ISO 10241: Terminologiya standartlarini tayyorlash va rejalashtirish» maqolasida Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ISO 10241 kompyuter dasturi haqida so'z boradi. Bu dastur turli soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, ularga o'z sohalari terminologiyasini standartlashtirishda amaliy yordamchi vazifasini o'taydi. Olim terminologiya standartlarini yozish sistem yondashuvni talab etadigan uch bosqichdan iborat ekanini aytadi. Uning fikricha, avvalo, standart qanday yondashuv asosida yozilishini rejalashtirish lozim. Bu rejalashtirish, o'z navbatida, standartlashtirishga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilish, standartlashtirish kimlarga mo'ljallanayotganini aniqlab olish, qaysi sohaning tushunchalari standartlashtirilayotganini qatiy belgilab olish, manba sifatida qo'llanadigan materiallarni tahlil qilish, sohaga oid tushunchalarni ro'yxat qilib, strukturalashtirish, tilni tanlash, ish rejasi jadvalini tuzish kabi qadamlardan tashkil topishini aytadi. Standartlashtirishga bo'lgan

ehtiyojni tahlil qilish uchun ayni soha bo'yicha ish olib borayotgan guruhlarning o'zaro muloqotini kuzatish kerakligini ta'kidlaydi. Agar bu muloqot ma'lum darajada cheklangan bo'lsa, biror terminning ma'nosi ko'pchilikka tushunarsiz bo'lib, u haqda yig'ilishda ko'p so'ralsa, ayrim terminlarning ma'nosini asoslash yoki ma'nosi haqida bahslashish uchun ko'p vaqt ketsa, terminologiyani standartlashtirish zarurati mavjuddir, deb xulosa qilish mumkin bo'ladi.

Standartni yozish manba yig'ish, terminlarni tanlash, tushunchalarni strukturalashtirish va ta'rif yozishdan iborat bo'ladi. Tushunchalar tanlab olinib, tasniflangach, terminlar ro'yxati tuzilib, tushunchalar shu sohaga tegishliligi yoki boshqa sohadan o'zlashtirilganligiga ko'ra yoki umumxalq tilidan olinganligiga ko'ra tasniflanishi lozim. Terminlarni keyingi ta'riflanishi va ajratib olinishi shu tasnifga bog'liq bo'ladi.

Terminlarga ta'rif yozishda ma'lum qoidalarga rioya qilinishi lozim. ISO 10241 quyidagi qoidalarni taklif etadi:

Ta'rifni termin bilan bir xil grammatic shaklga ega bo'lgan so'z bilan boshlash.

Termin anglanayotgan tushuncha mansub bo'lgan obyektlar sinfini keltirish va muhim farqlovchi xususiyatlarni berish.

Ta'rifda terminni qayta ishlatmaslik.

Ta'rifni «termin» degan so'z bilan boshlamaslik.

Terminni tushuntirish uchun vbral tushuntirish bilan birga chizmalardan foydalanish.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining terminologiyasini standartlashtirish bo'yicha ishlab chiqqan qoidalariga ko'ra, terminologik lug'atlarda ilmiy terminga izoh berilayotganda izohlanayotgan termin aynan takrorlanmasligi kerak. O'zbek tilidagi ayrim terminolgik lug'atlarda bu qoidaga har doim ham amal qilmaslik holatlari mavjud. Masalan, 1994-yili nashr etilgan «Tibbiyat qomusiy lug'ati»da berilgan *qorin pardasi, seroz pardas, homila pardasi*

terminlarining izohlarida ularni tushuntirish uchun yana aynan parda so'zi ishlatilgan. «Seroz parda - tana bo'shliqlarini o'rab turadigan parda...», «homila pardasi - xorion va suv pardadan iborat; xorion va amnion pardalar homilaga, desidual parda esa onaga xos». Ko'rinib turibdiki, *parda* so'zi ishlatilgan har uchala termin ta'rifida ham ilmiy tushunchalar bilan tushuntirilmasdan aynan takrorlangan. *Parda* so'zi alohida termin sifatida izohlangan bo'lishi mumkin degan fikrda lug'atning «P» harfi bilan boshlanuvchi terminlar berilgan qismiga ko'z tashlansa, bu qismda unday termin berilmaganiga guvoh bo'lasiz.

Terminologik lug'atlarda, umuman, har qanday izohli lug'atda biror leksik birlikni izohlashda qo'llanilgan so'zlarning barchasi ayni lug'atda alohida izohga ega bo'lishi lozimligi ma'lum. Biroq yuqorida nomi zikr etilgan tibbiyot lug'atida *homila pardasi* termini ta'rifida qo'llangan *xorion* termini lug'atning «X» harfi bilan boshlanuvchi terminlar berilgan qismida mavjud emas. Yana bir misol, ana shu lug'atda *seroz parda* atributiv birikmali termini izohida ishlatilgan *chambar ichak* termini alohida tarzda lug'atning «Ch» harfi bilan boshlanuvchi terminlar berilgan qismidan topilmaydi. Shu kabi *ko'z ichi bosimi* termini izohida ishlatilgan *ko'z soqqasi* terminiga alohida lug'at birligi sifatida izoh berilmagan. *Ko'z ichi bosimi* nima ekanini tushunib olmoqchi bo'lgan kishi bu termin izohini o'qib, ikkinchi bir terminga duch keladi, o'sha ikkinchi termin esa lug'atda berilmagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, lug'atda izohi berilgan terminning ma'nosi ham o'quvchi to'liq tushunilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tushunchalar izohlanadigan maxsus lug'atlarda bunday holatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu holatlar sohani o'rganuvchilar, o'quvchilar tomonidan terminlar ma'nosini tushunishga, ularni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, shu bilan birga, terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish ishlarini murakkabllashtiradi.

Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiyl bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan:

terminlarning ko‘p ma’noliligi; terminlar sinonimiysi; ma’lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo‘lgan tushuncha mohiyatiga uyg‘un bo‘lmasligi; terminning ko‘p komponentlardan iborat bo‘lishi va natijada, uni qo‘llashdagi noqulaylik; termin talaffuzining noqulayligi (bunday terminlar ikki sababga ko‘ra vujudga keladi: 1) asosiy terminni yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy terminni o‘zlashtirishda unga jiddiy e’tibor bilan qarab, tanqidiy yondashilmaydi); terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to‘ldirib tashlanishi; termin yaratilishida u anglatishi lozim bo‘lgan tushuncha mohiyati bilan o‘zaro batartiblik (sistemalilik)ning yetishmasligi kabilardir.

To‘g‘ri, hech qanday til faqat o‘z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko‘rsatadiki, dunyoda sof tilning o‘zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun’iy ravishda tilga olib kirish har doim o‘zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko‘proq o‘z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo‘lgan tushuncha mohiyati bilan termin o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e’tiborni qaratish lozim. Ko‘p hollarda ba’zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste’molda mavjud bo‘lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o‘ta muhim va ahamiyatli bo‘lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi¹.

Ko‘rsatilgan bu kamchiliklarning ayrimlari o‘zbek terminologiyasida ham mavjuddir. Xususan, tilimizda ayni bir terminni birdan ortiq tushuncha uchun qo‘llash, bir tushunchani turli terminlar bilan atash, variantlilikning mavjudligi, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyatini to‘g‘ri aks

¹ Йўлдошев Б. Ўзбек терминологиясини тартибга солиш масалаларига доир. -

ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi terminlarning noqulayligiga sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi, xorijiy terminlarning keragidan ortiq darajada qo'llanishi, ayrim terminlarning yozilishidagi har xillik kabi terminologiyaning yetakchi tendensiyasiga zid keluvchi holatlar ko'plab uchraydi. O'zbek terminologiyasidagi bunday salbiy holatlarning mavjudligi sohaviy terminologiyalarni tartibga solish borasida hali ko'p ishlar qilinishi lozimligidan dalolat beradi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. *N.Maxmudovning "Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish" maqolasidan olingan parchani o'qing, qisqa konспект qiling.*

Muayyan bir xalqning konseptosferasidagi, ya'ni milliy olam manzarasidagi ana shunday bir konsept, jo'nroq qilib aytganda, bir tushuncha boshqa xalqning milliy olam manzarasiga o'tishi mumkin. Bu, albatta, u yoki bu darajadagi ehtiyoj natijasida yuz beradi. Masalan, bundan yuz ellik yillar ilgari ixtiro qilingan masofadan turib ovozli aloqani ta'minlaydigan maxsus asbobni bilmaydigan xalq yoki millatni topib bo'lmaydi, bu asbob dunyoning barcha burchaklariga, qayerda ancha oldin – qayerda nisbatan keyin, kirib borib bo'lgan. Ixtiro qilingan paytda "telefon" deb nomlangan bu asbob bugun dunyoning deyarli barcha tillarida, shu jumladan, o'zbek tilida ham ayni nom bilan (aynan yoki muayyan fonetik variantlarda) ataladi, mazkur xorijiy nom dunyodagi aksariyat tillarga o'zi nomlagan predmetga bo'lgan ehtiyoj tufayli o'zlashib bo'lgan.

Bunday o'zlashtirish dunyo tillarining barchasida ob'ektiv holat bo'lib, uning mohiyati xorijiy olam manzarasidan tushuncha o'zlashtirishdan iborat. Tabiiyki, buning natijasida so'z oluvchi tildagi olamning konseptual manzarasi kengayadi [Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. –М.: Наука,

1988. –C.80]. Albatta, bunday o'zlashmalar olamning lisoniy manzarasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, ya'ni bu manzaradagi bo'shliq (lakuna)ni to'ldiradi [Шмелев А. Ложная тревога и подлинная беда // Отечественные записки. –2005. –N2 (23) / <http://www.strana-oz.ru/2005/2/lozhnaya-trevoga-i-podlinnaya-beda>], to'g'rirog'i, bunga muvofiq ravishda o'zlashtiruvchi tilning lisoniy manzarasi ham boyiydi. O'zbek tilidagi kompyuter texnikasi bilan bog'liq so'z(termin)larning aksariyati xorijiy o'zlashmalar (ingliz, rus tillaridan) ekanligini eslash va bu holatning tabiiy ekanligini e'tirof etish mumkin, ular tushuncha bilan birga so'z o'zlashtirishning tabiiy natijasidir. Bu xorijiy so'z o'zlashtirishning birinchi tipi bo'lib, o'zlashtiruvchi til sohiblari bunday usulda o'zlashtirilgan so'zlarga unchalik ham g'ashlik bilan qaramaydilar (garchi har qanday xorijiy so'zni nomaqbul holat deb qarovchilar ham yo'q bo'lmasa-da). Prof.B.A.Serebrennikov to'g'ri qayd etganidek, "tushuncha + so'z" tarzidagi o'zlashtirish eng kam ijtimoiy qarshilikka uchraydigan yo'l"dir, chunki bunda o'zlashtiruvchi tildagi konseptosfera ham, olamning lisoniy manzarasi ham kengayadi, ular o'rtasida simmetriya voqelanadi [Серебренников Б.А. Кўрсатилган асар, 80-бет].

Xorijiy tushuncha o'zlashtirilar ekan, u bilan birga bu tushunchani ifodalovchi xorijiy so'z o'zlashtirilmasdan, bu tushuncha uchun o'zlashtiriluvchi tilning o'z so'zi tanlanishi yoki yangi so'z yasalishi (kalka) ham mumkin. Masalan, ruscha "predprinimatel" tushunchasi o'zlashtirilar ekan, uni nomlash uchun o'zbekcha "tadbirkor" so'zi tanlangan va bu so'z o'zbek tilining faol lug'atidan joy olgan. Yoki "сотовая связь" tushunchasini o'zlashtirishda mazkur ruscha birlik o'zbek tiliga kalkalash yo'li bilan olingan, ya'ni o'zbek tilida "uyali aloqa" tarzidagi nominativ birlik yasalgan. Albatta, tushuncha o'zlashtirishning bu ko'rinishida ham olamning konseptual manzarasi bilan bir qatorda o'zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasi ham

boyiydi, ya'ni o'zlashtiruvchi tildagi muayyan so'z yangi ma'no kasb etadi yoki yangi birlik paydo bo'ladi.

O'zlashtiruvchi tilda mavjud bo'lgan tushunchani nomlash uchun boshqa tildan so'z olish so'z o'zlashtirishning yana bir alohida, ikkinchi tipidir. Masalan, "biror asar, ixtiro va sh.k.ni yaratuvchi" tushunchasi o'zbek milliy - madaniy olam manzarasida mavjud va bu tushuncha "muallif" so'zi bilan ilgaridan ifodalangan, ammo muayyan sub'yekativ majburiyat ostida xorijiy tilda mazkur tushunchani ifodalovchi "avtor" so'zi o'zbek tiliga o'zlashtirilgan (bugun o'zbek tilida eskidan mavjud "muallif" so'zi tiklanib, mazkur o'zlashma iste'moldan deyarli chiqib bo'ldi). Bu tipdagi so'z o'zlashtirishda oluvchi til sohiblari ongidagi olamning konseptual manzarasida o'zgarish sodir bo'lmaydi, o'zgarish faqat oluvchi tildagi olamning lisoniy manzarasigagina daxldor bo'ladi. Bu holat mazkur ikki tip so'z o'zlashtirish o'rtaqidagi prinsipial farqning mohiyatini belgilaydi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida ko'pincha mazkur ikki tipdagi o'zlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, ya'ni: tushuncha va uni ifodalaydigan so'zni birgalikda o'zlashtirish – "borrowing", mavjud bo'lgan "o'z" tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan so'z o'zlashtirish – "loaning" [Серебренников Б.А. Кўпсатилган асап, 81-бет]. Anglashilib turganiday, birinchi tipning real va pirovard maqsadi yangi tushunchani o'zlashtirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tipning real va pirovard maqsadi faqat xorijiy so'znigina o'zlashtirishdan iborat. Buning ustiga, birinchi tip so'z o'zlashtirish ob'yekтив asoslarga egaligini, ikkinchi tip esa ko'proq muayyan sub'yekтив sabablar bilan bog'liq ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Alovida qayd etish joizki, so'z o'zlashtirishning birinchi tipi konseptual olam mazarasining to'lib-to'liqib borishida hamda, til leksikasining taraqqiyotida etakchilik qiladi. Masalan, keyingi yillarda o'zbek kurashi dunyo sporti silsilasidan joy olib ulgurdi, jahonning turli

xalqlaridagi konseptual olam manzarasiga muayyan konsept sifatida kirib bordi, ana shu tariqa o'zbekcha "kurash" so'zi (uning qoidalariga daxldor "yonbosh", "halol", "chala", "g'irrom", "dakki", "to'xta" kabi terminlashib ulgurgan so'zlar bilan birga) turli tillardagi olamning lisoniy manzarasida muqimlashdi, albatta, ularning leksikasi boyidi. Yoki o'zbek tilida ruschadagi "kvas", "sutka" so'zлari ifodalaydigan tushunchalar alohida so'z bilan nomlanmagan, chunki bu tushunchalar o'zbek milliy-madaniy olam manzarasida mavjud emas edi. Mazkur tushunchalar va ularni ifodalovchi so'zlar o'zbek tiliga o'zlashgan, tabiiyki, o'zbekning konseptual va lisoniy manzarasini boyitgan.

O'zbek tili leksikasi taraqqiyoti tarixida, ayniqsa, o'tgan asrning 20 – 30-yillarida so'z o'zlashtirish jarayonlarida xilma-xil, notekis holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, o'sha davrda xalq hayotiga kirib kelgan turli yangiliklar va ular bilan bog'liq tushunchalarni nomlashda xorijiy so'zdan emas, balki faqat o'z so'zlardan yoki yangi so'z yasashdan foydalanish tamoyiliga asoslanilgan. Masalan, "velosiped", "traktor", "paroxod", "parovoz" tushunchalarini ifodalash uchun "jinarava" ("shaytonarava"), "o'tomoch", "suv ayg'iri", "otasharava" kabi o'zbekcha yasama birliklar hosil qilingan, tabiiyki, o'sha davrda xalqning texnika taraqqiyotining bu darajadagi mo'jizalarini tasavvurga sig'dirolmasligi, cheksiz hayrati natijasi o'laroq yuzaga kelgan mazkur so'zlar xalq tasavvurotining soddaligi natijasidir. Albatta, vaqtlar o'tishi bilan bu juda jo'n tasavvur mahsuli bo'lgan o'z so'zlardan voz kechilib, xorijiy ayni "velosiped", "traktor", "paroxod", "parovoz" so'zlarining o'zi o'zlashtirilgan. SHuningdek, o'sha davrlarda "vodorod" ("hidrojen") tushunchasini ifodalash uchun oldin arabcha "muvallidulmo", keyinroq o'zbekcha "suvchil", "suvtug'dirgich" so'zлari, "kislород" ("oksijen") tushunchasini ifodalash uchun oldin arabcha "muvallidulhamuza", keyinroq o'zbekcha "achchil", "achchiqtug'dirgich" so'zлari qo'llangan [Мадвалиев А.П Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Дисс.

...канд. филол. наук. –Т., 1986. –С.153, 157]. Ammo bu so‘zlarning birontasi ham o‘zbekcha olamning lisoniy manzarasidan muqim o‘rin olmadi, borib-borib, o‘zbek tili leksikasi mazkur tushuncha bilan birlikda o‘sha ruscha “kislorod” va “vodorod” so‘zlarini o‘zlashtirdi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Jamiyat tarixining jiddiy evrilishlari davrida xalqning milliy uyg‘onishi alohida kuch va sur’at kasb etishi tabiiy. Bunday paytlarda milliy ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat muammolari qatorida tilga, uning lug‘at boyligining sofligiga ayricha munosabat voqelanadi, bu benihoya maqbul bir holat. Ammo ko‘pincha bunday harakatlar me’yor, mo‘‘tadillik, xolislik kabi to‘g‘ri yo‘ldan chiqib, radikallikka tomon toyib ketadiki, bu tilning tabiatiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni to‘g‘ri baholay olmaslik, uning leksik taraqqiyotini ta’minlaydigan ichki va tashqi omillar nisbatini etarli belgilay bilmaslik bilan bog‘liqdir. Yaqin tariximizdagи bir-ikki misol bilan buni ko‘rsatish mumkin. Tegishli tushuncha bilan birgalikda tilimizga o‘zlashib bo‘lgan, o‘z so‘zimizga aylanib ketgan “institut”, “aeroport”, “arxiv”, “stadion”, “gazeta”, “jurnal”, “fakultet” kabi so‘zlarni xorijiy so‘z “tamg‘asi” bilan tildan chiqarib, ularning o‘rniga “oliygoh”, “tayyoragoh”, “hujjatasrovxonা”, “o‘yingoh”, “ro‘znama”, “majalla” (“oynoma”, “oybitik”), “kulliyot” kabi go‘yoki o‘zbekcha so‘zlarni tilga kiritishga urinish aniq bir ehtiyoj talabi bo‘limgani uchun bunday “islohotlar” tildan tashqarida qolib ketdi. Zukko tilshunos akademik A.Hojiyev benihoya to‘g‘ri qayd qilganidek, “bunday urinish o‘zbek tiliga, uning iste’molchisiga zarardan boshqa narsa keltirmaydi” [Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. –Т.: Фан, 1996. –Б.13].

Bugun mustaqil O‘zbekistonda tamomila yangi, erkin, huquqiy demokratik davlat barpo qilingan, unda ma’naviy-ma’rifiy va iqtisodiy islohotlar shiddat bilan rivoj topmoqda. Bu davlat tenglar ichida teng sifatida barcha sohalarda dunyo bilan bo‘ylashib turibdi. O‘zbek tilining lug‘at boyligi ham Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida shakllangan

xolis til siyosati bois muntazam takomil topib bormoqda. Mustaqillik davridagi o'zbek tili leksikasi va terminologiyasi taraqqiyotidagi faktlar shuni ko'rsatadiki, so'z o'zlashtirishning birinchi tipi benihoya keng tarqalgan. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy, ilg'or texnika va texnologiyalarga oid quyidagi kabi so'z va terminlar aynan xorijiy so'z o'zlashtirishning birinchi tipiga oiddir: *briefing, broker, barter, lizing, biznes, birja, grant, divident, defitsit, profitsit, investitsiya, investor, marketing, internet, onlayn, kompyuter, printer, server, fayl, sayt, veb-sayt, vinchester, reyting, fleshka, imij, litsey, kollej, gimnaziya, bakalavr, magistr, test, grant, multimedia, modernizatsya, diversifikatsiya, diagnostika* va h.k. Bunday xorijiy o'zlashmalar nafaqat tegishli sohalar doirasida, balki, umuman, keng omma nutqida ham bemalol va erkin qo'llanmoqda. Masalan: *Markaziy saylov komissiyasining kengaytirilgan onlayn majlisi bo'lib o'tdi* ("Xalq so'zi", 2015, 28 mart). *Esingizda bo'lsin, kitob.uz saytida savollarni oldindan yuborish imkoni mavjud* ("Ma'rifat", 2012, 18 aprel). *Eng yaxshi veb-saytlar aniqlandi* ("Ma'rifat", 2015, 21 yanvar). *O'zbekistonda kreditlash tizimi jahon reytingida yuqori pog'onaga ko'tarildi* ("Ishonch", 2014, 1 noyabr).

Shuni ham ta'kidlash lozimki, dunyoda fan va texnologiyalarning yuksalishiga hamohang ravishda jamiyatda umumiyligi taraqqiyot darajasining o'sib borishi va mamlakatlar o'rtasidagi turli sohadagi aloqalarning muntazamlashishi hamda mustahkamlanishi bilan jamiyat a'zolarining o'z tilidagi xorijiy o'zlashmaga nisbatan tamoman salbiy munosabati anchayin susayadi.

Xullas, bugun mustaqillik davri o'zbek tili leksikasi va terminologiyasida so'z o'zlashtirishning birinchi tipi ko'lam kasb qilganligini, faollashganligini, ikkinchi tipi esa sezilarli darajada passivlashganligini ta'kidlash mumkin. Bu holat o'zbek tili leksikasi va terminologiyasi rivojidagi o'ziga xos tamoyillardan biri ekanligini

e'tirof etmoq joizdir [Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2017. –Б. 119-123].

1) *Mazkur ma'lumotdagi hodisaga o'zingiz misollar toping.*

2) *Jadvalni to'ldiring.*

Termin	Ma'nosi	Izohi

3) *Ma'lumotlarga tahliliy yondashing. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar bilan taqqoslang.*

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. N.Maxmudovning «Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish» maqolasidan olingan parchani o'qing, «FSMU» metodi orqali tahlil qiling.

2-topshiriq. N.Maxmudovning «Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish» maqolasidan olingan parchadan olgan xulosalaringiz asosida «5 daqiqali esse» tuzing.

3-topshiriq. «Venn diagrammasi» metodi orqali terminologiyani standartlashtirish va terminologiyani tartibga solish tushunchalarinin tahlil qiling.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 1-jildidan astronomiya faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug'at yarating.

2-topshiriq. Quyidagi mavzu yuzasidan keysni bajaring: *Terminologiyani tartibga solish muammolari, ularning yechimlari.*

Ishning maqsadi: O'zbek terminologiyasini tartibga solish va standartlashtirish haqida ma'lumotlarni egallashi.

Masalaning qo'yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- terminologiyani tartibga solish xususida fikrlaringizni bildiring.
- terminologiyani tartibga solishdan maqsad va uning vazifalari nimalardan iborat.
- terminologiyani tartibga solish nimada ko‘rinadi?
- terminologiyani standartlashtirish sabablarini keltiring.
- terminologik standart darajalari haqida nimalar bilasiz?
- Xalqaro standartlashtirish tashkiloti qanday masalalar bilan shug‘ullanadi?

- standartlashtirish haqida nimalar bilasiz?
- terminologiyani tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
- standartlashtirish talablari qaysilar?

3-topshiriq. Quyidagi mavzulardan biriga esse yozing.

«Terminologiyani tartibga solish muammolari va yechimlar», «Terminologiya sohasinng rivoji va standartlashtirish masalalari», «International Standardization Organization (ISO) - Xalqaro standartlashtirish tashkilotining faoliyati».

4-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo‘lmagan prezentatsiya va videorolik yarating.

5.3. O‘zbek terminologiyasida amalga oshirilayotgan islohotlar

Reja:

1. Ilmiy-texnik terminologiya.
2. O‘zlashgan terminlar.

Tayanch tushunchalar: *termin, talaffuz, matnda qo‘llangan misollari, kelib chiqishi, tarjima ekvivalentlar.*

Terminologiya, ayniqsa, ilmiy-texnik terminologiya til vakillarining nisbatan oz qismi mashg‘ul bo‘lgan fan va texnologiyalarning ajralmas unsuridir, terminologiya, asosan, olimlar va texnik mutaxassislar muloqoti uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham

termin yaratishda olimlarning ongli aralashuvi, ilmiy faoliyati, subyektiv omillar kuchliroq amal qiladi¹. Ayni soha mutaxassislari terminlarning «tilning tabiiy taraqqiyot yo‘liga insonning sun’iy aralashuvi natijasi» ekanligini aytadilar va shuning uchun ham maxsus leksika butunicha ikkilamchi ekanligini, haqiqiy, o‘ylab chiqarilgan yoki o‘zlashtirilgan so‘zlardan sun’iy yaratilganligini ta’kidlaydilar². Dunyoning turli tillarida termin yaratish va boshqa tildan termin o‘zlashtirishning shakllangan o‘ziga xos an’analari mavjud. Masalan, Hindistonda yangi va butun mamlakat uchun yagona terminologiya yaratishda sanskritga asoslanish zaruriy shartlardandir³. Xitoy va fin tillaridagi terminologiyaning aksariyat qismini o‘z so‘zlar tashkil etadi, o‘zlashma terminlar esa juda kam⁴. Tabiiyki, xitoy yozuvining o‘ziga xosligi, ya’ni fonetik emasligi tovush o‘zlashmalarining bu tilga erkin kirishi uchun monelik qiladi. Xitoy tilining harbiy terminlari izohli lug‘atidagi 4961 ta terminning faqat qirqqa yaqinigina tovush o‘zlashmalari ekanligi⁵ ham ayni shu holat bilan bog‘liq. Yevropa tillaridagi terminlarning asosini yunon-lotin tillari birliklari, yunoncha-lotinchcha terminoelementlar tashkil etadi. Mutaxassislar yunoncha-lotinchcha terminoelementlar o‘ziga xos neytral terminologik fondni tashkil etishini qayd etadilar. «Haqiqatan ham, ular klinikda biron-bir tirik tilga mansub emasligi uchun barcha tillarga (kamida, yevropa lingvomadaniy arealiga mansub tillarning barchasiga) birday tegishlidir»⁶. Ayni paytda yunon-lotin tillarining o‘lik tillar ekanligi bu tillar materiallari asosida yaratilgan terminlarning stabilligi, bir ma’noliligining saqlanishi, o‘zgarmasligi uchun muhim omildir. Avvalo, aytish kerakki, yunon-lotin tili materiali asosidagi termin yasalishining barchasi qachonlardir shu tillarda voqe

¹ Никольский Л.Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. –М.: Наука, 1986. –С. 64.

² Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: “Наука”, 1989. –С.26.

³ Зарубежный Восток. Языковая ситуация и языковая политика. –М.: «Наука», 1986. – С.20.

⁴ Никольский Л.Б. Кўрсатилган асар, - Б.65.

⁵ Кленин И.Д. Заимствования в современном китайском языке / Лексические заимствования в языках зарубежного Востока. –М.: «Наука», 1991. – С.94.

⁶ Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Кўрсатилган асар, 204-бет; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. –М.: «Международные отношения», 1977. – С.53.

bo'lgan hodisalar emas, balki fan va texnika rivojida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojiga ko'ra u yoki bu tirik tilda o'sha o'lik tillar materiallari asosida termin yasashdir. Bu jarayonni V.P.Grigoryev «teskari kalkalash» deb nomlaydi¹, ya'ni yangi tushunchaning asosiy belgilarini ifodalovchi so'z birikmasi yunon yoki lotin tiliga kalkalanadi, paydo bo'lgan «ifoda» leksik birlik sifatida zamonaviy tilning fonetik va orfografik me'yorlariga muvofiq tarzda qayd qilinadi. Masalan, *mikrofon* so'zi yunoncha *mikro* va *fon* elementlaridan tarkib topgan, ammo u yunonchada shu tarzda tarkib toptirilgan emas, bu tarkiblash jarayoni rus tilida va shu til qonuniyatiga muvofiq tarzda amalga oshgan.

Yunoncha-lotincha terminoelementlar aynan neytral terminologik baza bo'lganligi uchun ham nafaqat Yevropa tillari, balki dunyodagi boshqa tillar uchun ham alohida ahamiyat kasb etib bo'lgan, ular xalqarolik sifatini kasb etgan. Albatta, xususan, o'zbek tili uchun ham ular xalqaro terminoelementlar sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ilgari bunday termin va terminoelementlar o'zbek, ozarbayjon va boshqa tillarga, asosan, rus tili orqali qabul qilingan bo'lsa, bugun ayni paytda Yevropa tillaridan ham qabul qilinmoqda, bu jarayon jadallahmoqda².

Xorijiy o'zlashma terminlar, xalqaro terminoelementlar, ularning ona tilidagi me'yori haqida gap ketganda, bunday terminlarning qo'llanish sohalariga, mazkur terminlardan foydalanadigan fanlarga farqli yondashuv zarur. Aniq fanlar, tabiiy fanlar sohalaridagi mazkur terminlar me'yori bilan ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ana shunday me'yor bir-biridan tamoman farq qilishi tabiiy bir talabdir. Masalan, matematika tili ijtimoiy-mafkuraviy omillar bilan minimal bog'liq fan tili sifatida anchayin bir xillikka ega, ya'ni ona tilidagi matematik terminologik sistemada boshqa tillardagi bilan muqobillikka ega bo'lgan xorijiy terminlar ko'p. Ammo ijtimoiy-gumanitar fan sifatidagi,

¹ Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Кўрсатилган асап, - С.204.

² Şükürova T. Azerbayjan ve özbek dillerında müsteqillik dövündə termin yaradıcılığının esas meyilleri. –Bakı, 2010. –S.178.

masalan, tilshunoslik fanida aynan shunday bo'lishi mumkin emas¹. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, tabiiy-aniq fanlar milliylik chegarasidan chiqib ketgan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni esa milliylikdan tashqarida tasavvur etish mahol. Shuning uchun ham xorijiy o'zlashmalar, aniqsa, bugungi dunyoda umummilliylikning o'ziga xos ko'rsatkichlari sifatida tabiiy-aniq fanlarning atributlariga aylangan, ijtimoiy-gumanitar fanlar insonning ruhiy-milliy olami tadqiqiga yo'nalganligi uchun xorijiy o'zlashmalarning keragidan ortiq ko'p bo'lishi bu fanlarning milliy-mantiqiy muvozanatini muallaqlashtirishi mumkin.

Arab olimi Sata al-Xusriy ilg'or mamlakatlarning yutuqlarini o'zlashtirish haqidagi da'vatlarni xalq qalbida shamoyil topadigan ma'naviy madaniyatga tatbiq etmaslik lozimligini ta'kidlaydi², uning fikrini umumlashtiradigan bo'lsak, qanchalik ilg'or bo'lmasin, xorijiy o'zlashmalarni ma'naviy dunyo bilan bog'liq sohalarga olib kirmaslik kerak. O'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning me'yori va milliyligi masalasi ma'naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda tutmoq lozim. Bu fikr mazkur sohalarda o'zbek tiliga xorijiy terminlarni mutlaqo olib kirmaslik kerak degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Shuni ham aytib o'tish kerakki, tildagi har qanday o'zlashmani almashtirish, o'zbekchalashtirish payidan bo'lish maqsadga muvofiq emas. Akademik A.Hojiyev juda to'g'ri ta'kidlaganidek, o'zbek tili tarqqiyotiga mos holda, o'zbek tilida o'rnini bosa oladigan so'z bo'limgani, uni yasashning imkonini yo'qligi uchun boshqa tillardan qabul qilingan *yadro*, *lampochka*, *elektr*, *radio* kabi minglab so'zlarni o'zbekchalashtirish, almashtirishga hech qanday asos va ehtiyoj yo'q. Yaqin tariximizdagi *traktor*, *samovar* kabi so'zlarni *o'tomoch*, *o'ziqaynar* shaklidagi so'zlar bilan almashtirishga urinishlar

¹ Гвишиани Н.Б. Язык научного общения. –М.: «Высшая школа», 1986. – С.15.

² Никольский Л.Б. Кўрсатилган асар, 118-бет.

samarasiz yakunlanganini eslatar ekan, olim bunday harakatlar hozir ham ba'zan bo'layotganini, ammo foydasiz ekanini aytadi¹.

Tilimizga kirib, o'zlashib bo'lgan har qanday xorijiy so'z yoki terminga o'zbekcha muqobil izlash aqldan emas. Masalan, *futbol*, *voleybol*, *tennis*, *basketbol*, *boks*, *menejer*, *lizing innovatsiya*, *internet*, *kompyuter*, *menejment*, *monitoring* kabi so'zlar o'zbekchaga kirib bo'ldi, hatto faol so'zlar sirasidan joy olib ulgurdi. Turk tilshunoslari, masalan, *futbolni ayak topu* («*oyoq to'pi*»), *voleybolni uçan top* («*uchadigan to'p*»), *tennisni alan topu* («*maydon to'pi*»), *basketbolni sepet topu* («*savat to'pi*»), *boksni yumruk oyunu* («*musht o'yini*»), *lizingni kiralama* («*kira qilish*») va sh.k. tarzda nomlashni tavsiya qiladilar². Tabiiyki, bunday jo'n yo'l biron-bir tilning taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi. Xorijiy terminlarni tartibga solishda ularning ma'nosini o'zbek tilida yuzaki tavsiflash yo'lidan borish ma'qul emas, amaliyatga kirib bo'lган terminga o'zbekcha muqobil izlash va almashtirish tilda bosh-boshdoqlikka yo'l ochadi. Xorijiy terminga munosabat, eng avvalo, u o'zlashtirilgunga qadar bo'lishi zarur, o'zlashtirib bo'lingandan keyin esa kech bo'ladi. Bugun tilshunoslar ham, tegishli soha mutaxassislari ham ana shuni hisobga olgan holda hamkorlikda jadal va samarali ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Keysni bajaring.

Ishning maqsadi: Ilmiy-texnik terminologiya va o'zlashgan terminlarning o'zaro o'xhash va farqli xususiyatlarini tahlil qilish;

- mavzuni anglash va baholash;
- talabaga mavzu mazmun-mohiyatini singdirish;
- talabalarda ritorik ko'nikmalarni shakllantirish.

¹ Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. –Тошкент: «Фан», 1996, –C.13 – 14.

² Yabancı Sözlere Karşılıklar Kılavuzu. - Ankara, 2008.

Ishning borishi:


Jamiyatdagi global o'zgarishlar, fan-texnikanинг rivojlanishi, xalq va millatlarning kasb-hunari, urf-odati, dunyoqarashi, dini, madaniyatidagi o'zgarishlar terminologiyani o'rganish va tartibga solish ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

1-topshiriq. Ilmiy-texnik terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ayting. O'zlashgan terminning o'ziga xos xususiyatlarini ayting. Ularning farqli va o'xhash jihatini sanang.

2-topshiriq. Ilmiy-texnik terminologiyadagi o'zgarishlarni ayting. Misollar orqali izohlang.

3-topshiriq. O'zlashgan terminlar haqidagi fikrlaringizni ayting. Misollar orqali izohlang.

4-topshiriq. Rasmlarda kimlar tasvirlangan, ularning terminologiyaga oid fikrlari yoki asarlarini keltiring va izoh bering.



5-topshiriq. Agar seminar uchun manba to‘plamoqchi bo‘lsangiz, unda B.N.Golovin, A.V.Superanskaya, A.A.Reformatskiy, V.A.Zveginsev ijodidan terminologiyaga oid sitatalar rejasini tuzib chiqing.

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. N.Maxmudovning “Termin, obrazli so‘z va metafora” maqolasidan olingan parchani o‘qing, qisqa konspekt qiling.

Terminlardagi sinonimiya masalasi ham terminshunoslikdagi anchayin munozarali muammolardan biridir. An’anaviy qarashga ko‘ra, terminosistemada sinonimlarning mavjudligi terminologik sistemaning nuqsoni, ya’ni salbiy holat sifatida baholanadi. Ammo keyingi paytlarda terminologik sinonimiyanı ijobiy hodisa sifatida baholaydigan nuqtai nazar ham terminshunoslikda turg‘unlashmoqda. Terminosistemada sinonimiyaning yuzaga kelishi asosli ravishda mavjud ilmiy bilimlarning chuqurlashuvi, yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi va fanning jiddiy rivoji natijasi tarzida izohlanmoqda, “professional-kommunikativ vazifalarni bajarishda maxsus tilning imkoniyatlarini kengaytiradigan” hodisa sifatida “terminosistemaning uzviy xususiyati” o‘laroq talqin etilmoqda [Иванова Г.А. Синонимы в терминологической системе метаязыка лингвистики / Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. –2011. –N6 (2). –C.199 – 200]. Bunday qarashga qo‘shilish mumkin, ayniqsa, gumanitar fanlar, xususan, tilshunoslik faktlari bunga to‘la imkon beradi. Bugun, masalan, o‘zbek tilshunosligida “lingvistika” – “tilshunoslik”, “orfoeziya” – “talaffuz”, “orfografiya” – “to‘g‘ri yozuv, imlo”, “sinonimiya” – “ma’nodoshlik”, “antonimiya” – “zid ma’nolilik”, “polisemiya” - “ko‘p ma’nolilik”, “leksika” – “so‘z boyligi”, “inversiya” - “teskari so‘z tartibi” tarzidagi juda ko‘plab sinonimik yoki dublet termin juftliklaridagi juft birliklarining har biri til ilmida yashashga haqli, ularning har birining ilmiy nutq janrlarida o‘z o‘rni, kommunikativ-pragmatik vazifasi bor.

Buning ustiga, bu juftliklardagi birinchi birliklar xalqaro terminoelementlardan tarkib topganligi uchun umumiylig kasb etsa, ikkinchilari o‘z qatlamga oidligi uchun ularda milliy-madaniy unsur yorqinroq ifodalanadi.

Bu o‘rinda, yo‘l-yo‘lakay yana bir narsani aytib o‘tmoq joiz. Tadqiqotchi D.Abdullayeva “turkumlararo antonimiya” (E.N.Miller: “межчастеречная антонимия”) hodisasini o‘zbek tilida tadqiq etar ekan, bu hodisani “antisemija” termini bilan nomladi va muvaffaqiyatli sistemalashtirdi [Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. ном. ...дисс. авт. –Т., 2010]. Boshqa bir tadqiqotchi Sh.Orifjonova “lug‘aviy darajalanish” (E.Sepir: “graduirovanie”) hodisasini o‘zbek tilida tadqiq etarkan, bu hodisani “graduonimiya” termini bilan nomladi (o‘zidan oldingi o‘zbek tilshunoslari kabi) va benihoya asosli sistemaga soldi [Орифжонова Ш.Ф. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. ном. ...дисс. авт. –Т., 1996]. Shu tariqa o‘zbek tilshunoslida “antisemija” – “turkumlararo antonimiya”, “graduonimiya” – “darajalanish” terminologik sinonim-dubletlari yuzaga keldi. Albatta, bu ma’qul, tilshunosligmizning o‘ziga xos yutug‘i... [Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2017. -Б.154-156].

1) *Mazkur ma’lumotdagi hodisaga o‘zingiz misollar toping.*

2) *Jadvalni to‘ldiring.*

Termin	Ma’nosi	Izohi

3) *Ma’lumotlarga tahliliy yondashing. Jamiyatda yuz berayotgan o’zgarishlar bilan taqqoslang.*

2-topshiriq. “**Buni qanday aytish mumkin**” o‘yini. 1-bosqichda talaba mavzu yuzasidan argument keltiradi. 2-bosqichda juftlikda ishlab, biri tezis keltiradi, ikkinchisi inkor qiladi.

3-topshiriq. Nazorat savollarga javob bering.

1. Terminlogiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabatga baho bering.

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. «O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi»ning 12-jildidan geografiya faniga oid 50 ta termini daftaringizga yozib, kichik terminologik lug‘at yarating.

2-topshiriq. Mavzuni «**SWOT – universal tahlili**» usulida tahlil qiling.

S (Kuchli tarafi)	W (Zaif tomonlari)
O (Imkoniyat)	T (Xavf - xatar)

3-topshiriq. Mavzuni «**Kubiklar**» usulida mavzuni tahlil qiling.

1. Tariflang (predmetning, hodisa, voqeanning ko‘rinishini ta’riflash).
2. Taqqoslang (o‘ziga xosligi va farqi).

3. Taalluqli fikrlarni bog'lang (nima haqida o'ylashga majbur qiladi, qanday ko'rinishlar ko'z oldiga keladi. Tasavvurlaringizga erkinlik bering, o'ziga xosligi va farqi).

4. Tahlil qiling (predmet, voqeа-hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating).

5. Qo'llang (ya'ni buni qanday qo'llash mumkin, bu predmet, hodisa xaqidagi bilimlarni qachon va qayerda qo'llash mumkin).

6. Qarshi dalil keltiring (ya'ni faqatgina ta'rif bermay, buning uchun yoki unga qarshi ishontiruvchi dalil topish kerak).

4-topshiriq. Mavzu yuzasidan 15 slayddan kam bo'lмаган prezentatsiya va videorolik yarating.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили. Филол.фан. докт.дисс...автореф. – Тошкент, 2005. Б.55.
2. Абдулғозиева Б., Исоқов М., Содиқов К. Янги топилган қадимги туркий битик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993, 18 июнь.
3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. –Тошкент: Шарқ, 2001, 358-бет.
4. Азизов С.А. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1995. С.23.
5. Айрим ҳарбий терминларнинг русча-ўзбекча луғати. Тузувчилар: Жагорников В.П., Ризаева А.Х. – Самарқанд, 1959. – Б.39.
6. Акабиров С.Ф. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1969. С.22.
7. Алиев А., Содиқов К. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент, 1994, 48-бет.
8. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора / Лингвистика и поэтика. –Москва: Наука, 1979. –С.169, 173.
9. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: Учебное пособие. — Москва: Эдиториал УРСС, 2001. - С. 49.
- 10.Бекмуҳаммедов Х.Ю. Тарих терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
11. Бобоёрөв М.Ҳ. Мустақиллик даври жисмоний тарбия ва спорт атамаларининг шаклланиши. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 2002. Б.23.
12. Boliyev M.N. Lotin tili va tibbiyat terminologiyasi. –Toshkent: «Zarqalam», 2005.
13. Будагов В.Б. Азербайджанские лингвистические термины арабского происхождения. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Баку, 1989. С.23.
14. Великова Т.Н. Когнитивно-эвристический потенциал термина / Вестник НГЛУ. Вып. 12. –Нижний Новгород, 2010. С.20-31.

15. Виноградов В.В. Вступительное слово ва Всесоюзном терминологическом совещании // Вопросы терминологии. – Москва, 1961. – С.3-10.
16. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва, 1972. – С. 87.
17. Волкова И.Н. Стандартизация научно-технической терминологии. – Москва, 1984. – С. 75.
18. Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии / Актуальные проблемы учебной лексикографии. - Москва, 1977. – С. 54-55.
19. Гасымов М.Ш. Основы терминологии азербайджанского языка. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. докт.филол.наук. – Баку, 1972. С.98.
20. Гринев С.В. Введение в терминоведение. — М., Московский Лицей, 1993.
21. Гринев-Гриневич С. Терминоведение. – Москва, 2008. – С. 31.
22. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. –Тошкент: Фан, 1977. –Б.80.
23. Жўрабоев А., Собиров А. Халқ томоша санъати терминларини тартибга солишнинг айрим масалалари / Ўзбек терминологияси ва унинг тараққиёти перспективалари. – Тошкент, 1986. – Б.82.
24. Занина М.А. Проблемы понимания метафоры в англоязычном научно-техническом тексте / Вестник Челябинского государственного университета. 2013. –N1 (292). Филология. Искусствоведение. Вып.73. –С.211.
25. Звегинцев В. А. Язык и лингвистическая теория. — М.: Изд-во МГУ, 1973. –С. 248.
26. Исмоилов F.M. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. НДА. –Тошкент, 2011. 19-20-бетлар.
27. Йўлдошева Д.Б. Ўзбек тилида орнитонимларнинг лисоний тадқиқи. Филол.фан.бўйи. фалсафа.док. (PhD) дисс...автореф. – Самарқанд, 2019.– Б.29.
28. Канделаки Т. Л. Значения терминов и системы значений научно-технических терминологий // Проблемы языка науки и

техники. Логические, лингвистические и историко-научные аспекты терминологии. — Москва, Наука, 1970.

29. Касимов Н. Функциональные особенности аффиксов в узбекской технической терминологии. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. С. –23.

30. Касымов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1982. С. –19.

31. Кузькин Н.П. К вопросу о сущности термина / Вестник ЛГУ, №20. Серия истории, языка и литературы, Вып. 4. – Ленинград, 1962. – С. 225.

32. Кухно И.Ю. Терминология – семиотическая система «второго порядка» // Language. Philology. Culture. 2014. №4. –стр.42-43.

33. Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

34. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва, 2006. – С.15-16.

35. Лейчик В.М., Шелов С. Д. Российское терминоведение: опыт синтеза «старой» и «новой» парадигмы / Научно-техническая терминология. – Москва, 2004. – Вып. 1. – С. 45-48.

36. Лидов И. П. Актуальные вопросы упорядочения медицинской терминологии // Научно-техническая терминология. — Москва, 1985. — Вып. 1. — С. 1-4.

37. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, 2017.

38. Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясида дублетлик ва уни минимумга келтириш масаласи / Ўзбек терминологиясида лексик варианлар.- Тошкент: Фан, 1986. – Б. 80-102.

39. Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясидаги нуқсонлар ва уларни тартибга солиш ҳақида / Ўзбек терминологияси ва унинг тараққиёти перспективалари. – Тошкент, 1986. – Б.68.

40. Миражмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент, 2010.

41. Мирсанов Б.М. Ўзбек тили терминологиясида иккиласми номлашлар ва уларнинг мотивлашуви. Филол.фан.бўйи. фалсафа.док. (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2018.– Б.29.

- 42.Моисеев А.И. О языковой системе термина / Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – Москва, 1970.- С.168.
- 43.Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984. –Б.55 – 56.
- 44.Мўминов А.Қ. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таркиби. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 2000. Б.23.
- 45.Мухторов А., Санакулов У, Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1995, 26-бет.
- 46.Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 2005. Б.21.
- 47.Орлова М.В. Теоретические обоснования термина как языкового явления / scientific-notes.ru/pdf/013-8.pdf
- 48.Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 1994.– Б.25.
- 49.Пратов У.П. ва бошқалар. Ботаника атамаларининг русча-ўзбекча қисқача луғати. – Тошкент: Фан, 1993.
- 50.Пулатова О.М. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального искусства узбекского языка. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1992. С.19.
- 51.Реформатский А.А. Введение в языкознание. –Москва, 1955. – С.85.
- 52.Русча-ўзбекча ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Фан, 1989.
- 53.Rahmatullayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
- 54.Сагдулаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент, 1996, 15-бет.
- 55.Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. С.21.
- 56.Суперанская А. В. Терминология и номенклатура / А. В. Суперанская // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Ленинград: Наука, 1976. – С. 73–78.

57. Супрунова Л.В. Изучение метафоры как средства механизма познания / www.rusnauka.com/15 NPN_ 2013/Philologia/2_137943.doc.htm
58. Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина / Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. - Москва, 1970. – С. 54-55.
59. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
60. Ўзбек тили атамашунослиги. – Тошкент, 1993.
61. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2006. 4-tom. –Б.113.
62. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. – Тошкент: Фан, 1991.
63. Ўзбек тилининг изоҳли лӯғати. 2 томли. – Москва: Рус тили, 1981.
64. Ўзбек тилининг имло лӯғати. – Тошкент: Фан, 1976.
65. Ўринбоев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд, 1999, 4-6-бетлар.
66. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 2007.– Б.24.
67. Усманов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1988.– С.21.
68. Усмонов С. Ўзбек тили терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1962.- Б.17.
69. Ўтаева И. Инглиз ва ўзбек тилида нофаол сўзлар. Магистр академик даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 2016. 24-28-бетлар.
70. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. –Тошкент: Маънавият, 2006. –С.177 – 178.-в.
71. Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1984.– С.20.
72. Хусанов А. Названия болезней и их симптомов в узбекском языке. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.– С.19.

73. Цой Т.В. Лексико-семантическая и словообразовательная структура фитонимов в современном русском языке. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1995.– С.19.
74. Челпанов Г.И. Учебник логики. - Москва, 1946. – С.8.
75. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дисс...на соис. уч.ст. канд.филол.наук. – Ташкент, 1984.– С.19.
76. Шелов С.Д. Терминология, профессиональная лексика и профессионализмы (к проблеме классификации специальной лексики) // Вопросы языкознания. – 1984. – № 5. – С. 76-87.
77. Шоабдураҳмонов Ш.ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
78. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
79. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «ЎзМЭ» давлат нашриёти, 2002. - Б. 37.
80. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1957, 127-141-бетлар.
81. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967.
82. Хотамов И., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
83. Хотамова Д. Адабиётшуносликдаги параллел терминлар ҳақида / Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. - №2. - Б. 65-66.
84. Zikriyayev A., Fayzullayev S. Biologiya atamalarining izohli lug'ati. –Toshkent: Bilim, 2004.

**A.PARDAYEV, D.B.URINBAYEVA
D.A.ISLAMOVA**

**O'ZBEK TERMINOLOGIYASI
(O'quv qo'llanma)**

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

J.Bozorova
L.Xoshimov
B.Egamberdiyev

ISBN 978-9943-6649-5-1

2020-yil 19 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2020-yil 27 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84. "Times New Roman" garniturasi.

Offset qog'oz. Shartli bosma tabog'i – 15,0.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 360

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

